

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**MAMARAIMOVA GULRUX MAXMUDOVNA**

**NOTARIAL  
HARAKATLAR**

**YURIDIK KOLLEJ O'QUVCHILARI  
UCHUN DARSLIK**

**TOSHKENT – 2019**

**UDK: 347.961(075)(575.1)**

Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil 20-iyuldagи 654-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Notariat. Darslik. – Toshkent, TDYU nashryoti, 2019-yil. – 237 bet.

**Muallif:**

**Mamaraimova Gulrux Maxmudovna**

**Taqrizchilar:**

- D. Xabibullaev** – TDYuU Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi kafedrasi mudiri,  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent.
- A. Baxromov** – Adliya vazirligi Huquqiy xizmat ko‘rsatishni davlat tomonidan tartibga solish boshqarmasi bosh maslahatchisi.

Mazkur darslikda notariat institutining huquqiy asoslari, notarial harakatlarning turlari hamda ularni amalga oshirish tartiblari, shuningdek chet el elementi bilan murakkablashgan notarial harakatlarni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan hamda unda notariat institutiga oid keyslar va notarial harakatlardan namunalar keltirilgan.

Mazkur darslik yurisprudensiya soha mutaxassisligi o‘quvchilari, talabalari, shuningdek notarial idora xodimlari hamda keng jamoatchilik foydalaniishi uchun mo‘llajallangan.

**UDK: 347.961(075)(575.1)**

© Mamaraimova Gulrux Maxmudovna.  
© Toshkent davlat yuridik universiteti, 2019.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>5</b>
<b>I BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOTARIAT INSTITUTINING HUQUQIY MAQOMIGA UMUMIY TAVSIF .....</b>	<b>7</b>
1.1. Notariat faniga kirish .....	7
1.2. Notariat institutining huquqiy asoslari .....	11
1.3. Notariusning huquqiy maqomi .....	15
 <b>II BOB. NOTARIAL IDORALARDA ISH YURITISH QOIDALARI.....</b>	 <b>34</b>
2.1. Notarial idoralarda ish yuritish qoidalari .....	34
2.2. Notarial idoralarda elektron ish yuritish qoidalari .....	43
 <b>III BOB. NOTARIAL HARAKATLARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI.....</b>	 <b>46</b>
3.1. Notarial harakatlarni amalga oshirish prinsiplari.....	46
3.2. Notarial harakatlarning umumiy tavsifi .....	52
3.3. Notarial harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar.....	63
3.4. Bitimlarni notarial tasdiqlashning umumiy qoidalari .....	75
3.5. Vasiyatnomalarni notarial tasdiqlash.....	82
3.6. Ko'chmas mulklar bilan bog'liq bitimlar-ni notarial tasdiqlash.....	97

<b>3.7. Avtomototransport vositalari bilan bog‘liq bitimlarni notarial tasdiqlash .....</b>	<b>105</b>	
<b>3.8. Mol-mulkni o‘zga shaxsga o‘tkazishni taqiqlab qo‘yish va taqiqni bekor qilish.....</b>	<b>112</b>	
<b>3.9. Notariuslar tomonidan yuridik faktlarni tasdiqlash tartibi .....</b>	<b>119</b>	
<b>IV BOB. NOTARIAL HARAKLARNI AMALGA OSHIRISHDA XALQARO HUQUQ VA CHET EL HUQUQI NORMALARINING QO‘LLANISHI .....</b>		<b>164</b>
<b>4.1. Notariuslar tomonidan chet el normalari Va xalqaro huquqning qo‘llanilishi.....</b>	<b>164</b>	
<b>4.2. Chet el elementi bilan murakkablashgan Notarial harakatni amalga oshirish tartibi .....</b>	<b>175</b>	
<b>KAZUSLAR.....</b>	<b>178</b>	

## KIRISH

Fuqarolar, yuridik shaxslar va huquqning boshqa subyektlari o‘zlarining huquq va erkinliklarini mustaqil amalga oshirishlari, shuningdek ularni amalga oshirishda qonunda belgilangan mexanizmlardan foydalanishlari mumkin. Ma‘lumki, huquq subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini to‘laqonli amalga oshirilishini ta’minlashga ko‘maklashuvchi bir necha protsessual mexanizmlar mavjuddir. Mazkur mexanizmlar tizimida notariat alohida muhim ahamiyatga ega. Notariat nizosiz fuqarolik, oila, mehnat, uy-joy huquqiy munosabati bilan bog‘liq ishlarni ko‘rib chiqadi, yuridik faktlarni belgilaydi, shuningdek notarial harakatlar orasida eng ko‘p amalga oshiriladigan bitimlarni notarial tasdiqlaydi. Bunda notarius notarial harakat uning ishtirokchilarining asl maqsadiga muvofiq yoki muvofiq emasligini aniqlashi, yuridik bexabarlik oqibatida huquq subyektlari yanglish huquqiy munosabatga kirishishning oldini olishi va ularning huquqiy oqibatlarini fuqarolarga tushuntirishi orqali keyinchalik vujudga kelishi mumkin bo‘lgan bir qancha nizolarning oldini oladi.

Shu sababli ham notariat instituti yanada rivojlantirish, notarial harakatlarni amalga oshirish mexanizmlarini shaffoflashtirish maqsadida 2018-yil 25-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nizolarning oldini olishga qaratilgan institut sifatida notariat tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ – 3741-son Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorlarning qabul qilinishi mamlakatimizda notariat sohasini yanada rivojlantirish, uning jamiyat hayotidagi o‘rnini oshirishga qaratilgan bir

qancha huquqiy islohotlar amalga oshirilib kelinayotganidan dalolat beradi.

Notarial faoliyat tartib-taomillari zoxiran formal – byurokratik jarayonlar tarzida nomoyon bo‘lsada, aslida ularga qat’iy rioya qilish keyinchalik vujudga keladigan nizolarning oldini olishga xizmat qiladi hamda huquqiy demokratik davlat belgilaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Har bir davlat va jamiyat ravnaqi yosh avlodning kamoloti, ularning ma’naviy barkamol avlod qilib tarbiyalanganligi hamda ilmiy salohiyatiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Shu ma’noda, mamlakatimizda ta’lim tizimini, jumladan, yuridik kadrlar tayyorlash tizimini ham sifat jihatidan yaxshilashga qaratilgan ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda.

2018-yil 13-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ – 3666сон Qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda mamlakatimizdagi yuridik kollejlarning tashkiliy huquqiy tuzilishi hamda ularda tayyorlanadigan yurist kadrlarning o‘quv yo‘nalishlari qayta ko‘rib chiqildi. Shu o‘rinda aytishimiz lozimki, yuridik kolejlarda yurist-notarius yo‘nalishida yuridik kadrlarni tayyorlash bo‘yicha soha yo‘nalishlari tashkil qilindi.

Mazkur darslik o‘rta maxsus ta’lim yurtining yurisprudensiya soha mutaxassisligi o‘quvchilari, notarial idora xodimlari hamda keng jamoatchilik foydalanishi uchun mo‘llajallangan.

# I BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOTARIAT INSTITUTINING HUQUQIY MAQOMIGA UMUMIY TAVSIF

## 1.1. Notariat faniga kirish

Notariat bir qancha huquq sohalari tarkibidagi normalar yig'indisi hamda boshqa huquq sohalari tarkibiga kirmagan mustaqil institute sifatidagi notarial harakatlarni amalgalashirish qoidalarining kompleks yig'indisidan iborat huquq sohalaridan biri. Boshqa huquq sohalaridagi notariatga oid qonun normalari misol uchun soliq qonunchiligidagi davlat boji masalari, fuqarolik huquqida bitimlar, vorislik va boshqa qoidalarda o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasida **notariat qonunchilik sohasi** sifatida, O'zbekiston Respublikasining notariatga oid normativ huquqiy hujjatlari majmuidan iboratdir.

**Notariat o'quv kursi** – O'zbekiston Respublikasida notariat institutining shakllanish tarixi va bosqichlarini, notariatga oid O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini, notarial idoralarda ish yuritish qoidalarini o'rgatadi hamda notarial harakatlar bilan bog'liq hujjatlarning loyihalarini tayyorlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Notariat o'quv kursi bilan tanishish uchun birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasida notariat institutining shakllanish tarixi va bosqichlari bilan tanishib olishishni zarur deb hisoblaymiz.

Biz O'zbekiston Respublikasida notariat institutining shakllanishi bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlarni tahlil qilib, uning shakllanish bosqichining to'rt bochqichga bo'ldik<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> **Izoh:** mamlakatimizda notariat institute huquq sohasi sifatida yetarli darajada o'r ganilmagan. Biroq bu soha huquq sohasi sifatida chet

**Birinchi bosqich** bu mamlakatimiz hududida islam huquqi amal qilingan davr. Bu davrda islam huquqi bilan birga mamlakatimiz hududida yashagan xalqlarning urf-odat qoidalari ham jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solganligi barchamizga tarixdan ma'lumdir. Islam huquqidan ma'lumki, bu davrda notarius vazifasini qozilar amalga oshirgandir. Qozilar aholi o'rtasida vujudga keladigan turli xil masalalarni hal qilgan. Merosni taqsimlagan, ko'chmas mulklarga mulk huquqini tasdiqlovchi vasiqlarni tasdiqlab bergen. Misol uchun, Qur'oni Karimda hozirgi kunda ham notariuslar faoliyatida eng murakkab notariat harakatlardan biri bo'lgan meros haqida fikr yuritilgan bo'lib, uning Niso-surasi 8-oyatida "Meros taqsimida uzoq qarindoshlar, yetim va miskinlar ham hozir bo'lsalar, ularni ham bu merosdan bahramand qilib, yaxshi so'zlar aytinglar"<sup>2</sup>, -deyilgan.

Undan tashqari o'sha davrda ko'chmas mulk va yer uchastkasiga nisbatan mulk huquqini tasdiqlagan vasiqalar qozilar tomonidan tasdiqlab berilgan. Bu bugungi kundagi ko'chmas mulkning oldi-sotdi, hadya yoki uni boshqaga o'tkazish bilan bog'liq shartnomaning o'sha davrdagi muqobili hisoblanadi.

Quyida sizlarga 1590-yilda qozi tomonidan tasdiqlangan vasiqa matnini taqdim qilamiz.

---

mamlakatlarda yetarli darajada o'rganilgan. Notariat huquqi – bu protsessual huquq sohasi bo'lib, biz mazkur o'quv kursi doirasida nizosiz talablarni notarial tartibda undirish, nizosiz meros ishlari va umumiyligida mulkdagi ulushni notarial tartibda aniqlash hamda shartnomalarni tasdiqlash va boshqalarni amalga oshirish jarayonlarini o'rganamiz.

<sup>2</sup> Qur'oni karim Niso surasi 8 oyat. – Toshkent, Cho'lpon, A.Mansur tarjimasi. – B. 55.

“Jumodi al-avval oyining yigirma beshinchi kuni hijriy 998 yili (1590-yil 2-aprel)da mullo Mirzo Muhammad ibn mullo Muhib Ali shariatda to‘g‘ri qaror qildiki, tubanda yozilgan ishlar to‘g‘risida qozilarining qozisi, odil hokim, Samarcand shahrining hamda unga qarashli viloyatlar qozisining noibi tomonidan rasmiylashtirilib, menga berilgan vakolatnomaga binoan, men sag‘ira Fotima ismli ustod Hizr gilkor qizining ishlarini to‘g‘rilash uchun vasiy qilib tayinlangan edim. Shunga binoan, mazkur sag‘iraning mamlakati shohiy yerida qurilgan, baland-past uylardan iborat hovlisini, hamma uskunalar bilan fazilatlik hofiz Vali ibn mullo Ismoilga ellik besh dona yangi, bir misqoli o‘ttiz dinorlik, sof kumushdan zarb qilingan, yarmi yigirma etti yarim xoniy tanga badaliga sotdim. Hovlining to‘rt tomon chegarasi aniq bo‘lib, g‘arb tarafdan Oq‘abek aka qizining hovlisiga, shimol tarafdan mullo Mirzo Muhammad ibn mullo Ahmad hovlisiga, sharq tarafdan umumiyo yo‘lga va janub tarafdan boshi berk ko‘chaga tutashgan bo‘lib, hovliga kirish yo‘li ham o‘sha tomonda. Shariat qonuniga muvofiq, har ikki tomon, ya’ni sotuvchi pulni, xaridor hovlini oldilar va qabul qildilar. Savdo adolatli bo‘lib, har qanday buzuqlik, hiyla, aldashlardan xolidir. Mullo Boqi farzandlari..... guvohlik berishlaricha, mazkur sotilayotgan hovli kun sayin xarob bo‘lib bormoqda va sag‘irlarning nafaqasi uchun boshqa manba yo‘q, shuning uchun mulkning sotilishi sag‘iraning foydasiga

bo‘lib, ushbu muomala e’tiborli kishilar huzurida iqror va tasdiq qilindi”<sup>3</sup>.

Qozi muhri.

**Ikkinchı bosqich** bu mamlakatimiz hududida sobiq sovet tuzimi hukumronlik qilgan davr. Bu davr 1917-yildan O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligiga bo‘lgan yillarni qamrab oladi. Mamlakatimizning huquqiy tizimiga roman-german huquq oilasiga mansub normalar asta-sekinlik bilan kirib kelgan va shariat qonunlari o‘rnini egallay boshlagan hamda notariat instituti mustaqil institut sifatida shakllangan. Jumladan Turkiston ASSRda Yustitsiya Xalq komissarligi va bunga asosan Turkiston ASSRda xalq notariuslari tashkil topdi. Arxiv hujjatlariga qaraganda o‘sha vaqtarda notariuslar – xalq notariuslari, notarial idoralar – notarius stollar deb yuritilgan<sup>4</sup>. Bu davrda notarial faoliyatni tartibga soluvchi maxsus normalar qabul qilingan.

**Uchinchi bosqich** 1991-yil 31-avgustdan 2017-yilgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Mustaqillik davrida aynan notariat milliy huquqiy institut sifatida shakllandı hamda ijtimoiy munosabatlar dinamikasiga qarab takomillashib bormoqda<sup>5</sup>. Bu bosqichda qabu qilingan normativ-huquqiy hujjatlar sharxi Notariat institutining huquqiy asoslari deb berilgan paragrafda batafsil sanab o‘tilgan.

---

<sup>3</sup> T. Sultonova. O‘zbekiston Respublikasida notariat to‘g‘risidagi qonunlar va ularni takomillashtirish muammolari. – Toshkent, 2010 yil. – B. 12-13.

<sup>4</sup> T. Sultonova. O‘zbekiston Respublikasida notariat to‘g‘risidagi qonunlar va ularni takomillashtirish muammolari. – Toshkent, 2010 yil. – B. 15.; История Советского Государства и права Узбекистана. Том 1. Издательство Академии наук УзССР. Ташкент, 1960. – С. 485-486.

<sup>5</sup> Mazkur darslikning 11-12-betlari.

**To‘rtinchi bosqich** 2017-yildan hozirga qadar davom etib kelmoqda. Bu davrning o‘ziga xos jihat shundaki, notarial idoralar faoliyatiga axborot-texnologiyalarining bosqichma-bosqich joriy qilib borilayotganligi bilan xarakterlanadi<sup>6</sup>. Xususan, 2017-yilda 27-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 106-son qarori bilan tasdqlangan “Ko‘chmas mulkning oldi-sotdi, ayriboshlash va hadya qilish bitimlarini idoralararo elektron hamkorlikni qo‘llagan holda notarial tasdqlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning qabul qilinishi mazkur turdagи bitimlarni notarial tasdiqlashda o‘zaro idoralararo elektron hamkorlikni qo‘llanishini nazarda tutdi va endilikda ko‘chmas mulklarni boshqaga o‘tkazish bilan bog‘liq bitimlarni tasdqlashda notariuslar ko‘chmas mulkning turli xil kommunal xizmatlardan yoxud davlat soliq organidan qarzi-bor yoki yo‘qligi to‘g‘risida va boshqa ma’lumotlarni talab qilmaydi<sup>7</sup>. Mazkur hamkorlik bu ma’lumotlarni notarius mustaqil ravishda boshqa idoralardan olish yoki qarzdorlikni ko‘rish imkoniyatini yaratdi. Natijada fuqarolarning ma’lumotnomasi yig‘ish uchun sarflanadigan vaqtлari va mablag‘лari tejalishiga erishildi. Biz mazkur bosqichni yurtimizda E-notariuslarning samarali faoliyat yuritishiga erishishi bilan yakunlanadi deb hisoblaymiz.

---

<sup>6</sup> **Muallif talqini:** bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamalakatlarda E-notary (elektron notariat yoki elektron notarial idora) faoliyat yuritishni boshlagan. Bizning mamlakatimizda ham notarial idoralarning elektron shakllari asta-sekinlik bilan amaliyotga joriy qilinib boriladi deb hisoblaymiz.

<sup>7</sup> **Izoh:** bu ma’lumotlarni talab qilishdan maqsad kelajakda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolarning oldini olish hisoblanadi. Misol uchun, mazkur mulk yuzasidan qarzlar mavjud bo‘lsa va bu qarzdorlik bartaraf etilmasdan mulk boshqaga o‘tkazilsa, qarzlar (va boshqa majburiyatlar) ham yangi mulkdorga o‘tadi. Bu esa o‘zi foydalanmagan xizmatlar yuzasidan vujudga kelgan to‘lovlarni t o‘lashiga yoxud sobiq mulkdor bilan nizolashishiga olib keladi.

## **1.2. Notariat institutining huquqiy asoslari**

Notariat institutining huquqiy manbalari deb vakolatli organlar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirishni huquqiy tartibga solishga qaratilgan notariatga bevosita va bilvosita daxldor bo‘lgan huquq normalari tushuniladi.

Notariatning huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari; vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining buyruqlari hamda qarorlari; mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi** milliy qonunchilik tizimimizning asosiy, rahbariy huquq manbasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari Konstitutsiyaga zid bo‘lishi kerak emas. Konstitutsiyaning ayrim normalari bevosita notarial faoliyatda qo‘llanadi. Misol uchun, 27-moddada har kim shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish huquqiga ega ekanligi belgilangan. Buni biz notarial harakatlarning maxfiyligi prinsipida ko‘ramiz. Notarius notarial harakatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni sir saqlaydi, notarial harakatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar kimning nomidan yoki kimning topshirig‘iga ko‘ra amalga oshirilgan bo‘lsa, o‘sha shaxslarning o‘zigagina berilishi mumkin.

Konstitutsiyaning 36-moddasida esa meros huquqi qonun bilan kafolatlanishi belgilangan. Mazkur huquqlarni amalga oshirishda notariusning xizsmatlari katta. 42-moddasida har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi,

madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlangan. Notarius notariuslik faoliyatidan tashqari boshqa haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanishi mumkin emas, biroq notariusga O‘zbekiston Respublikasi Notariat to‘g‘risidagi qonunning 7-moddasiga ko‘ra ilmiy, ijodiy va pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishga ruxsat berilgan.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 44-moddasida har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlangan. Ushbu normada notariusning g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi ham nazarda tutilgan.

**O‘zbekiston Respublikasining qonunlari** notariat instiutining huquqiy manbasi sifatida. O‘zbekiston Respublikasining Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risidagi qonunining 8-moddasida O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga ta’rif keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining qonunlari eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yoki referendum o‘tkazish yo‘li bilan qabul qilinadi. Demak, O‘zbekiston Respublikasining Notariat to‘g‘risidagi qonuni notarial faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilovchi asosiy norma hisoblanadi. Mazkur qonun 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan bo‘lib, 17 bob 93 moddadan iborat. Unda notarius, notarius yordamchisi, stajyori, notarial idoraning huquqiy maqomi, notariuslar tomonidan amalga oshiriladigan notarial harakatlar va ularning umumiy qoidalari, shuningdek notariuslar tomonidan chet el huquq normalari va xalqaro shartnomalarning qo‘llanilishi tartibini belgilab bergen.

O‘zbekiston Respublikasining Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risidagi qonunining 8-moddasida yana shunday qoida mavjud: kodekslar O‘zbekiston Respublikasining qonunlari bilan tasdiqlanadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarining yuridik statusini belgilagan yuqoridagi qonunda kodekslar alohida normativ-huquqiy hujjat turi sifatida keltirilmagan. Demak, kodekslar ham manba sifatida qonunlar qatorida turadi. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi notarial faoliyatni tartibga solishda huquqiy manba hisoblanadi. Fuqarolik kodeksi huquqiy manba sifatida qaysi fuqarolik-huquqiy shartnomalar notarial tasdiqlanishi shartligini, meros ishlari qaysi notarial idora tomonidan ko‘rilishi, merosning ochilish joyi, meros bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnomani berish muddatlarini belgilab bergen.

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari** notarial faoliyatini amalga oshirishda huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksini amalga kiritish tartibi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qarori.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining notariat sohasidagi hujjatlari sifatida** 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni hamda unga ilova 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, 2016-yil 21-oktyabrda qabul qilingan “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda unga ilova Sud-huquq tizimini

yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar Dasturi, 2018-yil 25-mayda qabul qilingan “Nizolarning oldini olishga qaratilgan institut sifatida notariat tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3741-son Qarori, 2019-yil 9-sentyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida notariat tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4216-son, 2010-yil 5-mayda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida notariat institutini yanada takomillashtirish choralarini to‘g‘risida”gi PF-4216-son Farmonlarini sanab o‘tishimiz mumkin.

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining notariatga oid normativ-huquqiy hujjatlari.** Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Normativ-huquqiy hujjatlari to‘g‘risidagi qonuniga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qonunosti hujjatlari hisoblanadi. Quyidagilar notariat sohasiga tegishlidir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-noyabrdagi Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bitimlarni notarial tasdiqlashni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 941-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 28-dekabrdagi 318-son qarori bilan tasdiqlangan Notariuslar tomonidan o‘z kasb majburiyatları buzilishi oqibatida etkazilgan zararni qoplash tartibi to‘g‘risidagi nizom, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 18-yanvardagi 26-son qarori bilan tasdiqlangan Notariuslarning ijro xatlariga asosan qarzni undirish so‘zsiz amalga oshiriladigan hujjatlari ro‘yxati, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 28-fevraldagagi 106-son qarori bilan tasdiqlangan Ko‘chmas mulkning oldi-sotdi, ayriboshlash va hadya qilish

bitimlarini idoralararo elektron hamkorlikni qo'llagan holda notarial tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizom, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 16-martdagি Nodavlat notarial faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risidagi 156-son qarori hamda mazkur qaror bilan tasdiqlangan Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizom, Xususiy notarial faoliyatni litsenziyalash bo'yicha davlat xizmati ko'rsatishning ma'muriy reglamenti, Xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanuvchi notariuslarni ro'yxatga olish tartibi to'g'risida nizom, Notarial okrugdagi notariuslar lavozimlarining eng kam sonini belgilash tartibi to'g'risida nizom, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi O'zbekiston notarial palatasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi 54-son qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar.

**Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari** sifatida quyidagilar notarial faoliyatga oiddir. **Bir nechta vazirlik tomonidan birgalikda qabul qilingan qarorlar:** O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2009-yil 13-oktyabrdagi 10-son buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi SVOJDDLQK Departamenti boshlig'ining 2009-yil 13 oktyabrdagi 39-son qarori bilan tasdiqlangan Notarial idoralar va advokatlik tuzilmalarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari, O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2010-yil 22-dekabrdagi 19-son, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2010-yil 22 dekabrdagi 201-son, O'zbekiston Respublikasi

moliya vazirining 2010-yil 22-dekabrdagi 106-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat notarial idoralari va notarial arxivlar faoliyatini moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizom; ***O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining buyrug‘lari***: O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2019-yil 4-yanvardagi 2-mh-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomasi, O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2010-yil 20-oktyabrdagi 233-mh-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Notarius stajyorining faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom, O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2006-yil 19-iyunidagi 95-mh-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Davlat notarial idoralari tomonidan beriladigan gerbli blankalarni hisobga olish, saqlash, sarflash va ular bo‘yicha hisobot berish qoidalari, O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2010-yil 20-dekabrdagi 303-mh-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Notariuslar lavozimiga tayinlash bo‘yicha tanlov o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom, O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri tomonidan 2010-yil 22-dekabrda tasdiqlangan Davlat notarial idoralarida notarial ish yuritish qoidalari, O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2018-yil 20-iyundagi 200-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Davlat notarial idoralari notariuslari tomonidan huquqiy va texnik tusdagi qo‘srimcha harakatlar amalga oshirilganligi uchun haq miqdorlari, O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 10-yil 21-dekabrdagi 304-mh-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Oliy malaka komissiyasi to‘g‘risidagi nizom, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2010-yil 29-oktyabrdagi 232-mh-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya

vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to‘g‘risidagi nizom va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

### **1.3. Notariusning huquqiy maqomi**

Notarius so‘zi lotinchi “notarius” so‘zidan olingan bo‘lib “xattot”, “kotib”, “xat tashuvchi” degan ma’nolarni anglatadi. Bugungi kunda notariuslarning jamiyat hayotidagi roli ancha yuqoridir. Notariuslar qonunda o‘zlariga berilgan vakolatlar orqali bitimlarni tasdiqlaydi, meros ishlarni yuritadi, yuridik faktlarni tasdiqlaydi, protestga oid ishlarni yuritadi, ijro xatlari yozadi va boshqa notarial harakatlarni amalga oshiradi. Mazkur notarial harakatlarni amalgaga oshirishda notaruis shaxslarlarga va boshqa huquq subyektlariga amalga oshirilayotgan notarial harakat ularning asl maqsadlariga qanchalik muvofiq kelish kelmasligini taraflar bilan muloqotga kirishish orqali aniqlaydi hamda bu haqda taraflarga tushuntirish beradi. Agar notarial harakat taraflarning asl maqsadiga muvofiq kelmasa, notarius bu haqda taraflarga tushuntiradi hamda ularning asl maqsadini nazarda tutuvchi notarial harakat to‘g‘risida ma‘lumot beradi. Qolaversa notarius yuridik jihatdan bexabarlikdan jismoniy va yuridik shaxslarning zarariga foydalanilmasligi uchun ularni amalgaga oshirilayotgan notarial harakatlarning oqibatlari haqida ham ogohlantiridi. Bu orqali notarius keyinchalik yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarning oldini oladi. Shuningdek, notariusning o‘zi bir qancha nizosiz ishlarni ko‘rib chiqadi. Bularga biz meros ishlarni, er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushini belgilashga qaratilgan notarial harakatlarni kiratamiz. Qolaversa, notarius nizosiz talablrni

undirish bo‘yicha ijro hujjati kuchiga ega bo‘lgan ijro xatini yozadi.

O‘zbekiston Respublikasining Notariat to‘g‘risidagi qonunining 1-moddasida O‘zbekiston Respublikasida notariat qonunlarda nazarda tutilgan notarial harakatlarni hamda ular bilan bevosita bog‘liq huquqiy va texnik tusdagi harakatlarni notariuslar tomonidan amalga oshirish yo‘li bilan jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta’minlashga da’vat etilgan huquqiy institutdir. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida notarial harakatlar qonunga muvofiq davlat notarial idoralarining notariuslari tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan<sup>1</sup>.

Bizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Notariat to‘g‘risidagi qonuniga ko‘ra notarius, katta notarius, notarius yordamchisi, shuningdek notarius stajyorining huquqiy maqomi bir-biridan farq qiladi va mazkur shaxslar notarial idorada faoliyat yurituvchi shaxslar hisoblanadi.

**Notarius** bu – yigirma besh yoshdan kichik bo‘lмаган hamda oltmis besh yoshdan katta bo‘lмаган, oliv yuridik ma’lumotga, yuridik mutaxassislik bo‘yicha kamida uch yil

---

<sup>1</sup> **Izoh:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sod Farmoni hamda unga ilova 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining 2.6-band, 2016-yil 21-oktyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda unga ilova Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytrish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar Dasturining 8-bo‘lim 44-bandida kelajakda ayrim notarial harakatlarni amalga oshirish notarius yordamchisiga o‘tkazilishi nazarda tutilgan.

muddatli ish stajiga ega bo‘lgan, shu jumladan notarial idorada kamida bir yil muddatli stajirovkani o‘tagan, malaka imtihonini topshirgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi notarius bo‘lishi mumkin. Notariuslar O‘zbekiston Respublikasining notarial idoralarining reestiriga kiritilgan notarial idorada faoliyat yuritadilar.

### **Notarius lavozimiga nomzodlar uchun qo‘yilgan talablar:**

- ✓ O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lish;
- ✓ yigirma besh yoshdan kichik va oltmis besh yoshdan kata bo‘lmaslik;
- ✓ oliv yuridik ma’lumotga ega bo‘lish;
- ✓ yuridik mutaxassislik bo‘yicha kamida uch yillik ish stajiga ega bo‘lish, jumladan, notarial idorada bir yillik<sup>1</sup> stajirovkani o‘tagan bo‘lishi;
- ✓ malaka imtihonini topshirgan va imtixondan o‘tgan bo‘lishi lozim<sup>2</sup>.

Demak, fuqaro yuqoridagi talablarga javob bersagina notarius lavozimiga nomzod sifatida e’tirof etilib tanlovda ishtirok etishi mumkin.

---

<sup>1</sup> *Sudyalik* lavozimida kamida besh yil ishlagan yoki **notarius yordamchisi** yoxud adliya organlarining **notarial faoliyatga rahbarlik qilish** va ushbu faoliyatni nazorat qilish bilan bog‘liq lavozimlarida kamida uch yil ishlagan shaxslar uchun stajirovkadan o‘tish talab qilinmaydi.

<sup>2</sup> Malaka imtixonini topshirgan va o‘tgan, lekin **notarius lavozimida uch yil mobaynida ishlamagan fuqaro** malaka imtihonini qayta topshirib, o‘tganidan so‘ng notariaus lavozimiga nomzod sifatida tanlovda ishtirok etishi mumkin.

## **Quyidagi shaxslar notarius lavozimiga nomzodini ko‘rsata olmaydi<sup>1</sup>:**

- ✓ belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxs;
- ✓ qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxs;
- ✓ o‘z kasbiy faoliyatiga mos kelmaydigan qilmishlar sodir etganligi uchun notarius, advokat, tergovchi, prokuror, suda yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning boshqa xodimi sifatidagi vakolati belgilangan tartibda tugatilgan shaxslar.

**Notarius yordamchisi:** yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi notarius yordamchisi bo‘lishi mumkin. Notarius yordamchisi notariusning topshirig‘iga ko‘ra notarial harakatlarni amalga oshirishda ishtirok etishga, bitimlar, arizalar va boshqa hujjatlar loyihamini tuzishga, hujjatlarning ko‘chirma nusxalari va dublikatlarini, ulardan ko‘chirmalarni tayyorlashga, shuningdek notarial harakatlarni amalga oshirish masalalari yuzasidan tushuntirishlar berishga haqli. Notarius yordamchisiga maxsus unvonlar — mansab darajalari beriladi.

**Notarius stajyori:** oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi notarius stajyori bo‘lishi mumkin. Notarius stajyorini ishga qabul qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, adliya boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi. Stajirovka notarial idorada o‘taladi. Notarius stajyori o‘z faoliyatini

---

<sup>1</sup> *Izoh:* mazkur ro‘yxatdagi shaxslar **notarius yordamchisi va notarius stajyori** bo‘lishi mumkin emas.

notarius rahbarligida, uning alohida topshiriqlarini bajargan holda amalga oshiradi. Notarius stajyorining faoliyatini tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

**Notarius lavozimi uchun o‘tkaziladigan tanlovda ishtirok etish tartibi.** Notarius lavozimiga nomzodlarga qo‘yiladigan talablarga javob beradigan shaxslar notarius lavozimi uchun o‘tkaziladigan tanlovda ishtirok etishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2019-yil 4-yanvardagi 3-mh-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Notarius lavozimiga tayinlash bo‘yicha tanlov o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom notarius lavozimiga tayinlash bo‘yicha tanlov o‘tkazish tartib qoidalarini belgilab bergen bo‘lib unga muvofiq, notarius lavozimiga nomzodga qo‘yilgan talablarga javob beradigan shaxs tanlovda ishtirok etishi mumkin. Tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan shaxs O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga bevosita yoki tegishli adliya boshqarmasi orqali quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- ✓ komissiya nomiga ariza;
- ✓ pasport nusxasi;
- ✓ belgilangan shaklda to‘ldirilgan shaxsiy varaq;
- ✓ mehnat daftarchasining notarial yoki ish joyida tasdiqlangan nussxasi;
- ✓ oliy yuridik ma’lumot to‘g‘risidagi diplomning notarial tasdiqlangan nussxasi;
- ✓ talabgorning malaka imtihonini topshirganligi to‘g‘risida malaka komissiyasining qaroridan ko‘chirma<sup>1</sup>;
- ✓ oxirgi ish joyidan berilgan mehnat faoliyati to‘g‘risidagi tavsifnoma.

---

<sup>1</sup> Oxirgi uch yil mobaynida notarius lavozimida ishlagan shaxslardan malaka imtihonini topshirganligi yoki qayta topshirganligi to‘g‘risida malaka komissiyasining qaroridan ko‘chirma talab qilinmaydi.

Talabgor tomonidan yuqorida ko'rsatilgan hujjatlar to'liq topshirilishi kerak. Hujjatlar ularni taqdim etishning oxirgi sanasigacha qabul qilingan bo'lishi lozim. Hujjatlar adliya boshqarmasiga topshirilgan taqdirda ular qabul qilingan kunning ertasidan kechiktirilmay tegishli adliya boshqarmasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga yuboriladi va devonxonada ro'yxatdan o'tkaziladi.

Shundan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga kelib tushgan har bir talabgorning hujjatlari ishchi organ tomonidan alohida o'rganib chiqiladi. Talabgorning tanlovda ishtirok etishini rad etishga asoslar mavjud bo'lsa, ishchi organ tomonidan bu haqida xulosa tuziladi.

Barcha talabgorlarning hujjatlarini o'rganish natijalariga ko'ra, ishchi organ tomonidan tanlov o'tkazish to'g'risida yoki tanlov o'tkazishga qayta e'lon berish to'g'risida xulosa tuziladi. Tanlov natijalari bo'yicha tanlovda g'olib chiqqan nomzod notarial faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin hisoblanadi.

**Xususiy notarial faoliyatni litsenziyalash.** Litsenziya olish uchun talabgor:

- yigirma besh yoshdan kichik va oltmis besh yoshdan katta bo'lmasligi,
- oliv yuridik ma'lumotga,
- yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida uch yillik ish stajiga ega bo'lishi, shu jumladan notarial idorada kamida bir yil stajirovka o'tagan bo'lishi,
- malaka imtihonini topshirishi shart.

Sudyalik lavozimida kamida besh yil ishlagan yoki notarius yordamchisi yoxud adliya organlarining notarial faoliyatga rahbarlik qilish va ushbu faoliyatni nazorat qilish

bilan bog‘liq lavozimlarida kamida uch yil ishlagan shaxslar stajirovkadan o‘tmasdan malaka imtihonida ishtirok etishga haqli.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, adliya organlarining boshqaruv xodimi (notarial faoliyatga rahbarlik qilish va ushbu faoliyatni nazorat qilish bilan bog‘liq bo‘limgan) yoki advokat sifatida kamida uch yil ishlagan, biroq vakolat muddati tugatilgan vaqtidan boshlab besh yil o‘tmagan shaxslar *olti oy stajirovka* o‘taydi.

Talabgor davlat xizmatidan foydalanish uchun Davlat xizmatlari markazlariga o‘zi kelib murojaat etadi yoki davlat xizmatidan elektron tarzda foydalanish uchun YIDXPda ro‘yxatdan o‘tadi. Talabgor o‘zi kelib murojaat etgan taqdirda, Davlat xizmatlari markazi xodimi ariza beruvchi nomidan, YIDXP orqali murojaat etgan taqdirda esa mustaqil tarzda qonunda belgilangan shakldagi so‘rovnomani elektron ravishda to‘ldiradi. So‘rovnomaga to‘ldirilganidan so‘ng, talabgor ma’lumotlarning to‘g‘riligini tekshirib, so‘rovnomani o‘z elektron raqamli imzosi bilan (so‘rovnomani elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash imkoniyati bo‘limgan hollarda, tegishli imzolar identifikatsiya qilishning boshqa vositalari (daktiloskopiya, elektron imzo va boshqalar) bilan ham tasdiqlanishi mumkin) tasdiqlaydi.

So‘rovnomaga quyidagi hujjatlar elektron tarzda ilova qilinadi:

oliy ma’lumot to‘g‘risidagi diplom yoki vakolatli davlat organining xorijiy ta’lim muassasasida olingan oliy ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatning nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini qayd etish) to‘g‘risidagi guvohnomasi nusxasi;

mehnat daftarchasining tasdiqlangan nusxasi yoki yuridik mutaxassislik bo‘yicha ish stajini tasdiqlovchi “Elektron mehnat daftarchasi” tizimidan ko‘chirma.

***Talabgordan ushbu band va so‘rovnomada ko‘rsatilmagan ma’lumotlarni, shuningdek, boshqa hujjatlarni taqdim etishni talab qilish taqiqlanadi.***

Quyida xususiy notarial amaliyotni litsenziyalash uchun murojaatni ko'rib chiqish tartibi jadval tarzida keltiriladi.

<b>Bosqich-lar</b>	<b>Subyektlar</b>	<b>Tadbirlar</b>	<b>Bajarish muddat-lari</b>
<b>1-bosqich</b>	Talabgor	<p>1. Xususiy notarial faoliyatni litsenziyalash uchun Davlat xizmatlari markaziga o'zi kelib murojaat qilish yoki YIDXPda ro'yxatdan o'tish.</p> <p>2. Yig'imni to'lash.</p>	<p>1. xohishiga ko'ra</p> <p>2. murojaat qilinganda</p>
<b>2-bosqich</b>	<p>1. Davlat xizmatlari markazi</p> <p>2. YIDXP</p>	<p>So'rovnomani Komissiyaga yuborish.</p>	<p>1. 20 daqiqa ichida</p> <p>2. avtomatik tarzda</p>
<b>3-bosqich</b>	Komissiya	<p>1. So'rovnomada ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'rGANIB chiqib, malaka imtihonida ishtirok etishga xulosa tuzish.</p> <p>2. Imtihon tashkillashtirish.</p> <p>3. Malaka imtihoni yakunlari bo'yicha qaror qabul qilish.</p> <p>4. Malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan talabgorlar bo'yicha qarordan</p>	<p>1. 15 kungacha bo'lgan muddatda;</p> <p>2. xulosa tasdiqlangan kundan boshlab 5 kundan so'ng, lekin 15 kundan kechiktirmay</p> <p>3. imtixon o'tkazilgan kuni</p> <p>4. 1 ish kuni</p>

			ko‘chirmani litsenziyalovchi organga yuborish.	
<b>4-bosqich</b>	Litsenziyalovchi organ	Litsenziyani berish haqida qarorni qabul qilish va uni davlat xizmatlari markaziga yuborish.	3 ish kuni mobaynida	
<b>5-bosqich</b>	Davlat xizmatlari markazi	Xabarnomani talabgorning elektron manziliga yuborish va bu haqda talabgorni axborot-kommunikatsiya tizimi orqali xabardor qilish.	qaror qabul qilingandan so‘ng	
<b>6-bosqich</b>	Talabgor	O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan miqdorida davlat boji to‘lovini amalga oshirish.	1 oy mobaynida	
<b>7-bosqich</b>	Litsenziyalovchi organ	Davlat boji to‘langanidan so‘ng litsenziyani Davlat xizmatlari markaziga (o‘zi kelib murojaat etgan taqdirda) yoki talabgorga (elektron tarzda murojaat etgan taqdirda) YIDXP orqali elektron shaklda yuborish.	1 ish kuni davomida	
<b>8-bosqich</b>	Davlat xizmatlari markazi	Litsenziyani talabgorning elektron manziliga yuborish va bu haqda talabgorni axborot-kommunikatsiya tizimi orqali xabardor qilish.	litsenziya kelib tushgan kuni	

Xususiy notarial amaliyotni litsenziyalash davlat xizmatini ko'rsatish uchun bazaviy hisoblash miqdorining **yarim baravari miqdorida yig'im** hamda bazaviy hisoblash miqdorining **bir baravari miqdorida davlat boji** undiriladi.

Faoliyat yuritayotgan davlat notarial idoralari notariuslariga xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyalar faqatgina ularning arizasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan to'g'ridan to'g'ri rasmiylashtirib beriladi.

**Notarius, notarius yordamchisi va stajyori faoliyatidagi cheklashlar.** O'zbekiston Respublikasi Notariat to'g'risidagi qonunining 7-moddasiga asosan, notarius, notarius yordamchisi va stajyori ilmiy, ijodiy va pedagogik faoliyatdan tashqari, tadbirkorlik va boshqa faoliyat bilan shug'ullanishga, shuningdek shartnomalar tuzishda vositachilik xizmati ko'rsatishga haqli emas.

**Notariusning muhri, shtamplari, ish qog'ozlari.** Notarius notarial harakatlarni amalgalashda ularni o'z nomidan amalgalashda oshiradi va bu jarayonda uo'zining muhri, shtamplari va notarial idora nomi tushirilgan ish qog'ozlariga ega bo'ladi.

**Notariusning shaxsiy muhriga** O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan, notariusning ismi-sharifining bosh harflari, familiyasi, lavozimi va notarial idoraning nomi ko'rsatilgan bitilgan bo'ladi. Notarius notarial harakatlarni bajarganda unga shaxsiy muhrini bosadi. Notariusning muhri O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan yagona namuna bo'yicha tayyorlanadi. Notarius muhrining izi va notarius imzosining namunasi Qoraqalpog'iston

Respublikasi Adliya vazirligida, adliya boshqarmalarida saqlanadi.

Shuningdek, notarius tasdiqlovchi yozuvlar bitilgan shtamplari va notarial idoraning blankalariga ega bo‘lishi mumkin.

**Notariusning majburiyatları.** Notarius shaxslar o‘rtasida tuziladigan bitimlarni tasdiqlaydi, yuridik faktlarni belgilaydi, shuningdek muayyan asoslar bo‘yicha mulk huquqini vujudga keltiruvchi hamda uni tasdiqlovchi guvohnomalarini beradi. Bu orqali notarius, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi. Shu maqsadda u:

— jismoniy va yuridik shaxslarga o‘z huquqlarini amalga oshirishda va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ko‘maklashishi, ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirib berishi;

— taraflar taqdim etgan bitimlar loyihalaring mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirishi hamda ularning mazmuni taraflarning asl maqsadiga mos kelish-kelmasligini va ushbu bitimlarning qonun talablariga zid kelish-kelmasligini tekshirishi;

— yuridik jihatdan bexabarlikdan jismoniy va yuridik shaxslarning zarariga foydalanilmasligi uchun ularni amalga oshirilayotgan notarial harakatlarning oqibatlari haqida ogohlantirishi;

— qonun hujjatlariga mos kelmaydigan notarial harakatni amalga oshirishni rad etishi;

— notarial harakatlarni amalga oshirish chog‘ida fuqarolar yoki mansabdor shaxslar tomonidan qonuniylik buzilganligini aniqlagan taqdirda, zarur chora-tadbirlar ko‘rilishi uchun tegishli korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yoki prokurorga bu haqda xabar qilishi;

— uch yilda kamida bir marta o‘z kasbiy malakasini oshirishi;

— sud, prokuratura, surishtiruv va tergov organlari yurituvida bo‘lgan ishlar bilan bog‘liq notarial harakatlarni amalga oshirganlik to‘g‘risida ularning talabiga binoan ma’lumotnomalar (ma’lumotlar) berishi;

— jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog‘liq bo‘lgan amalga oshirilgan notarial harakatlar to‘g‘risidagi ma’lumotnomalarni (ma’lumotlarni) maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etishi;

— ko‘chmas mulk oldi-sotdi shartnomalarini, mol-mulk ijarasi shartnomalarini tasdiqlash va ijara haqining miqdori to‘g‘risidagi, shuningdek meros yoki hadya tartibida fuqarolar mulkiga o‘tayotgan mol-mulkning qiymati haqidagi ma’lumotnomalarni davlat soliq xizmati organiga taqdim etishi;

— avtomototransport vositalaridan foydalanish va (yoki) ularni tasarruf etish huquqi uchun ishonchnomalarni, ushbu vositalarni boshqa shaxsga o‘tkazish, ijaraga berish, ulardan tekin foydalanish, ularning garov, lizing shartnomalarini tasdiqlash to‘g‘risidagi ma’lumotnomalarni ichki ishlar organiga taqdim etishi;

— boshqa shaxsga o‘tkazilayotgan ko‘chmas mulkning kadastr raqami to‘g‘risidagi va oluvchi haqidagi ma’lumotlarni yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastro davlat korxonasi tuman (shahar) filialiga taqdim etishi;

— bitim predmeti bo‘lgan ob‘ektni boshqa shaxsga o‘tkazishni taqiqlash yoki ushbu ob‘ektga nisbatan xatlov mavjud emasligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomalarni (ma’lumotlarni) kredit byurolarining so‘roviga ko‘ra taqdim etishi;

— bitim predmeti bo‘lgan ko‘chmas mulk ob’ektini boshqa shaxsga o‘tkazishni taqiqlash yoki ushbu ob’ektga nisbatan xatlov mavjud emasligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomalarni (ma’lumotlarni) rieltorlik tashkilotining so‘roviga ko‘ra taqdim etishi;

— vasiyat qiluvchining vafotidan keyin manfaatdor shaxslarga vasiyatnomasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomalarni taqdim etishi;

— amalga oshirilgan notarial harakatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining so‘roviga ko‘ra taqdim etishi shart;

**Notariusning javobgarligi.** Notarius o‘z kasbiy majburiyatlarini buzganligi uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda javobgar bo‘ladi.

Notarius o‘z kasbiy majburiyatlarini buzganligi oqibatida etkazilgan zararning o‘rnini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga belgilaydigan tartibda davlat tomonidan qoplanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 28-dekabrdagi 318-son qarori bilan tasdiqlangan Notarius tomonidan o‘z kasb majburiyatları buzilishi oqibatida etkazilgan zararni qoplash tartibi to‘g‘risidagi nizom notarius tomonidan etkazilgan zararning davlat tomonidan qoplanishi va mazkur qoplangan mablag‘larni notariusdan undirish maqsadida unga regress talab qo‘yish tartibini belgilaydi. Quyidagi sxema notarius tomonidan etkazilgan zarar o‘rnini qoplash tartibini ifodalab beradi.

Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariusning harakatlari (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan zarar uchun davlat javobgar bo‘lmaydi.

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Sud organlari	<p>Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi va hududiy adliya boshqarmalariga qonuniy kuchga kirgan sud qarorini yuboradi</p>	<p>Protsessual qonunchilik da belgilangan muddatlarda</p>
2-bosqich	Adliya boshqarmasi	<p>1. Jamg‘armadan mablag‘ ajratish to‘g‘risida sud qarorini ilova qilgan holda tegishli buyurtmanoma kiritiladi.</p> <p>2. Notariusni intizomiy javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi masalani hal etadi.</p>	<p>1. Sudning qarori tushgandan keyin ikki kun muddatda.</p> <p>2. Mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq sud qarori tushushiga ko‘ra.</p>

3-bosqich

Adliya  
vazirligi

Buyurmanomad  
a ko'rsatilgan  
mablag'larni  
adliya  
boshqarmasining  
shaxsiy  
g'aznachilik  
hisob raqamiga  
o'tkazadi.

Buyurtman  
oma  
tushgan  
kundan  
boshlab ikki  
kun  
muddatda.

4-bosqich

Adliya  
boshqarmas  
i

Byudjetdan  
tashqari Adliya  
organlari va  
muassasalarini  
rivojlantirish  
jamg'arma-  
sidan tushgan  
mablag'larni  
zararni qoplash  
uchun yuridik va  
jismoniy  
shaxslarning  
tegishli bank  
hisob  
raqamlariga  
o'tkazadi

Mablag'  
tushgan  
kundan  
boshlab bir  
kun  
muddatda.

5-bosqich

Adliya

1. Zarar ko'rgan  
shaxsga  
to'langan

1. Zarar  
qoplangu-  
an keyin

	boshqar-masi	<p>miqdorda notariusga nisbatan regress talab bilan murojaat qiladi.</p> <p>2. Sudga da'vo arizasi kiritadi.</p>	ikki kundan kechikmay.
6-bosqich	Notarius	O'zi tomonidan etkazilgan zarar summasini ixtiyoriy ravishda qaytarib to'laydi.	Adliya organlari notariusga murojaat qilganidan so'ng bir oy ichida.

## **II BOB. NOTARIAL IDORALARDA ISH YURITISH QOIDALARI**

### **2.1. Notarial idoralarda ish yuritish qoidalari**

Barcha davlat oraganlari, tashkilotlar, muassasalari va boshqa har qanday idoraviy mexanizmlarni biz ularda yuritiladigan hujjatlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Jumladan, notarial idoralarda ham muayyan hujjatlar yuritiladi. Mazkur hujjatlarni har bir idora yoki har bir xodim o‘z bilganicha yuritsa, ishda sifat bo‘lmaydi. Shuningdek, idorada yuritilgan hamda notarius tomonidan berilgan hujjatlar haqida ma’lumotlarni izlash qiyinchilik tug‘diradi. Shu sababli ham notarial idorada ish yuritish qoidalari joriy qilingan. O‘zbekiston Respublikasida notarial idoralarda ish yuritish qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2010 yil 22 dekabrda 308-mh-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Davlat notarial idoralarida notarial ish yuritish qoidalariiga asosan amalga oshiriladi.

**Notarial idoralarda ish yuritish qoidalari** – notariuslar tomonidan chiqariladigan va notarial idoralarda yuritildagan hujjatlarni ishlab chiqish, ularni saqlash va arxivlashga oid qoidalari.

Notarial idoralarda ish yuritish qoidalalarini o‘rganishimizdan oldin, mazkur ish yurituviga ma’sul bo‘lgan shaxs to‘g‘risida aytib o‘tish lozim. Notarial ish yuritishni to‘g‘ri tashkil qilish uchun notarial idorada rahbarlik qiluvchi notarius javobgardir. Notarial ish yuritish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari rahbarining buyrug‘i bilan notarial idora xodimlaridan biriga yuklanadi.

Notarial ish yuritish yuklatilgan shaxs ishdan bo'shabganda yoki boshqa ishga o'tkazilganda hujjatlar yangi tayinlangan xodimga dalolatnama asosida topshiriladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Notariat to'g'risidagi qonunining 6-moddasiga muvofiq notariusning, notarial harakatlarni amalga oshiruvchi boshqa mansabdar shaxslarning, shuningdek, amalga oshirilayotgan notarial harakatlardan xizmat vazifasini bajarish munosabati bilan xabardor bo'lib qolgan shaxslarning o'zlariga ma'lum bo'lgan axborotlarni oshkor qilishi, shu jumladan, mehnat shartnomasi bekor qilinganidan keyin ham oshkor qilishi taqiqlanadi.

Notarial ish yuritishning eng muhim jihatni bu notarial harakatlar bilan bog'liq hujjatlani tayyorlash hisoblandi. O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi va Notariat to'g'risidagi qonunlariga muvofiq notarial idoralarda notarial ish yuritish va notarial harakatlar **davlat tilida amalga oshiriladi**. Qolaversa, notarial harakatlar bo'yicha rasmiylashtiriladigan hujjat matni yuridik va jismoniy shaxslarning talablariga binoan notarius tomonidan rus tilida yoki imkon bo'lsa, boshqa maqbul tilda yoziladi.

**Notarial idorada yuritiladigan hujjatlarga** qo'yilgan talablar:

✓ hujjat turining nomi (notarial harkat nomi (shartnoma, vasiyatnoma), ma'lumotnoma, hisobot va boshqa) har bir hujjatda (xatdan tashqari) ko'rsatiladi;

✓ hujjatlar matni A4 (210 x 297) va A5 (148 x 210) formatdagi varag'inining bir tomonida masshtab kichraytirilmagan holda yoziladi. Bunda quyidagilar inobatga olinishi lozim:

✓ matn qora rangda, chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, tepe va pastdan 2 sm sahn qoldirib yoziladi;

✓ matn xatboshisi 6 harfdan iborat joy tashlab boshlanadi;

✓ hujjatning birinchi betidan tashqari boshqa betlarining tepe qismi o'rtasiga 2 raqamidan boshlab tartib raqami qo'yiladi;

- ✓ matn 1,2 qatorlararo oraliq (interval)da yoziladi;
- ✓ rasmiylashtirilgan hujjatlar matnida keltirilgan sanalar raqamlar bilan ifodalanadi. Sanalar arab raqamlari bilan bir satrda va quyidagi izchillikda yoziladi: yil, kun, oy (rus tilida tayyorlangan hujjatlarda kun, oy, yil ko‘rinishida).

**Notarial idora tomonidan boshqa tashkilotlarga, mansabdar shaxslarga va fuqarolarga yuboriladigan hujjatlarni yuborish va ularni tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari:**

Hujjat yuborilayotganda tashkilotning nomi bosh kelishikda, mansabdar shaxsning lavozimi va familiyasi hamda fuqaroning familiyasi jo‘nalish kelishigida yoziladi. Hujjat yuborilayotgan tashkilotning manzili uning nomidan keyin yoziladi. Hujjat fuqaroga yuborilganda esa uning manzili, keyin uning ismi, otasining ismi bosh harflari va familiyasi yoziladi. Javob xatlarida javobi jo‘natilayotgan hujjatning raqami va sanasi ko‘rsatiladi.

Rasmiylashtirilgan hujjatlar matnida keltirilgan sanalar raqamlar bilan ifodalanadi. Sanalar arab raqamlari bilan bir satrda va quyidagi izchillikda yoziladi: yil, kun, oy (rus tilida tayyorlangan hujjatlarda kun, oy, yil ko‘rinishida).

Hujjatlarda ilova mayjud bo‘lganda ular quyidagicha rasmiylashtiriladi:

agar ilova hujjat matnida ko‘rsatilgan bo‘lsa, ilovadagi varaqlar soni ko‘rsatiladi;

agar ilova hujjat matnida ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ilovalar nomi sanab ko‘rsatiladi;

agar yozishmalar bir nechta manzilga yuborilayotgan bo‘lib, ulardan biriga ilova yuborilsa, bu holda ilovaning kimga tegishliligi ko‘rsatiladi.

Agar ilovalar risolalangan bo‘lsa, varaqlar soni ko‘rsatilmaydi. Bitta yo‘llanma xat bilan o‘zaro bog‘liq bo‘limgan hujjatlarni yuborish va kirim qilish taqiqlanadi.

Barcha jo‘natilayotgan hujjatlar notarius tomonidan imzolanadi. Agar bitta notarial idorada ikki va undan ortiq notarius ishlayotgan bo‘lsa, notarial idora faoliyati bilan bog‘liq hujjatlar mazkur notarial idoraning katta notariusi tomonidan imzolanadi. Hujjatni imzolashda notarial idora nomi, notariusning ismi va otasining ismi bosh harflari hamda familiyasi yoziladi. Hujjatlarni “uning o‘rniga” degan so‘zlar, shuningdek lavozimning nomi oldiga qiya chiziq qo‘yib imzolashga yo‘l qo‘yilmaydi.

**Hujjatlarni qabul qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish va rasmiylashtirish.** Notarial idorada ijro qilinishi lozim bo‘lgan barcha hujjatlar, shu jumladan arizalar belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Notarial idora faoliyatiga tegishli bo‘limgan xatlar, shaxsiy yozishmalar, tabrik-nomalar, taklifnomalar va shunga o‘xshash yozishmalar ro‘yxatdan o‘tkazilmaydi.

Hujjatlar ijro etilganidan keyin quyidagi muvofiq shakldagi notarial idora hujjatlar yig‘majildlarining namunaviy nomenklaturasida ko‘rsatilgan yig‘majildga tikiladi.

**Davlat notarial idoralari hujjatlar  
yig‘majildlarining namunaviy  
NOMENKLATURASI**  
**1. Ish yuritish bo‘yicha**

1-1. Yuqori turuvchi tashkilotlarning buyruq va ko‘rsatmalari.

1-2. Notarial amaliyotni umumlashtirish bo‘yicha hujjatlar.

1-3. Notarial idorani tekshirish natijalari haqida ma’lumotnomalar va dalolatnomalar.

1-4. Shaxsiy tarkib bo‘yicha buyruqlar, mehnat shartnomalari va boshqa hujjatlar.

1-5. Boshqa tashkilotlar bilan yozishmalar.

1-6. Notarial arxivga topshirilgan hujjatlarning ro‘yxati va topshirish dalolatnomalari.

1-7. Xalqaro shartnomalar bo‘yicha yozishmalar.

1-8. Boshqa hujjatlar.

## **2. Notarial harakatlarning turlari bo‘yicha**

2-1. Ko‘chmas mulkni boshqa shaxsga o‘tkazish to‘g‘risidagi shartnomalar va ularni tasdiqlash uchun asos bo‘lgan hujjatlar.

2-2. Garov (ipoteka) shartnomalari hamda ularni tasdiqlash uchun asos bo‘lgan hujjatlar.

2-3. Avtomototransport vositalarini boshqa shaxsga o‘tkazish to‘g‘risidagi shartnomalar va ularni tasdiqlash uchun asos bo‘lgan hujjatlar.

2-4. Boshqa shartnomalar.

2-5. Ishonchnomalar.

2-6. Notarial tasdiqlangan vasiyatnomalar.

2-7. Meros ishlari.

2-8. Ijro xatlarini yozish va unga tegishli bo‘lgan hujjatlar.

2-9. Notarial tasdiqlangan hujjatlarning dublikatlarini hamda reyestrlardan ko‘chirmalar berishga oid hujjatlar.

2-10. Mediatsiya ishlarini yuritishga oid hujjatlar.

2-11. Dalillarni ta’minlashga oid hujjatlar.

2-12. Boshqa notarial harakatlar.

## **3. Notarial harakatni amalga oshirish bilan bog‘liq hujjatlar bo‘yicha**

3-1. Tugallanmagan meros ishlari bo‘yicha hujjatlar.

3-2. Meros mol-mulkini qo‘riqlash choralarini ko‘rish bo‘yicha arizalar.

3-3. Notarial harakatni amalga oshirishni kechiktirish yoki rad etish haqidagi qarorlar.

3-4. Hujjatlarni ekspertizaga jo‘natish haqidagi qarorlar.

3-5. Notarial tasdiqlangan hujjatlarga tenglashtiriladigan vasiyatnomalar.

Shuningdek, notarial idoralarda hujjatlarni ro‘yxatga olish va ularning ijrosini nazorat qilish uchun kirim va chiqim hujjatlarini qayd qilish daftarlari yuritiladi. Ro‘yxatga olingan hujjatlarning birinchi betida (chap tomon pastki qismida) notarial idoraning shtampi bosiladi hamda hujjatning kirim raqami va uning qabul qilingan sanasi yoziladi. Hujjatlarning etishmasligi yoki ularning yaroqsiz holatda ekanligi aniqlansa, mas’ul shaxs tomonidan bu haqda ikki nusxada dalolatnama tuziladi va notarius tomonidan imzolanadi. Dalolatnomaning bir nusxasi hujjatni jo‘natuvchiga hujjatlarni ilova qilgan holda yuboriladi. Kelib tushgan hujjatlarning konverti uning jo‘natuvchisi manzilini hamda hujjatning jo‘natilgan va qabul qilib olingan vaqtini uning konverti bo‘yicha aniqlash mumkin bo‘lgan hollardagina saqlanadi va konvert hujjatlarga ilova qilinadi. Fuqarolarning ariza, shikoyat va takliflari kelib tushgan konvertlar yo‘q qilinmaydi hamda ushbu hujjatlar bilan bиргаликда saqlanadi. Agar hujjatlar adashib jo‘natilgan bo‘lsa, ular yangi konvertlarda avvalgi konvert ilova qilingan holda tegishli manzillarga yuboriladi yoki shaxsan hujjatning jo‘natuvchisiga qaytariladi.

Notarial idora tomonidan ijro qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlar ro‘yxatdan o‘tkazilganidan keyin notarius shu kunning o‘zida ***uni ijro etish va ijro muddati to‘g‘risidagi masalani hal qiladi***. Hujjat unda ko‘rsatilgan barcha masalalar hal qilinib, uning jo‘natuvchisiga javob berilganda ***ijro etilgan deb hisoblanadi***. Ijro etilgan hujjatga ularning ijrosi va yig‘majildga tikilishi haqida belgi qo‘yiladi. Agar hujjatning ijro qilinganligini tasdiqlovchi hujjat bo‘lmasa, hujjatning ijro qilinganligi haqidagi belgi uning birinchi varag‘ining pastki qismiga yoki joy bo‘lmaganda hujjatning birinchi varag‘i orqa tomoniga qo‘yiladi, shuningdek, yig‘majildga degan so‘z va ijro etilgan hujjat tikilishi lozim

bo‘lgan yig‘majildning raqami yozib qo‘yiladi. Jo‘natilayotgan hujjat ***Hujjatlarning chiqish electron daftarida*** ro‘yxatdan o‘tkaziladi va unga tegishli tartib raqami beriladi hamda ushbu daftarga jo‘natilayotgan hujjatning nusxasi saqlanadigan yig‘majildning raqami yoziladi. Notarial idoralarda hujjatlar pochta aloqasi, xathujjat tashuvchi xodim orqali jo‘natiladi yoki shaxsan uning jo‘natuvchisiga (uning vakiliga) topshiriladi.

***Hujjatlarning ijro etilishi ustidan nazorat.*** Ro‘yxatdan o‘tkazilgan barcha hujjatlarning ijro etilishi ahvolini nazorat qilish adliya boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi. Zarur hollarda hujjatlarning ijrosi yuzasidan notarius adliya boshqarmasiga hisobot taqdim etadi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, adliya boshqarmalari va boshqa yuqori turuvchi tashkilotlardan kelib tushgan topshiriqlar nazoratga olinadi. Notarial idorada rahbarlik qiluvchi notarius tomonidan boshqa hujjatlarning ijrosi ham nazoratga olinishi mumkin. Hujjatlarning ijrosi bo‘yicha nazorat “nazorat kartochkalari” yoki tegishli nazorat ish jildlari yordamida olib boriladi.

***Hujjatlar yig‘majidlari nomenklaturasini tuzish va yig‘majidlarni shakllantirish.*** Hujjatlar yig‘majidlari nomenklaturasi amalga oshiriladigan barcha notarial harakatlar, shuningdek reestrlar, kitoblarni inobatga olgan holda shakllantiriladi. Hujjatlar yig‘majidlari nomenklaturasi notarial idoraning nomi ko‘rsatilgan holda adliya boshqarmalari huzuridagi notarial arxivlar bilan kelishiladi hamda adliya boshqarmalari rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi. Hujjatlar yig‘majidlari nomenklaturasi bir kalendor yil davomida amalda bo‘ladi va har yili yangidan tasdiqlanadi. Hujjatlar yig‘majidlari nomenklaturasi ikki nusxada tuziladi. Birinchi nusxa adliya boshqarmasida, ikkinchi nusxasi esa notarial idorada saqlanadi. Notarial

idorada saqlanadigan hujjatlar yig‘majildlari nomenklaturasidan ish nusxasi sifatida foydalaniladi. Yig‘majildlar quyidagicha shakllantirilishi va yuritilishi zarur:

yig‘majiddlarga faqat ijro etilgan va to‘g‘ri rasmiy-  
lashtirilgan hujjatlarni joylashtirish;

bitta masalaning hal qilinishiga taalluqli barcha  
hujjatlarni ularning ilovalari bilan birgalikda joylashtirish;

yig‘majiddlarda bir kalendar yilga oid hujjatlarni  
guruhash (yildan-yilga o‘tuvchi hujjatlar yig‘majildlari  
bundan mustasno);

yig‘majild varaqlarining jami 250 varaqdan oshmasligi,  
agar ortsa, mazkur yig‘majildning navbatdagi jildini yuritish.  
Notarial idoraning ish yurituvidagi barcha hujjatlar ijro  
etilganidan keyin tegishli yig‘majiddlarga turkumlashtiriladi.

***Hujjatlarning notarial idorada saqlanishi va adliya boshqarmalari huzuridagi notarial arxivlarga topshirish.*** O‘zbekiston Respublikasi Notariat to‘g‘risidagi qonunning 10-moddasiga asosan, notarial idora notarial ish yuritish hujjatlari va materiallarining but saqlanishini ta’minlashi, o‘z notarial arxivini yuritishi shart. Notarial ish yuritish hujjatlari va materiallari uch yil o‘tgach adliya boshqarmalari huzuridagi notarial arxivlarga topshirilishi kerak. Joriy ish yuritish reestrlari, meros ishlari yig‘majildlari va tugallangan yig‘majiddlar notarial idora arxiviga topshirilishiga qadar changdan, quyosh nuri ta’siridan himoyalaydigan va ularning yaxshi saqlanishini ta’minlaydigan shkaflarda turadi. ***Yig‘majiddlardan biron-bir hujjat olish va berishga yo‘l qo‘yilmaydi.*** O‘zbekiston Respublikasi Notariat to‘g‘risidagi qonunining 6-moddasiga asosan, amalga oshirilgan notarial harakatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar (hujjatlar) bu harakatlar kimning nomidan yoki kimning topshirig‘i bilan amalga oshirilgan bo‘lsa, o‘sha

shaxslarning o‘zigagina berilishi mumkin. Shuningdek, qonunda nazarda tutilgan hollarda boshqalarga ham berishlishi mumkin.

***Yig‘majildlarda hujjatlarni joylatirishning ketma-ketligi.*** Yig‘majildlarda yozishmalar kalendar yil davri bo‘yicha guruhlanadi va xronologik tartibda ketma-ket turkumlanadi, javob hujjati so‘rov hujjatidan keyin joylashtiriladi. Hisobot yili tugagach, yig‘majildlar bo‘shatiladi va ularning har biri alohida tikiladi. Bunda yig‘majildlar muqovalanadi, ularning nomlari yoziladi, varaqlarga tartib raqamlari beriladi hamda hujjatlarning ro‘yxati tuziladi. Yillik rejalar va hisobotlar qachon tuzilganligidan qat’i nazar, mazmunan qaysi yilga taalluqli bo‘lsa, o‘sha yilning yig‘majildiga qo‘yiladi.

***Yig‘majildlarni notarial idora arxivida saqlash uchun tayyorlash.*** Kalendar yil tugashi bilan mas’ul shaxs yig‘majildlarni notarial idora arxivida saqlash uchun tayyorlaydi. Yig‘majilddagi hujjatlar turkumlashtiriladi, rasmiylashtiriladi, tartibga keltirilib, muqovalanadi va tikiladi. Yig‘majild oxirida alohida toza varaqqa tikilgan varaqlar soni yoziladi. Ushbu varaqqa mas’ul shaxs va notariusning imzolari hamda notariusning muhri qo‘yiladi. Yig‘majild muqovasidagi sana hujjatlar yig‘majildini yuritish boshlangan va tugallangan kun, oy va yilga muvofiq kelishi kerak. Yig‘majild muqovalari mazkur qonunda belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

***Notarial idora hujjatlar va materiallarni notarial arxivga topshirish.*** Notarial idora hujjatlar va materiallarni notarial arxivga topshirishidan oldin mas’ul shaxs ularni tayyor holga keltiradi. Notarial idora tomonidan hujjatlar va materiallar notarial arxivga topshirilayotganda, ularning butligini ko‘rib chiqish adliya boshqarmasining doimiy faoliyat olib boruvchi ekspert komissiyasi tomonidan amalgalashtiriladi.

oshiriladi. Ekspert komissiyasi hujjatlar va materiallarni ko‘rib chiqishda arxiv ishi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qiladi. Ekspert komissiyasi tomonidan hujjatlar notarial arxivga topshirilishi lozim deb topilganda, ikki nusxada topshirish-qabul qilish dalolatnomasi tuziladi. Dalolatnomada topshirilayotgan hujjatlar ro‘yxati to‘liq ko‘rsatilishi shart. Dalolatnoma ekspert komissiyasi a‘zolari va notarial idorada rahbarlik qiluvchi notarius tomonidan imzolanadi hamda unga notariusning gerbli muhri qo‘yiladi.

## **2.2. Notarial idoralarda elektron ish yuritish qoidalari**

Zamon rivojlangan sari hamda inson hayotiga axborot texnologiyalarining kirib kelishi munosabati hamda notarial idoralar faoliyatiga axborot kommunikatsiya texnologiyalarining joriy qilinib borishi bilan birga uning ish yurituviga ham elektron shaklda ish yurituv qoidalari kirib kelmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yilda 27-fevralda 106-son qarori bilan tasdilangan Ko‘chmas mulkning oldi-sotdi, ayriboshlash va hadya qilish bitimlarini idoralalararo elektron hamkorlikni qo‘llagan holda notarial tasdilash tartibi to‘g‘risidagi nizomning qabul qilinishi notarial idoralarda “Notarius” avtomatlshitirilgan axborot tizimi<sup>8</sup>ning (elektron ish yuritishning) joriy qilinishiga sabab bo‘ldi.

### **Notarial idoralarda elektron ish yuritish qoidalari**

- notariuslar tomonidan elektron shaklda chiqariladigan va notarial idoralarda elektron shaklda yuritildagan hujjatlarni ishlab chiqish, ularni saqlash va arxivlashga oid qoidalari.

---

<sup>8</sup> “Notarius” avtomatlshitirilgan axborot tizimi — notarial harakatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni avtomatlshitirish uchun mo‘ljallangan axborot tizimi.

Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga notarial idoralarda elektron ish yurituv bilan bog‘liq ayrim qoidalar kiritilgan. Bular yo‘riqnomaning 4<sup>1</sup>-bobi, Notariatning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi haqida bo‘lib. Bu tizim qaysidir ma’noda notariat faoliyatning elektronlashtirilgan qismi hisoblanadi.

Notarial faoliyat to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, ularga ishlov berish jarayonlarini kompleks avtomatlashtirish hamda notarial harakatlarni amalga oshirishga aloqador davlat organlari bilan axborot hamkorligining barcha turlarini ta‘minlash uchun mo‘ljallangan axborot tizimi **Notariatning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimidir.**

Notariatning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga tegishlidir. Notariatning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimidan notarial idoraga yuborilgan elektron murojaatni olish uchun ham foydalaniladi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Notariatning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimiga notariuslarning kirishini ta‘minlaydi. Notariuslar tomonidan Notariatning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimiga ma’lumotlar kiritilishi notarial harakatlarni amalga oshirishning maxfiyligini oshkor etish hisoblanmaydi.

**Notariatning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimiga ma’lumotlar kiritish.** Notariatning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimiga ma’lumotlarni kiritish notariuslar tomonidan amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Notariatning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimiga notariuslar tomonidan kiritilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarning ro‘yxatini belgilaydi. Amalga oshirilgan notarial harakatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bunday harakatlar amalga oshirilgan kundan

kechiktirmay notarius tomonidan Notariatning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritiladi.

***Elektron murojaat*** – jismoniy va yuridik shaxslar notarius qabuliga oldindan yozilish, bitimlar va arizalarning elektron shakldagi loyihalarini tayyorlash hamda notarial harakatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq boshqa maqsadlar uchun axborot tizimlari orqali notarial idoralarga murojaat qilishi mumkin. Elektron murojaat elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Agar huquqiy va texnik tusdagi qo‘srimcha harakatlar uchun haq to‘lmagan bo‘lsa, bitimlar va arizalarning elektron shakldagi loyihalarini tayyorlash to‘g‘risidagi elektron murojaat ko‘rib chiqilmaydi. Axborot tizimlari orqali notarial idoralarga kelib tushadigan elektron murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

### **III BOB. NOTARIAL HARAKATLARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI**

#### **3.1. Notarial harakatlarni amalga oshirish prinsiplari**

Notarial harakatlarni amalga oshirish prinsiplarni mazmun-mohiyatini tahlil qilishdan avval “prinsip” so‘zining ma’nosini anglab olish lozim. Prinsip so‘zi lotinchi “principium” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida asos, negiz, qoida degan ma’noni anglatadi.

Demak, notarial harakatlarni amalga oshirish prinsiplari ham mazkur jaryonni huquqiy tartibga solishda hamda qonun ijodkorligi va huquqni qo‘llash amaliyotida birlamchi asos bo‘lib hisoblanidi.

##### **Notarial harakatlarni amalga oshirish prinsiplari**

– bu qonunda mustahkamlangan notariat qonunchiligining rahbariy qoidalari bo‘lib, notarial faoliyatni to‘g‘ri va qonunda belgilangan tartiblarda amalga oshirilishini, shuningdek notarial harakatlar ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini konseptual himoya qilishga qaratilgan qoidalardir.

Notarial harakatlarni amalga oshirish prinsiplari quyidagilar:

**notarial faoliyatning protsessual xarakterga ega ekanligi.** Huquq nazariyasidan ma’lumki qonun normalari moddiy va protsessual huquqiy normalarga bo‘linadi. Moddiy huquqiy normalari huquq yoki majburiyat keltirib chiqarish, o‘zgartirishi yoki bekor qilishga qaratilgan bo‘lsa, protsessual huquqiy normalar anashu moddiy normalarni amalga oshirish mexanizimini tartibga soluvchi normalardir.

Misol uchun, fuqarolik protsessual, iqtisodiy protsessual yoki jinoyat protsessual huquqiy normalardir. Notariat ham fsuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishiga ko'maklashuvchi mexanizmdir. Notariat qonunchiligi ham protsessual huquqiy xarakterga ega. Misol uchun, notarius uy-joy oldi-sotdi shartnomasini notarial tasdiqlaydi. Uy-joy oldi-sotdi shartnomasining mazmunini belgilaydigan qoidalar moddiy-huquqiy normalar bo'lib, uni tuzish orqali sotib oluvchi uygaga nisbatan huquq vujudga kelsa, sotuvchida mazkur huquq tugaydi. Mazkur bitimni notarial tasdiqlash esa notariat qonunchiligidagi belgilangandir. Ya'ni bitimni tuzishga kimlar vakolatli, ular bitim tuzish uchun qanday hujjatlarni notariusga taqdim etishlari va qancha davlat boji to'lashlari lozimligi hamda boshqalar notariat qonunchiligi bilan tartibga solinadi;

**notarial harakatlarni amalga oshirishda qonuniylik** – bu prinsip notarial harkat ishtirokchilarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida belgilab qo'yilgan normalarga aniq roya etishlarini va ularning talablarini bajarishlari shartligini bildiradi. Notarius, konsul va notarial harakatni amalga oshiruvchi boshqa mansabdor shaxs notarial harakatlarni amalga oshirishda qonun talablaridan kelib chiqib, uni amalga oshirishi qonuniylik prinsipida o'z ifodasini topgan. Agar notarais qonun talablarini buzib, notarial harakatni amalga oshirsa, uning qonungi zid hatti-harakatlari (harakatsizligi) ustida yuqori turuvchi organiga yoki ma'muriy sudlarga shikoyat qilinishiga hamda notariusning huquqiy hujjatini yoki u tasdiqlagan hujjatni haqiqiy emas deb topishga asos bo'ladi;

**notarial harakatlarni amalga oshirishda erkinlik (dispozitivlik) prinsipi** – bu notarial harakat subyektlarining notarial idoraga murojaat qilishlarining ixtiyoriyligidir.

Boshqacha qilib aytganda notarius o‘z tashabbusi bilan notarial harakatlarni bajarishi mumkin emas. Biroq qonunchilik mazkur prinsipdan ham bir holatda chekinganini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni notarial harakatlardan biri bu meros mol-mulkini qo‘riqlanishaga doir chora-tadbirlarni ko‘rish hisoblanadi. Mazkur notarial harakatni notarius o‘z tashabbusi bilan amalga oshirishi mumkin. Bunda basharti, qonun bo‘yicha merosxo‘rlarning yoki vasiyat majburiyati yuzasidan huquq oluvchilarning, kreditorlar yoki davlatning manfaatlari uchun zarur bo‘lsa, notarius o‘z tashabbusi bilan ham meros mol-mulkini qo‘riqlanishaga doir chora-tadbirlarni ko‘radi;

**notariusning mustaqilligi va betarafligi prinsipi** – notarius o‘z faoliyatida mustaqil va betaraf bo‘lib, uni amalga oshirishda notariat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga amal qiladi. Buni sharhlaydigan bo‘lsak, notarius o‘z faoliyatida mustaqil bo‘lib, uning faoliyatiga biro-bir tarzda aralashishga, ko‘rsatmalar berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Shuningdek, notarius (konsul yoki boshqa mansbdor shaxsning)ning betarafligi notarial harakatlarda ishtirok etayotgan barcha tomonlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini birdek himoya qilinishi va ularning manfaatlarini bir xil darajada inobatga olinishini kafolatlaydi;

**notarial harakatlarning maxfiyligi prinsipi** – mazkur prinsip O‘zbekiston Respublikasi Notariat to‘g‘risidagi qonuning 6-moddasida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, amalga oshirilgan notarial harakatlarning sir saqlanishini ta’minlaydi. Uning mohiyatiga ko‘ra, notariusning, notarial harakatlarni amalga oshiruvchi boshqa mansabdor shaxslarning, shuningdek amalga oshirilayotgan notarial harakatlar to‘g‘risida o‘z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan xabardor bo‘lib qolgan shaxslarning

o‘zlariga ma’lum bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor qilishi, shu jumladan mehnat shartnomasi bekor qilinganidan keyin ham oshkor qilishi taqiqlanadi.

Ayrim hollarda notarial harakatlar to‘g‘risida ma’lumot olish zarurati paydi bo‘ladi. Bunda amalga oshirilgan notarial harakatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar (hujjatlar) bu harakatlar *kimning nomidan yoki kimning topshirig‘iga* ko‘ra amalga oshirilgan bo‘lsa, *o’sha shaxslarning o‘zigagina* berilishi mumkin.

Notariat to‘g‘risidagi qonunchiligidizda mamlakatda huquq-tartibotni saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish maqsadida bu prinsipdan ayrim hollarda chekinishga ruxsat berilgan. Bular:

- sud, prokuratura, surishtiruv va tergov organlari yurituvida bo‘lgan ishlar munosabati bilan ularning talabiga binoan amalga oshirilgan notarial harakatlar to‘g‘risidagi ma’lumotnomalar (ma’lumotlar);
- O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishi maqsadida uning so‘roviga ko‘ra amalga oshirilgan notarial harakatlar to‘g‘risidagi ma’lumotnomalar (ma’lumotlar);
- maxsus vakolatli davlat organiga — jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog‘liq bo‘lgan amalga oshirilgan notarial harakatlar to‘g‘risidagi ma’lumotnomalar (ma’lumotlar);
- davlat soliq xizmati organiga — ko‘chmas mulk oldi-sotdi shartnomalarini, mol-mulk ijarasi shartnomalarini tasdiqlash va ijara haqining miqdori to‘g‘risidagi, shuningdek meros yoki hadya tartibida fuqarolar mulkiga o‘tayotgan mol-mulkning qiymati haqidagi ma’lumotnomalar;

– ichki ishlar organiga — avtomototransport vositalaridan foydalanish va (yoki) ularni tasarruf etish huquqi uchun ishonchnomalarni, ushbu vositalarni boshqa shaxsga o‘tkazish, ijaraga berish, ulardan tekin foydalanish, ularning garov, lizing shartnomalarini tasdiqlash to‘g‘risidagi ma’lumotnomalar;

– er tuzish va ko‘chmas mulk kadastro davlat korxonasi tuman (shahar) filialiga — boshqa shaxsga o‘tkazilayotgan ko‘chmas mulkning kadastr raqami to‘g‘risidagi va oluvchi haqidagi ma’lumotlar;

– kredit byurosiga uning so‘roviga ko‘ra — bitim predmeti bo‘lgan ob‘ektni boshqa shaxsga o‘tkazishni taqiqlash yoki ushbu ob‘ektga nisbatan xatlov mavjud emasligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomalar (ma’lumotlar);

– rietlorlik tashkilotiga uning so‘roviga ko‘ra — bitim predmeti bo‘lgan ko‘chmas mulk ob‘ektini boshqa shaxsga o‘tkazishni taqiqlash yoki ushbu ob‘ektga nisbatan xatlov mavjud emasligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomalar (ma’lumotlar);

– manfaatdor shaxslarga vasiyat qiluvchining vafotidan keyin — vasiyatnoma to‘g‘risidagi ma’lumotnomalar beriladi;

**notarial harakatlarni amalga oshirishda ishtirok-chilarning huquq va manfaatlarining himoyalanganlik prinsipi** – mazkur tamoilga ko‘ra notarial harkatni amalga oshiruvchi notarius, konsul yoki boshqa mansabdor shxs notarial harakatda ishtirok etayotgan shaxslar (davlat)ning huquq va qonuniy manfatlarini himoya qiladi. Bu notarial harakatni amalga oshirishda notarius tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga o‘z huquqlarini amalga oshirishda va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ko‘maklashishi, ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirib berishi, taraflar taqdim etgan bitimlar loyihalarining mazmun-

mohiyati va ahamiyatini tushuntirishi hamda ularning mazmuni taraflarning asl maqsadiga mos kelish-kelmasligini va ushbu bitimlarning qonun talablariga zid kelish-kelmasligini tekshirishi, taraflar taqdim etgan bitimlar loyihalarining mazmuni taraflarning asl maqsadiga mos kelish-kelmasligini va ushbu bitimlarning qonun talablariga zid kelish-kelmasligini tekshirishi, yuridik jihatdan bexabarlikdan jismoniy va yuridik shaxslarning zarariga foydalanilmasligi uchun ularni amalga oshirilayotgan notarial harakatlarning oqibatlari haqida ogohlantirishida namayon bo‘ladi. Biroq O‘zbekiston Respublikasi Notariat to‘g‘risidagi qonunida belgilangan notariusning majburiyatlari ichida shunday qoida bor, ya’ni notarius notarial harakatlarni amalga oshirish chog‘ida fuqarolar yoki mansabdor shaxslar tomonidan qonuniylik buzilganligini aniqlagan taqdirda, zarur chora-tadbirlar ko‘rilishi uchun tegishli korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yoki prokurorga bu haqda xabar qilishi shartligi belgilab qo‘yilgan. Bu qoida qaysidir ma’noda notariusga murojaat qiluvchilarning huquqini buzish deb baholanishi mumkin. Biroq bu boshqa huquq subyektlarining qonuniy manfaatlarini, jamiyatda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi;

**notarial harakatlar amalga oshiriladigan til –** mazkur prinsip O‘zbekiston Respublikasining Notariat to‘g‘risidagi qonunining 11-moddasida keltirib o‘tilgan. Unga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili to‘g‘risidagi qonunining 1-moddasiga asosan, O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. Demak, notarial harakatlar o‘zbek tilida amalga oshiriladi. Shuningdek, mazkur prinsipdan chekinishga ham yo‘l qo‘yiladi. Notariat to‘g‘risidagi

qonunning 11-moddasi ikkinchi qismiga muvofq, rasmiy-lashtirilgan hujjat matni fuqarolarning talabiga binoan notarius yoki notarial harakatlarni amalga oshiruvchi shaxs tomonidan rus tilida yoki imkon bo‘lsa, boshqa maqbul tilda berilishi mumkin.

### **3.2. Notarial harakatlarning umumiy tavsifi**

Notarial harakatlarning umumiy qoidalari deb barcha notarial harakatlar uchun tegishli bo‘lgan qoidalarga aytildi. Bularga notarial harakatlarning taalluqliligi, notarial harakatlarni amalga oshirish muddatlari, notarial harakatlarni amalga oshirishni rad qilish, ularni kechiktirish va amalga oshirishni to‘xtatib qo‘yish asoslari, tartibi, muddatlari, shuningdek notarial idoraga murojaat qilish layoqati va boshqa masalalar kiradi.

#### **3.2.1. Notarial harakatlarning taalluqliligi**

*Notariusga taalluqlilik – notariuslar qonunda belgilangan notarial harakatlarni amalga oshiradi. Bular O‘zbekiston Respublikasining “Notariat to‘g‘risida”gi Qonunining 23-moddasi va boshqa qonun hujjatlariga asosan quyidagi notarial harakatlarni amalga oshiradi:*

- 1) bitimlarni tasdiqlaydi;
- 2) vasiyatnomalarni tasdiqlaydi;
- 3) er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga mulk huquqi to‘g‘risida guvohnomalar beradi;
- 4) mol-mulkni o‘zga shaxsga o‘tkazishni taqiqlab qo‘yadi va taqiqni bekor qiladi;
- 5) merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnoma beradi;
- 6) meros mol-mulkning qo‘riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko‘radi;
- 7) hujjatlar nusxalarining va hujjatlardan olingan ko‘chirmalarning to‘g‘riligini shahodatlaydi;

- 8) hujjatlarning bir tildan boshqa tilga to‘g‘ri tarjima qilinganligini shahodatlaydi;
- 9) hujjatlardagi imzoning haqiqiyigini shahodatlaydi;
- 10) ko‘chmas mulk ochiq savdoda sotib olinganligi haqida guvohnoma beradi;
- 11) fuqaroning tirik ekanligi faktini tasdiqlaydi;
- 12) fuqaroning muayyan joyda ekanligi faktini tasdiqlaydi;
- 13) fuqaroning fotosuratda aks ettirilgan shaxs ekanligini tasdiqlaydi;
- 14) hujjatlar taqdim etilgan vaqtini tasdiqlaydi;
- 15) yuridik shaxsning rahbar orgni tomonidan qaror qabul qilinganligi faktini tasdiqlaydi;
- 16) jismoniy va yuridik shaxslarning arizalarini boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga topshiradi;
- 17) pul summalari va qimmatli qog‘ozlarni depozitga qabul qilib oladi;
- 18) hujjatlarni saqlash uchun qabul qilib oladi;
- 19) pul to‘lash uchun cheklarni taqdim etadi va cheklar bo‘yicha pul to‘lanmaganligini tasdiqlaydi;
- 20) ijro xatlarini yozadi;
- 21) veksellarning protestlarini amalga oshiradi;
- 22) dengiz protestlarini amalga oshiradi;
- 23) notarial tasdiqlangan hujjatlarning dublikatlarini hamda reestrlardan ko‘chirmalarni beradi;
- 24) xorijiy davlatlarning organlarida ish yuritish uchun zarur dalillar bilan ta’minlash davlat notarial idoralari tomonidan amalga oshiriladi<sup>1</sup>.

Notariuslar qonunlarda nazarda tutilgan boshqa notarial harakatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

**Notarial idoraga taalluqlilik** – fuqarolar va yuridik shaxslar notarial harakatlarni amalga oshirishni so‘rab istalgan notarial idoraga murojaat qilishi mumkin. Qonunda belgilangan hollarda notarial harakatlarning ayrimlari

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi 76-modda ikkinchi qism. Notarius guvohlarning ko‘rsatuvarlarini yozib olish, yozma va ashyoviy dalillarni ko‘zdan kechirishi, ekspertiza tayinlash mumkin.

hududiylik prinsipiga asosan faqat qonunda ko'rsatilgan hududdagi notarial idoralar tomonidan amalga oshiriladi.

**Notarial idoraga taalluqlilik**

**Hududiy**

**Alternativ**

**Hududiy taaluqlilik:**

**quyidagi hollarda notarial harakatlarni amalga oshirish hududiylik prinsipi asosida muayyan joydagi notarial idoraga taalluqli bo'ladi:**

- meros ochilgan joydagi notarius meros goldiruvchining kreditorlaridan da'volarni qabul qilish meros ochilgan joydagi notarial idoraga taalluqli (Notariat to'g'risidagi qonunning 51-modda);
- meros mol-mulkning qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko'rish meros ochilgan joydagi notarial idoraga taalluqli (Notariat to'g'risidagi qonunning 52-moddasi);
- merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnomalar berish meros ochilgan joydagi notarial idoraga taalluqli (Notariat to'g'risidagi qonunning 58-moddasi);
- pul summalarini va qimmatli qog'ozlarni depozitga majburiyat bajariladigan joydagi notarius qabul qiladi (Notariat to'g'risidagi qonunning 74-moddasi);
- to'lovchining turar joydagi notarius to'lovga taqdim etilgan chekni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda qabul qilib oladi (Notariat to'g'risidagi qonunning 82-moddasi).

**Alternativ taalluqlilik:**

notarial harakatlarni amalga oshirish hududiylik prinsipiga asosan muayyan notarial idora tomonidan amalga oshirilishi qonunda belgilangan holatlardan tashqari

fugorolar notarial harakatlarni amalga oshirishni so‘rab istalgan hududdagi notarial idoraga murojaat qilishlari mumkin.

### **3.2.2. Notarial harakatlarni amalga oshirishni to‘xtatib turish, kechiktirish, rad qilish**

*Notarial harakatni amalga oshirishni to‘xtatib turish* – bir manfaatdor shaxs tasdiqlashni so‘rayotgan huquq yoki fakt ustida da’volashayotgan boshqa manfaatdor shaxsdan ariza tushganligi to‘g‘risida suddan ma’lumot olingan taqdirda notarial harakatni amalga oshirish mazkur **ish sudda hal bo‘lguniga qadar** to‘xtatib turiladi.

Qonun hujjatlarida notarial harakatlarni amalga oshirishni to‘xtatib turishning boshqa asoslari ham belgilanishi mumkin.

*Notarial harakatni amalga oshirishni kechiktirish* – notarial harakatni amalga oshirish qo‘srimcha ma’lumotlarni talab qilib olish yoki hujjatlarni ekspertizaga yuborish zarur bo‘lganida hamda notarial harakatlarni amalga oshirish, basharti qonunga binoan manfaatdor shaxslardan ushbu harakatlarni amalga oshirishga e’tiroz bor-yo‘qligini so‘rash zarur bo‘lganda kechiktirilishi mumkin. Notarial harakatni amalga oshirishni kechiktirish muddati **bir oydan** oshmasligi lozim.

Manfaatdor shaxs tasdiqlashni so‘rayotgan huquq yoki fakt ustida da’volashish uchun sudga murojaat qilish istagidagi boshqa manfaatdor shaxsnинг arizasiga ko‘ra notarial harakatni amalga oshirish ko‘pi bilan **o‘n kun** muddatga kechiktirilishi mumkin. Agar bu muddat ichida ariza tushganligi haqida suddan ma’lumot olinmasa, notarial harakat amalga oshirilishi lozim.

Qonun hujjatlarida notarial harakatlarni amalga oshirishni kechiktirishning boshqa asoslari ham belgilanishi mumkin.

*Notarial harakatni amalga oshirishni rad qilish* – notarius quyidagi hollarda notarial harakatni amalga oshirishni rad etadi, agar:

- bunday harakatni amalga oshirish qonunga zid bo‘lsa;
- bu harakat boshqa notarius tomonidan amalga oshirilishi kerak bo‘lsa;
- muomalaga layoqatsiz fuqaro yoxud zarur vakolatlari bo‘lmasa vakil notarial harakatni amalga oshirishni so‘rab murojaat qilgan bo‘lsa;
- yuridik shaxs nomidan amalga oshiriladigan bitim uning ustavida yoki nizomida ko‘rsatilgan maqsadlarga zid bo‘lsa;
- bitim qonun talablariga muvofiq bo‘lmasa;
- notarial harakatni amalga oshirish uchun taqdim etilayotgan hujjatlar qonun hujjatlari talablariga muvofiq bo‘lmasa.

Taqdim etilgan hujjatlarning qalbakilashtirilganligi yaqqol ko‘rinib turgan bo‘lsa yoki bunga shubha tug‘diruvchi etarli asoslarning mavjudligi, shuningdek murojaat etuvchi shaxs tomonidan uni identifikatsiyalash uchun zarur bo‘lgan hujjatlar taqdim etilmaslik holatlari ham notarial harakatni amalga oshirish uchun taqdim etilayotgan hujjatlar qonun hujjatlari talablariga muvofiq emas deb hisoblanadi.

Notarial harakatni amalga oshirish rad etilgan taqdirda, notarial harakatni amalga oshirishni rad etish haqida notarius murojaat qilingan kundan boshlab uch kundan kechiktirmasdan qaror chiqaradi hamda notarial harakatni amalga oshirishni so‘rab murojaat qilgan shaxsga bu haqida ma’lum qiladi (qaror nusxasini taqdim qiladi).

### **3.2.3. Notarial harakatlarning umumiy qoidalari**

– har bir fuqaro yoki yuridik shaxs notarial harakatlarni amalga oshirish uchun xohlagan notariusga murojaat qilishga haqlidir, hududiylig prinsipiga asosan muayyan hududda joylashgan notarial idorada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan notarial harakatlar bundan mustasno;

– notarial harakatlar davlat notarial idoralarining binolarida amalga oshiriladi. Fuqaro kasalligi, nogironligi tufayli yoki boshqa sabablarga ko‘ra davlat notarial idorasiga bora olmaydigan ayrim hollarda yoki yuridik shaxs tomonidan taklif qilinganda, notarial harakatlar davlat notarial idorasi binosidan tashqarida, ya’ni mazkur fuqaro yoki yuridik shaxs yoxud uning vakili joylashgan joyda amalga oshirilishi mumkin;

– shuningdek, notarial harakatlar notarial idoraga kelmasdan turib ham amalga oshirilishi mumkin, bunda murojaat qiluvchi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida shaxsiy kabinet orqali elektron arizani bevosita to‘ldirish yo‘li bilan notariusga murojaati qilishi mumkin.

– notarial harakatlar haq to‘langanidan so‘ng zarur bo‘lgan barcha hujjatlar taqdim etilgan kuni amalga oshiriladi;

– notarius notarial harakatlarni amalga oshirishni so‘rab murojaat qiluvchilarining (ularning qonuniy vakillarining, shuningdek vasiy va homiylarining) va yuridik shaxs vakillarining shaxsini aniqlaydi;

*notarial harakatlarni amalgalashishni so‘rab  
murojaat qiluvchi fuqarolarning shaxsi quyidagi  
hujjatlarga asosan aniqlanadi:*

- ✓ O‘zbekiston fuqarolarining shaxsi – milliy pasport orqali;
- ✓ 16 yoshga to‘lماqan fuqarolarning shaxsi – tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma (fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati tomonidan ushbu voyaga etmagan shaxsning rasmi elimlab yopishtirilgan ma’lumotnoma);
- ✓ harbiy xizmatchilarining shaxsi – harbiy qismlar va harbiy muassasalar qo‘mondonligi tomonidan beriladigan shaxsiy guvohnomalar yoki harbiy biletlar (harbiy xizmatga majbur fuqarolarning harbiy biletini bundan mustasno);
- ✓ xorijiy fuqarolarning shaxsi – ularning milliy pasporti (qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy fuqarolar tegishli ichki ishlar organlari tomonidan ro‘yxatga olinishi lozim) yoki O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoxud diplomatik pasporti yoki O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilinganligini tasdiqlovchi akkreditatsiya kartochkasi;
- ✓ fuqaroligi bo‘lماqan shaxs uchun O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 43-moddasiga muvofiq quyidagi hujjatlar yuridik shaxsning ta’sis hujjatlari bo‘lib hisoblanadi:

- ✓ ustav;
- ✓ ta’sis shartnomasi va ustav;
- ✓ ta’sis shartnomasi;
- ✓ nizom.

- notarial harakatlar amalga oshirilayotganida ularda ishtirok etayotgan fuqarolarning muomala layoqati belgilangan tartibda aniqlanadi va yuridik shaxslarning huquq layoqati tekshiriladi (notarius tomonidan fuqarolarning muomala layoqati ular bilan shaxsiy muloqot davomida aniqlanadi);
- notarial harakatda vakil ishtirok etgan taqdirda uning vakolati tekshiriladi;
- notarius yuridik shaxsning huquq layoqatini, uning organlarining yoki vakillarining vakolatini tekshirishda, uning tashkiliy-huquqiy shakliga e'tibor berishi zarur;
- notarial tasdiqlanadigan bitim, ariza va boshqa hujjatlar notarius ishtirokida imzolanadi;

- |   |
|---|
| <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ agar fuqaro jismoniy nuqsoni, kasalligi, savodsizligi tufayli yoki qandaydir boshqa sabablarga ko'ra bitim, ariza yoki boshqa hujjatni o'z qo'li bilan imzolay olmasa, bitim, ariza yoki boshqa hujjatni uning topshirig'iga ko'ra uning o'zi va notarius hozirligida boshqa fuqaro imzolashi mumkin. Bunda notarial harakatni amalga oshirishni so'rab murojaat qilgan fuqaroning hujjatni o'z qo'li bilan imzolay olmaganligi sabablar hujjat matniga va tasdiqlovchi yozuvga yozib qo'yilishi lozim;</li> <li>✓ agar notarial harakatni amalga oshirishni so'rab murojaat qilgan fuqaro savodsiz, ko'zi ojiz bo'lsa yoki qandaydir sabablar tufayli ko'zi yaxshi ko'ra olmasa, shuningdek kasalligi tufayli bitim, ariza va boshqa hujjatlarni o'qiy olmasa, notarius unga hujjat matnnini ovoz chiqarib o'qib beradi va bu haqida hujjat matnida va tasdiqlovchi yozuvda qayd etadi;</li> <li>✓ notarial harakatni amalga oshirishni so'rab kar-soqovlik nuqsoni (kar-soqov, kar, qulog'i og'ir) bo'lgan shaxs murojaat qilsa hamda u savodsiz bo'lsa, notarial harakatni amalga oshirish paytida u bilan muomala qila oladigan va bitim, ariza yoki boshqa hujjatning mazmunini uning xohish-irodasiga muvofiq ekanligini o'z imzosi bilan tasdiqlovchi surdo tarjimon hozir bo'lishi shart;</li> <li>✓ kar-soqovlik nuqsoni (kar-soqov, kar, qulog'i og'ir) bo'lgan hamda muomala layoqatiga ega bo'lgan savodli fuqaro</li> </ul> |
|---|

notarial harakatlarni amalga oshirishni so‘rab murojaat qilsa, bitim, ariza yoki boshqa hujjat uning o‘zi tomonidan va surdo tarjimon tomonidan imzolanishi mumkin;

✓ kar-soqovlik nuqsoni (kar-soqov, kar, qulog‘i og‘ir) bo‘lgan, muomala layoqatiga ega bo‘lgan, biroq surdo tarjimon bilan muloqot qila olmaydigan savodli fuqaro o‘z imzosi bilan bitim, ariza yoki boshqa hujjatning mazmunini o‘zining xohishirodasiga muvofiq ekanligini notarius bilan yozma ravishda bildiradigan bo‘lsa, notarial harakatlarni amalga oshirishda surdo tarjimonning ishtiroki shart emas (ushbu yozishmalar bitim, ariza yoki boshqa hujjatlar bilan birga tikib qo‘yiladi).

– tadbirkorlik subyektlarining notarial harakatlarni amalga oshirish yuzasidan murojaatlari mavjud bo‘lganda notariuslar davlat organlarida va boshqa tashkilotlarda mavjud bo‘lgan zarur hujjatlarni va axborotlarni o‘zarot axborot hamkorligi yo‘li bilan, shu jumladan elektron tarzda mustaqil ravishda oladilar;

*notarial harakatlarni amalga oshirishda tadbirkorlik subyektlaridan davlat organlarida va boshqa tashkilotlarda mavjud bo‘lgan hujjatlarni va axborotlarni, shu jumladan soliq qarzdorligi yoki kommunal to‘lovlar bo‘yicha qarzlarning mavjud emasligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomalarining, tadbirkorlik subyekti ta’sis hujjatlarining, litsenziyalar va ruxsat beruvchi tusdagi hujjatlarining nusxalari talab qilinmaydi!*

– notarial tasdiqlanadigan bitim, ariza va boshqa hujjatlarining matni aniq va ravshan yozilgan bo‘lishi lozim, bitim, ariza va hujjatning mazmuniga taalluqli sana va muddatlar hech bo‘lmaganda **bir marta so‘z bilan**, bitim, ariza va boshqa hujjatning matnida baholar ko‘rsatilsa, raqam hamda so‘z bilan yozilishi, yuridik shaxslarning nomlari esa ularning organlari joylashgan yerlarini (pochta manzilini) ko‘rsatgan holda **qisqartirishlarsiz yozilishi**, zarur hollarda esa bankdag‘i hisob raqam va soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami ko‘rsatilishi lozim; fuqarolarning familiyasi, ismi, otasining ismi, doimiy yoki vaqtincha propiska qilingan (hisobga olingan) manzili to‘liq ko‘rsatilgan holda yozilishi, notarial harakatlarni amalga

oshirishda chet el fuqarolari qatnashayotgan bo'lsa, ularning fuqaroligi ham ko'rsatib o'tilishi kerak;

– notarial tasdiqlanayotgan yoki shahodatlantirilayotgan bitim, ariza va boshqa hujjatlar bir necha alohida varaqlarda bayon etilgan taqdirda ular ip o'tkazib tikiladi, varaqlari esa raqamlanadi hamda notarial idoraning muhri qo'yilgan holda notariusning imzosi bilan tasdiqlanadi;

– tasdiqlanib berilayotgan hujjat tegishli davlat boji to'lanib, taraflar (taraf) tomonidan imzolanganidan so'ng notarius tomonidan imzolanib, muhr qo'yiladi va reestrda qayd etiladi; reestrغا yozuvlar davlat notarial idorasining vakolat berilgan boshqa xodimi tomonidan ham kiritilishi mumkin; hujjatni olayotgan shaxs reestrغا familiyasi, ismi va otasining ismini to'liq yozadi va imzolaydi.

### **3.2.3.1. Voyaga yetmaganlarning notarial harakatlarni amalgga oshirishda ishtiroki**

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 29-moddasiga asosan, 14 yoshgacha bo'lgan voyaga etmaganlar notarial harakat ishtirokchisi bo'lsa, misol uchun ular shartnomalar bo'yicha taraf bo'lgan hollarda ularning nomidan notarial harakatni ularning qonuniy vakillari yoki vasiylari amalgga oshirishi mumkin.

Bunda shu narsani yodda tutish lozimki:

– ***birinchidan***, 14 yoshga to'lmagan voyaga yetmaganning nomidan harakat qilayotgan shaxs ***voyaga yetmagan shaxs va o'zi o'rtasida bitim tuzishga yoxud o'zining manfaatini ko'zlab voyaga etmaganning nomidan biror-bir notarial harakatni amalgga oshirishga vakolatli emas;***

– ***ikkinchidan***, bunday notarial harakatlarni amalgga oshirishda ota-onaning har ikkisining roziligi talab qilinadi;

– ***uchinchidan***, ushbu notarial harakatni amalgga oshirishda notarius 14 yoshga to'lmagan bolaning nomidan harakat qilayotgan shaxsga mazkur notarial harakatlar bo'yicha fuqarolik huquqiy javobgarlik vujudga kelgan

taqdirda u mulkiy javobgar bo‘lishi to‘g‘risida ogohlantirishi lozim<sup>1</sup>.

14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga etmaganlar notarial harakatning ishtirokchisi bo‘lgan taqdirda notarial harkatni amalga oshirishda ularning o‘zлari hamda ularning qonuniy vakillari yoxud vasiylari ishtirok etadilar.

Bunda, notarial harakatni amalga oshirishda voyaga yetmagan shaxs qatnashganda, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati tomonidan ushbu voyaga etmagan shaxsning rasmi yelimlab yopishtirilgan ma’lumotnomada talab etiladi. Ushbu ma’lumotnomadagi rasm ham fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati muhri bilan tasdiqlanadi.

### **3.2.3.2. Notariusning o‘zi nomidan notarial harakatlarni amalga oshirishi**

Notariuslar o‘z nomiga va o‘z nomidan, xotini (eri) nomiga hamda uning nomidan, xotinining (erining) va o‘zining qarindosh-urug‘lari (ota-onasi, bolalari, nabiralari, tug‘ishgan aka-uka va opa-singillari), ular bilan vasiylik va homiylik tufayli bog‘langan shaxslar nomiga hamda ularning nomidan, shuningdek mazkur davlat notarial idorasining xodimlari nomiga va ularning nomidan notarial harakatlarni amalga oshirishga haqli emas.

Bunday hollarda notarial harakatlar boshqa davlat notarial idorasida amalga oshiriladi. Qonun hujjatlariga muvofiq notarial harakatlar muayyan davlat notarial idorasida bajarilishi kerak bo‘lgan hollarda notarial harakatni amalga oshirish joyi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan belgilanadi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 29-modda ikkinchi qism.

### **3.3. Notarial harakatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar**

Har bir fuqaro vakolatli davlat organlariga va mansabdar shaxslarga ariza, shikoyat va taklif bilan murojaat qilishi mumkin. Jumladan, notarial idoralarga ham. Qonunchiligidan huquq va qonuniy manfaatlarni amalga oshirishda ko‘maklashganlik uchun davlat bojlari undirish nazarda tutilgan. Jumladan, notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun qonunda belgilangan miqdorda davlat bojlari va huquqiy maslahatlar hamda texnik tusdagi xizmatlarni ko‘rsatganlik uchun haq undiriladi.

Notarial harakatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar – notarial harakatni amalga oshirish bilan bog‘liq undiriladigan davlat bojlari va boshqa to‘lovlar hisoblanadi.

Davlat boji O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining XVII bo‘limida keltirib o‘tilgan. 326-moddaga ko‘ra **davlat boji** – yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdar shaxslar tomonidan hujjatlar bergenlik uchun olinadigan majburiy to‘lovdir.

O‘zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarini tomonidan konsullik harakatlarini amalga oshirganlik uchun davlat boji **konsullik yig‘imi** tariqasida undiriladi.

Notarius tomonidan notarial harakatlarni bajarganlik uchun quyidagicha davlat bojlari undiriladi.

1. Ko‘chmas mol-mulkni boshqa shaxsga o‘tkazish bilan bog‘liq shartnomalarni tasdiqlaganlik uchun davlat boji quyidagi miqdorlarda undiriladi.

Ko‘chmas mol-mulk joylashgan joy	Ko‘chmas mol-mulkning umumiy maydoniga qarab:		
	100 kv.m gacha bo‘lganda	100 kv.m dan 200 kv.m. gacha bo‘lganda	200 kv.m va undan ortiq bo‘lganda
Toshkent, Nukus shaharlari va viloyat markazlari	eng kam oylik ish haqining 1 baravari miqdorida	eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida	eng kam oylik ish haqining 3 baravari miqdorida
boshqa aholi punktlari	eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida	eng kam oylik ish haqining 1 baravari miqdorida	eng kam oylik ish haqining 1,5 baravari miqdorida

Mulkdorning xotiniga (eriga), uning va xotinining (erining) ota-onalariga, bolalari va ularning er-xotinlariga, nabiralariga, buvilariga, buvalariga, aka-ukalari va opasingillariga ko‘chmas mol-mulkni o‘tkazish bilan bog‘liq shartnomalar rasmiylashtirilayotganda **davlat boji belgilangan stavkaning 50 foizi miqdorida undiriladi.**

O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi va respublikaning boshqa mintaqalarida doimiy propiskaga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar tomonidan Toshkent shahri va Toshkent viloyatida yangi qurilgan ko‘chmas mol-mulkni oldi-sotdi shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun – **shartnoma summasining 5 foizi, ammo eng kam oylik ish haqining kamida 10 baravari miqdorida undiriladi.**

Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga boshqa davlatlardan kelgan va O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar tomonidan 600 mln. so‘mdan kam bo‘limgan miqdorida yangi qurilgan ko‘chmas mol-mulk

sotib olinganda — *shartnoma summasining 10 foizi miqdorida undiriladi.*

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy propiskaga ega bo‘lman va respublikaning boshqa hududida doimiy propiskaga ega bo‘lgan shaxslar va Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga boshqa davlatlardan kelgan va O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo‘lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslar tomonidan yangi qurilgan ko‘chmas mulklarni qimmatlashtirilgan davlat boji to‘lab notarial tasdilangan shartnomalar asosida qo‘lga kiritgan ko‘chmas mulknii xarid qilingan kundan boshlab uch yil mobaynida boshqa shaxsga o‘tkazish bilan bog‘liq shartnomalarni tasdiqlaganlik uchun *eng kam oylik ish haqining 400 baravari miqdorida davlat boji undiriladi.*

2. Mol-mulkni ijaraga berish shartnomasini tasdiqlaganlik yoki unga o‘zgartirishlar kiritganlik uchun:

- mulkdorning xotiniga (eriga), uning va xotinining (erining) ota-onalariga, bolalari va ularning er-xotinlariga, nabiralariga, buvilariga, buvalariga, aka-ukalari va opasingillariga tasdiqlaganlik uchun — eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida;

- jismoniy shaxslar uchun — eng kam oylik ish haqining 1 baravari miqdorida;

- yuridik shaxslar uchun yoki taraflardan biri yuridik shaxs bo‘lganda — eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida davlat boji undiriladi.

*Mol-mulkni ijaraga berish shartnomasini bekor qilganlik uchun davlat boji belgilangan stavkaning 50 foizi miqdorida undiriladi;*

3. Mol-mulordan tekin foydalanish shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun — *eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida davlat boji undiriladi.*

Avtomototransport vositalaridan tekin foydalanish shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun quyidagi miqdorda davlat boji undiriladi:

- mulkdorning xotiniga (eriga), uning va xotinining (erining) ota-onalariga, bolalari va ularning er-xotinlariga, nabiralariga, buvilariga, buvalariga, aka-ukalari va opasingillariga, jiyalariga — ***eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida;***

- boshqa shaxslarga — ***eng kam oylik ish haqining 3 baravari miqdorida;***

4. Garov, ipoteka va lizing shartnomalarini tasdiqlaganlik hamda ularga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritganlik uchun davlat boji quyidagi miqdorlarda undiriladi:

Shartnoma summasiga qarab:			
Bitim ishtirokchilari (taraflari)	Eng kam oylik ish haqining 1000 baravarigacha	Eng kam oylik ish haqining 1000 baravarida n 5000 baravariga cha	Eng kam oylik ish haqining 5000 baravari va undan ortiq bo‘lganda
jismoniy shaxslar uchun	eng kam oylik ish haqining 1 baravari miqdorida	eng kam oylik ish haqining 1,5 baravari miqdorida	eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida
yuridik shaxslar uchun	eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida	eng kam oylik ish haqining 3 baravari miqdorida	eng kam oylik ish haqining 4 baravari miqdorida

***Garov, ipoteka va lizing shartnomalariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqidagi bitimlar rasmiylashtirilayotganda, davlat boji belgilangan stavkaning 50 foizi miqdorida undiriladi.***

5. Banklar bilan qarz oluvchilarning kredit bo'yicha qarzdorlikni qarzdorning likvidli mol-mulki hisobiga qaytarish to'g'risidagi yozma bitimlarini (shartnomalarini) tasdiqlaganlik uchun — *eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida undiriladi*.

6. Qarz shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun:

Shartnoma summasiga qarab:		
Eng kam oylik ish haqining 100 baravarigacha	Eng kam oylik ish haqining 100 baravaridan 300 baravarigacha	Eng kam oylik ish haqining 300 baravari va undan ortiq bo'lganda
eng kam oylik ish haqining 25 foizi miqdorida	eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida	eng kam oylik ish haqining 1 baravari miqdorida

Qarz shartnomalariga o'zgartirishlar kiritganlik yoki uni bekor qilganlik uchun davlat boji belgilangan stavkaning **50 foizi miqdorida undiriladi**;

7. Kafillik shartnomalarini tasdiqlaganlik, unga o'zgartirishlar kiritganlik yoki bekor qilganlik uchun:

- jismoniy shaxslar uchun — eng kam oylik ish haqining 25 foizi miqdorida;

- yuridik shaxslar uchun yoki taraflardan biri yuridik shaxs bo'lganda — eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida davlat boji undiriladi.

8. Korxonani boshqa shaxsga o'tkazish shartnomalarni tasdiqlaganlik uchun — eng kam oylik ish haqining 1 baravari miqdorida davlat boji undiriladi.

9. Vasiyatnomalarni tasdiqlaganlik uchun — eng kam oylik ish haqining 5 foizi miqdorida davlat boji undiriladi.

10. Merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma bergenlik uchun:

- meros mol-mulki ko'chmas mulk yoki avtomototransport vositasi bo'lganda (har biri uchun) — eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida;

- boshqa barcha mol-mulklar uchun — eng kam oylik ish haqining 30 foizi miqdorida davlat boji undiriladi.

11. Er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma bergenlik uchun — eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida davlat boji undiriladi.

12. Avtomototransport vositalarini boshqa shaxsga o‘tkazish shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun davlat boji quyidagi miqdorlarda undiriladi:

Transport vositasining dvigatel quvvati bo‘yicha	Ishlab chiqarilgan muddatiga qarab:		
	3 yilgacha bo‘lganda	3 yildan 7 yilgacha bo‘lganda	7 yil va undan ortiq bo‘lganda
60 ot kuchigacha bo‘lganda	eng kam oylik ish haqining 4 baravari miqdorida	eng kam oylik ish haqining 3 baravari miqdorida	eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida
60 ot kuchidan 110 ot kuchigacha bo‘lganda	eng kam oylik ish haqining 6 baravari miqdorida	eng kam oylik ish haqining 4 baravari miqdorida	eng kam oylik ish haqining 3 baravari miqdorida
110 ot kuchidan yuqori bo‘lganda	eng kam oylik ish haqining 10 baravari miqdorida	eng kam oylik ish haqining 8 baravari miqdorida	eng kam oylik ish haqining 5 baravari miqdorida
bitta mototransport, motokolyaska, motoqayiq uchun	eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida	eng kam oylik ish haqining 25 foizi miqdorida	eng kam oylik ish haqining 10 foizi miqdorida

Ayrboshlash shartnomasini rasmiylashtirishda davlat boji shu bojning ko‘p summasi olinadigan faqat bir avtomototransport vositasidan undiriladi.

Mulkdorning xotiniga (eriga), uning va xotinining (erining) ota-onalariga, bolalari va ularning er-xotinlariga, nabiralariga, buvilariga, buvalariga, aka-ukalari va opasingillariga avtomototransport vositalarini o'tkazish shartnomalari rasmiylashtirilayotganda davlat boji belgilangan stavkaning 5 foizi miqdorida undiriladi.

Bank kreditlari hisobiga sotib olinadigan avtomototransport vositalarining oldi-sotdisi uchun davlat boji belgilangan stavkaning 10 foizi miqdorida undiriladi.

Yo'l-transport hodisasi natijasida shikastlangan avtomototransport vositalarini boshqa shaxsga o'tkazish shartnomalari rasmiylashtirilayotganda davlat boji miqdori shu transport vositalari yaroqliligining qoldiq foiziga qarab o'zgartiriladi hamda uning miqdori bitim taraflarining xohishiga ko'ra va notariusning topshirig'iga binoan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining sud-ekspertiza muassasalari mutaxassislari, bunday muassasalar bo'limgan hududlarda esa — O'zavtotexxizmat mas'uliyati cheklangan jamiyati tashkilotlari tomonidan belgilanadi.

13. Ishonchnomalarni tasdiqlaganlik uchun quyidagi miqdorda davlat boji undiriladi.

*- avtomototransport vositalarini boshqarish va tasarruf qilish huquqini beruvchi ishonchnomalarni tasdiqlaganlik uchun:*

- mulkdorning xotiniga (eriga), uning va xotinining (erining) ota-onalariga, bolalari va ularning er-xotinlariga, nabiralariga, buvilariga, buvalariga, aka-ukalari va opasingillariga, jivanlariga — eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida;

- boshqa shaxslarga — eng kam oylik ish haqining 3 baravari miqdorida;

*- ko'chmas mol-mulkni tasarruf etish huquqini beruvchi ishonchnomalarni tasdiqlaganlik uchun:*

- mulkdorning xotiniga (eriga), uning va xotinining (erining) ota-onalariga, bolalari va ularning er-xotinlariga, nabiralariga, buvilariga, buvalariga, aka-ukalari va opasingillariga — eng kam oylik ish haqining 25 foizi miqdorida;

- boshqa shaxslarga — eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida;

- boshqa ishonchnomalarni tasdiqlaganlik uchun — eng kam oylik ish haqining 10 foizi miqdorida davlat boji undiriladi.

14. Meros mulkni muhofaza qilish choralarini ko‘rganlik uchun — eng kam oylik ish haqining 30 foizi miqdorida davlat boji undiriladi.

15. Hujjatning bir tildan boshqa tilga qilingan tarjimasining to‘g‘riligini shahodatlash uchun — har bir bet uchun eng kam oylik ish haqining 1 foizi miqdorida davlat boji undiriladi.

16. Ijro xatlari yozib bergenlik uchun — undiriladigan summaning 1 foizi miqdorida, biroq eng kam oylik ish haqining 10 baravaridan ortiq bo‘lmagan miqdorda davlat boji undiriladi.

17. Hujjatlarning nusxalari va ulardan ko‘chirmalarning to‘g‘riligini shahodatlash uchun:

- jismoniy shaxslar uchun — har bir bet uchun eng kam oylik ish haqining 1 foizi miqdorida;

- yuridik shaxslar uchun — har bir bet uchun eng kam oylik ish haqining 2 foizi miqdorida;

- shu ishlarni chet mamlakatda bajarganlik uchun — har bir bet uchun eng kam oylik ish haqining 5 foizi miqdorida davlat boji undiriladi.

18. Hujjatlardagi imzolarining haqiqiyligini, shu jumladan tarjimon imzosining haqiqiyligini shahodatlash uchun:

- jismoniy shaxslar uchun — eng kam oylik ish haqining 5 foizi miqdorida;

- yuridik shaxslar uchun — eng kam oylik ish haqining 20 foizi miqdorida.

19. Notarial idoralarda mavjud bo‘lgan hujjatlarning nusxalarini va dublikatlarini berganlik uchun — eng kam oylik ish haqining 5 foizi miqdorida davlat boji undiriladi.

20. Banklarda hisob raqamlari ochishda imzolarning haqiqiyligini shahodatlash uchun — eng kam oylik ish haqining 2 foizi miqdorida davlat boji undiriladi.

21. Boshqa turdagи shartnomalarni tasdiqlaganlik uchun:  
- jismoniy shaxslar uchun — ***eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida;***

- yuridik shaxslar yoki taraflardan biri yuridik shaxs bo‘lganda uchun — ***eng kam oylik ish haqining 1 baravari miqdorida davlat boji undiriladi.***

22. Boshqa notarial harakatlar bajarilganligi uchun eng kam oylik ish haqining 10 foizi miqdorida davlat boji undiriladi.

Davlat notarial idorasi binosidan tashqarida amalga oshiriladigan notarial harakatlar uchun davlat boji ikki baravar miqdorda undiriladi, bundan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari binolarida notariuslarning sayyor qabullari chog‘ida amalga oshiriladigan notarial harakatlar, shuningdek ozodlikdan mahrum qilish joylaridagi yoki qamoqda saqlanayotgan shaxslarning ishonchnomalarini notarial tartibda tasdiqlash mustasno, ushbu harakatlarni bajarish uchun joyga borish bilan bog‘liq amalda sarflangan xarajatlar to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasida notarial harakatlar amalga oshirilganda davlat bojini to‘lashdan ozod qilingan holatlar O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi hamda Davlat boji stavkalarida belgilab qo‘yilgan. Quyidagi hollarda notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun davlat boji undirilmaydi:

1) shaxslar — davlat pensiyalari va nafaqalarini olish uchun zarur bo‘lgan, shuningdek vasiylik qilish va farzandlikka olish to‘g‘risidagi ishlar yuzasidan hujjatlarning ko‘chirma nusxalari to‘g‘riligini ularga tasdiqlab berganlik uchun;

2) shaxslar — mol-mulkini davlat foydasiga, shuningdek yuridik shaxslar foydasiga hadya qilish to‘g‘risidagi vasiyatnomalari va shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun;

3) davlat soliq xizmati organlari va moliya organlari — ularga davlatning merosga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnomalarni (guvohnomalarining dublikatini) berganlik, shuningdek ushbu guvohnomalarni (guvohnomalarining dublikatini) olish uchun zarur bo‘lgan barcha hujjatlar uchun;

4) nogironlarning jamoat birlashmalari, ularning muassasalarini, o‘quv-ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari — barcha notarial harakatlar bo‘yicha;

5) shaxslar — ularga quyidagilar uchun merosga bo‘lgan huquqi to‘g‘risida guvohnoma bergenlik uchun:

Vatanni himoya qilish chog‘ida, boshqa davlat yoki jamoat vazifalarini bajarayotganligi munosabati bilan yoxud inson hayotini qutqarish, davlat mulkini va huquq-tartibotni muhofaza qilish bo‘yicha fuqarolik burchini ado etish munosabati bilan halok bo‘lgan shaxslarning mol-mulki uchun;

uy-joy (kvartira) uchun yoki uy-joy-qurilish kooperatividagi pay uchun, agar ular meros qoldiruvchining vafot etish kunigacha birga yashagan, turar joyda qayd etilgan bo‘lsa va meros qoldiruvchining vafotidan keyin ham shu uy-joyda (kvartirada) yashayotgan bo‘lsa;

banklardagi omonatlar, shaxsiy va mulkiy sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta summalar, davlat zayom obligatsiyalari uchun, ish haqi summalar uchun;

fan, adabiyot va san’at asarlari, ixtiro, seleksiya yutug‘i, foydali model, sanoat namunasi, integral mikrosxemalar topologiyasi muallifining mulkiy huquqlari, shuningdek ijrochining ijroga doir mulkiy huquqlari uchun;

fan, adabiyot va san’at asarlari, ixtiro, seleksiya yutug‘i, foydali model, sanoat namunasi, integral mikrosxemalar topologiyasini yaratish va ulardan foydalanish, shuningdek ijrolarni yaratish hamda ulardan foydalanish haqi summalar uchun.

6) shaxslar — pensiyalar va nafaqalar olish uchun ishonchnomani tasdiqlatganlik uchun;

7) onalar — ko‘p bolalik uchun ularga ordenlar va medallar berilganligi haqidagi ishlar bo‘yicha hujjatlar ko‘chirma nusxalarining to‘g‘riliгини tasdiqlab bergenlik uchun;

8) mакtab-internatlar — farzandlarining maktab-internatdagi ta’mиноти uchun ota-onalardan qarzlarni undirish to‘g‘risidagi ijro yozuvlarini amalga oshirganlik uchun;

9) moliya organlari — farzandlarining O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining ixtisoslashtirilgan maktablaridagi ta’mиноти uchun ota-onalardan qarzlarni undirish to‘g‘risidagi ijro yozuvlarini amalga oshirganlik uchun;

10) ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa tufayli vafot etish va halok bo‘lish hodisasiiga korxonalar va tashkilotlar hisobidan sug‘urta qilingan jismoniy shaxslarning merosxo‘rlari — sug‘urta puliga vorislik huquqini tasdiqlovchi guvohnoma bergenlik uchun;

11) surunkali ruhiy kasallikka chalingan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vasiylik belgilangan

shaxslar — mol-mulkka vorislik qilishlari to‘g‘risida guvohnoma olganliklari uchun;

12) O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda uning joylardagi organlari — xodimlarni tashkiliy yo‘sinda ishga qabul qilish tartibida tuziladigan mehnat shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun;

13) 1941—1945-yillardagi urush nogironlari, 1941—1945 yillardagi urush frontlarida yaralangan shaxslar va 1941—1945 yillardagi urush frontlarida halok bo‘lgan yoki bedarak yo‘qolgan shaxslarning oila a’zolari, 1941—1945-yillardagi urush qatnashchilari hamda Vatanni himoya qilishda va Sovet Armiyasida o‘z xizmat burchini o‘tayotganda yaralangan shaxslar, Afg‘oniston Respublikasida baynalmilal burchini o‘tagan shaxslar, shuningdek 1986—1987-yillarda Chernobil AESining zaharlangan mintaqasi doirasida avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslar, 1986-yilda Chernobil AESidagi avariya munosabati bilan zaharlangan mintaqadan ko‘chirilgan (shu jumladan, o‘z ixtiyori bilan chiqib ketgan) shaxslar, agar ular vafot etgan bo‘lsa, ularning oila a’zolari — imtiyozlar berilishi uchun zarur bo‘lgan hujjatlar ko‘chirma nusxalarining to‘g‘riligini tasdiqlatganligi uchun;

14) O‘zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligi — mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bo‘yicha to‘lanishi kerak bo‘lgan mukofotning undirilishi to‘g‘risidagi ijro yozuvlarini amalga oshirganlik uchun;

15) shaxslar — ularga yo‘lovchilarning majburiy sug‘urtasi yuzasidan sug‘urta summalariga hamda fuqarolarga qarashli mol-mulkning majburiy sug‘urtasi yuzasidan sug‘urta tovoni summalari bo‘yicha merosga bo‘lgan huquqi to‘g‘risida guvohnoma bergenlik uchun;

16) fermer xo‘jaligida faoliyatni davom ettirayotgan merosxo‘rlar — ularga fermer xo‘jaligining mol-mulki

bo‘yicha merosga bo‘lgan huquqi to‘g‘risida guvohnoma bergenlik uchun;

17) yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaligida faoliyatni davom ettirayotgan merosxo‘rlar — ularga dehqon xo‘jaligi mol-mulki bo‘yicha merosga bo‘lgan huquqi to‘g‘risida guvohnoma bergenlik uchun;

18) xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, kommunal-foydanish tashkilotlari — majburiy badallarni to‘lash va kommunal xizmatlar to‘lovi bo‘yicha qarzlarni undirish to‘g‘risidagi ijro yozuvlarini amalga oshirganlik uchun;

19) nikoh shartnomasini va aliment to‘lash haqida kelishuvni notarial tasdiqlash, ularga o‘zgartirishlar kiritish yoki bekor qilish hamda mol-mulkni o‘zga shaxsga o‘tkazishni taqiqlab qo‘yish va taqiqni bekor qilishda davlat boji undirilmaydi.

### **3.4. Bitimlarni notarial tasdiqlashning umumiy qoidalari**

Bitimlarni notarial tasdiqlash tartibi tushuntirib berishdan oldin qisqacha bitim tushunchasiga to‘xtalib o‘tishni lozim deb topdik.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 110-moddasiga muvofiq bitimlar:

- ✓ qonunda ko‘rsatilgan hollarda;
- ✓ taraflardan birining talabi bo‘yicha notarial tasdiqlanadi.

***Quyidagi hollarda bitimlar notarial tasdiqlanishi  
shart:***

- ✓ qonun hujjatlarda belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan avtomototransport vositalarining oldi-sotdi shartnomasi<sup>1</sup>;
- ✓ korxonani sotish shartnomasi<sup>2</sup>;
- ✓ qonun hujjatlarda belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan avtomototransport vositalarini ayirboshlash shartnomasi<sup>3</sup>;
- ✓ ko‘chmas mulkni hadya qilish shartnomasi<sup>4</sup>;
- ✓ qonun hujjatlarda belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan avtomototransport vositalarini hadya qilish shartnomasi<sup>5</sup>;
- ✓ renta shartnomasi<sup>6</sup>;
- ✓ umrbod ta’minlash sharti bilan uy-joy (uyning bir qismi), kvartirani boshqa shaxsga berish shartnomasi<sup>7</sup>;
- ✓ davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan avtomototransport vositalarini ijara berish shartnomasi<sup>8</sup>;
- ✓ korxonani ijara berish shartnomasi<sup>9</sup>.

Bitimni notarial tasdiqlash O‘zbekistan Respublikasi Fuqarolik kodeksining 107-moddasi talablariga mos keladigan hujjatda notarius yoki bunday notarial harakatni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan boshqa mansabdor shaxs tomonidan tasdiqlovchi ustxat yozib qo‘yish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 386-moddasi to‘rtinchı qism.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 480-moddasi birinchi qism.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 497-moddasi uchinchi qism.

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 504-moddasi beshinchi qism.

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 504-moddasi oltinchi qism.

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 513-modda.

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 531-moddasi uchinchi qism.

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 565-moddasi ikkinchi qism.

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 580-moddasi birinchi qism.

Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan taqdim qilingan bitimlarning loyihalari yoki notarial idorada tuziladigan bitim va arizalarning loyihalari qonun hujjatlariga zid bo‘lmasligi lozim.

***Bitimlarning matnida (tegishliligiga qarab):***

- ✓ u qanday bitim ekanligi (bitimning nomi);
- ✓ bitimni tasdiqlagan notarial idora joylashgan yerning (pochta manzilining) to‘liq nomi va notariusning ismi, familiyasi, otasining ismi;
- ✓ bitim imzolangan sana so‘zlar bilan qayd qilinishi, taraflarning familiyalari, ismlari va otalarining ismlari to‘liq yozilishi, doimiy yoki vaqtincha propiska qilingan (hisobga olingan) manzillari haqidagi, yuridik shaxslarning nomlari hech bo‘lmasganda bir marotaba to‘liq yozilishi hamda ularning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi va joylashgan yerlari (pochta manzili), shuningdek STIRI to‘g‘risidagi ma’lumotlar, taraflar qarindosh bo‘lsa, ularning qarindoshlik darajasi;
- ✓ bitim taraflaridan biri chet el fuqarosi bo‘lsa, uning fuqaroligi;
  - ✓ bitim predmeti, uning tarkibi va tavsifi;
  - ✓ bitim predmeti uni boshqa shaxsga o‘tkazuvchiga qaysi hujjatga asosan tegishli ekanligi va bu hujjatlarning kim tomonidan va qachon berilganligi yoki tasdiqlanganligi;
  - ✓ mulkka bo‘lgan huquqni va u haqida tuziladigan bitimlarni ro‘yxatdan o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat haqidagi ma’lumot;
  - ✓ bitim predmeti boshqa shaxsga o‘tkazilishi taqiqlanmaganligi va xatlanmaganligi;
  - ✓ bitim predmetining inventar qiymati va taraflar tomonidan kelishilgan baho;
  - ✓ bitim predmeti uchun haq to‘lashning shakli va zarur hollarda muddatlari;
  - ✓ bitim predmetiga nisbatan uni oluvchida mulk huquqining vujudga kelishi;
  - ✓ bitim predmetiga nisbatan majburiyatlarni oluvchiga o‘tishi yoki boshqa holatlar;
  - ✓ taraflarning o‘zaro kelishuviga ko‘ra qonun hujjatlariga zid kelmaydigan huquq va majburiyatlarining

o‘tishi haqidagi boshqa shartlar;

- ✓ bitim predmeti uy, kvartira, uyning yoki kvartiraning bir qismi bo‘lganida, mazkur uy, kvartira, uyning yoki kvartiraning bir qismida doimiy yoki vaqtincha propiska qilingan (hisobga olingan) shaxslarning ro‘yxatini ko‘rsatgan holda, uy, kvartira, uyning yoki kvartiraning bir qismidan foydalanish yoki ro‘yxatdan o‘chish muddati;
- ✓ bitimda yuridik shaxsning rahbari ishtirok etsa, bitimga yuridik shaxsning muhri qo‘yilishi;
- ✓ er-xotinning mulkni nikohga qadar olganligini aniqlashda nikohning qachon va qaysi FHDYo bo‘limida qayd etilganligi haqidagi yozuv;
- ✓ bitim predmetiga nisbatan mulk huquqining o‘tishi munosabati bilan qonun hujjatlari talablari tushuntirilganligi, bitim necha nusxada tuzilib imzolanganligi va mulkka nisbatan mulk huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozimligi;
- ✓ bitimning mazmuni, ahamiyati notarius tomonidan tushuntirilganligi va taraflarning asl maqsadiga muvofiq kelishi o‘z aksini topishi kerak.

Bitimning barcha nusxalarini taraflar (ularning qonuniy vakillari, vasiy yoki homiyлари) familiyalari, ismlari va otalarining ismlarini to‘liq yozib shaxsan imzolaydilar.

Bitimning barcha nusxalariga notarius tegishli tasdiqlovchi yozuvni yozib, reestrga qayd qilingan tartib raqamini, undirilgan davlat boji miqdorini ko‘rsatib imzolaydi va muhrini qo‘yadi.

Notarial tartibda tasdiqlanadigan bitim mazmuni bayon etilgan hujjat nusxalarining soni notarial harakatni amalga oshirishni so‘rab murojaat qilgan shaxslar tomonidan belgilanadi, lekin u bitimda qatnashuvchi tomonlar miqdoridan oshib ketmasligi kerak, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

## ***Bitim tuzishda e'tibor bering***

- ✓ shartnomada taraflar imzosidan pastda keltirilgan kelushuvlar taraflar uchun majburiyat tug'dirmaydi;
- ✓ notariusning bitimni tasdiqlashda bitimni tasdaqlaganligi to'g'risidagi yozuvlari hamda uning imzosi va muhridan keyin keltirilgan bitim matnidagi bandlar **notarial tasdiqlanmagan hisoblanadi.**

### **3.4.1. Mol-mulkni boshqा shaxsgа o'tkazish bo'yicha bitimlarni notarial tasdiqlash**

Yuqorida notarial tasdiqlanishi shart bo'lgan bitimlar ro'yxatini sanab o'tdik. Unga ko'ra ko'chmas mulklar va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim bo'lgan avtomototransport vositalarini boshqा shaxsgа o'tkazish (*oldi-sotdi, hadya, ayirboshlash, mulkni umrbod ta'minlash sharti bilan boshqaga o'tkazish, renta va boshqalar*) bo'yicha bitimlar aksariyat hollarda notarial tasdiqlanishi amalidagi qonunlarda belgilab qo'yilgan<sup>1</sup>.

Davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim bo'lgan mulkni boshqা shaxsgа o'tkazish to'g'risidagi bitimlar, shuningdek ushbu bitimlarni bekor qilish to'g'risidagi bitim shu mulk joylashgan joydagi Yergeodezkadastr davlat qo'mitasi hududiy bo'linmasiga yoki Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati organlariga qayd etish uchun taqdim etilishi lozimligi haqida notarius tasdiqlovchi yozuvda taraflarga tushuntirganligi haqida ko'rsatib o'tadi.

---

<sup>1</sup> 2.2 ga qaralsin.

### **3.4.2. Mol-mulkga egalik qilish va (yoxud) undan foydalanish huquq(lar)ini boshqaga o‘tkazish bilan bog‘liq bitimlarni notarial tasdiqlash**

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi normalari<sup>1</sup>ga asosan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan avtomototransport vositalariga egalik qilish va ulardan foydalarish huquqlarini boshqaga o‘tkazish to‘g‘risidagi bitimlar (ijara, tekin foydalanish shartnomalari) notarial tasdiqlanishi shart.

Mazkur turdagи bitimlarni tasdiqlashda notariuslar quyidagi hujjatlarni talab qiladi:

- ✓ taraflarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari (pasport, harbiy guvohnoma yoki qonunda nazarda titilgan boshqa hujjatlar);
- ✓ taraflar yoki ulardan biri yuridik shaxs bo‘lsa, yuridik shaxsning ta’sis hujjatlari;
- ✓ taraflarning STIRi to‘g‘risidagi ma’lumot (faqat ijara shartnomasida);
- ✓ ijraga yoki tekin foydalanishga berilayotgan molmulkning mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi;
- ✓ mulk umumiyligida mulk bo‘lgan taqdirda (er-xotining birgalikdagi mulki) boshqa ega(lar)ning roziligi;
- ✓ vasiylikdagi shaxsga qarashli bo‘lgan avtomototransport vositasi ijaraga yoki tekin foydalanishga berilganda vasiylik va homiylik organlarining roziligi;
- ✓ ijraga yoki tekin foydalanishga berilayotgan molmulk yuridik shaxsga tegishli bo‘lsa, yuridik shaxs vakolatlari organlarining ko‘chmas mulkni ijaraga berish (olish)

---

<sup>1</sup> 2.2 ga qaralsin.

haqidagi hujjat (qaror, umumiy majlis bayonnomasi, kuzatuv kengashining qarori, buyruq va hokazo);

- ✓ davlat boji to‘langanligi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma va boshqalar.

Notarius davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan mulkni egalik qilish va (yoxud) undan foydalanish huquq(lar)ini boshqaga o‘tkazish bilan bog‘liq bitimlarni tasdiqlagandan so‘ng taraflarga bitimni mulk joylashgan joydagi “Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasi hududiy bo‘linmasiga yoki Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati organlarida tegishli tartibda ro‘yxatdan o‘tkazishlari lozimligini tushuntirishlari lozim.

### **3.4.3. Bitimni bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuv**

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 382-moddasiga asosan shartnomalar<sup>1</sup> ikki tarafning kelishuviga muvofiq bekor qilinishi mumkin<sup>2</sup>. Fuqarolik kodeksining 384-moddasi birinchi qismiga asosan shartnoma qanday shaklda tuzilgan bo‘lsa, uni bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuv ham shunday shaklda tuziladi. Demak, notarial tasdiqlanib tuzilgan bitimni bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuv ham notarial tasdiqlanishi lozim.

---

<sup>1</sup> Bir taraflama bitim bir kishining xohish irodasi bilan tuzilganligi uchun uni bekor qilish to‘g‘risida kelishuv bo‘lmaydi. Misol uchun, ishonchnoma bir taraflama bitim bo‘lib, ishonchnoma beruvchi o‘zining bergen ishonchnomani istalgan vaqtida bekor qilishi mumkin. Bitimlarni bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuv ikki taraflama va ko‘p taraflama bitimlarga oid tushuncha hisoblanadi. Ikki taraflama va ko‘p taraflama bitimlar o‘z navbatida shartnomalar hisoblanib, kamida ikki kishining kelishuvidan iboratdir. Shuning uchun ham mazkur paragrafda ikki taraflama va ko‘p taraflama bitimlar (shartnomalar)ni bekor qilish to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

<sup>2</sup> Bir tarafning talabi bilan qonunda ko‘rsatilgan asoslar mavjud bo‘lganda sud tomonidan bekor qilinishi mumkin.

Bitimni bekor qilish haqidagi bitim asosiy bitimga qo'shib qo'yiladigan alohida hujjat tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi. Notarial tasdiqlanib, davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak bo'lган bitimni bekor qilish to'g'risidagi qo'shimcha kelishuv, bu notarial tasdiqlangan, biroq hali davlat ro'yxatidan o'tkazilgan o'tkazilmaganligidan qat'i nazar, taraflarning xohish-irodasiga ko'ra notarius tomonidan tasdiqlanadi.

Agar bekor qilinayotgan bitim er-xotinning birlashtirilgandagi mulk huquqini vujudga keltirish to'g'risidagi bitim bo'lsa, notarius ulardan ikkinchisining (mulk oluvchining) bitimni bekor qilishga rozi ekanligi to'g'risidagi arizasini talab qiladi.

Notarius bitimni bekor qilish to'g'risidagi alohida bitimni tasdiqlaganidan so'ng notarial idorada saqlanayotgan bitim predmetiga oid mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatning kseronusxasini qoldirib, asl nusxasini mulkdorga yoki uning merosxo'rlariga yoxud vakillariga qaytarib beradi. Notarial idorada qolgan bitimning kseronusxasiga uning qaytarilganligi haqida hujjatni olgan shaxs imzo qo'yadi. Bitimning asl nusxasi merosxo'r larga berilgan taqdirda ularning merosxo'r ekanligini tasdiqlovchi tegishli hujjatlar tekshiriladi va ularning kseronusxalari notarial idorada qoldiriladi.

Bitimlar bekor qilingan vaqtida to'langan davlat boji qaytarilmaydi.

### **3.5. Vasiyatnomalarni notarial tasdiqlash**

Notarius O'zbekiston Respublikasi Notariat to'g'risidagi qonuning 23-moddasiga asosan vasiyatnomalarni notarial tasdiqlaydi. Vasiyatnomani notarial tasdiqlash Qonunda alohida notarial harakat sifatida sanalgan bo'lsada, vasiyatnomasi ham bitim hisoblanadi. Va bitimlarni tasdiqlash notarial harakati hisoblanidi. Biz buni qonunning 7 bobida ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasining Notariat to'g'risidagi qonuning 7 bobi bitimlarni notarial tasdiqlash

qidalariga bag‘ishlangan bo‘lib, uning 45-46-moddalari vasiyatnomani notarial tasdiqlash to‘g‘risidadir. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga ko‘ra vasiyat bu - fuqaroning o‘ziga tegishli mol-mulkni yoki bu mol-mulkka nisbatan huquqini vafot etgan taqdirda tasarruf etish xususidagi xohish-irodasidir.

Vasiyatnama shaxsan tuzilishi lozim. Vasiyatnomaning vakil orqali tuzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1124-moddasi vasiyatnomaning shakli to‘g‘risidagi qidalarni belgilab bergan bo‘lib, unga muvofiq vasiyatnama yozilgan joyi va vaqtin ko‘rsatilgan holda yozma shaklda tuzilishi lozim.

Quyidagi vasiyatnomalar yozma shaklda tuzilgan hisoblanadi:

notarial tasdiqlangan vasiyatnomalar;  
notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtirilgan vasiyatnomalar.

***Notarial tasdiqlangan vasiyatnama*** vasiyat qiluvchi tomonidan yozilgan yoxud uning so‘zlaridan notarius tomonidan yozib olinib qonunda belgilangan tartibda notarial tasdiqlandi.

Vasiyatnama istalgan notarial idora notariusi tomonidan tasdiqlanishi mumkin. Bunda, notariuslar tomonidan vasiyatnama tasdiqlangandan keyin vasiyat qiluvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, vasiyatnomani tasdiqlash sanasi va reestr raqami to‘g‘risidagi ma’lumotlar vasiyat qiluvchining doimiy propiska qilingan joydagi meros rasmiylashtiriladigan davlat notarial idorasiga o‘n kun muddatda yuborilishi lozim.

Vasiyatnama matni vasiyat qiluvchi tomonidan yozilib, notariusga shaxsan taqdim etilgan yoki uning so‘zlaridan notarius tomonidan yozib olingen bo‘lishi lozim.

Vasiyatnama yozilgan joyi va vaqtি ko‘rsatilgan holda yozma shaklda tuzilishi lozim. Yozma shakldagi vasiyatnama vasiyat qiluvchining o‘z qo‘li bilan imzolanishi, familiyasi, ismi va otasining ismi to‘liq yozilishi shart. Agar vasiyat qiluvchi jismoniy nuqsonlari, kasalligi yoki savodsizligi tufayli vasiyatnomani o‘z qo‘li bilan imzolay olmasa, uning iltimosiga binoan notarius hozir bo‘lganida vasiyat qiluvchi o‘z qo‘li bilan imzolay olmaganligining sabablarini ko‘rsatilgan holda, vasiyatnomaga boshqa shaxs imzo qo‘yishi mumkin. Bunda, notarius vasiyat qiluvchining o‘rniga vasiyatnomani imzolagan fuqaroga meros ochilgunga qadar vasiyatnomaning mazmuni, uning tuzilishi, bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishiga daxldor ma’lumotlarni oshkor qilishga haqli emasligi tushuntiradi va bu haqda vasiyatnama matnida va tasdiqlovchi yozuvda qayd etadi.

*Notariuslar tomonidan vasiyatnama tasdiqlangandan keyin vasiyat qiluvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, vasiyatnomani tasdiqlash sanasi va reestr raqami haqidagi ma’lumotlar alifbo kitobiga va Tizinga kiritilishi lozim.*

*Notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtirilgan vasiyatnomalar* notarial idoralarida tasdiqlash imkoniyati bo‘lmagan hollarda, qonunda nazarda tutilgan tartibda belgilangan mansabдор shaxslar tomonidan vasiyatnomaning tasdiqlanishiga yo‘l qo‘yiladi. Bunday vasiyatnomalar notarial tartibda tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtiriladi.

Qonunda vasiyatnomalarni tasdiqlash huquqiga ega bo‘lgan mansabdar shaxslarning aniq ro‘yxati berilgan. Shu bilan birga, qanday holatlarda uni amalga oshirishga ruxsat berilishi ham aniq belgilangan. Bu qoidani keng talqin etishga yo‘l qo‘yilmaydi. Qonunda nazarda tutilgan mansabdar shaxslardan boshqa hech kim vasiyatnomani guvohlanadirishga haqli emas.

Vasiyatnomani tasdiqlash huquqi berilgan mansabdar shaxsning shaxsan o‘zi vasiyat qoldiruvchining shaxsini aniqlashi, uning muomala layoqatiga ega ekanligini, vasiyatnomada haqiqatdan ham vasiyat qoldiruvchining o‘z qo‘li bilan yozilib, imzo qilinganligini aniqlab, shunga ishonch hosil qilishi shart, shundan keyingina vasiyatnomani tasdiqlashi mumkin.

Mansabdar shaxslar tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalardan bitta nusxasi vasiyat qiluvchi doimiy yashaydigan joydagi davlat notarial idorasiga saqlash uchun kechiktirilmay yuborilishi shart. Davlat notarial idorasining notariusi saqlash uchun kelib tushgan vasiyatnomani tekshirib, uning shakl va tartib jihatidan qonunga muvofiq tuzilganligini aniqlaydi, nomuvofiqligi aniqlanganda, bu haqda vasiyat qiluvchiga va vasiyatnomani tasdiqlagan mansabdar shaxsga xabar qilishi kerak. Amaliyotda bunday vasiyatnomalar vasiyat qiluvchi tomonidan bevosita vafoti oldidan tuzilgan bo‘ladi. Nizo chiqqanda ularning haqiqiyligi faqat meros ochilgandan keyin sud tomonidan hal qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiningning 1126-moddasi va Notariat to‘g‘risidagi qonunning 26-moddasi quyidagi vasiyatnomalar notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga, tenglashtiriladi:

kasalxonalar, gospitallar, boshqa statsionar davolash muassasalarida davolanayotgan yoki qariyalar va nogironlar

uylarida yashab turgan fuqarolarning ana shu kasalxonalar, gospitallar va boshqa davolash muassasalarining bosh vrachlari, ularning davolash ishlari bo‘yicha o‘rinbosarlari yoki navbatchi vrachlar, shuningdek, gospitallarning boshliqlari, qariyalar va nogironlar uylarining *direktorlari* yoki *bosh vrachlari* tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalar;

O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i ostida suzib yurgan kemalarda bo‘lgan fuqarolarning shu kemalarning *kapitanlari* tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

qidiruv ekspeditsiyalari yoki shunga o‘xhash boshqa ekspeditsiyalarda bo‘lgan fuqarolarning ana shu *ekspeditsiya boshliqlari* tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

harbiy xizmatchilarning, notarius bo‘lмаган yerlarda joylashgan harbiy qismlarda esa bu qismlarda ishlayotgan harbiy bo‘lмаган fuqarolar, ularning oila a’zolari va harbiy xizmatchilarning oila a’zolarining ham harbiy qismlarning *komandirlari* tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

ozodlikdan mahrum qilish joylarida yoki qamoqda saqlanayotgan shaxslarning tegishli *muassasalar boshliqlari* tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalar;

notarius bo‘lмаган aholi punktlarida yashayotgan fuqarolarning qonunga muvofiq *notarial harakatlarni amalga oshirish huquqi berilgan mansabdor shaxslar* tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari.

Yuqorida ko‘rsatilgan shaxslar tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalarni keyinchalik notarial tasdiqlash shart emas, lekin ularni tasdiqlovchi mansabdor shaxslar notarial tasdiqlangan vasiyatnomasi shakliga qo‘yilgan talabalarga roya qilishi lozim.

Qonunda vasiyatnomasi tasdiqlash vakolati berilgan mansabdor shaxslar o‘zları tasdiqlagan vasiyatnomalarning va notarial harakatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq ishonchnomalarning bittadan nusxasini vasiyat qiluvchi yoki

ishonch bildiruvchi doimiy yashaydigan joydagি notarial idoraga saqlash uchun kechiktirmay yuborishi shart.

Agar vasiyat qiluvchining yoki ishonch bildiruvchining O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyi bo‘lmasa yoki ularning yashash joyi noma’lum bo‘lsa, vasiyatnomaga yoxud ishonchnoma uni qaysi tashkilotning mansabдор shaxsi tasdiqlagan bo‘lsa, o‘sha tashkilot joylashgan yerdagi notarial idoraga saqlash uchun yuboriladi.

Notarius saqlash uchun kelib tushgan vasiyatnomani va ishonchnomani tekshirib ko‘rishi hamda ularning qonunga nomuvofiqligi aniqlangan taqdirda, bu haqda vasiyat qiluvchiga, ishonch bildiruvchiga va vasiyatnomani tasdiqlagan mansabдор shaxsga ma’lum qilishi shart.

*Qonunda vasiyatnomaga tasdiqlash vakolati berilgan mansabдор shaxslar tomonidan vasiyatnomaga tasdiqlangandan so‘ng uning bir nusxasini kechiktirmay vasiyat qoldiruvchining doimiy yashash joyidagi notarial idoraga yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa notarial idorag yuborishi shart.*

*Notarius kelib tushgan vasiyatnomaga haqidagi ma’lumotlarni u kelib tushgan kundan kechiktirmay alifbo kitobiga va Tizimga kiritishi lozim.*

Vasiyatnomaga uning mazmuni uni tasdiqlovchilar tomonidan tanishib chiqilgan yoki tanishib chiqilmaganligiga qarab oddiy va maxfiy vasiyatnomaga turlariga ajratiladi.

**Oddiy vasiyatnomaga** uning mazmuni bilan uni tasdiqlayotgan notarius yoki boshqa mansabдор shaxslar tanishib chiqqan holda tasdiqlanadi. Vasiyatnomaning sir saqlanshi to‘g‘risidagi qoidalar ushbu vasiyatnomalarga nisbatan tadbiq etiladi, ya’ni notarius yoxud vasiyatnomani

tasdiqlagan boshqa mansabdar shaxs meros ochilgunga qadar vasiyatnomaga daxldor ma'lumotlarni oshkor qilishga haqli emas.

**Maxfiy vasiyatnomasi** bu – vasiyat qiluvchining talabi bilan notarius va vasiyatnomani tasdiqlovchi boshqa mansabdar shaxs tomonidan uning mazmuni bilan tanishib chiqilmasdan tasdiqlangan vasiyatnomasi.

Maxfiy vasiyatnomani vasiyat qiluvchi haqiqiy sanalmaslik xavfi ostida o‘z qo‘li bilan yozishi va imzolashi, familiyasi, ismi va otasining ismini to‘liq yozishi lozim. Bu haqda notarius va boshqa mansabdar shaxs vasiyat qiluvchidan og‘zaki so‘raydi va tasdiqlovchi yozuvda ko‘rsatadi. Vasiyatnomasi ikki guvoh hamda notarius yoki mansabdar shaxs ishtirokida xatjildga solinib, xatjild elimlanishi lozim, guvohlar o‘z familiyasi, ismi, otasining ismini va doimiy propiska qilingan manzilni ko‘rsatgan holda xatjildga imzo qo‘yadilar. Guvohlar imzo qo‘ygan xatjild guvohlar va notarius yoki mansabdar shaxsning ishtirokida boshqa xatjildga solinadi va bu xatjild ham elimlanadi, unga notarius yoki mansabdar shaxs tasdiqlovchi yozuvni yozib qo‘yadi.

### **3.5.2. Vasiyatnomani o‘zgartirish, bekor qilish va uni haqiqiy emas deb topish**

Vasiyat qoldiruvchi o‘zining vasiyatnomada izhor qilgan irodasini xohlagan vaqtida o‘zgartirishi va bekor qilishga haqli. Bu haqda FKning 1127-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan, ya’ni vasiyat qiluvchi istalgan vaqtida o‘z vasiyatnomasini to‘laligicha bekor qilishga yoxud unda mavjud bo‘lgan ayrim vasiyat farmoyishlarini yangi vasiyatnomasi tuzish orqali bekor qilishga, o‘zgartirishga yoki to‘ldirishga haqli.

*Vasiyatnomani to‘liq bekor qilish*, birinchidan uning barcha nuxxalarini yo‘q qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bunda vasiyat qoldiruvchi notariusga yozma ariza bilan murojaat qiladi. Arizaga muvofiq notarius notarial idorada saqlanayotgan vasiyatnomasi, notarial harakat qayd etilgan resstr hamda vasiyatnomalarni ro‘yxatga olish alifbo kitobiga belgi qo‘yish orqali uni bekor qiladi. Vasiyat qiluvchi o‘zida saqlanayotgan vasiyatnomasi taqdim etgan taqdirda, vasiyatnomaning bekor qilinganligi to‘g‘risida bu nusxaga ham yozib qo‘yadi. Agarda ariza vasiyatnomasi notarial tasdiqlangan yoki u saqlanayotgan idoradan boshqasiga taqdim etilsa, u tegishli idoraga yuboriladi.

Ikkinchidan vasiyatnomani to‘liq bekor qilish yangi vasiyatnomasi tuzish orqali amalga oshiriladi. Bunda yangi vasiyatnomasi oldingi vasiyatnomaning to‘laligicha inkor qiladigan mazmunda tuzilgan bo‘lishi lozim. Bu holatda ilgari tuzilgan vasiyatnomani bekor qilish to‘g‘risida alohida farmoyish bo‘lishi shart emas. Bunda keyingi vasiyatnomaning bekor bo‘lishi oldingi vasiyatnomani qayta tiklashga sabab bo‘lmaydi. Lekin, keyingi vasiyatnomaning haqiqiy emas deb topilishi oldingi vasiyatnomaning qayta tiklanishiga olib keladi.

*Vasiyatnomani qisman bekor qilish va o‘zgartirish.* Vasiyatnomasi qisman o‘zgartirilganda, birinchidan, yangi tuzilgan vasiyatnomada oldingi vasiyatnomaning ayrim bandlarini bekor qilish, ikkinchidan, undagi ayrim bandlariga zid ravishda tuzilish yo‘li bilan o‘zgartirish kiritiladi. Shuningdek, vasiyat qoldiruvchi notariusga ariza berish yo‘li bilan vasiyatnomaga o‘zgartirish kiritishga haqli.

Bundan tashqarii, keyingi tuzilgan vasiyatnomasi oldingi vasiyatnomani bekor qilmasdan yoki o‘zgartirmasdan,

qo'shimcha farmoyishlar bilan to'ldirilishi ham mumkin. Agarda oldingi vasiyatnomalarda meros qoldiruvchi o'zining mol-mulkidan bir qismini vasiyat qilib qoldirgan bo'lib, keyingi vasiyatnomada mulkning qolgan qismiga vasiyat-noma tuzgan bo'lsa, meros ochilganda har ikkala vasiyatnomaga ham haqiqiy hisoblanadi. Bunday hollarda har ikkala vasiyatnomaga bo'yicha ham vorislar meros oladilar.

### ***Vasiyatnomaning haqiqiy emas deb topilishi.***

Vasiyatnoma, bir tomonlama bitim hisoblanib, u meros qoldiruvchining shaxsan o'zi tomonidan, vasiyat bo'yicha huquq oluvchining rozilgisiz tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiningning 1130-moddasiga asosan, tegishli shaklda tuzilmagan, vasiyatnoma uni tuzish, imzolash va tasdiqlashning qonunda belgilab qo'yilagan tartibi buzilgan taqdirda haqiqiy emas deb topiladi.

Vasiyatnomaning ayrim bandlari haqiqiy emasligi uning qolgan qismining haqiqiyligiga daxl qilmaydi. Vasiyatnoma to'lig'icha haqiqiy emas deb topilgan hollarda, ushbu vasiyatnomaga binoan merosdan mahrum bo'lган merosxo'r umumiy asoslarda meros olish huquqiga ega bo'ladi.

Vasiyatnomani haqiqiy emas deb topish, u bir tomonlama bitim bo'lganligi sababli, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiningning 9-bobi 2-paragrafida nazarda tutilgan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi qoidalarga asosan ham haqiqiy emas deb topiladi. Sud tomonidan vasiyatnomani haqiqiy emas deb topish haqidagi da'vo arizalar meros ochilgan paytdan boshlab 3 yil muddatda sud tomonidan ko'rilib hal qilinadi. Bunda o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmanan vasiyatnomalarga nisbatan da'vo muddati tadbiq etilmaydi. Misol uchun

muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan tuzilgan vasiyat-noma o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmasdan, uni haqiqiy emas deb topish uchun sudga murojaat qilish shart emas, demak bunday hollarda da’vo muddati qo‘llanilmaydi. Lekin, vasiyatnomani haqiqiy emasligining oqibatlarini qo‘llash bo‘yicha da’vo muddati qo‘llaniladi. Misol uchun o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmasdan vasiyatnomasi bo‘yicha meros egallangan bo‘lsa, meors mol-mulkining qaytarilishiga nisbatan talablarni qo‘llashda da’vo muddati qo‘llaniladi.

Vasiyatnomasi butunlay bekor bo‘lgan taqdirda, unda vasiyat qilib qoldirilgan mulk qonun bo‘yicha vorislar o‘rtasida teng taqsimlanadi.

Vasiyatnomaning ayrim qismlari haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, uning shu qismida ko‘rsatilgan mulk, qonun bo‘yicha vorislikka chaqirilgan merosxo‘rlar o‘rtasida teng bo‘linadi.

*Notariuslar tomonidan vasiyatnomaga o‘zgartirish kiritilganligi yoki bekor qilinganligi haqidagi ma’lumotlar alifbo kitobiga va Tizimga kiritilishi lozim.*

Shuningdek, vasiyatnomalarni tasdiqlash vakolatiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan vasiyatnomalar o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Agar mansabdar shaxs vasiyatnomani bekor qilgan yoki o‘zgartirgan bo‘lsa, bu haqda notarial idoraga kechiktirmay ma’lumot berishi zarur.

Mansabdar shaxslar vasiyatnomalarni o‘zgartirish va bekor qilish uchun asos bo‘ladigan hujjatning bittadan nusxasini ushbu moddada belgilangan tartibda kechiktirmay notarial idoraga berishi shart.

*Mansabdar shaxslar tomonidan vasiyatnomani o‘zgartirish yoki bekor qilish uchun asos bo‘lgan hujjatlar notarial idoraga yuborilganida, notarius u kelib tushgan*

*kundan kechiktirmay vasiyatnomaga o'zgartirish kiritilganligi yoki bekor qilinganligi haqidagi ma'lumotlarni alifbo kitobiga va Tizimga kiritishi lozim.*

*Namunalar*

## **Vasiyatnoma**

*(notarial okrug nomi)*

*(vasiyatnoma tasdiqlangan sana, so 'z bilan)*

*(vasiyatnoma rasmiylashtirilgan DNI to 'liq nomi va manzili, notariusning F.I.O.)*

Men – Toshkent viloyati, Oqqo'rg'on tumani, S. Xolxo'jaev ko'chasi, 5-uyda propiskada turuvchi – 1933 yilda tug'ilgan Usmonov To'lan (pasport SV 4413587, Oqqo'rg'on tuman IIB tomonidan 13.05.2012 yilda berilgan) ushbu vasiyatnoma bilan quyidagilarni farmoyish qilaman:

1. Menga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan barcha mol-mulklarimni, ularning nimalardan iborat bo'lishidan va qaerda joylashganligidan qat'i nazar, jiyanim Davletov Tursun Baratovichga vasiyat qilaman.

2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1127 va 1142-moddalarini mazmuni menga notarius tomonidan tushuntirildi va tushunarli.

3. Vasiyatnoma matnini men – Usmanov To'lan to'liq o'qib chiqdim, u mening so'zlarimdan, to'g'ri yozilgan. Uning mazmun-mohiyati, huquqiy oqibatlari menga notarius tomonidan tushuntirildi, tushunarli va u mening asl maqsadimga mos keladi.

4. Vasiyatnoma ikki nusxada tuzilib, imzolandi, ulardan bir nusxasi Oqqo'rg'on tuman davlat notarial idorasida saqlanadi, ikkinchi nusxasi vasiyat qiluvchiga berildi.

IMZO:

---

---

(*vasiyat qiluvchining imzosi va F.I.O. to‘liq  
yozilishi hamda  
imzolangan vaqt, soati va minuti ko‘rsatilishi  
shart*)

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

### **Vasiyatnoma**

---

(*notarial okrug nomi*)

---

(*vasiyatnoma tasdiqlangan sana, so‘z bilan*)

---

(*vasiyatnoma rasmiylashtirilgan DNI to‘liq  
nomi va manzili, notariusning F.I.O.*)

Men – Toshkent shahar, Mirobod tumani, Furqat ko‘chasi, 26-uy, 70-xonadonda propiskada turuvchi – 1945 yilda tug‘ilgan Murotov Umar Eshmatovich (passport AA 0187407, Mirobod tuman IIB tomonidan 28.11.2014 yilda berilgan) ushbu vasiyatnoma bilan quyidagilarni farmoyish qilaman:

1. Menga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan barcha mol-mulkimni, ularning nimalardan iborat bo‘lishidan va qaerda joylashganligidan qat‘i nazar, shu jumladan, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Furqat ko‘chasi, 26-uy, 70-xonadonni qizim Zaripova Shoxista Umarovnaga va o‘g‘lim Muratov Raxmon Umarovichga teng hissada vasiyat qilaman.

2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1127 va 1142-moddalari mazmuni menga notarius tomonidan tushuntirildi va tushunarli.

3. Vasiyatnama matni mening so‘zlarimdan tuzilib, menga notarius tomonidan ovoz chiqarib o‘qib berildi, uning mazmun-mohiyati, huquqiy oqibatlari menga notarius tomonidan tushuntirildi, tushunarli va u mening asl maqsadimga mos keladi.

4. Vasiyatnama ikki nusxada tuzilib imzolandi, ulardan bir nusxasi Mirobod tuman 7-son davlat notarial idorasida saqlanadi, ikkinchi nusxasi vasiyat qiluvchiga berildi.

IMZO:

---

---

(*vasiyat qiluvchining imzosi va F.I.O. to ‘liq  
yozilishi hamda  
imzolangan vaqt, soati va minuti ko ‘rsatilishi  
shart*)

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

**Jismoniy nuqsoni, kasalligi yoki savodsizligi  
sababli vasiyatnomani o‘z qo‘li bilan imzolay  
olmaydigan shaxs tomonidan tuzilgan  
vasiyatnama**

---

(*notarial okrug nomi*)

---

(*vasiyatnama tasdiqlangan sana, so ‘z bilan*)

---

(*vasiyatnama rasmiylashtirilgan DNI to ‘liq nomi va  
manzili, notariusning F.I.O.*)

Men – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, To‘rtko‘l tumani, U. Musaev ko‘chasi, 7-uyda propiskada turuvchi – 1950 yilda tug‘ilgan Saydaliev Alisher Orifxo‘jaevich (pasport SV 2035478, To‘rtko‘l tuman IIB tomonidan 17.07.2014 yilda berilgan) ushbu vasiyatnoma bilan quyidagilarni farmoyish qilaman:

1. Menga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, To‘rtko‘l tumani, U. Musaev ko‘chasida joylashgan 7-uyni qizim Saydalieva Sayyora Alisherov qiziga vasiyat qilaman.

2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1127 va 1142-moddalari mazmuni menga notarius tomonidan tushuntirildi va tushunarli.

3. Vasiyatnoma matni mening so‘zlarimdan tuzilib, menga notarius tomonidan ovoz chiqarib o‘qib berildi, uning mazmun-mohiyati, huquqiy oqibatlari menga notarius tomonidan tushuntirildi, tushunarli va u mening asl maqsadimga mos keladi.

4. Vasiyatnoma ikki nusxada tuzilib, imzolandi, ulardan bir nusxasi To‘rtko‘l tuman 1-son davlat notarial idorasida saqlanadi, ikkinchi nusxasi vasiyat qiluvchiga berildi.

Saydaliev Alisher Orifxo‘jaevich savodsizligi sababli, uning shaxsiy iltimosiga ko‘ra vasiyatnomani uning o‘rniga vasiyat qiluvchi va notariusning ishtirokida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, To‘rtko‘l tumani, U. Musaev ko‘chasi, 19-uyda propiskada turuvchi – 1976 yilda tug‘ilgan Rasulova Mahmuda Mirtohirovnna (pasport AA 2674599, To‘rtko‘l tuman IIB tomonidan 10.02.2010 yilda berilgan) imzoladi.

IMZO:

---

(vasiyat qiluvchining o‘rniga vasiyatnomani  
imzolagan fuqaroning F.I.O. to‘liq  
yozilishi hamda imzolangan vaqt, soati va  
minuti ko‘rsatilishi shart)

Men – Rasulova Mahmuda Mirtohirova O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1128-moddasi va Notariat to'g'risidagi qonunning 6-moddasiga asosan, ushbu notarial harakat maxfiyligini buzgan taqdirimda qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishim to'g'risida notarius tomonidan ogohlantirildim.

IMZO:

---

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

### **Qonun bo'yicha merosxo'rлarni merosdan mahrum qilish sharti bilan vasiyatnoma**

---

*(notarial okrug nomi)*

---

*(vasiyatnoma tasdiqlangan sana, so 'z bilan)*

---

*(vasiyatnoma rasmiylashtirilgan DNI to'liq nomi va manzili, notariusning F.I.O.)*

Men – Andijon viloyati, Asaka tumani, Xalqobod ko'chasi, 2-uyda propiskada turuvchi – 1942 yilda tug'ilgan Qoraboeva Halima (pasport SV 2478744, Asaka tuman IIB tomonidan 11.05.2008 yilda berilgan) ushbu vasiyatnoma bilan quyidagilarni farmoyish qilaman:

1. Menga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan barcha mol-mulkimni, ularning nimalardan iborat bo'lishidan va qaerda joylashganligidan qat'i nazar, shu jumladan, Andijon viloyati, Asaka tumani, Navro'z dahasi, 4-uy, 20-xonadonni fuqaro Sharipova Malohat Ahmad qiziga vasiyat qilaman.

2. Qonun bo'yicha merosxo'rlar doirasiga kiradigan barcha merosxo'rlarimni ushbu vasiyatnoma bilan merosdan mahrum qilaman.

3. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1120, 1127 va 1142-moddalari mazmuni menga notarius tomonidan tushuntirildi va tushunarli.

4. Vasiyatnama matnini men – Karabaeva Xalima to‘liq o‘qib chiqdim, u mening so‘zlarimdan, to‘g‘ri yozilgan. Uning mazmun-mohiyati, huquqiy oqibatlari menga notarius tomonidan tushuntirildi, tushunarli va u mening asl maqsadimga mos keladi.

5. Vasiyatnama ikki nusxada tuzilib, imzolandi, ulardan bir nusxasi Asaka tuman 1-son davlat notarial idorasida saqlanadi, ikkinchi nusxasi vasiyat qiluvchiga berildi.

IMZO:

---

---

*(vasiyat qiluvchining imzosi va F.I.O. to‘liq  
yozilishi hamda  
imzolangan vaqt, soati va minut  
ko‘rsatilishi shart)*

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

### **3.6. Ko‘chmas mulklar bilan bog‘liq bitimlar-ni notarial tasdiqlash**

Ko‘chmas mulklarni boshqa shaxsga o‘tkazish bo‘yicha bitimlar mulk joylashgan hududdagi notarial idorada tasdiqlanadi.

***Mazkur bitimni tasdiqlashda notarius tomonidan talab  
qilinadigan hujjatlar:***

- ✓ taraflarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari<sup>2</sup>, shuningdek agar taraflar yoki ulardan biri yuridik shaxs bo‘lsa, yuridik shaxsning ta’sis hujjatlari;
- ✓ ko‘chmas mulkka nisbatan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlar;

---

<sup>2</sup> 2.1.3 ga karalсин.

*bu hujjatlar quyidagilardan biri bo‘lishi mumkin:*

- ✓ ko‘chmas mulkni oldi-sotdi, ayrboshlash, hadya, renta, lizing to‘g‘risidagi notarial tasdiqlangan shartnoma;
- ✓ umrbod ta’mirlash sharti bilan uy, kuartira, uyning yoki kvartiraning bir qismini boshqa shaxsga berish to‘g‘risidagi notarial tasdiqlangan shartnoma;
- ✓ notarial tasdiqlangan lizing shartnomasi;
- ✓ merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnoma;
- ✓ er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushiga mulk huquqi to‘g‘risida berilgan guvohnoma;
- ✓ sud qarori (hal qiluv qarori, ajrim va boshqalar) yoki davlat ijrochisining qarori yoxud davlat ijrochisi tomonidan tasdiqlangan undiruvchi va qarzdor o‘rtasida tuzilgan bino va inshootni berish dalolatnomasi;
- ✓ ko‘chmas mulkni auksionda sotib olinganligini tasdiqlovchi auksion natijalari to‘g‘risidagi bayonnama;
- ✓ ko‘chmas mulkning bir qismi bo‘linganligi to‘g‘risidagi shartnoma;
- ✓ mahalliy davlat hokimiyati organining qurilishi tugallangan binoni, inshootni, uyni foydalanishga qabul qilish to‘g‘risidagi komissiya dalolatnomasini tasdiqlash haqidagi qarori;
- ✓ tugatilayotgan yuridik shaxsga tegishli bo‘lgan mol-mulkni uning muassislari (ishtirokchilari) o‘rtasida taqsimlash (bo‘lish) to‘g‘risidagi notarial tasdiqlangan kelishuv;
- ✓ ko‘chmas mulkni ochiq savdoda sotib olinganligi to‘g‘risida guvohnoma;
- ✓ qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa hujjatlar.

*O‘zbekiston SSRning qonun hujjatlari amal qilgan davrda binolar va inshootlarga bo‘lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardan iborat:*

- ✓ davlat hokimiyati organlarining kapital qurilish va keyinchalik foydalanish uchun yer uchastkalarini muddatsiz foydalanishga berish to‘g‘risidagi qarorlari;
- ✓ vakolatli organlarning binolar va inshootlarni boshqa shaxsga o‘tkazish to‘g‘risidagi hujjatlari, qarorlari, farmoyishlari;
- ✓ notarial tasdiqlangan: oldi-sotdi, ayrboshlash, hadya, mulkni bo‘lish, ko‘chmas mulkni umrbod ta’minalash sharti bilan boshqaga o‘tkazish shartnomalari;
- ✓ imorat solish to‘g‘risidagi, shaxsiy mulk huquqida uylarni qurish uchun yer uchastkalari berish to‘g‘risidagi, yakka tartibdagi imorat soluvchilar uy-joy qurilishi jamoalariga uylarni qurish uchun yer uchastkalari berish to‘g‘risidagi, er-xotin o‘rtasida uylarni bo‘lish to‘g‘risidagi shartnomalar;
- ✓ shahar va tuman Xalq deputatlari kengashlari ijroiya qo‘mitalarining imoratlarga bo‘lgan mulk huquqini tan olish (mavjud hujjatlar asosida) to‘g‘risidagi qarorlari;
- ✓ umumiy mulk bo‘lgan imoratning tegishli ulushiga bo‘lgan meros qilib olish huquqi to‘g‘risidagi va mulk huquqi to‘g‘risidagi guvohnomalar hamda uy kimoshdi savdosida xarid qilinganligi to‘g‘risidagi guvohnomalar;
- ✓ binolar va inshootlarga bo‘lgan mulk huquqini tasdiqlovchi qonuniy kuchga kirgan sud qarorlari va ajrimlari yoki hakamlik sudining qarorlari;
- ✓ inventarizatsiya-texnik materiallar, agar ularning matnida to‘g‘ri rasmiylashtirilgan, uya mulk huquqini belgilovchi hujjatga aniq ishora bo‘lsa;
- ✓ shartnomalarning dublikatlari, nusxalari yoki oldi-sotdi, ayrboshlash, hadya, renta, umrbod ta’minalash sharti bilan boshqaga o‘tkazish bitimlari amalga oshirilganligi to‘g‘risida, shuningdek meros qilib olish to‘g‘risida guvohnoma hamda binolar va inshootlarga bo‘lgan mulk huquqining boshqaga o‘tganligini belgilovchi boshqa notarial hujjatlar berilganligi haqidagi notarial idoralarning reestrlaridan ko‘chirmalar.

- ✓ ko‘chmas mulkning kadastr yig‘ma jildi;
- ✓ ko‘chmas mulk umumiy birgalikdagi yoki ulishli mulk bo‘lsa, boshqa mulkdorlarning roziligi, shu jumladan er-xotinning umumiy birgalikdagi ko‘mas mulkini boshqaga o‘tkazish to‘g‘risidagi bitim bo‘yicha ikkinchi tarafning roziligi;
- ✓ bitim predmeti bo‘lgan ko‘chmas mulk uy, kvartira, uyning yoki kvartiraning bir qismi bo‘lsa, unda doimiy propiska qilingan shaxslar haqida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati tomonidan berilgan ma’lumotnomasi;
- ✓ ko‘chmas mulk garovga qo‘yilgan bo‘lsa, garovga oluvchining roziligi;
- ✓ “Yergeodezkadestr” davlat qo‘mitasi hududiy bo‘linmasining ma’lumotnomasi;
- ✓ taqiq mavjud bo‘lgan ko‘chmas mulk boshqa shaxsga o‘tkazish bo‘yicha bitim faqat kreditor bilan oluvchi shaxs qarzni oluvchining hisobiga o‘tkazishga roziligi;
- ✓ bitim predmeti bo‘lgan ko‘chmas mulk Toshkent shahri va Toshkent viloyatida joylashgan uy, kvartira, uyning yoki kvartiraning bir qismi bo‘lsa, unga nisbatan qonunchilikda belgilangan boshqa talablar ham mavjud;
- ✓ bitim predmeti bo‘lgan ko‘chmas mulk xususiylashtirilgan uy, kvartira, uyning yoki kvartiraning bir qismi bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasining hududiy organlaridan (Toshkent shahrida “Toshkent shahrida uy-joyga davlat orderlari va ma’lumotlar berish markazi” davlat unitar korxonasidan) olingan uy, kvartira, uyning yoki kvartiraning bir qismini xususiylashtirishga rozilik bergen shaxslar to‘g‘risida ma’lumotnomasi va xususiylashtirishda ishtirok etgan shaxslarning roziligi<sup>1</sup>;
- ✓ davlat boji to‘langanligi to‘g‘risidagi hujjat;
- ✓ qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar.

<sup>1</sup> Agar, xususiylashtirish 1993-yil 7-mayga qadar amalga oshirilgan bo‘lsa, bunday rozilik talab qilinmaydi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi hududida notariuslar tomonidan ko‘chmas mulkni boshqaga o‘tkazish to‘g‘risidagi bitimlarni tasdiqlashning ikki usuli amal qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 28-fevraldagi 106-son qarori bilan tasdiqlangan Ko‘chmas mulkning oldi-sotdi, ayirboshlash va hadya qilish bitimlarini idoralararo elektron hamkorlikni qo‘llagan holda notarial tasdiqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomga asosan ko‘chmas mulklarni boshqaga o‘tkazish to‘g‘risidagi bitimlarni notarial tasdiqlashda idoralararo elektron hamkorlikni qo‘llash joriy qilindi. Unga muvofiq, notarius 2017-yil 1-iyuldan boshlab Toshkent shahri va Toshkent viloyatida joylashgan ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bitimlarni tasdiqlashda, 2018-yil 1-iyuldan boshlab Respublikaning boshqa hududlarida joylashgan bitimlarni tasdiqlashda mulk egasining mazkur mulk bo‘yicha soliqlar, kommunal xizmatlar (gaz ta’minoti, sovuq suv ta’minoti va oqova suvlarni chiqarish, issiqlik ta’minoti (markaziy isitish va issiq suv ta’minoti) bo‘yicha xizmatlar) va elektr energiyasi bo‘yicha qarzdorlik yoki ko‘chmas mulkka nisbatan taqiq va xatlash mavjudligi O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida yoki Tizimda avtomatik tarzda tekshiradi. Yuqorida belgilangan muddatgacha notarius ko‘chmas mulklarni boshqaga o‘tkazish to‘g‘risidagi bitimlarni tasdiqlashda an’anaviy, ya’ni oddiy tartibga amal qiladi.

***Bitimni idoralararo elektron hamkorlikni qo‘llagan holda tasdiqlash tartibi.*** Notarius bitimni idoralararo elektron hamkorlikni qo‘llagan holda tasdiqlaganda yuqorida sanab o‘tilgan hujjatlar va roziliklarnigina talab qiladi. Soliqlar, kommunal xizmatlar (gaz ta’minoti, sovuq suv ta’minoti va oqova suvlarni chiqarish, issiqlik ta’minoti (markaziy isitish va issiq suv ta’minoti) bo‘yicha xizmatlar) va elektr energiyasi bo‘yicha qarzdorlik yoki ko‘chmas mulkka nisbatan taqiq va xatlash mavjudligi O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv

davlat xizmatlari portalida yoki Tizimda avtomatik tarzda tekshiriladi.

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
	Ariza beruvchi	Yagona davlat interaktiv xizmatlari portalida arizani to'ldirish	Ariza beruvchi-ning xohishiga ko'ra
	Notarius ATT	Notarial idora kelish va electron ariza to'ldirish (ariza notarial idora xodimi tomonidan to'ldiriladi)	Ariza beruvchi-ning xohishiga ko'ra
1-bos-qich	Notarius ATT	Soliqlar, kommunal xizmatlar va elektr energiyasi bo'yicha qarzdarlik yoki ko'chmas mulkka nisbatan taqiq yoki xatlash mavjud yoki yo'ligini tekshirish	Elektron ariza to'ldirilgan kunda
	Notarial idora xodimi	Soliqlar, kommunal xizmatlar va elektr energiyasi bo'yicha qarzdarlik yoki ko'chmas mulkka nisbatan taqiq yoki xatlash mavjudligi aniqlansa, ariza beruvchini qarzning summasi yoki tarkibidan xabardor qilish	Elektron ariza to'ldirilgan kunda

	Notarius ATT	Qarzdorlik yoki ko'chmas mulkka nisbatan taqiq yoki xatlov mavjud bo'lмаган тақдирда, elektron arizaga noyob raqam berish	Qarzdorlik yoki ko'chmas mulkka nisbatan taqiq yoki xatlov mavjud bo'lмаган тақдирда, elektron ariza to'ldirilgan kunda
2- bosqich	Ariza beruvchi va notarial harakat- ning boshqa ishtirokchi lari	Notarial idoraga kelish va zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etish	Noyob raqam verilgandan keyin o'n kundan kechikmay
3-bos- qich	Notarius	1. Bitimni notarial tasdiqlash. 2. Ma'lumotnomani tuman (shahar) yer tuzish va ko'chmas mulk kadastri davlat korxonasiга yuborish	Notarial idoraga kelgan paytdan boshlab 24 soat ichida.

Ko‘chmas mulklar bilan bog‘liq bitimlar “Davlat belgisi” DICHBda tayyorlanadigan *gerbli* (*maxsus*) *blankalarda* amalga oshiriladi. Bunda, boshqa shaxsga berish bo‘yicha bitimning birinchi nusxasi gerbli (*maxsus*) blankada rasmiylashtiriladi. Gerbli (*maxsus*) blankadagi ko‘chmas mulklar bilan bog‘liq bitimlarni notarial tartibda tasdiqlanganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda gerb yig‘imi undiriladi.

Ko‘chmas mulkni boshqaga o‘tkazish to‘g‘risidagi bitimlarni notarial tasdiqlashda notarius mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarning asl nuxalarini notarial idorada olib qoladi va uni bitimning asl bir nusxasi bilan tegishliligi bo‘yicha yig‘ma jildga tikib qo‘yadi. Agar notarius ko‘chmas mulkning bir qismini boshqaga o‘tkazish to‘g‘risidagi shartnomani tasdqlilab bersa, mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarning asl nuxasini olib qolmaydi, balki hujjatlarning asl nusxasiga mulkning qancha qismi kim(lar)ga o‘tganligi to‘g‘risida yozib uni mulkdorga qaytarib beradi.

### **3.7. Avtomototransport vositalari bilan bog‘liq bitimlarni notarial tasdiqlash**

Notarius jismoniy shaxslar o‘rtasida, jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar o‘rtasida hamda yuridik shaxslar o‘rtasida tuziladigan avtomototransport vositalarini va boshqa o‘ziyurar mashina hamda mexanizmlarni, ularning nomerli agregat va tirkama, yarim tirkamalarini boshqa shaxsga o‘tkazish (oldi-sotdi, ayirboshlash, hadya qilish, renta) va boshqa turdagи bitimlarni tasdiqlaydi. Bunday bitimlarni tasdiqlashda har bir fuqaro yoki yuridik shaxs xohlagan notariusga murojaat qilishga haqlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 7-martdagи 38-son qarori bilan tasdiqlangan Avtomototransport vositalari bilan bog‘liq bitimlarni rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizom<sup>1</sup>ga muvofiq avtomototransport vositalari bilan bog‘liq oldi-sotdi, ayirboshlash, hadya qilish, renta, ijaraga berish, tekin foydalanish, garovga qo‘yish, lizing shartnomalarini notariuslar tomonidan notarial tartibda tasdiqlash faqat qat‘iy hisobda turadigan, himoya darajasiga, seriyaga, tartib raqamiga va hududiy kodga ega bo‘lgan, “Davlat belgisi” DICHBda tayyorlanadigan *gerbli (maxsus) blankalarda* amalga oshiriladi. Bunda, boshqa shaxsga berish bo‘yicha bitimning birinchi nusxasi gerbli (maxsus) blankada rasmiylashtiriladi. Gerbli (maxsus) blankadagi avtomototransport vositalari bilan bog‘liq bitimlarni notarial tartibda tasdiqlanganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda gerb yig‘imi undiriladi.

18 yoshga to‘limgan shaxslarga avtoreyada vositalari, 16 yoshga to‘limgan shaxslarga mototransport vositalari bilan bog‘liq bitimlarni rasmiylashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi<sup>2</sup>.

*Fuqarolarga tegishli avtomototransport vositasini boshqaga o‘tkazish bilan bog‘liq bitimlarni notarial tasdiqlashda talab qilinadigan hujjatlar:*

- ✓ mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlar (transport vositalarini qayd qilish guvohnomasi, avtomototransport

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006-yil, 10-son, 77-modda.

<sup>2</sup> Lotereya va boshqa ommaviy o‘yinlarning yutuqlari bo‘lgan, qonunda belgilangan tartibda meros qilib olingan avtomototransport vositalari bundan mustasno.

vositasining raqamli agregatlari uchun DYHXX organlari yoki traktorlar, o‘ziyurar shassilar, traktor tirkamalari va o‘ziyurar yo‘l qurilish mashinalari uchun “O‘zdavtexnazorat” tomonidan berilgan belgilangan shakldagi ma’lumotnoma);

- ✓ agar avtomototransport vositasi arning yoki xotinning umumiyligida mulki bo‘lgan hollarda, arning va (yoki) xotinning avtomototransport vositasini boshqa shaxsga o‘tkazishga roziligi to‘g‘risida notarius yoki O‘zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarining konsullari tomonidan shahodatlantirilgan yozma arizasi;
- ✓ bitimlar davlat bojining imtiyozli to‘lanishiga huquq beruvchi qarindosh bo‘lgan shaxslar o‘rtasida tuzilayotgan bo‘lsa, ularning qarindoshligini tasdiqlovchi hujjatlar;
- ✓ yo‘l-transport hodisasi natijasida shikastlangan avtomototransport vositasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining sud-ekspertiza muassasalarining mutaxassislari, bunday muassasalar bo‘lmagan viloyatlarda esa “O‘zavtotexxizmat” aksiyadorlik jamiyatni tizimiga kiruvchi tashkilotlarning xulosasi;
- ✓ davlat boji to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat (to‘lov topshiriqnomasi, kvitansiya);
- ✓ merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnomaga asosan transport vositasini qayd etish guvohnomasi berilgan bo‘lsa, merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnoma.

*Yuridik shaxsga tegishli avtomototransport vositasi boshqaga o‘tkazish bilan bog‘liq bitimni tasdiqlashda talab qilinadigan hujjatlar:*

- ✓ yuridik shaxsning ta’sis hujjatlari;
- ✓ yuridik shaxsning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi haqidagi guvohnoma;
- ✓ mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlar (transport vositalarini qayd qilish guvohnomasi, avtomototransport

vositasining raqamli agregatlari uchun DYHXX organlari yoki traktorlar, o‘ziyurar shassilar, traktor tirkamalari va o‘ziyurar yo‘l qurilish mashinalari uchun “O‘zdavtexnazorat” tomonidan berilgan belgilangan shakldagi ma’lumotnoma);

- ✓ yuridik shaxs vakolatli organining avtomototransport vositalarini boshqa shaxsga o‘tkazish haqidagi hujjati (qaror, umumiylajlis bayonnomasi, kuzatuv kengashining qarori, buyruq va hokazo);
- ✓ vakilning vakolatini tasdiqlovchi hujjat (ishonchnoma);
- ✓ qoldiq balans qiymati to‘g‘risida ma’lumotnoma;
- ✓ yuridik shaxsnинг sof aktivlari haqida ma’lumotnoma (avtomototransport vositasi yuridik shaxs balansida bo‘lsa);
- ✓ mulkdorning roziligi (agar yuridik shaxsga avtomototransport vositasi operativ boshqaruv huquqi asosida tegishli bo‘lsa);
- ✓ davlat boji to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat (to‘lov topshiriqnomasi, kvitansiya);
- ✓ taraflar o‘rtasida hisob-kitob qilinganligini tasdiqlovchi hujjat (hisob-kitob kechiktirilgan hollar bundan mustasno).

*Davlat tashkilotlariga tegishli avtomototransport vositasi boshqaga o‘tkazish bilan bog‘liq bitimni notarial tasdiqlashda talab qilinadigan hujjatalar:*

- ✓ notariuslar davlat tashkilotlariga tegishli bo‘lgan avtomototransport vositalarini boshqa shaxsga o‘tkazish to‘g‘risidagi bitimlarni tasdiqlashda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 31 dekabrdagi 343-son qarori bilan tasdiqlangan Byudjet tashkilotlari va davlat unitar korxonalarining asosiy vositalarini hamda qurilishi tugallanmagan ob‘ektlarini sotish, shuningdek ularni sotishdan tushgan pul mablag‘larini taqsimlash tartibi to‘g‘risidagi nizom qoidalariiga amal qilishlari shart;
- ✓ notariuslar bir inventar ob‘ektning qoldiq qiymati

O‘zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam oylik ish haqining (byudjet tashkiloti tomonidan sotish to‘g‘risida qaror qabul qilingan paytda) yuz baravari miqdoridan ortiq bo‘limgan asosiy vositalar byudjet tashkilotlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzish orqali sotilishi mumkinligiga e’tibor qaratib, davlat tashkilotlarining agar bir inventar ob’ektning qoldiq qiymati O‘zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam oylik ish haqining (byudjet tashkiloti tomonidan sotish to‘g‘risida qaror qabul qilingan paytda) yuz baravari miqdoridan ortiqni tashkil etadigan avtomototransport vositalarini sotish to‘g‘risidagi bitimni tasdiqlash to‘g‘risidagi talabni rad etishlari lozim;

- ✓ yuridik shaxsning ta’sis hujjatlari;
- ✓ yuridik shaxsning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi haqidagi guvohnoma;
- ✓ mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlar;
- ✓ yuqori turuvchi (agar bo‘lsa) tashkilotining ruxsati
- ✓ vakilning vakolatini tasdiqlovchi hujjat (ishonch-noma);
- ✓ qoldiq balans qiymati to‘g‘risida ma’lumotnama;
- ✓ baholovchi tashkilotning hisoboti;
- ✓ yuridik shaxsning sof aktivlari haqida ma’lumotnama (avtomototransport vositasi yuridik shaxs balansida bo‘lsa);
- ✓ mulkdorning roziligi (agar yuridik shaxsga avtomototransport vositasi operativ boshqaruv huquqi asosida tegishli bo‘lsa);
- ✓ davlat boji to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat (to‘lov topshiriqnomasi, kvitansiya);
- ✓ taraflar o‘rtasida hisob-kitob qilinganligini tasdiqlovchi hujjat (hisob-kitob kechiktirilgan hollar bundan mustasno).

Notariuslar tomonidan avtomototransport vositalarini boshqa shaxsga o‘tkazish haqidagi bitimlarni tasdiqlash avtomototransport vositasini boshqa shaxsga o‘tkazish taqiqlanmaganligi yoki xatlamaganligi tekshirilganidan keyin amalga oshiriladi. Avtomototransport vositalarini boshqa shaxsga o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lmagan bitimlarni tasdiqlash ularning xatlanmaganligi tekshirilganidan keyin amalga oshiriladi.

Notariuslar tomonidan avtomototransport vositalarini boshqa shaxsga o‘tkazish to‘g‘risidagi bitimlar tasdiqlanguniga qadar avtomototransport vositalari avtomototransport vositasi ro‘yxatga olingan yoki bitim tasdiqlanayotgan joydagi (sotib oluvchining tanloviga ko‘ra) DYHXX organlarida agregatlar raqamlari ro‘yxatdan o‘tkazish raqamlariga muvofiqligi yuzasidan ko‘zdan kechirilishi kerak. Agregatlar raqamlarining ro‘yxatdan o‘tkazish raqamlariga muvofiqligi ko‘zdan kechirgan mansabdar shaxsning familiyasi hamda ismi va otasi ismining bosh harflari, ko‘zdan kechirilgan sana ko‘rsatilgan va mansabdar shaxs imzosi qo‘yilgan holda ro‘yxatdan o‘tkazish hujjatidagi shtamp bilan tasdiqlanadi. Shtamp ***o‘n kun*** mobaynida amal qiladi.

***Avtomatotransport vositalarini boshqa shaxsga o‘tkazish (oldi-sotdi, ayirboshlash, hadya qilish, renta) bitim matnida quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:***

- ✓ bitimning nomi, bitim tasdiqlangan joyning to‘liq nomi (viloyat, tuman, shahar) va tuzilgan sanasi (yil, oy va kun so‘zlar bilan yoziladi);
- ✓ taraflarning familiyasi, ismi, otasining ismi, doimiy yoki vaqtincha propiska qilingan (hisobga olingan) manzili, pasporti yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatining raqami, qachon va kim tomonidan berilganligi;

- ✓ bitimda yuridik shaxs ishtirok etayotgan hollarda yuridik shaxsnинг to‘liq nomi, joylashgan yeri (pochta manzili), STIRi, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma raqami va sanasi, davlat ro‘yxatidan o‘tkazgan organning nomi;
- ✓ avtomototransport vositasining rusumi, ishlab chiqarilgan yili, ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami belgisi, agregat raqamlari, quvvati (ot kuchi);
- ✓ transport vositasini qayd etish guvohnomasining seriyasi, raqami, qachon va kim tomonidan berilganligi;
- ✓ avtomototransport vositasining taraflar tomonidan kelishilgan bahosi;
- ✓ taraflar o‘rtasida hisob-kitob amalga oshirilgani yoki amalga oshirish muddati kechiktirilgan holatda esa mazkur notarius tomonidan taraflar o‘rtasidagi to‘lov va boshqa majburiyatlar amalga oshirilguniga qadar bitimda ko‘rsatilgan muddatga avtomototarnsport vositasi boshqa shaxsga o‘tkazishga taqiq qo‘yilganligi haqidagi ma’lumotlar;
- ✓ avtomototransport vositasini boshqa shaxsga o‘tkazish taqiqlanmaganligi va xatlanmaganligi haqidagi ma’lumotlar;
- ✓ davlat boji qaysi taraf tomonidan to‘langanligi haqidagi ma’lumot;
- ✓ bitim necha nusxada tuzilganligi va qaysi raqamli gerbli (maxsus) blankada (blankalarda) rasmiylashtirganligi haqidagi ma’lumotlar;
- ✓ avtomototransport vositalarini boshqa shaxsga o‘tkazish to‘g‘risidagi oldi-sotdi, ayriboshlash, hadya qilish shartnomalari va boshqa turdagи bitimlar notarial tartibda tasdiqlangan paytdan boshlab o‘n kun mobaynida DYHXX organlarida ro‘yxatidan o‘tkazilishi kerakligi. Bunda shartnoma matnining yakuniy qismida va tasdiqlovchi yozuvda “***Ushbu shartnoma II ning tegishli DYHXX***

*organlarida o'n kun ichida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi shart. Mazkur talabni bajarmaslik qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortishga olib keladi” deb yozib qo'yildi;*

- ✓ bitimning tasdiqlovchi yozuvda gerbli (maxsus) blankaning (blankalarning) seriyasi, tartib raqami va hududiy kodi ko'rsatilishi lozim;
- ✓ taraflarning ixtiyoriga ko'ra shartnomada qonun hujjatlariga zid bo'lмаган boshqa shartlar ham ko'rsatilishi mumkin.

Bitimni tasdiqlab bo'lgandan so'ng notarius tomonidan transport vositasini qayd etish guvohnomasiga avtomoto-transport vositasini boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi bitim tuzilganligi haqida belgi qo'yilishi zarur.

### **3.8. Mol-mulkni o'zga shaxsga o'tkazishni taqiqlab qo'yish va taqiqni bekor qilish**

Notarius O'zbekiston Respublikasining Notariat to'g'risidagi qonuni 64-moddasiga asosan mol-mulkni boshqa shaxsga o'tkazishni taqiqlab qo'yish va taqiqni bekor qilishi mumkin. Quyidagi notarial harakatlarni amalga oshirishda notarius mol-mulkni o'zgaga o'tkazishni taqiqlab qo'yadi.

**Birinchidan**, notarius garov (garov shartnomasining barcha turi bo'yicha) shartnomalarini tasdiqlashda, shartnoma predmeti bo'lган mol-mulkni hamda taraflar o'rtasida to'lov majburiyatini kechiktirish sharti bilan ko'chmas mol-mulkni, korxonanani va avtomototransport vositasini boshqa shaxsga o'tkazish bo'yicha bitimlarni tasdiqlashda, to'lov to'liq amalga oshirilgunga qadar bitimlarda ko'rsatilgan mol-mulkni va qonunda ko'rsatilgan

boshqa holatlarda mol-mulkni boshqaga o'tkazishni taqiqlab qo'yadi.

**Ikkinchidan**, notarius boshqaga o'tkazish taqiqlangan mol-mulkni, mazkur mol-mulkni taqiqqa qo'yilishiga sabab bo'lgan asosiy majburiyatning bajarilganligi to'g'risidagi kreditorning ma'lumotnomasiga yoxud kreditorning mazkur mol-mulkni taqiqdan iqrarishga roziligi to'g'risidagi xabariga, shuningdek taqiq qo'yilishiga sabab bo'lgan asosiy majburiyatning bekor bo'lishi yoxud haqiqiy emas deb topilishi oqibatlarini qo'llash to'g'risidagi taraflar o'rtaсидаги о'заро келишувлар ва суд ҳуҷатларига асосан тақиқни bekor qiladi.

Notarius mol-mulkni o'zgaga o'tkazishga taqiq qo'yganda o'sha kunning o'zida boshqaga o'tkazilishi taqiqlangan mol-mulk to'g'risidagi ma'lumotlarni taqiq kitobiga hamda Tizimga kiritadi.

Notarius mol-mulkni boshqaga o'tkazishga taqiq qo'yganda yoki taqiqni bekor qilganda mazkur mol-mulkarga mulk huquqini tasdiqlovchi qog'oz shaklidagi hujjatlarga ham mol-mulkni boshqaga o'tkazish taqiqlanganligi yoki taqiq bekor qilinganlishi to'g'risidagi ma'lumotni yozib qo'yyadi.

### **3.8.2. Notarius tomonidan ko'chmas mulklar va avtomototransport vositalarining taqiq bankini yuritish tartibi**

Qonun hujjatlariga асосан boshqalar tomonidan ko'chmas mulklar va avtomototransport vositalarini o'zgaga o'tkazish taqiqlanganda notarius ular to'g'risidagi ma'lumotlarni yuritadi. Notarius tomonidan ko'chmas mulklar va avtomototransport vositalarini o'zgaga o'tkazish taqiqlanganligi yoki taqiq bekor qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan baza taqiq banki sanaladi.

Amaldagi tartibga ko‘ra taqiq banki elektron shaklda va qog‘oz shaklda yuritiladi.

Elektron taqiq banki – bu Notarius avtomatlashtirilgan axborot tizimining bir qismi hisoblandi. Unda notarius va boshqa vakolatli shaxslar tomonidan boshqaga o‘tkazish taqiqlangan yoki taqiq bekor qilingan avtomototransport vositalari va ko‘chmas mulklar to‘g‘risidagi ma’lumotlar saqlanadi.

Qog‘oz shaklidagi taqiq banki – bu avtomototransport vositalari va ko‘chmas mulklarni xatlash, ularni boshqaga o‘tkazishni taqiqlash va taqiqni olib tashlash to‘g‘risidagi kitoblar bo‘lib, mazkur kitoblar notarius tomonidan yuritiladi.

**Elektron taqiq ma’lumotlar banki** – Notarius avtomatlashtirilgan axborot tizimi (keyingi o‘rinnlarda tizim deb yuritiladi)ning bir platformasi bo‘lib, unda ko‘chmas mulk, korxona va avtomototransport vositalarini boshqa shaxsga o‘tkazish taqiqlanganligi yoki xatlanganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar elektron shaklda saqlanadi. Mazkur bank notarius tomonidan yuritiladi. Mazkur bankning ko‘chmas, mulklarga oid bazasi O‘zbekiston Respublikasi Yer tuzish, geodeziya, kortografiya davlat kadastri davlat qo‘mitasi bilan integratsiya qilingan. Mazkur bankning avtomoto-transportlarga oid bazasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan integratsiya qilingan;

Mol-mulkni xatlash, boshqaga o‘tkazishni taqiqlash va taqiqni olib tashlash vakolatiga notariusdan tashqari quyidagi subyektlar egadir:

- sud;
- prokuror;
- tergovchi;
- surishtiruvchi;
- davlat ijrochisi;

*Sudlar tomonidan mol-mulkni xatlash<sup>9</sup>, boshqaga o'tkazishni taqiqlash va taqiqni bekor qilish tartibi.*

*Jinoyat sudlari tomonidan* mol-mulkni xatlash, boshqaga o'tkazishni taqiqlash va taqiqni bekor qilish tartibi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kedeksi 290-moddasiga asosan hukmning fuqaroviylar da'voga va boshqa mulkiy undirishlarga doir qismining ijrosini ta'minlash uchun jinoyat ishlari bo'yicha sud gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va fuqaroviylar javobgarning mol-mulkini xatlash to'g'risida ajrim (qaror) chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kedeksi 290-moddasiga asosan oqlov hukmi qonuniy kuchga kirganda, jinoyat ishi tugatilganda, shuningdek fuqaroviylar da'vogar o'z da'vosidan voz kechganda hamda fuqaroviylar da'voni qanoatlantirish yuzasidan ko'rilgan choralarga sabab bo'lgan asoslar bartaraf etilgan boshqa hollarda mol-mulkning xatlanganligini sud o'z ajrimi (qarori) bilan bekor qilinadi.

Jinoyat ishlari bo'yicha sudlar avtomototransport vositalari yoki ko'chmas mulklarga nisbatan xatlov yoki taqiq hamda uni bekor qilish to'g'risida qaror chiqarsa, sud qaror qabul qilganidan so'ng mol-mulkni boshqaga o'tkazish to'g'risidagi xabarnomani kechiktirmsandan notarial idoraga jo'natishi lozim.

*Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan* mol-mulkni xatlash, boshqaga o'tkazishni taqiqlash va taqiqni bekor qilish tartibi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 106-moddasiga asosan fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar da'voni ta'minlash choralaridan biri sifatida

---

<sup>9</sup> **xatlash** – mulkdorga yoki mol-mulkning egasiga mol-mulkni tasarruf qilish, zarur hollarda esa, undan foydalanish man etilganligini e'lon qilishdan yoxud mol-mulkni tortib olishdan va uni saqlab turish uchun boshqa shaxslarga topshirish.

javobgarga tegishli bo‘lgan va uning o‘zida yoki boshqa shaxsda turgan mol-mulkni yoxud pul mablag‘larini xatlash to‘g‘risida ajrim (qaror) chiqaradi.

Da’voni qanoatlantirish to‘liq yoki qisman rad qilinganda, da’vogar o‘z talablaridan to‘liq yoki qisman voz kechganda sud mol-mulkni xatlashni o‘z ajrimi (qarori) bilan bekor qiladi.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar avtomototransport vositalari yoki ko‘chmas mulklarga nisbatan xatlov yoki taqiq hamda uni bekor qilish to‘g‘risida qaror chiqarsa, sud qaror qabul qilganidan so‘ng mol-mulkni boshqaga o‘tkazish to‘g‘risidagi xabarnomani kechiktirmasdan notarial idoraga jo‘natishi lozim.

**Iqtisodiy sudlar tomonidan** mol-mulkni xatlash, boshqaga o‘tkazishni taqiqlash va taqiqni bekor qilish tartibi.

O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi 94-moddasiga asosan iqtisodiy sudlar da’voni ta’minalash choralaridan biri sifatida javobgarga tegishli bo‘lgan va uning o‘zida yoki boshqa shaxsda turgan mol-mulkni yoxud pul mablag‘larini xatlash to‘g‘risida ajrim (qaror) chiqaradi.

Da’voni qanoatlantirish to‘liq yoki qisman rad qilinganda, da’vogar o‘z talablaridan to‘liq yoki qisman voz kechganda sud mol-mulkni xatlashni o‘z ajrimi (qarori) bilan bekor qiladi.

Iqtisodiy sudlar avtomototransport vositalari yoki ko‘chmas mulklarga nisbatan xatlov yoki taqiq hamda uni bekor qilish to‘g‘risida qaror chiqarsa, sud qaror qabul qilganidan so‘ng mol-mulkni boshqaga o‘tkazish to‘g‘risidagi xabarnomani kechiktirmasdan notarial idoraga jo‘natishi lozim.

**Ma’muriy sudlar tomonidan** mol-mulkni xatlash, boshqaga o‘tkazishni taqiqlash va taqiqni bekor qilish tartibi.

O‘zbekiston Respubkhlikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi 93-moddasiga asosan ma’muriy sudlar dastlabki himoya choralaridan biri sifatida nizoning predmeti bo‘lgan mol-mulkni o‘z ajrimi (qarori) bilan xatlashi mumkin.

Shikoyatni qanoatlantirish to‘liq yoki qisman rad qilinganda, arizachi o‘z talablaridan to‘liq yoki qisman voz kechganda sud mol-mulkni xatlashni o‘z ajrimi (qarori) bilan bekor qiladi.

Ma’muriy sudlar avtomototransport vositalari yoki ko‘chmas mulklarga nisbatan xatlov yoki taqiq hamda uni bekor qilish to‘g‘risida qaror chiqarsa, sud qaror qabul qilganidan so‘ng mol-mulkni boshqaga o‘tkazish to‘g‘risidagi xabarnomani kechiktirmasdan notarial idoraga jo‘natishi lozim.

***Prokuror, tergovchi va surishtiruvchi tomonidan mol-mulkni xatlash, boshqaga o‘tkazishni taqiqlash va taqiqni bekor qilish tartibi***

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kedeksi 290-moddasiga asosan hukmning fuqaroviylar da’voga va boshqa mulkiy undirishlarga doir qismining ijrosini ta’minlash uchun prokuror, tergovchi, surishtiruvchi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va fuqaroviylar javobgarning mol-mulkini xatlash to‘g‘risida qaror chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kedeksi 290-moddasiga asosan oqlov hukmi qonuniy kuchga kirganda, jinoyat ishi tugatilganda, shuningdek fuqaroviylar da’vogar o‘z da’vosidan voz kechganda hamda fuqaroviylar da’voni qanoatlantirish yuzasidan ko‘rilgan choralarga sabab bo‘lgan asoslar bartaraf etilgan boshqa hollarda mol-mulkning xatlanganligini prokuror, tergovchi, surishtiruvchi o‘z qarori bilan bekor qilinadi.

Prokuror, tergovchi, surishtiruvchi tomonidan yuqoridaagi harakatlar avtomototransport vositalari yoki ko‘chmas mulklarga nisbatan amalga oshirilsa, davlat ijrochisi qaror qabul qilganidan so‘ng mol-mulkni boshqaga o‘tkazish to‘g‘risidagi xabarnomani kechiktirmasdan notarial idoraga jo‘natishi lozim.

***Davlat ijrochisi tomonidan mol-mulkni xatlash, boshqaga o‘tkazishni taqiqlash va taqiqni bekor qilish tartibi***

Davlat ijrochisi O‘zbekiston Respublikasining Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijo etish to‘g‘risidagi qonuni 47, 53-moddasiga asosan ijo hujjatlari bo‘yicha majburiy ijroni amalga oshirish maqsadida qarzdorning mol-mulkni xatlash to‘g‘risida qaror chiqaradi.

Davlat ijrochisi O‘zbekiston Respublikasining Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijo etish to‘g‘risidagi qonuni 39-moddasiga asosan ijo ishi yuritishni tugatishi munosabati bilan qarzdorning mol-mulkni xatlashni bekor qiladi va bu to‘g‘risida qaror chiqaradi.

Davlat ijrochisi tomonidan yuqoridagi harakatlar avtomototransport vositalari yoki ko‘chmas mulklarga nisbatan amalga oshirilsa, davlat ijrochisi qaror qabul qilganidan so‘ng mol-mulkni boshqaga o‘tkazish to‘g‘risidagi xabarnomani kechiktirmasdan notarial idoraga jo‘natishi lozim.

Mol-mulkni xatlash, boshqaga o‘tkazishni taqiqlash va taqiqni olib tashlash vakolatiga ega bo‘lgan subyektlar tomonidan chiqarilgan **qarorda quyidagilar ko‘rstilgan bo‘lishi lozim:**

mol-mulk mulkdori bo‘lgan jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, yuridik shaxsning nomi;

mulkdorning yashash joyi yoki yuridik shaxsning davlat ro‘yxatidan o‘tgan joyi (joydashgan joyi va pochta manzili);

mol-mulkning mulkdorga tegishliligin tasdiqllovchi hujjatlarning nomi, kim tomonidan berilganligi (agar kimdir tomonidan berilgan bo‘lsa), ro‘yxatga olish yoxud boshqa raqamlari hamda mazkur hujjatga tegishli ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan rekvizitlar;

xatlov yoki taqiq qo‘yilgan mol-mulkning aniq tasnifi va mazkur mol-mulkning alohida rekvizidlari;

xatlov yoki taqiq qo‘yilgan sana. Agar xatlov yoki taqiq muayyan davr uchun qo‘yilgan bo‘lsa, mazkur davrning boshlanish va tugash vaqtini.

Sud, tergov, prokuratura organlari va davlat ijrochilari tomonidan mol-mulkni boshqa shaxsga o‘tkazish taqiqlanganligi yoki xatlanganligi to‘g‘risidagi xabarlar istalgan notarial idoraga yuborilishi mumkin.

Sud, tergov, prokuratura organlari va davlat ijrochilari tomonidan mol-mulkni boshqa shaxsga o'tkazish taqiqlanganligi yoki xatlanganligi to'g'risidagi xabarlar kelgan kunning o'zida notarial idoranining kirim kitobiga qayd qilinadi va xabarnomaga bu haqda belgi qo'yiladi.

Sud, tergov, prokuratura organlari va davlat ijrochilari tomonidan mol-mulkni boshqa shaxsga o'tkazish taqiqlanganligi yoki xatlanganligi to'g'risidagi xabarnomalar, mazkur xabarnoma kelgan kundan kechiktirilmasdan taqiq kitoblariga va Tizimga kiritiladi.

### **3.9. Notariuslar tomonidan yuridik faktlarni tasdiqlash tartibi**

O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonunining 11-bobiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida notariuslar to'rtta faktni tasdiqlaydi. Bular quyidagilar:

- fuqaroning tirik ekanligi faktini tasdiqlash;
- fuqaroning muayyan joyda ekanligi faktini tasdiqlash;
- fuqaroning fotosuratda aks ettirilgan shaxs ekanligini tasdiqlash;
- hujjatlar taqdim etilgan vaqtini tasdiqlash.

#### **3.9.1. Fuqaroning tirik ekanligi faktini tasdiqlash**

Notarius fuqaroning tirik ekanligi faktini uning shaxsiy iltimosiga ko'ra va uning ishtirokida tasdiqlaydi.

Voyaga etmagan shaxsning tirik ekanligi faktini tasdiqlash uning qonuniy vakillari (ota-onasi, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiyalar), shuningdek uni o'z homiyligiga olgan muassasalar va tashkilotlarning iltimosiga ko'ra amalga oshiriladi.

Bunday notarial harakatni amalga oshirish uchun fuqaroning yozma arizasi olinadi.

Voyaga etmagan shaxsning tirik ekanligi faktini tasdiqlash uning qonuniy vakillari (ota-onasi, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiyalar), shuningdek uni o‘z homiyligiga olgan tashkilotning yozma iltimosiga ko‘ra amalga oshiriladi.

Notarius murojaat qilgan shaxsga fuqaroning tirik ekanligi holatini tasdiqlovchi guvohnoma beradi.

### **3.9.2. Fuqaroning muayyan joyda ekanligi faktini tasdiqlash**

Notarius fuqaroning iltimosiga ko‘ra uning muayyan joyda ekanligi faktini tasdiqlaydi.

Voyaga yetmagan shaxsning muayyan joyda ekanligi faktini tasdiqlash uning qonuniy vakillari (ota-onasi, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiyalar), shuningdek uni o‘z homiyligiga olgan muassasalar va tashkilotlarning iltimosiga ko‘ra amalga oshiriladi.

Bunday notarial harakatni amalga oshirish uchun fuqaroning yozma arizasi olinadi.

Voyaga etmagan shaxsning muayyan joyda ekanligi faktini tasdiqlash uning qonuniy vakillari (ota-onasi, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiyalar), shuningdek vasiylik va homiylik organlarining iltimosiga ko‘ra amalga oshiriladi.

Notarius murojaat qilgan shaxslarga muayyan joyda ekanlik holatini tasdiqlovchi guvohnoma beradi.

### **3.9.3. Fuqaroning fotosuratda aks ettirilgan shaxs ekanligini tasdiqlash**

Notarius fuqaro taqdim etgan fotosuratdagi shaxs shu fuqaroning aynan o‘zi ekanligini tasdiqlaydi. Bunday notarial harakatni amalga oshirish uchun fuqaroning yozma arizasi olinadi. Fotosurat guvohnomaning berilayotgan nusxasining yuqori chap burchagiga qo‘yilib, notariusning imzosi va muhri bilan tasdiqlanadi. Bunda muhr qisman fotosurat ustiga, qisman esa guvohnoma ustiga qo‘yilishi kerak.

### **3.9.4. Hujjatlar taqdim etilgan vaqtini tasdiqlash**

Notarius o‘ziga hujjat taqdim etilgan vaqtini tasdiqlaydi. Mazkur notarial harakat ahamiyati shundaki, dunyo notariuslarining tajribasidan kelib chiqib, ko‘p hollarda fuqarolar o‘zlarining mualliflik huquqlarini himoya qilish maqsadida o‘zlari yozgan adabiyot asarlari bo‘lgan she’rlar, asarlar, dostonlarni, shuningdek ssenariylar, ratsionalizatorlik takliflari va boshqalar, ayrim hollarda dissertatsiyalar taqdim etilgan vaqtini notarius orqali tasdiqlab qo‘yishadi.

Bunday notarial harakatni amalga oshirish uchun fuqaroning yozma arizasi olinadi.

Fotosurat guvohnomaning berilayotgan nusxasining yuqori chap burchagiga qo‘yilib, notariusning imzosi va muhri bilan tasdiqlanadi. Bunda muhr qisman fotosurat ustiga, qisman esa guvohnoma ustiga qo‘yilishi kerak.

### **3.9.5. Yuridik shaxs rahbar organi tomonidan qaror qabul qilinganligi faktini tasdiqlash**

Notarius yuridik shaxsnинг rahbar organi yig‘ilishini chaqiruvchi organning yoki shaxsnинг iltimosiga ko‘ra ushbu yig‘ilish o‘tkazilishi chog‘ida hozir bo‘ladi va yuridik shaxsnинг rahbar organi tomonidan qaror qabul qilinganligi faktini tasdiqlash to‘g‘risida hamda ushbu qarorni qabul qilish chog‘ida hozir bo‘lgan ishtirokchilarning (aksiyadorlarning) tarkibi haqida guvohnoma beradi.

Notarius yuridik shaxsnинг rahbar organi tomonidan qaror qabul qilinganligi faktini belgilash uchun yuridik shaxsnинг huquq layoqatini tekshiradi, yuridik shaxs rahbar organining qaror qabul qilish borasidagi vakolatini, yig‘ilishda kvorum mavjudligini va ovozlarni sanab chiqish asosida qaror qabul qilish uchun kerakli ovozlar soni mavjudligini qonun hujjatlariga va yuridik shaxsnинг ta’sis hujjatlariga muvofiq aniqlaydi.

### **3.10. Er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnomalar berish**

Notarius **er-xotinning** yozma arizasiga muvofiq ulardan **biriga** yoki **har ikkisiga** nikoh davomida orttirilgan umumiy mol-mulkdagи ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risida guvohnoma beradi. Shuningdek, er-xotindan biri vafot etgan taqdirda er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma marhum erdan (xotindan) keyin xotinning (erning) yozma arizasiga ko‘ra meros ochilgan joydagi notarius tomonidan beriladi

**Mazkur notarial harakatning taalluqliligi:** er-xotin mazkur masala bo‘yicha istalgan notarial idoraga murojaat

qilishga haqli. Agar murojaat er-xotinning umumiy ko‘chmas mol-mulkidagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risida guvohnoma berilishi bilan bog‘liq bo‘lsa, shu mol-mulklar joylashgan erdagiga notariusga taalluqli bo‘ladi.

**Ushbu notarial harakatni amalga oshirish uchun talab qilinadigan hujjatlar:**

murojaat qiluvchilarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari;

nikoh tuzilganligini tasdiqlovchi hujjat;

mulk huquqini tasdiqlovchi hujjat;

agar er-xotindan biri vafot etgan taqdirda ulardan birining o‘lim haqidagi guvohnoma yoki o‘lim haqidagi dalolatnomasi yozuvlaridan ko‘chirma;

Notarius er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma berganligi haqida mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatga yozib qo‘yadi.

Notarius uy, kvartira, uyning yoki kvartiraning bir qismiga, avtomototransport vositasiga nisbatan berilgan er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risidagi guvohnomaga “Yergeodezkadastri” davlat qo‘mitasi hududiy bo‘linmasida, DYHXX organlarida ro‘yxatga olinishi haqida yozib qo‘yadi va tushuntiradi.

**Er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga  
bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma**

(notarial okrug nomi)

(guvohnoma tasdiqlangan sana, so‘z bilan)

(guvohnoma rasmiylashtirilgan DNI to‘liq nomi va

manzili, notariusning F.I.O.)

Men – O‘zbekiston Respublikasi, Sirdaryo viloyati, Sardoba tuman 1-son davlat notarial idora notariusi F.I.O. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 23-moddasiga asosan Sirdaryo viloyati, Sardoba tumani, G‘alaba ko‘chasi, 25-uyda propiskada turuvchi – er-xotin Kamalov Alixan Urubekovich (pasport SV 2653625, Sardoba tuman IIB tomonidan 25.01.2014 yilda berilgan) va Kamalova Roza To‘raxonovnalarning pasport (SV 2653626, Sardoba tuman IIB tomonidan 25.01.2014 yilda berilgan) birgalikdagi nikohi davomida orttirilgan mol-mulkiga har birining teng hissada mulkdor ekanligini tasdiqlayman.

Ushbu guvohnoma bo‘yicha mulk huquqi teng hissada tasdiqlanib berilayotgan umumiyligini mulk – DAMAS rusumli, 2006 yilda ishlab chiqarilgan, dvigatel raqami 111021441, kuzov raqami 2220101456, shassi – raqamsiz, rangi – qizil, davlat raqami belgisi 20D177VA bo‘lgan avtotransport vositasidan iborat.

Ushbu avtotransport vositasi Sirdaryo viloyati IIB DYHXB 2-son TRIB tomonidan 2006 yil 1 avgustda berilgan seriya AAS № 0596493 raqamli transport vositasini qayd etish guvohnomasiga ko‘ra Kamalova Roza To‘raxonovna nomiga ro‘yxatga olingan.

Ushbu guvohnoma uch nusxada tuzilib, imzolandi, ulardan biri Sardoba tuman 1-son davlat notarial idorasida saqlanadi, qolgan nusxalari taraflarga berildi.

Ushbu guvohnoma IIVning tegishli DYHXX organlarida 10 kun ichida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilishi shart. Mazkur talabni bajarmaslik qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortishga olib keladi.

Reestrga \_\_\_\_\_-son bilan qayd qilindi.

Davlat boji: \_\_\_\_\_ so‘m  
(\_\_\_\_\_ so‘z bilan) undirildi.  
Texnik tusdagisi xizmatlar uchun \_\_\_\_\_ so‘m  
(\_\_\_\_\_ so‘z bilan) undirildi.

Notarius (imzo)  
F.I.O. M.O‘.

### **3.11. Notarial idoralarda merosga oid ishlarni yuritish**

O‘zbekiston Respublikasining “Notariat to‘g‘risida”gi Qonunining 23-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasida notariuslar merosga oid quyidagi ishlarni ko‘rib chiqadi:

- ✓ merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnoma beradi;
- ✓ meros mol-mulkning qo‘riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko‘radi.

#### **3.11.1. Meros mol-mulkining qo‘riqlanishiga doir chora-tadbirlarni ko‘rish**

O‘zbekiston Respublikasining Notariat to‘g‘risidagi Qonunining 52-moddasiga muvofiq meros ochilgan joydagi notarius, basharti qonun bo‘yicha merosxo‘rlarning yoki vasiyat majburiyati yuzasidan huquq oluvchilarining, kreditorlar yoki davlatning manfaatlari uchun zarur bo‘lsa, jismoniy va yuridik shaxslarning xabariga ko‘ra yoki o‘z tashabbusi bilan meros mol-mulkning qo‘riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko‘radi.

Agar meros qoldiruvchining mol-mulki yoki uning bir qismi meros ochilgan joydan tashqarida bo‘lsa, meros ochilgan joydagi notarius bu haqida meros mol-mulk joylashgan yerdagi notariusga meros mol-mulkning qo‘riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko‘rish to‘g‘risida topshiriq yuboradi. Meros mol-mulkning qo‘riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko‘rgan notarius meros ochilgan joydagi davlat notarial idorasiga ko‘rilgan chora-tadbirlar haqida xabar qiladi va meros mol-mulk ro‘yxatining nusxasini yuboradi.

*Meros mol-mulkini qo‘riqlashga doir ishlarni amalga  
oshirish jarayonida notarius ushbu mol-mulkni  
qo‘riqlanishini ta’minlovchi quyidagi chora-tadbirlarni  
ko‘radi:*

meros ochilgan joyini aniqlaydi;

yashash joyi ma’lum bo‘lgan merosxo‘rlarni meros  
ochilganligi haqida va mol-mulkni ro‘yxatga olinishi  
to‘g‘risida xabardor qiladi;

o‘lim faktini tasdiqlash uchun o‘lim haqidagi  
guvohnomani yoki o‘lim haqidagi dalolatnoma yozuvidan  
ko‘chirmani talab qiladi, guvohnomaning nusxasi meros  
ishida qoldiriladi;

meros mol-mulkni qo‘riqlashga dastlabki chora-  
tadbirlar ko‘rilgan yoki ko‘rilmaganligini, agar ko‘rilgan  
bo‘lsa, unda bu chora-tadbir kim tomonidan ko‘rilganligini,  
meros qoldiruvchining mol-mulki turgan xona (xonalar)  
muhrlanganligini, bu xonaning (xonalarning) kaliti  
kimdaligini aniqlaydi;

meros bo‘lib qolgan mol-mulkni ro‘yxatga olish  
to‘g‘risida merosxo‘rlar yoki boshqa manfaatdor shaxslarni  
xabardor qiladi;

meros ochilganligi to‘g‘risida meros qoldiruvchining  
kreditorlariga xabar beradi va ulardan arizalarni qabul qilib  
oladi.

### **3.11.1.1. Meros ochilganligi to‘g‘risida xabar berish**

Notarius meros ochilganidan so‘ng, meros mol-mulkini  
qo‘riqlashga kirishganda meros ochilganligi, merosxo‘rlar  
doirasi aniqlanayotganligi, shuningdek meros qoldiruv-  
chining kreditorlariga qarzlarni undirish bo‘yicha ariza bilan  
murojaat qilish to‘g‘risida xabar beradi.

### **3.11.1.2. Meros tarkibini aniqlash**

Notarius meros mol-mulkini qo'riqlash maqsadida meros qolduruvchining mol-mulklarini dalolatnomaga bilan ro'yxatga oladi. Ro'yxatga olish dalolatnomasi kamida uch nusxada tuzilib, bitta nusxasi meros ishiga tikiladi, ikkinchisi tilxat bilan meros boshqaruvchilarini va meros mol-mulk saqlash uchun topshirilgan shaxslarga, uchinchisi merosga bo'lган huquq to'g'risidagi guvohnoma bilan birgalikda merosxo'rлarga beriladi.

#### ***Ro'yxatga olish dalolatnomasida quyidagilar ko'rsatilishi lozim:***

meros mol-mulk to'g'risidagi xabar yoki uni qo'riqlashga doir chora-tadbirlari ko'rish to'g'risidagi topshiriqning kelib tushgan sanasi;

ro'yxatga olish sanasi, ro'yxatga olishda ishtirok etuvchi shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi;

meros qoldiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, uning vafot etgan sanasi;

ro'yxatga olinayotgan mol-mulkning joylashgan joyi, notarius kelishidan oldin xona (xonalar) muhrlanganligi va muhrlash kim tomonidan amalga oshirilganligi, plomba va muhrlar buzilmaganligi haqidagi ma'lumotlar;

qayd etilgan barcha predmetlarning batapsil tavsifi;

ro'yxatga olish dalolatnomasiga meros qoldiruvchining barcha mol-mulki kiritiladi.

#### ***Meros tarkibiga kiradigan ayrim turdag'i ashyolarning qo'riqlanishi:***

Agar meros tarkibida oltin, kumush, platina va tangadagi, quymadagi va xom turdag'i platina guruhdagi metallar, chet el valyutasi, chet el valyutasida berilgan to'lov hujjatlari, hujjatli shakldagi qimmatli qog'ozlar, qimmatbaho metallardan, toshlardan ishlab chiqarilgan buyumlar, shuningdek qimmatbaho toshlar bo'lsa, ularga alohida ro'yxat tuziladi, ular konvertga yoki yumshoq idishga solinadi, muhrlanadi, plombalanadi va ro'yxatga olingan kunning

keyingi kunidan kechiktirmay, merosxo‘rlarga berilgunicha yoki meros olish huquqi bo‘yicha meros mol-mulki davlatga o‘tish holatida davlat foydasiga topshirilgunga qadar, tegishli bankka saqlash uchun topshiriladi.

Ro‘yxatga olingen qimmatbaho ashyolarni (buyum-larni) tegishli bankka saqlash uchun topshirishdan oldin notarius notarial idorada olib boriladigan qimmatbaho ashyolar (narsalar)ni ro‘yxatga olish kitobida ularni qayd etishi lozim. Qimmatbaho ashyolar (buyumlar)ning ro‘yxati uch nusxada tuziladi. Ulardan biri qimmatbaho ashyolar (buyumlar) bilan tegishli bankka beriladi, ikkinchisi meros ishiga tikiladi va uchinchisi merosxo‘rlarga merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnoma bilan birga beriladi.

Agar meros tarkibida **qurollar** mavjud bo‘lsa, barcha turdag‘i qurol, shu jumladan ov miltig‘i va portlovchi moddalar maxsus ro‘yxat bo‘yicha ichki ishlar organlariga topshiriladi.

Meros qoldiruvchiga tegishli bo‘lgan **orden, medallar, faxriy unvonlar, ko‘krak nishonlari**, shuningdek ularni taqdirlash to‘g‘risidagi hujjatlar esdalik sifatida saqlash uchun meros qoldiruvchining oila a‘zolarida qoldiriladi yoki merosxo‘rlarning roziligi bilan ular muzeylarga topshirilishi mumkin.

**Oziq-ovqat mahsulotlarini** notarius merosxo‘rlarga, ular bo‘lma ganda tegishli tashkilotlarga topshiradi. Oziq-ovqat mahsulotlarini topshirish alohida dalolatnomalar bo‘yicha amalga oshiriladi.

Agar mol-mulkning tarkibida **qimmatbaho qo‘lyozmalar**, adabiyot asarlari, tarixiy yozishmalar mavjud bo‘lsa, ushbu hujjatlar alohida ro‘yxatga olinib, merosxo‘rlarga yoki tegishli tashkilotlarga saqlash uchun topshiriladi, merosxo‘rlar mavjud bo‘lmasan taqdirda notarius ushbu hujjatlar va qimmatbaho ashyolar (buyumlar) saqlanadigan xonani (xonalarни) muhrlab qo‘yadi.

Meros tarkibida **boshqarishni talab qiladigan mol-mulk** mavjud bo‘lsa, shuningdek meros qoldiruvchining kreditorlari merosxo‘rlar tomonidan merosni qabul qilib olguniga qadar da’vo qo‘zg‘atgan hollarda notarius meros

mol-mulkini boshqaruvchisini tayinlaydi va bu haqida qaror chiqaradi.

Agar meros qoldiruvchi bilan birgalikda yashab kelayotgan merosxo‘rlar yoki boshqa shaxslar mol-mulkni ro‘yxatga olishga qarshilik qilishsa, notarius mol-mulkni xatlash uchun taqdim etishdan bosh tortganlik to‘g‘risida dalolatnomani tuzadi va merosxo‘rlarni bu haqida xabardor qiladi, ularga bu masala yuzasidan da‘vo bilan sudga murojaat etish yoki da‘voni ta‘minlash maqsadida sud tartibida mol-mulkni ro‘yxatdan o‘tkazish huquqlarini tushuntiradi.

Agar ro‘yxatga olish uchun joyiga chiqilganda, ro‘yxatga olinishi lozim bo‘lgan mol-mulk mavjud bo‘lmasa va merosxo‘rlar yoki boshqa shaxslar tomonidan olib ketilgan bo‘lsa, notarius mol-mulk mavjud emasligi to‘g‘risida yoki mol-mulk olib ketilganligi to‘g‘risida dalolatnomani tuzadi va bu haqida merosxo‘rlarga yoki boshqa manfaatdor shaxslarga xabar beradi, ularning buzilgan huquqlarini himoya qilish va mol-mulkni qaytarish talabi bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat etish huquqini tushuntiradi.

### **3.11.1.3. Meros qoldiruvchining kreditorlarining arizalarini qabul qilish**

Meror qoldiruvchining kreditorlari vasiyatnomani ijro etuvchiga (merosni boshqaruvchiga) yoki merosxo‘rlarga meros qoldiruvchining majburiyatlaridan kelib chiqadigan o‘z talablarini qo‘yishga haqlidirlar.

Meror ochilgan joy bo‘yicha notarius meros qoldiruvchining kreditorlaridan arizalarni qabul qiladi. Arizalar yozma ravishda bayon etilishi va qarz majburiyatlarining bajarilishi muddatidan qat‘i nazar, notarius tomonidan qabul qilinishi lozim. Kelib tushgan ariza to‘g‘risida notarius vasiyatnomani ijro etuvchini (merosni boshqaruvchini) yoki merosxo‘rlarni xabardor qiladi.

### **3.11.2. Merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnoma berish**

Meros ochilgan joydagi notarius merosxo‘rlarning yozma arizalariga ko‘ra merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnomalar beradi. Merosni qabul qilish yoki undan voz kechish haqidagi arizalar notariuslar yoki O‘zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarining konsullari tomonidan tegishli tartibda shahodatlantirilgan bo‘lishi lozim. Merosxo‘r shaxsan o‘zi meros ochilgan joydagi davlat notarial idorasiga kelib, arizani taqdim etgan holda, uning imzosining haqiqiyligini shahodatlash talab qilinmaydi. Bu holda notarius merosxo‘rning shaxsini aniqlaydi va imzosi haqiqiyligini tekshiradi, bu haqida arizaga belgi qo‘yadi va shaxsini tasdiqlovchi hujjatning nomini, uning raqamini, qachon va kim tomonidan berilganligini va tug‘ilgan yilini ko‘rsatadi. Agarda ariza pochta orqali kelib tushgan bo‘lsa, merosxo‘rning imzosi haqiqiyligi shahodatlanmagan bo‘lsa ham ariza notarius tomonidan qabul qilinadi, merosxo‘rga esa arizani notarius yoki O‘zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarining konsullari tomonidan shahodatlantirilgan holda yuborish yoki davlat notarial idorasiga shaxsan kelishi haqida xabarnoma yuboriladi. Merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnoma meros ochilgan kundan e’tiboran olti oy o‘tganidan keyin beriladi. Fuqarolik kodeksining 1157-moddasiga muvofiq agar qonun bo‘yicha ham, vasiyatnama bo‘yicha ham merosxo‘rlar bo‘lmasa yoki merosxo‘rlardan hech qaysisi vorislik huquqiga ega bo‘lmasa yoxud ularning hammasi merosdan voz kechgan bo‘lsa, meros mol-mulk egasiz deb hisoblanadi. Meros mol-mulk meros ochilgan joydagi mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining arizasi bo‘yicha meros ochilgan kundan e’tiboran uch yil o‘tganidan keyin sudning qarori asosida egasiz deb topiladi. Meros mol-mulk, agar uni qo‘riqlash va boshqarish bilan bog‘liq xarajatlar uning qiymatidan oshib ketsa, ko‘rsatilgan muddat o‘tishidan oldin egasiz deb topilishi mumkin.

**Merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnoma berishda notariusning amalga oshiradigan harakatlari ketma-ketligi:**

**1. Notarius meros ochilganini tekshiradi**

*Buni notarius o‘lim guvohnomasi orqali aniqlaydi. Meros fuqaroning o‘limi yoki uning sud tomonidan vafor etgan deb e‘lon qilinishi oqibatida ochiladi (FK 1116), fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish fuqarolik holati hujjatlarini yozish organlari tomonidan fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish daftariga (hujjatlar daftariga) tegishli yozuvlarni kiritish hamda shu yozuvlar asosida fuqarolarga guvohnomalar berish yo‘li bilan amalga oshiriladi (FK 38).*

**2. Meros tarkibini aniqlaydi**

*Meros ochilgan paytda meros qoldiruvchiga tegishli bo‘lgan, uning o‘limidan keyin ham bekor bo‘lmaydigan barcha huquq va majburiyatlar meros tarkibiga kiradi.*

*Meros qoldiruvchining shaxsi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan huquq va majburiyatlar:*

*yuridik shaxs hisoblangan tijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlarga a‘zolik, ularda ishtirok etish huquqlari, agar qonun yoki shartnomada boshqa hol belgilangan bo‘lmasa;*

*hayotga yoki sog‘liqqa etkazilgan zarar uchun tovon undirish huquqi;*

*aliment majburiyatlari tufayli yuzaga kelgan huquqlar va majburiyatlar;*

*mehnat va ijtimoiy ta‘minot to‘g‘risidagi qonun hujjatlari asosida pensiya, nafaqa va boshqa to‘lovlar olish huquqi;*

*mulkiy huquqlar bilan bog‘liq bo‘laman shaxsiy nomulkiy huualalar meros tarkibiga kirmaydi.*

**3. Meros qoldiruvchi vasiyatnoma qolirgan yoki qoldirmaganligini aniqlaydi**

**Vasiyat bo‘yicha vorislik**

*(agar vasiyatnoma mavjud bo‘lsa va u meros tarkibini to‘liq qamrab olgan bo‘lsa)*

**Qonun bo‘yicha vorislik**


*(agar meros qoldiruvchi vasiyatnoma qoldirmagan yoki vasiyatnoma meros tarkibini to‘liq qamrab olmagan yoxud vasiyat bo‘yicha merosxo‘r merosdan voz kechgan bo‘lsa)*


**4. Merosxo‘rlar doirasini aniqlaydi**

*Vasiyat bo'yicha  
vasiyatnomada ko'rsatilgan shaxs(lar) yoki  
vasiyatnomada faqat merosdan mahrum  
qilingan shaxs(lar) ro'yxati ko'rsatilgan  
bo'lsa, u(lar)dan tashqari merosga  
chaqirilayotgan navbatning vakil(lar)i*

*Qonun bo'yicha  
vorislар quyidagi  
sxemalarda  
keltirilgan  
(huquqiy asoslari FK  
1135–1141)*

#### ҚОНУН БҮЙИЧА МЕРОСХҮРЛАР НАВБАТИ





## 5. Мерос таркibidan undirilishi kerak bo‘lgan kreditor(lar) talab(lar)i va boshqa xarajatlarini aniqlaydi

Meros vorislari o‘rtasida taqsimlanishidan oldin meros qoldiruvchining vafoti oldidan xastaligi tufayli qilingan zarur xarajatlar, meros qoldiruvchini dafn etish xarajatlari, merosni egallash, muhofaza qilish, boshqarish va vasiyatnomani ijro etish, shuningdek vasiyatnomani ijro etuvchi yoki merosni boshqaruvchiga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash to‘g‘risidagi talablar meros hisobidan qondirilishi lozim. Bu talablar meros qiymati hisobidan boshqa barcha talablardan, shu jumladan ipoteka yoki boshqa garov bilan ta‘minlangan talablardan oldin imtiyozli ravishda qondirilishi lozim.

Meros qoldiruvchining kreditorlari vasiyatnomani ijro etuvchiga (merosni boshqaruvchiga) yoki merosxo‘rlarga meros qoldiruvchining majburiyatlaridan kelib chiqadigan o‘z talablarini qo‘yishga haqlidirlar. Bu holda merosxo‘rlarning har biri o‘ziga tekkan mol-mulkning qiymati doirasida solidar qarzdorlar sifatida javobgar bo‘ladilar.

**6. Meros tarkibidan merosxo‘rlarning ulushlarini aniqlab,  
ularga merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnoma beradi**



**QONUN BO‘YICHA MEROSGA BO‘LGAN  
HUQUQ TO‘G‘RISIDA  
GUVOHNOMA**

**Buxoro viloyati Qorako‘l tumani.**

**Ikki ming o‘n ettinchi yil, iyun oyining to‘qqizinchi kuni.**

Ushbu guvohnoma Buxoro viloyati Qorako‘l tumani Ulug‘bek ko‘chasida joylashgan Qorako‘l tuman 1-sonli davlat notarial idorasini binosida rasmiylashtirildi. Notarius Baxromov Alisher Yaxyo o‘g‘li.

Men, Buxoro viloyati Qorako‘l tuman 1-sonli davlat notarial idorasining notariusi Baxromov Alisher YAxyo o‘g‘li, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1135-moddasiga asosan, Qorako‘l tumanida yashab, Qorako‘l tumanı Mirza qal‘a QFYda 01.11.2013 yilda vafot etgan marhum Hamroev Pirnazar Yodgorovichning vorislari: 22.11.1977 yilda tug‘ilgan Hamroyev O‘ktam Pirnazarovich, 16.05.1979 yilda tug‘ilgan Hamroev Rustam Pirnazarovich, 11.05.1983 yilda tug‘ilgan Hamroeva Dilbar Pirnazarovna, 08.11.1984 yilda tug‘ilgan Hamroev Jasur Pirnazarovich, 06.09.1992 yilda tug‘ilgan Hamroev Mansur Pirnazar o‘g‘lilarning merosdagi ulushlaridan marhumning xotini foydasiga voz kechganligi sababli marhum Hamroev Pirnazar Yodgorovichning meros mulkiga uning Buxoro viloyati, Qorako‘l tumanı Qoraun QFYga propiska qilingan 16.12.1955 yilda tug‘ilgan xotini Nematova Hafiza Asadovna (*STIR 579 946 579*) (pasport: *Buxoro viloyati Qorako‘l tumanı IIB tomonidan 21.08.2001 yilda berilgan SR 0962994*)ni merosxo‘r ekanligini tasdiqlayman.

**Ushbu guvohnoma berilayotgan meros mulki quyidagilardan iborat:**

1. Buxoro viloyati, Qorako‘l tumanı, Mirza qal‘a MFY, Mirza qal‘a qishlog‘ida joylashgan uyning  $\frac{1}{2}$  (ikkidan bir) qismi. Mazkur uyning umumiy yer maydoni 0,15 (nol butun yuzdan o‘n besh) ga, umumiy maydoni 361,1 (uch yuz oltmish bir butun o‘ndan bir) kvadrat metr, turarjoy maydoni 139,4 (bir yuz o‘ttiz to‘qqiz butun o‘ndan to‘rt) kvadrat metr hamda 5 (besh) ta xonadan iborat.

Meros mulkinining marhum Hamroev Pirnazar Yodgorovichga tegishliliqi Qorako‘l tuman Yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastrı davlat korxonasi tomonidan 2014 yil 1 avgust kuni 1-sonli reestr kitobida № 257-raqam bilan ro‘yxatga olingan Qorako‘l tumanı xokimi M.Mo‘monov tomonidan 10.07.2014 yilda qabul qilingan 755-sonli qaroriga asosan aniqlandi.

Mazkur mulk “Notarius” avtomotlashtirilgan axborot tizimi orqali tekshirilganda va Qorako’l tuman Yer tuzish va ko’chmas mulk kadastrı davlat korxonasi tomonidan 2017 yil 6 iyunda berilgan 427-sonli ma’lumotnomasiga asosan taqiqda turmaydi.

Qorako’l tuman Yer tuzish va ko’chmas mulk kadastrı davlat korxonasi tomonidan 2017 yil 6 iyunda berilgan 427-sonli ma’lumotnomasiga asosan mulkning meros ochigan vaqtligi inventar qiymati 5 465 805 (*besh million to’rt yuz oltmis besh ming sakkiz yuz besh*) so‘m bo‘lib, mulkning meros sifatida o‘tadigan  $\frac{1}{2}$  (ikkidan bir) qismining inventar qiymati 2 732 902 (*ikki million etti yuz o’ttiz ikki ming to’qqiz yuz ikki*) so‘nni tashkil qiladi.

2. 2008 yilda ishlab chiqarilgan, t/v turi engil (sedan), dvigatel № 091399, kuzov № XWB3D31BD8A158923, shassi № raqamsiz, kulrang rangli, davlat raqam belgisi 80 M 442 AA bo‘lgan GBA NEXIA DAEWOO SNG rusumli avtomotransport vositasining  $\frac{1}{2}$  (ikkidan bir) qismidan iborat. Yuqoridagi GBA NEXIA DAEWOO SNG rusumli avtomotransport vositasi marxum Hamroev Pirnazar Yodgorovichga tegishliligi Jondor TRIB tomonidan 2009 yil 19 iyunda berilgan AAS № 2022241 raqamli transport vositasini qayd etish guvohnomasiga asosan aniqlandi.

Ushbu avtomotransport vositasi “Notarius” avtomotlashtirilgan axborot tizimi orqali tekshirilganda 09.06.2017 yil holatida taqiqda emasligi aniqlandi.

Yuqorida ko‘rsatilgan GBA NEXIA DAEWOO SNG rusumli avtomotransport vositasi Buxoro viloyati Shofirkon tumani “BIZNES TADQIQOT KONSALTING” baholash va konsalting tashkiloti MCHJ tomonidan 03.06.2017 yilda berilgan № 08/06-17-sonli baholash hisobotiga asosan meros ochilgan vaqtligi qiymati 23 910 364 (*yigirma uch million to’qqiz yuz o’n ming uch yuz oltmis to’rt*) so‘m bo‘lib, mulkning meros sifatida o‘tadigan  $\frac{1}{2}$  (ikkidan bir) qismining qiymati 11 955 182 (*o’n bir million to’qqiz yuz ellik besh ming bir yuz sakson ikki*) so‘nni tashkil qiladi.

Fuqaro Nematova Hafiza Asadovnadan 11 955 (*o’n bir ming to’qqiz yuz ellik besh*) so‘m miqdorida davlat boji undirildi.

Mazkur guvohnoma Qorako’l tumanı Yer tuzish va ko’chmas mulk kadastrı davlat korxonasida hamda tegishli DYHXX organlarida o‘n kun muddat ichida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim.

Mulkning  $\frac{1}{2}$  (ikkidan bir) qismiga marhumning xotini Nematova Hafiza Asadovnaga er-xotinning umumiyl mulkidagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risida guvohnoma berilgan.

Reestrga \_\_\_\_\_ raqami bilan qayd etildi.

25-sonli meros ishi.

Texnik tusdagisi xizmatlar uchun \_\_\_\_\_ so‘m  
(\_\_\_\_\_ so‘z bilan) undirildi.

**Qorako’l tuman 1-sonli davlat  
notarial idorasi notariusi**

**A.Baxromov**

### ***Meros ishlarini ro'yxatga olish kitobini yuritish.***

Merosni qabul qilish yoki undan voz kechish haqidagi arizalar, merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berish, meros mol-mulk hisobidan xarajatlarni to'lash, meros mol-mulkni qo'riqlash choralarini ko'rish haqidagi arizalar, shuningdek, kreditorlarning talabnomalari alohida meros ishlari shakliga keltiriladi, ularning har biriga alohida indeks beriladi va tegishli hujjatlar yig'majildlariga tikeladi, shundan so'ng, ***Meros ishlarini ro'yxatga olish kitobida*** qayd etiladi hamda unga shu kitobdagi tegishli tartib raqami beriladi. Meros ishi yig'majildiga merosni qabul qilish yoki undan voz kechish haqidagi arizalar, merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berish, meros mol-mulk hisobidan xarajatlarni to'lash, meros mol-mulkni qo'riqlash choralarini ko'rish haqidagi arizalar, shuningdek, kreditorlarning talabmalari aks ettirilgan arizalar bo'yicha merosni rasmiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan barcha hujjatlar tikib qo'yiladi. Agar meros ishini rasmiylashtirish joriy yilda tugallanmasa, u keyingi yilga mazkur raqam bilan o'tadi va u qayta ro'yxatga olinmaydi.

### **3.12. Protestga oid ishlarni yuritish**

O'zbekiston Respublikasida notariuslar tomonidan protestga oid quyidagilar amalga oshiriladi:

- ✓ vekselni protest qilish;
- ✓ dengiz protestlarini amalga oshirish.

### 3.12.1. Vekselni protest qilish



Taraflarning kelishuviga muvofiq qarz oluvchi **veksel** bergan bo'lib, bu veksel uni beruvchining (oddiy veksel) yoki vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining (o'tkazma veksel) vekselda nazarda tutilgan muddat kelgach, qarzga olingan pul summalarini to'lash haqidagi hech qanday shart bilan bog'lanmagan majburiyatini tasdiqlaydi.

Notarius **puli to'lanmagan, aksept qilinmagan va aksept sanasi ko'rsatilmagan** vekselni qonun hujjalariiga muvofiq protest qiladi.

**Puli to'lanmagan vekselni protestlash bo'yicha notariusning harakatlari.** To'lanmaganlik uchun protest solinadigan veksellar notariusga veksel bo'yicha to'lash vaqtida o'tgan kunning ertasiga topshiriladi. Veksellarga to'lanmaganlik to'g'risidagi protest notariuslar tomonidan to'lovchining turar joyi bo'yicha yoki to'lov joyi bo'yicha (domitsillashtirilgan veksellar, ya'ni to'lash uchun uchinchi shaxsning qo'lida bo'lgan veksellar) solinadi. Notarius vekselni protestga qabul qilib olgan kunda to'lovchiga yoki

domitsiliantga (domitsiyalashgan vekselni to‘lovchi shaxs) vekselni to‘lash to‘g‘risidagi talabni qo‘yadi. Agar to‘lovchi (domitsiliant) vekselni to‘lagan taqdirda notarius unga protest qo‘ymay, vekselni uni to‘lagan shaxsga qaytaradi, vekselning o‘ziga to‘lov va belgilangan forma bo‘yicha tegishli boshqa summalar olinganligi to‘g‘risida yozib qo‘yadi. To‘lovchi (domitsiliant) vekselni to‘lashdan bosh tortgan taqdirda yoxud u notarial idoraga kelmagan taqdirda notarius belgilangan formaga veksel to‘lanmaganligi uchun unga protest solish to‘g‘risida dalolatnama tuzadi va reestrda tegishli yozuvni amalga oshiradi, shuningdek vekselning o‘ziga u to‘lanmaganligi uchun taqiq solinganligi haqida belgi qo‘yadi. To‘lovchining qaerdaligi noma’lum bo‘lgan taqdirda vekselga to‘lov to‘g‘risidagi talab qo‘yilmagan holda protest solinadi, ya’ni protest to‘g‘risidagi dalolatnomaga va reestrga tegishli belgi qo‘yiladi.

***Aksept qilinmagan vekselni protestlash bo‘yicha notariusning harakatlari.*** Notarius tomonidan protest noaksept veksellarga protest to‘lovchi joyi bo‘yicha solinadi. Notarius vekselni protestga qabul qilib olgan kunda to‘lovchiga yoki domitsiliantga (domitsiyalashgan vekselni to‘lovchi shaxs) vekselni akseptlash to‘g‘risidagi talabni qo‘yadi. Agar to‘lovchi o‘tkaziladigan vekselga aksept to‘g‘risida belgi qo‘ydirgan bo‘lsa, veksel protest solinmagan holda uning saqlovchisiga topshiriladi. To‘lovchi (domitsiliant) akseptlashtirishdan bosh tortgan taqdirda yoxud u notarial idoraga kelmagan taqdirda notarius belgilangan formaga veksel akseptlanmaganligi uchun unga protest solish to‘g‘risida dalolatnama tuzadi va reestrda tegishli yozuvni amalga oshiradi, shuningdek vekselning o‘ziga u akseptlanmaganligi uchun taqiq solinganligi haqida belgi qo‘yadi. To‘lovchining qaerdaligi noma’lum bo‘lgan taqdirda vekselga aksept to‘g‘risidagi talab qo‘yilmagan holda protest solinadi, ya’ni protest to‘g‘risidagi dalolatnomaga va reestrga tegishli belgi qo‘yiladi.

***Aksept sanasi ko‘rsatilmagan vekselni protestlash bo‘yicha notariusning harakatlari.*** Notarius tomonidan aksept sanasi ko‘rsatilmagan veksellarga protest to‘lovchi

joyi bo'yicha solinadi. Notarius vekselni protestga qabul qilib olgan kunda to'lovchiga yoki domitsiliantga (domitsiyalashgan vekselni to'lovchi shaxs) vekselni akseptlash sanasini ko'rsatish to'g'risidagi talabni qo'yadi. Agar to'lovchi o'tkaziladigan vekselga aksept sanasi to'g'risida belgi qo'ydirgan bo'lsa, veksel protest solinmagan holda uning saqlovchisiga topshiriladi. To'lovchi (domitsiliant) aksept sanasi bo'yicha belgi qo'ydirishdan bosh tortgan taqdirda yoxud u notarial idoraga kelmagan taqdirda notarius belgilangan formaga veksel aksept sanasi ko'rsatilmaganligi uchun unga protest solish to'g'risida dalolatnoma tuzadi va reestrda tegishli yozuvni amalga oshiradi, shuningdek vekselning o'ziga u akseptlanmaganligi uchun taqiq solinganligi haqida belgi qo'yadi. To'lovchi (domitsiliant)ning qaerdaligi noma'lum bo'lgan taqdirda vekselga aksept sanasini qo'ydirish to'g'risidagi talab qo'yilmagan holda protest solinadi, ya'ni protest to'g'risidagi dalolatnomaga va reestrda tegishli belgi qo'yiladi.

Protestlangan veksel vekselni saqlovchiga yoki unga vakolatli shaxsga beriladi.

#### PROMISSORY NOTE

\_\_\_\_\_  
20\_\_\_\_\_

At any time after the above date the undersigned promises to pay to the order of \_\_\_\_\_, the sum of \$\_\_\_\_\_ Dollars, for value received, with \_\_\_\_\_ % interest after the date until \_\_\_\_\_, 20\_\_\_\_\_. The makers, endorsers, and guarantors hereof waive presentment, demand of payment, notice of nonpayment, protest, notice of protest, and all exemptions.

NAME OF LENDER \_\_\_\_\_

NAME OF BORROWER \_\_\_\_\_

Personally appeared before me \_\_\_\_\_ and \_\_\_\_\_  
who signed the above instrument of his/her own free act and will on this \_\_\_\_\_  
day of \_\_\_\_\_, 20\_\_\_\_\_.  
  
COUNTY OF \_\_\_\_\_

NOTARY PUBLIC \_\_\_\_\_

NOTARY SEAL

COMMISSION STAMP

### 3.12.2. Dengiz protestlarini amalga oshirish

Notarius kema egasining huquq va qonuniy manfaatlarni himoya qilish uchun dalil-isbotlarni ta'minlash maqsadida kema kapitanining kema suzib borayotganda yoki u to'xtab turgan joyda sodir bo'lgan hamda kema egasining oldiga mulkiy talablar qo'yish uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan hodisa to'g'risidagi arizasini qabul qiladi.

Dengiz protesti haqidagi arizada yuz bergen hodisa tafsilotlari va kapitanning o'ziga ishonib topshirilgan mulkning but saqlanishini ta'minlash yuzasidan ko'rgan chora-tadbirlari bayon etilgan bo'lishi kerak.

Dengiz protesti to'g'risidagi arizada bayon etilgan holatlarning tasdig'i sifatida kema kapitani ariza bilan bir vaqtda yoki kema portga kirgan kundan boshlab, agar hodisa portda yuz bergen bo'lsa, u yuz bergenidan so'ng *etti kundan kechiktirmay* notariusga ko'zdan kechirish uchun kema daftarini va kema daftaridan olinib kapitan tomonidan tasdiqlangan ko'chirmani taqdim etishi shart.

Dengiz protesti haqidagi ariza kema portga kirgan vaqtidan boshlab *yigirma to'rt soat ichida beriladi*. Agar dengiz protesti haqida ariza berish zaruratini keltirib chiqqargan hodisa portda yuz bergen bo'lsa, protest hodisa yuz bergen vaqtidan boshlab yigirma to'rt soat ichida berilishi kerak.

Protestni belgilangan muddatda berishning imkonи bo'limgan taqdirda buning sabablari dengiz protesti haqidagi arizada ko'rsatilishi kerak.

Notarius kapitanning arizasi, kema daftaridagi ma'lumotlar, shuningdek kapitanning o'zi hamda kema qo'mondonligi tarkibidan kamida ikki guvohni va kema komandasasi tarkibidan ikki guvohni so'roq qilish asosida dengiz protesti haqida dalolatnoma tuzadi va uni o'z imzosi hamda muhri bilan tasdiqlaydi. Dengiz protesti haqidagi dalolatnomaning bir nusxasi kapitanga yoki vakil qilingan shaxsga beriladi, kapitanning arizasi va kema jurnalidan ko'chirma ilova qilingan dengiz protesti haqidagi

dalolatnomaning boshqa nusxasi esa notarial idorada qoldiriladi.

### **3.13. Ijro xatlarini yozish**

O'zbekiston Respublikasida notariusning ijro xati bu huquqni qo'llash akti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasiga asosan ijro hujjati hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonunining 72-moddasiga asosan, qarzdordan pul summalarini undirish yoki mol-mulkni talab qilib olish uchun notarius qarzdorlikni belgilovchi hujjatlarga ijro xatlarini yozadi. Ijro xatlariga asosan qarzni undirish so'zsiz amalga oshiriladigan hujjatlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yiladi<sup>1</sup>.

#### **Ijro xatlarini yozish shartlari:**

- taqdim etilgan hujjatlar qarzdorning undirib oluvchidan qarzdor ekanligi yoki boshqa majburiyatini shubhasiz tasdiqlasa;
- da'vo qilish huquqi vujudga kelgan kundan boshlab o'tgan vaqt uch yildan ortiq bo'lmasa (agar ijro xati berish haqidagi talab uchun qonun hujjatlarida boshqa muddat belgilangan bo'lsa, ijro xati shu muddat ichida beriladi).

#### **Quyidagi asoslar bo'yicha ijro xatlari yoziladi:**

---

<sup>1</sup> Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 18 yanvardagi 26-sod qarori bilan tasdiqlangan Notariuslarning ijro xatlariga asosan qarzni undirish so'zsiz amalga oshiriladigan hujjatlar ro'yxati // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2002 y., 2-sod, 19-modda.

### **3.13.1. Notarial tasdiqlangan bitimlar bo‘yicha qarzni undirish**

Pul olish, mulkni qaytarish yoki berish bilan bog‘liq notarial tasdiqlangan bitimlar. Ushbu asos bo‘yicha ijro xati olish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

- a) notarial tasdiqlangan bitimning asl nusxasi;
- b) kreditor tomonidan qarzdorga notarius orqali to‘lov muddati o‘tkazib yuborilganligi (mulkni qaytarish yoki berish) to‘g‘risida yuborilgan yozma bildirishnoma.

### **3.13.2. Hisob-kitob va kredit munosabatlardan kelib chiqadigan asoslar bo‘yicha qarzni undirish**

3.13.2.1. Kredit muassasalari tomonidan berilgan kreditlar bo‘yicha qarzdorlar va ularning kafillari to‘lov muddatini o‘tkazib yuborganligiga oid hujjatlar. Ijro xati olish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

- a) uning asosida qarz undiriladigan kredit shartno masining asl nusxasi;
- b) undirib oluvchi tomonidan tasdiqlangan qarzdorning shaxsiy hisobvarag‘i (kartochkasi)dan qarz miqdori ko‘rsatilgan ko‘chirma;
- v) kredit muassasalari oldidagi qarzni ikki tomonlama tasdiqlovchi solishtirish dalolatnomasi.

3.13.2.2. Korxonalar va tashkilotlar tomonidan o‘z xodimlariga yakka tartibda uy-joy qurish va turar joy (kvartira)larni mukammal ta’mirlash, shuningdek uy-ro‘z-g‘or buyumlari xarid qilish uchun berilgan qarz (ssuda)lar bo‘yicha qarzdorlikni belgilovchi hujjatlar. Ijro xati olish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

- a) qarzdor majburiyatining asl nusxasi;
- b) qarzdorning shaxsiy hisobvarag‘idan undirib oluvchi tomonidan tasdiqlangan hamda muddati o‘tkazib yuborilgan qarz miqdori va uni qoplash muddatlari ko‘rsatilgan ko‘chirma.

3.13.2.3. Kvartiralar, uy-joylar (uy-joyning bir qismi) haqini bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotib olgan, shu

jumladan kvartiralarning haqini bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan xususiy lashtirgan fuqarolarning to‘lanmagan summani qoplash uchun to‘lovlar bo‘yicha qarzdorligini belgilovchi hujjatlar. Ijro xati olish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

- a) qarzdor majburiyatining asl nusxasi;
- b) undirib oluvchi tomonidan tasdiqlangan qarzdorning shaxsiy hisobvarag‘idan muddati o‘tkazib yuborilgan qarz miqdori va uni qoplash muddatlari ko‘rsatilgan ko‘chirma.

### **3.13.3. Kreditga sotib olingan tovarlar uchun qarzni undirish**

Tovarlarni kreditga sotib olish chog‘ida (bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan) xaridorlar tomonidan savdo tashkilotlariga berilgan kafillik-majburiyatnomalar. Qarzni va navbatdagi badallarni to‘lash muddati o‘tkazib yuborilganligi uchun penyani undirish yuzasidan ijro xati olish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

- a) undirib oluvchi tomonidan qarz miqdori va uni qoplash muddatlari qayd etilgan qarzdor kafillik-majburiyatnomasining asl nusxasi;
- b) undirib oluvchi tomonidan tasdiqlangan qarzdorning shaxsiy hisobvarag‘idan muddati o‘tkazib yuborilgan qarz miqdori va uni qoplash muddatlari ko‘rsatilgan ko‘chirma.

### **3.13.4. Elektr energiyasi etkazib beruvchilarining talabnomalari bo‘yicha qarzni undirish**

Fuqarolarning elektr energiyasidan foydalanganlik uchun elektr energiyasi etkazib beruvchilar oldidagi qarzdorligini belgilovchi hujjatlar. Ijro xati olish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

- a) hisobvaraqning undirib oluvchi tomonidan tasdiqlangan nusxasi;
- b) qarzdorning yozma ogohlantirishni olganligi to‘g‘risidagi tilxati bor qarzni to‘lash to‘g‘risida qarzdorga berilgan yozma ogohlantirish nusxasi;

v) o‘zaro hisob-kitoblarni solishtirish dalolatnomasi-ning nusxasi.

### **3.13.5. Turar-joy va yashash uchun**

**mo‘ljallanmagan joylar egalari (ijarachilar, arendaga oluvchilar)dan arenda, ijara shartnomalari bo‘yicha umumiy xarajatlar, kommunal xizmatlar uchun to‘lovlar bo‘yicha qarzni undirish**

3.13.5.1. To‘lov miqdori yuzasidan sud nizolari mavjud bo‘lmagan hollarda turar joy va yashash uchun mo‘ljallanmagan joylar ijarachisi, arendaga oluvchisining ijara, arenda shartnomalari (umumiy xarajatlar va arendaga, ijaraga beruvchining normativ daromadi) bo‘yicha va kommunal xizmatlar uchun to‘lovlar bo‘yicha qarzdorligini belgilovchi hujjatlar. Ijro xati olish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

a) qarzning hosil bo‘lishini tasdiqlovchi shartnomaning undirib oluvchi tomonidan tasdiqlangan nusxasi;

b) o‘zaro hisob-kitoblarni solishtirish dalolatnomasi-ning shartnomasi qatnashchilari tomonidan imzolangan nusxasi;

v) undirib oluvchi tomonidan qarz qoplanmaganligi to‘g‘risida belgi qo‘yilgan, ijarachiga yo‘llangan hisobvaraq nusxasi;

g) qarzdorning yozma ogohlantirishni olganligi to‘g‘risidagi tilxati bor qarzni to‘lash to‘g‘risida qarzdorga berilgan yozma ogohlantirishning nusxasi.

3.13.5.2. Kvartira egasi bo‘lgan fuqarolar, uy-joy-qurilish, uy-joy va dala hovli-qurilish kooperativlari a‘zolarining uy-joyni boshqarish, unga xizmat ko‘rsatish va uni ta‘mirlashga, uyni (dala hovlini) saqlash xarajatlariga tuzilgan shartnoma-kontraktga muvofiq taqdim etiladigan umumiy xarajatlar va kommunal xizmatlar bo‘yicha muddati ikki oydan ortiq o‘tkazib yuborilgan to‘lovlarini qoplashga oid qarzlarini belgilovchi hujjatlar. Ijro xati olish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

a) qarz qoplanmaganligi to‘g‘risida belgi qo‘yilgan, qarzdorga yo‘llangan hisobvaraqning undirib oluvchi tomonidan tasdiqlangan nusxasi;

b) qarzdorning yozma ogohlantirishni olganligi to‘g‘risidagi tilxati bor qarzni to‘lash to‘g‘risida qarzdorga berilgan yozma ogohlantirish nusxasi;

v) boshqarish va turar joyni ta‘mirlash to‘g‘risidagi kontrakt-shartnomasi.

3.13.5.3. Fuqarolarning baholash va xatlov ishlari uchun xatlov-texnik ishlarini amalga oshiruvchi organlar oldidagi qarzdorligini belgilovchi hujjatlar. Ijro xati olish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

a) to‘lanmagan hisobvaraqning undirib oluvchi tomonidan tasdiqlangan nusxasi;

b) baholash va xatlov ishlari o‘tkazilgan ob‘ektning manzili, ishlarning nomi va hajmi, ishlarning qiymati va qarzning umumiy qiymati ko‘rsatilgan hisob-kitob nusxasi;

v) qarzdorning yozma ogohlantirishni olganligi to‘g‘risidagi tilxati bor qarzni to‘lash to‘g‘risida qarzdorga berilgan yozma ogohlantirish nusxasi.

### **3.13.6. Telekommunikatsiya tarmoqlari (telefon, televidenie va kompyuter tarmoqlari, radio eshittirish shaxobchalari va boshqalar) dan foydalanganlik uchun abonent to‘lovi bo‘yicha qarzni undirish**

Fuqarolarning telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanganlik uchun abonent to‘lovi, mahalliy, shaharlararo va xalqaro telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatilganligi uchun va abonent to‘lovin o‘z vaqtida to‘lamaganlik uchun penya to‘lash bo‘yicha qarzdorligini belgilovchi hujjatlar.

Ijro xati olish uchun qarz to‘lanmaganligi haqida belgi qo‘yilgan hamda qarz summasi va uni to‘lash muddatlari to‘g‘risida qarzdorga yuborilgan bildirishnomaning undirib oluvchi tomonidan tasdiqlangan qarzdorning bildirishnomani olganligi haqidagi tilxati bor nusxasi taqdim etiladi.

### **3.13.7. Bolalarning maktabgacha ta’lim muassasalari va ixtisoslashtirilgan maktablarda bo‘lganliklari uchun ota-onalardan qarzni undirish**

Bolalar maktabgacha ta’lim muassasalari va ixtisoslashtirilgan maktablarda bo‘lganliklari uchun ota-onalar yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxslarning to‘lov muddati (ikki haftadan ortiq) o‘tkazib yuborilgan qarzdorigini belgilovchi hujjatlar.

Ijro xati olish uchun qarzdorning yozma ogohlantirishni olganligi to‘g‘risidagi tilxati bor yozma ogohlantirish topshirilgandan keyin ikki hafta muddat ichidaqarz to‘lanmaganligi to‘g‘risida belgi qo‘yilgan undirib oluvchi tomonidan tasdiqlangan ota-onalar yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxs nomiga ochilgan shaxsiy hisobvaraq (bolalar tarbiyasi uchun ota-onalar bilan hisob-kitoblar vedomosti) dan ko‘chirma taqdim etiladi.

### **3.13.8. Kutubxonalarning talabnomalari bo‘yicha qaytarilmagan kitoblar, boshqa bosma asarlar va kutubxonalar zaxirasidan olingan o‘zga materialllar uchun qarzni undirish**

Kutubxonalarning fuqarolar, korxonalar va tashkilotlardan ular tomonidan qaytarilmagan kitoblar, boshqa bosma asarlar va kutubxonalar zaxirasidan olingan boshqa materialllar qiymatini o‘n baravar miqdorda undirish to‘g‘risidagi talabnomalari. Ijro xati olish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

a) kutubxonadan kitoblar, boshqa bosma asarlar va o‘zga materialllar berilganligini tasdiqlovchi, muddatida qaytarilmaganligi qayd etilgan hujjat;

b) kitoblar, bosma asarlar yoki materiallarni qaytarish yoki ular o‘rnini aynan shunday yoxud teng qiymatli kitoblar, bosma asarlar yoki materialllar bilan to‘ldirish to‘g‘risida, shuningdek qaytarmagan yoki almashtirishning imkonи bo‘lmagan hollarda ularning qiymati o‘n baravar

miqdorda undirib olinishi to‘g‘risidagi yozma ogohlantirishlarning nusxalari;

v) kitoblar, boshqa bosma asar va o‘zga materiallar qaytarilmagan yoki ularni almashtirishning imkonи bo‘lmagan hollarda qarzning undirib olinishi to‘g‘risidagi yozma ogohlantirish topshirilganligi haqida pochta bildirishnomasi nusxasi;

g) kitoblar, boshqa bosma asar, o‘zga materiallarning bahosi to‘g‘risida kutubxona xatlov kitobidan ko‘chirma yoki qaytarilmagan kitob yoxud boshqa bosma asar bibliografiya nuqtai nazaridan nodir deb hisoblangan hollarda bukinistik do‘konning ma’lumotnomasi.

### **3.13.9. Prokat shartnomasi bo‘yicha fuqarolarga berilgan mulkdan foydalanganlik, ularni ishdan chiqarganlik uchun to‘lovlар bo‘yicha qarzni fuqarolardan undirish**

Fuqarolarning ularga korxonalar va tashkilotlar tomonidan berilgan madaniy-maishiy, uy-ro‘zg‘or buyumlari, musiqa asboblari, sport anjomlari va shaxsiy foydalishiga mo‘ljallangan boshqa mulkdan foydalanganlik (prokat) uchun to‘lovlар bo‘yicha qarzdorligini belgilovchi hujjatlar. Ijro xati olish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

a) ijaraga berish shartnomasining nusxasi, ijaraga berilgan buyum bahosi eng kam oylik ish haqining o‘n baravaridan kam bo‘lgan hollarda esa undiriladigan summa ko‘rsatilgan kvitansiyaning nusxasi;

b) qarzdorning ogohlantirish olingenligi haqidagi tilxati bor qarzni to‘lash to‘g‘risida qarzdorni yozma ogohlantirishning nusxasi.

### **3.13.10. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining davolash muassasalari talabnomalari bo‘yicha qarzni undirish**

To‘lov miqdori yuzasidan sud nizosi mavjud bo‘lmagan hollarda O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan shaxslar,

chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lman shaxslarning hisobvaraq-bitimga asosan ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar bo‘yicha xarajatlarni qoplash borasidagi qarzdorligini belgilovchi hujjatlar. Ijro xatini olish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

- a) qarzdorning mazkur hisobvaraqning birinchi nusxasini olganligi to‘g‘risidagi tilxati bor qarz hosil bo‘ladigan hisobvaraq-bitimning nusxasi;
- b) davolash muassasasining undirishi kerak bo‘lgan qarz summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi.

### **3.13.11. Lizingga oluvchidan qarzni undirish va lizing ob’ektini talab qilib olish**

Lizingga oluvchining qarzini tasdiqlovchi hujjatlar. Ijro xatlarini olish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

- a) qarzni undirish va/yoki lizing ob’ektini talab qilib olishni amalga oshirishga asos bo‘ladigan lizing shartnomasining asl nusxasi;
- b) lizingga oluvchining lizingga beruvchi oldidagi qarzini tasdiqlaydigan ikki tomonlama taqqoslash dalolatnomasi;
- v) lizingga oluvchining ogohlantirishni olganligi to‘g‘risidagi tilxati bilan birga qarzni qaytarish to‘g‘risida ogohlantirish xatining nusxasi.

### **3.13.12. Xodim tomonidan ish beruvchiga etkazilgan zararni qoplash bo‘yicha qarzni undirish**

Xodimning zararni bo‘lib-bo‘lib to‘lagan holda uni ixtiyoriy qoplash to‘g‘risidagi yozma majburiyati. Ijro xati olish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

- a) xodimning to‘loving aniq muddatlari ko‘rsatilgan zararni ixtiyoriy qoplash to‘g‘risidagi yozma majburiyatining asl nusxasi;
- b) etkazilgan zararning to‘lanmagan qismi miqdorini tasdiqlovchi hujjatlar;

v) o‘zi etkazgan zararni qoplashdan bosh tortgan xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilish to‘g‘risidagi buyruqning nusxasi;

g) qarzdorning ogohlantirishni olganligi to‘g‘risidagi tilxati bilan birga qarzni to‘lash haqida qarzdorga berilgan ogohlantirish xatining nusxasi.

### **3.13.13. Chek bo‘yicha qarzni undirish**

To‘lovchining turar joyidagi notarius to‘lovga taqdim etilgan chekni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda qabul qilib oladi. Chek to‘lanmagan taqdirda notarius chekning to‘lanmaganligini unga yozib qo‘yish yo‘li bilan tasdiqlaydi va buni reestrda qayd etadi. Chekka yozish bilan birga chek beruvchiga uning chekini bank to‘lamaganligi va bu xususda chekka yozib qo‘yilganligi haqida bildirish xati yuboriladi. Chek to‘lanmagan taqdirda notarius chek saqlovchining iltimosiga ko‘ra ijro xatini yozadi<sup>1</sup>. Ijro xati olish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

a) chekning asli (unda to‘lov amalgalashuviga oshirilmaganligi to‘g‘risidagi notariusning tasdiqlovchi yozuvini mavjud bo‘lishi kerak)<sup>2</sup>;

b) qarzdorning ogohlantirishni olganligi to‘g‘risidagi tilxati bilan birga qarzni to‘lash haqida qarzdorga berilgan ogohlantirish xatining nusxasi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Notariat to‘g‘risidagi qonuni 72-moddasi.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasining Notariat to‘g‘risidagi Qonuni 72-moddasi.

<sup>2</sup> Qo‘sishimcha. Chek bo‘yicha pul to‘lashdan bosh tortganlik uchun ham barcha holatlarda notarius tomonidan ijro xatlari yozilmaydi. Faqat chek bo‘yicha pul to‘lashdan bo‘yin tovlanganlik O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 814-moddasi birinchi qism birinchi bandi balan notarius tomonidan tasdiqlangan bo‘lsa, mazkur holatda notarius ijro xati yozadi. Chek bo‘yicha pul to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik boshqa usullar, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 814-moddasi birinchi qismi 2 va 3-bandlaridagi asoslar bo‘yicha tasdiqlangan bo‘lsa, bunday hollarda notarius ijro xati yozmaydi. Mazkur holatlarda chek saqlovchi sudga da‘vo ariza bilan murojaat qilib to‘lanmagan chek bo‘yicha qarzini undirishi mumkin.

**Ijro xatining mazmuni unda quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi lozim:**

- ✓ ijro xatini yozayotgan notarius ism-sharifining bosh harflari, familiyasi, lavozimi;
- ✓ undirib oluvchining nomi va manzili;
- ✓ qarzdorning nomi va manzili;
- ✓ undirib olish amalga oshiriladigan muddat;
- ✓ undirib olinishi kerak bo'lgan summalar yoki talab qilib olinishi kerak bo'lgan narsalar, shu jumladan to'lanishi kerak bo'lgan penya, foizlar;
- ✓ undirib oluvchi to'lagan yoki qarzdordan undirilishi kerak bo'lgan davlat boji yoki tarif summalar;
- ✓ ijro xati yozilgan sana (yil, oy, kun);
- ✓ ijro xatining reestrda qayd etilgan tartib raqami;
- ✓ ijro xatini yozgan notariusning imzosi;
- ✓ notariusning muhri.

Notarius tomonidan ijro xati qarzdorlikni belgilovchi asl hujjatda qayd etiladi. Qarzdorlikni belgilovchi asl hujjatda ijro xati yozish uchun joy bo'lmasan hollarda u alohida varaqda amalga oshiriladi. Ushbu varaq qarzdorlikni belgilovchi asl hujjatga qo'shib tikiladi, raqamlanadi va muhrlanadi. Notarius ijro xati yozilgan kundan boshlab ikki ish kuni ichida uning nusxasini ijro organiga yuborishi shart. Ijro xati, agar qonun hujjatlarida boshqa muddat belgilangan bo'lmasa, u yozilgan kundan boshlab uch yil muddat ichida majburiy ijro uchun taqdim etilishi mumkin. Ijro xatini taqdim etishning o'tkazib yuborilgan muddatini, shuningdek ijro xati bo'yicha undirishni tiklash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Qarz shartnomasi bo'yicha qarzni undirish to'g'risidagi ijro xati

(ijro yozuvi tasdiqlangan joy, sana, so'z bilan)

(ijro yozuvi rasmiyashitirilgan DNI to'liq nomi va manzili,  
notariusning F.I.O.)

Men O'zbekiston Respublikasi, Namangan viloyati, Pop tuman 1-son davlat notarial idorasi notariusi F.I.O. tomonidan ushbu ish bo'yicha berilgan hujjatlar ko'rib chiqildi, unga ko'ra fuqarolar - 1976 yil 3 oktyabrdan Namangan viloyati, Pop tumanida tug'ilgan, vaqtincha ishsiz – Abdurashitov Nuriddin Abduraximovich (pasport SA 5412563, Pop tuman IIB tomonidan 20.05.2009 yilda berilgan) va "Munara" xususiy korxonasi rahbari o'rinosasi - 1987 yil 21 yanvarda Namangan viloyati, Pop tumanida tug'ilgan Norboev Nurmat Turdalievich (pasport AA 0245181, Pop tuman IIB tomonidan 08.10.2013 yilda berilgan) o'rtasida tuzilgan, Pop tuman 1-son davlat notarial idorasida 2014 yil 20 aprelda 455 reestr raqami bilan qayd qilingan qarz shartnomasi bo'yicha Norboev Nurmat Turdalievich qarz sifatida olgan 1000000 (o'n million) so'm pul mablag'ini o'z muddatida qaytarmaganligi va qarz shartnomasi bo'yicha majburiyatini bajarmaganligi sabablari, O'zbekiston Respublikasi "Notariat to'g'risida"gi Qonunning 76-80-moddalariga asosan, fuqaro Norboev Nurmat Turdalievichdan fuqaro Abdurashitov Nuriddin Abduraximovich foydasiga 1000000 (o'n million) so'm qarz summasi undirilsin.

Undiruvchi N. Abdurashitov tomonidan to'flangan 100000 (yuz ming) so'm davlat boji hisobga olinib, Norboev Nurmat Turdalievichdan jami 10100000 (o'n million bir yuz ming) so'm undirilishi lozim.

Reestrga \_\_\_\_\_-son bilan qayd qilindi.

Davlat boji: \_\_\_\_\_ so'm (\_\_\_\_\_ so'z bilan) undirildi.

**Notarius**

(imzo)

**F.I.O.**

### **3.14. Boshqa notarial harakatlar**

Notarius O'zbekiston Respublikasining notariat to'g'risidagi qonun normalariga asosan yuqoridagilardan tashqari yana quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

- 1) mol-mulkni o‘zga shaxsga o‘tkazishni taqiqlab qo‘yadi va taqiqni bekor qiladi;
- 2) hujjatlar nuxxalarining va hujjatlardan olingan ko‘chirmalarning to‘g‘riligini shahodatlaydi;
- 3) hujjatlarning bir tildan boshqa tilga to‘g‘ri tarjima qilinganligini shahodatlaydi;
- 4) hujjatlardagi imzoning haqiqiyligini shahodatlaydi;
- 5) ko‘chmas mulk ochiq savdoda sotib olinganligi haqida guvohnoma beradi;
- 6) jismoniy va yuridik shaxslarning arizalarini boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga topshiradi;
- 7) pul summalarini va qimmatli qog‘ozlarni depozitga qabul qilib oladi;
- 8) hujjatlarni saqlash uchun qabul qilib oladi;
- 9) pul to‘lash uchun cheklarni taqdim etadi va cheklar bo‘yicha pul to‘lanmaganligini tasdiqlaydi;
- 10) notarial tasdiqlangan hujjatlarning dublikatlarini hamda reestrlardan ko‘chirmalarni beradi;
- 11) xorijiy davlatlarning organlarida ish yuritish uchun zarur dalillar bilan ta’minlash davlat notarial idoralari tomonidan amalga oshiriladi.

### **3.14.1. Hujjatlar nuxxalarining va hujjatlardan olingan ko‘chirmalarning to‘g‘riligini shahodatlaydi**

O‘zbekiston Respublikasida notariuslar jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan berilgan hujjatlar nuxxalarining va hujjatlardan olingan ko‘chirmalarning to‘g‘riligini ushbu hujjatlar qonunga zid bo‘lmagan, yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan hamda ularning nuxxalari va ulardan olingan ko‘chirmalarning to‘g‘riligini shahodatlash qonun bilan taqiqlanmagan hollardagina shahodatlaydi.

Fuqaroning pasporti yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarining nusxasi **shahodatlantirilmaydi**, xalqaro shartnomalarda shahodatlantirilishi talab qilingan hollar bundan mustasno.

Matni noaniq bo‘lgan, o‘chirilgan, qo‘srimcha so‘zlar yozilgan, hujjatga doir ma’lumotlar to‘liq yozilmagan hamda nazarda tutilmagan boshqa o‘zgartirishlar qilingan, lekin tegishli tartibda izoh berilmagan hujjatlarning nusxalari **shahodatlanmaydi**.

Notariuslar tomonidan hujjatlardan olingan ko‘chirmalarning to‘g‘riligi shahodatlantirilganda, ko‘chirma olinayotgan hujjatda o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan bir nechta alohida masalalarga oid qarorlar bo‘lgan taqdirdagina ko‘chirmaning to‘g‘riligi shahodatlanishi mumkin. Ko‘chirma hujjatning muayyan masalaga doir qismining to‘la matnini aks ettirishi kerak.

Shuningdek, hujjat nusxasidan ko‘chirilgan nusxaning to‘g‘riligini notariuslar, basharti avvalgi nusxaning to‘g‘riligi notarial tartibda shahodatlangan bo‘lsa yoki hujjatning nusxasi uning asl nusxasi tayyorlangan tashkilot tomonidan berilgan bo‘lsa, shahodatlaydi. Hujjatning nusxasi uning asl nusxasi tayyorlangan tashkilot tomonidan berilgan bo‘lsa, hujjatning nusxasi mazkur yuridik shaxsning blankasida bayon etilgan, muhr bosib tasdiqlangan va unda shu hujjatning asli mazkur tashkilotda ekanligi yozib qo‘yilgan bo‘lishi kerak.

### **3.14.2. Hujjatlarning bir tildan boshqa tilga to‘g‘ri tarjima qilinganligini shahodatlaydi**

O‘zbekiston Respublikasida notarius tegishli tillarni bilsa, hujjatning bir tildan boshqa tilga to‘g‘ri tarjima qilinganligini shahodatlaydi. Agar notarius tegishli tillarni bilmasa, tarjima tarjimon tomonidan qilinishi mumkin, notarius uning imzosi haqiqiyligini shahodatlaydi.

STATE OF FLORIDA  
COUNTY OF \_\_\_\_\_

Before me this day personally appeared (name of translator),  
who, being duly sworn, deposes and says:

I am fluent in both (language) and (language).

I certify that I have accurately translated the attached document,  
(name or description of document), from (language) into (language).

Signature of Translator  
(Address) \_\_\_\_\_

Sworn to and subscribed before me this \_\_\_\_\_ day of  
\_\_\_\_\_, 19\_\_\_\_\_, by (name of translator).

Personally known \_\_\_\_\_  
or Produced identification \_\_\_\_\_  
Type of identification \_\_\_\_\_

(SEAL)

Notary Public

(TYPE, PRINT, OR STAMP NAME OF NOTARY PUBLIC)

Tarjima notariusga ma'lum bo'lgan va tegishli tilni bilgan tarjimon tomonidan qilinishi kerak. Tarjimonning tegishli tilni bilishi uning diplomi yoki maxsus ma'lumotga ega ekanligi haqidagi sertifikat yoxud tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanadi.

Notarial harakatni (bitimni tasdiqlash, nusxalarning va shu kabilarning to‘g‘riligini shahodatlash) amalga oshirish paytida notarial harakatlarni amalga oshirishni so‘rab murojaat qilgan shaxslarning (ulardan birining) iltimosiga ko‘ra ayni vaqtida boshqa tilga tarjimasi ham qilinadigan bo‘lsa, tarjima asl nusxa bilan bir varaqda, ya’ni ikkala matn tik chiziq bilan bo‘lingan varaqda yonma-yon joylashishi, asl matn chap tomonda, tarjima matni esa o‘ng tomonda bo‘lishi kerak. Bunda hujjatning butun matni va muhr ham tarjima qilinadi.

форме и подписаны надлежащими уполномоченными на то представителями сторон.

8.2. Все уведомления и сообщения должны направляться в письменной форме.

8.3. Настоящий договор действует до полного возврата Заемщиком суммы займа Заемодавцу в срок, указанный п.2.1.

8.4. Настоящий Договор составлен в 2 (двух) экземплярах, имеющих одинаковую юридическую силу, по русском и английском языках, по одному экземпляру для каждой из сторон. В случае выявления различий между двумя версиями текста Договора превалирует русская версия.

8.5. Настоящий контракт может быть подписан в одном или более экземплярах, каждый из которых должен считаться оригиналом, и все в совокупности представлять один инструмент.

## 9. СУБОРДИНАЦИЯ

9.1 Погашение основной суммы займа и начисленных процентов, а также любой суммы в рамках настоящего Договора Займа, и любой суммы претензии, эквивалентной или заменяющей любую такую сумму основного займа, проценты или же любую другую сумму, и любого другого обязательства Заемщика в отношении этого Договора Займа, будет второочередным и отложено в пользу погашения всех сумм «Основной задолженности», как это было определено, и соответственно с условиями одного или более договоров о подчинении долга, заключаемых время от времени между Заемщиком в пользу определенных кредиторов Заемщика (в каждом случае, «Договор о подчинении долга»).

## 10. АДРЕСА И РЕКВИЗИТЫ СТОРОН

### ЗАЙМОДАВЕЦ:

Открытое акционерное общество «ЕВРАЗ  
Качканарский горно-обогатительный комбинат»,  
624350, Свердловская область, г. Качканар, ул.  
Свердлова, д. 2, Российская Федерация  
Вниманию: Мельникова Алексея Валерьевича  
р/сч 40702840100001004887  
Beneficiary Bank: ING Bank (Eurasia) ZAO  
Moscow, Russia,  
SWIFT code INGBRUMM  
Intermediary Bank: J.P. Morgan Chase Bank, New  
York, New York,

counterparts having equal legal force both in Russian and in English language, one copy shall kept by each Party. If there are any discrepancies between the two text versions of the Contract, the Russian version shall prevail.

8.5 The present Contract may be executed in one or more counterparts, each of which shall be deemed to be an original, and all of which, taken together, shall constitute one instrument.

## 9. SUBORDINATION

9.1 The payment of the principal of and interest on and any other amount under this loan agreement, and any claim which is the equivalent of or a substitute for any such principal, interest or other amount, and any other obligation of the Borrower in respect to this loan agreement, shall be subordinated and postponed in favour of all "Senior Debt", as identified in, and in accordance with the terms and conditions of, one or more subordination agreements entered into from time to time by the Borrower in favour of certain creditors of the Borrower (in each case, a "Subordination Agreement").

## 10. ADDRESSES AND BANK DETAILS OF PARTIES

### THE CREDITOR:

Joint Stock Company "EVRAZ Kachkanarsky Ore Mining and Processing Plant"  
624350, Sverdlovskaya region Kachlanar, Sverdlova str., 2, Russia  
Attn: Melnikov Alexey  
Acc. 40702840100001004887  
Beneficiary Bank: ING Bank (Eurasia) ZAO  
Moscow, Russia,  
SWIFT code INGBRUMM  
Intermediary Bank: J.P. Morgan Chase Bank, New York, New York,  
SWIFT code CHASUS33

### THE BORROWER:

EVRAZ INC. NA CANADA  
3500, 855 - 2 Street SW Calgary, AB T2P 4J8  
Attn: General Counsel  
Acc. 8666788572  
Beneficiary Bank: Bank of America, 100 West 33rd Street, New York, NY 10001  
SWIFT code BOFAUS3N

Agar tarjima tarjimon tomonidan qilinsa, uning imzosi, familiyasi, ismi, otasining ismi hujjatning tarjima matni tagiga qo'yiladi. Hujjatni imzolovchi shaxslar hujjatning asl matni va tarjima qilingan matni tagiga o'zlarining familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatilgan holda imzo qo'yadilar. Bunda hujjatning tarjima matnidagi ularning imzolari tarjimon imzosidan keyin qo'yiladi. Notariusning tasdiqlovchi yozuvni hujjatning asl matni va tarjima matni tagiga qayd etiladi.

Notarial harakat bajarilayotganda ayni vaqtida hujjatning tarjimasi ham qilinadigan bo‘lsa, u holda notariusning tasdiqlovchi yozuvida ikkita notarial harakat amalgamoshirilayotganligi ko‘rsatiladi. Bunda, davlat boji ikkita notarial harakat uchun undiriladi.

### **3.14.3. Hujjatlardagi imzoning haqiqiyligini shahodatlaydi**

Notarius mazmuni qonun hujjatlariga zid bo‘lmanan hujjatlardagi imzolarning haqiqiyligini shahodatlaydi. Notarius imzoning haqiqiyligini shahodatlar ekan, hujjatda bayon etilgan faktlarni emas, balki faqat imzoning muayyan shaxs tomonidan qo‘yilganligini tasdiqlaydi.

Tegishli davlat tashkilotlaridagina qayd etiladigan holatlar tasdiqlangan (masalan, tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma, nikoh tuzilganligi haqidagi guvohnoma, o‘lim haqidagi guvohnoma) hujjatdagagi imzoning haqiqiyligi notarius tomonidan shahodatlantirilishi mumkin emas.

Bunday hujjatdagagi imzoning haqiqiyligi, agar bu hujjat chet el davlati sudiga yoki boshqa idoralariga taqdim etish uchun mo‘ljallangan holdagina shahodatlantirilishi mumkin.

Jismoniy nuqsoni, kasalligi, savodsizligi tufayli yoki qandaydir boshqa sabablarga ko‘ra o‘z qo‘li bilan imzo qo‘ya olmaydigan shaxs uchun imzo qo‘ygan shaxsning imzosini shahodatlash paytida notarius imzo qo‘ygan shaxsning va imzo qo‘yishni iltimos qilgan shaxsning ham shaxsini aniqlaydi, ularning muomala layoqatini tekshiradi.

### **3.14.4. Ko‘chmas mulk ochiq savdoda sotib olinganligi haqida guvohnoma beradi**

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 379-moddasi birini qismiga asosan shartnomalar kimoshdi savdolarini o‘tkazish yo‘li bilan ham tuzilishi mumkin. Jumladan, ko‘chmas mulklar ham ochiq savdoda sotilishi qonun bilan taqiqlanmagan bo‘lib, ularning oldi-sotdisi bo‘yicha ham ochiq savdolar tashkil etiladi. Ochiq savdoda

istalgan shaxslar ishtirok etishi mumkin bo‘lib, unda g‘olib chiqqan shaxs bilan shartnoma tuziladi. Ochiq savdo natijalari bo‘yicha bayonnomma tuziladi. G‘olib mazkur bayonnomani notariusga taqdim etib, ko‘chmas mulk ochiq savdoda sotib olinganligi haqida guvohnoma olishi mumkin.

### **3.14.5. Jismoniy va yuridik shaxslarning arizalarini boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga topshiradi**

Notarius jismoniy va yuridik shaxslarning arizalarini olib boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga topshiradi. SHuningdek, notarius notarial harakatlar bilan bog‘liq (ishonchnomani bekor qilish haqidagi ariza, qarz shartnomasi bo‘yicha qarzdorga arizani topshirish, uy, kuartira, uyning yoki kvartiraning bir qismini imtiyozli sotib olish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarga arizani topshirish va hokazo) bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarning arizalarini olib boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga ham topshirishi mumkin.

Arizalar topshirilganligini ma’lum qilish sharti bilan pochta orqali yuboriladi yoki bevosita tegishli shaxslarga olganligi haqida imzosi qo‘yilib topshiriladi. Arizalar telefaks, kompyuter tarmoqlari va boshqa texnik vositalardan foydalanib ham uzatilishi mumkin. Arizalarni uzatish uchun texnik vositalardan foydalanishga ketgan xarajatlarni notarial harakatni amalga oshirishni so‘ragan shaxs to‘laydi.

Arizalar notarial idoraga kamida ikki nusxada taqdim etiladi. Ulardan biri topshirilganligini ma’lum qilish sharti bilan pochta orqali yuboriladi yoki bevosita tegishli shaxslarga imzo qo‘yilib topshiriladi. Ikkinci nusxasi notarial idorada qoldiriladi. Ariza pochta orqali yuborilgan taqdirda u oluvchiga notariusning kuzatuv xati bilan yuboriladi. Kuzatuv xatining davlat notarial idorasida qoladigan nusxasiga shu arizaning berilganligi qayd etilgan reestrning raqami ko‘rsatiladi va davlat boji to‘langanligi yozib qo‘yiladi.

Ariza bergen shaxsnинг iltimosiga ko‘ra unga arizaning topshirilganligi haqida guvohnoma beriladi. Guvohnomada arizaning mazmuni ko‘rsatilishi lozim. Arizalar va guvohnomalar berilganligi haqida reestrga yozib qo‘yiladi.

### **3.14.6. Pul summalarini va qimmatli qog‘ozlarni depozitiga qabul qilib oladi**

Notarius pul summalarini va (yoki) qimmatli qog‘ozlarni depozitiga qabul qilib oladi. Qarzdor o‘zi to‘lashi lozim bo‘lgan pul summalarini va qimmatli qog‘ozlarni notariusning depozitiga qo‘yishga haqli. Qonunga asosan pul summalarini va qimmatli qog‘ozlarni notariusning depozitiga qo‘yish majburiyatni bajarish hisoblanadi. Qarzdor tomonidan quyidagi holatlarda pul summalarini va qimmatli qog‘ozlar notarius depozitiga qo‘yiladi:

- ✓ *majburiyat bajarilishi lozim bo‘lgan joyda kreditor yoki ijroni qabul qilib olish uchun u vakil qilgan shaxs bo‘lmasa;*
- ✓ *kreditor muomalaga layoqatsiz bo‘lsa va uning vakili bo‘lmasa yoki vakil rozi bo‘lmasa;*
- ✓ *majburiyat bo‘yicha kim kreditor ekanligi xususida aniqlik yo‘qligi ko‘rinib turgan bo‘lsa, xususan, bu haqida kreditor bilan boshqa shaxslar o‘rtasida nizo chiqqanligi munosabati bilan;*
- ✓ *kreditorning ijroni qabul qilishdan bo‘yin tovashi yoki u tomonidan boshqacha yo‘l bilan kechiktirilishi munosabati bilan.*

Pul summalarini va qimmatli qog‘ozlarni notarius depozitiga qo‘yish ***majburiyat bajariladigan joydagisi notarius*** tomonidan amalga oshiriladi. Qarzdor notariusga pul summalarini va (yoki) qimmatli qog‘ozlarni depozitga topshirganda, notarius u(lar)ni tegishli hududiy adliya boshqarmasi tomonidan tegishli banklarda ochilgan depozitga qabul qiladi.

***Mazkur notarial harakatni amalga oshirish uchun  
quyidagi hujjatlarni talab qiladi:***

- ✓ pul summalarini va qimmatli qog'ozlarni qabul qilish haqida ***ikki nusxada*** yozma ariza;
- ✓ pasport yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar;
- ✓ pul summalarini va qimmatli qog'ozlarni depozitga qabul qilish uchun asoslar (kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalar, qarz shartnomasi, sud hujjatlari va boshqalar);

***arizada quyidagilar ko'rsatilishi lozim:***

- ✓ pul summalarini va qimmatli qog'ozlarni qabul qilish haqida qarzdorning familiyasi, ismi, otasining ismi (yuridik shaxsnинг nomi, joylashgan yeri (pochta manzili), STIRi);
- ✓ kreditoring familiyasi, ismi, otasining ismi (yuridik shaxsnинг nomi, joylashgan yeri (pochta manzili), STIRi);
- ✓ majburiyat qanday sabablarga ko'ra bevosita bajarilmaganligi.
- ✓ pul summalarini va qimmatli qog'ozlar topshiriladigan kreditorlarning ro'yxati;
- ✓ barcha kreditorlarga pul summalarini va qimmatli qog'ozlarni qabul qilish haqida yuborilgan xabarnomalar va (yoki) kreditorlar tomonidan qabul qilinmaganligini tasdiqlovchi hujjatlar;
- ✓ kreditor joylashgan manzilni tasdiqlovchi hujjat.

Hujjatlarni qabul qilganidan so'ng notarius arizaning orqa tomoniga notarius pul summalarining qabul qilinganligi haqida tasdiqlovchi yozuvni yozadi. Depozitga qimmatli qog'ozlar qabul qilinganda arizaning orqa tomoniga qimmatli qog'ozlarning turi, soni, ularning raqami, seriyasi va nominal qiymati yozilishi lozim.

Shundan so'ng notarius pul summalarini va qimmatli qog'ozlar olinganligi to'g'risida kreditorni xabardor qiladi. Pul summalarini va qimmatli qog'ozlarni qabul qilish haqida notariusning xabarnomasini olgan kreditor ushbu notariusga yozma ariza bilan murojaat etadi. Arizadagi imzoning haqiqiyligi notarial tartibda shahodatlantiriladi. Vakil orqali

murojaat qilinganda esa vakilning vakolati tekshiriladi. Shundan so'ng, notarius kreditor yoki uning vakilining yozma arizasiga asoslanib, hududiy adliya boshqarmasiga kreditorlarning ro'yxatini ilova qilgan holda pul summalarini va qimmatli qog'ozlarni topshirish haqida xat yuboradi. Hududiy adliya boshqarmasi notariusning xati asosida pul summalarini va qimmatli qog'ozlarni topshirish uchun depozit hisob raqami ochilgan tegishli bankka to'lov topshiriqnomasini yuboradi. To'lov topshiriqnomasiga asosan kreditor yoki uning vakiliga tegishli bank tomonidan pul summalarini va qimmatli qog'ozlar beriladi.

Notarius qarzdorga topshirilgan pul summalarini va qimmatli qog'ozlar kreditorga yoki uning vakiliga topshirganligi to'g'risida ma'lumotnoma beradi.

Agar, pul summalarini va qimmatli qog'ozlarni to'lov kimning foydasiga amalga oshirilgan bo'lsa o'sha shaxs olmasa, uning yozma roziligi bilan yoki sud qaroriga ularni depozitga topshirgan shaxsga (qarzdorga) qaytarilishi mumkin.

Depozitdagi kreditorlarga berilishi lozim bo'lgan pul summalarini va qimmatli qog'ozlar *uch yil* mobaynida saqlanadi. Ushbu muddatlar o'tgandan keyin talab qilib olinmagan pul summalarini va qimmatli qog'ozlar O'zbekiston Respublikasining davlat byudjetiga o'tkaziladi.

### **3.14.7. Hujjatlarni saqlash uchun qabul qilib oladi**

Hujjatlar notariusga saqlash uchun topshirilishi mumkin. Saqlashga topshirilayotgan hujjatlar notariusga taqdim etiladi. Agar ular bir nechta bo'lsa ro'yxat tuziladi va notarius hujjatlarni saqlash uchun ro'yxat bo'yicha qabul qilib oladi. Ro'yxat ikki nusxada tuzilib, hujjatlarni saqlash uchun topshirgan shaxs va notarius tomonidan imzolanadi. Ro'yxatning bir nusxasi notariusda qoladi, boshqa nusxasi hujjatlarni saqlash uchun topshirgan shaxsga beriladi.

Agar hujjatlar lozim tarzda o'rab joylashtirilgan bo'lsa, shaxsnинг iltimosiga ko'ra notarius ularni ro'yxatsiz ham qabul qilib olishi mumkin. Hujjatlar o'ramiga notariusning

muhri qo'yiladi hamda u notarius va hujjatlarni topshirgan shaxs tomonidan imzolanadi. Bunday hollarda notarius hujjatlar o'ramining but saqlanishi uchun javob beradi. Qabul qilib olingen hujjatlar notarial idoraning muhri bilan muhrlangan temir javon yoki seyflarda alohida paketlarda saqlanadi.

Hujjatlarni saqlash uchun topshirgan shaxsga **guvohnoma** beriladi.

Saqlash uchun qabul qilingan hujjatlar uni saqlash uchun topshirgan shaxsga yoki uning qonuniy vakiliga guvohnoma va (yoki) ro'yxatni taqdim etganidan keyin yoki sudning qaroriga ko'ra qaytariladi.

### **3.14.8. Pul to'lash uchun cheklarni taqdim etadi va cheklar bo'yicha pul to'lanmaganligini tasdiqlaydi**

Notarius to'lovga taqdim etilgan chekni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda qabul qilib oladi. Ushbu notarial harakat to'lovchining turar joyidagi notarius tomonidan amalga oshiriladi.

Chek to'lanmagan taqdirda notarius chekning to'lanmaganligini unga yozib qo'yish yo'li bilan tasdiqlaydi va buni reestrda qayd etadi. Chekka yozish bilan birga chek beruvchiga uning chekini bank to'lamaganligi va bu xususida chekka yozib qo'yilganligi haqida bildirish xati yuboriladi.

Chek to'lanmagan taqdirda notarius chek saqlovchining iltimosiga ko'ra **ijro xatini** yozadi.

### **3.14.9. Notarial tasdiqlangan hujjatlarning dublikatlarini hamda reestrlardan ko'chirmalarni beradi**

Jismoniy va yuridik shaxslarning yoki ular qonuniy vakillarining yozma arizasiga ko'ra notarius tomonidan tasdiqlangan yoki berilgan, nusxalari notarial idoraning yig'majildlarida saqlanayotgan hujjatlar yo'qolgan taqdirda yo'qolgan hujjatlarning dublikatlari beriladi. Shuningdek,

notarius tomonidan tasdiqlangan yoki berilgan hujjatlarning dublikatlari jismoniy va yuridik shaxslarning merosxo‘rlaridan (huquqiy vorislardan) biriga ham berilishi mumkin<sup>1</sup>. Notarius mansabdor shaxslar tomonidan davlat notarial idoralariga yuborilgan vasiyatnomalardan ham ular yo‘qolgan taqdirda dublikatlar beradi<sup>2</sup>.

Dublikat so‘rab taqdim etilgan arizalardagi imzolar notarial tartibda shahodatlantiriladi. Shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning vakillariga berilgan ishonchnomalar matnida hujjatning dublikatini olish vakolati ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

Hujjat dublikatida tasdiqlangan va berilgan asl hujjatning to‘liq matni bo‘lishi shart. Hujjat dublikatiga belgilangan shakldagi tasdiqlovchi yozuv qayd etiladi.

### **3.14.10. Xorijiy davlatlarning organlarida ish yuritish uchun zarur dalillar bilan ta’minalash davlat notarial idoralari tomonidan amalga oshiriladi**

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksining 61-moddasiga asosan, xorijiy davlatlarning organlarida ish yuritish uchun zarur dalillar bilan ta’minalash davlat notarial idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Dalilni

---

<sup>1</sup> Vasiyatnomaning dublikati vasiyat qiluvchiga, u vafot etganidan keyin esa vasiyatnomada ko‘rsatilgan yoki qonun bo‘yicha merosxo‘rlarga yoxud ularning vakillariga vasiyat qiluvchining o‘lim haqidagi guvohnomasi taqdim etilganidan keyin beriladi. Shuningdek, vasiyatnomada ko‘rsatilgan merosxo‘rlar vafot etgan taqdirda vasiyatnomaning dublikati vasiyat qiluvchining va o‘zlaridan oldingi merosxo‘rning (merosxo‘rlarning) o‘lim haqidagi guvohnomasini (notarial tartibda tasdiqlangan guvohnoma nusxasini) yoxud o‘lim haqidagi dalolatnoma yozuvidan ko‘chirmani, zarur hollarda merosxo‘rlarning merosni qoldiruvchi bilan qarindoshlik munosabatlarini (agar bu hujjatlar ilgari taqdim etilmagan bo‘lsa) tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etgan merosxo‘rlarga beriladi.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1126-moddasiga asosan notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarni tasdiqlash vakolatiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslar tomonidan davlat notarial idorasiga yuborilgan vasiyatnomalar to‘g‘risida.

ta'minlash deganda, ish uchun ahamityaga ega bo'lgan dalillarni keyinchalik taqdim etish mumkin bo'lmay qolishi yoki qiyinlashishining oldini olish maqsadida dalillarni toplash va tekshirish qoidalari bo'yicha sud tomonidan (*muallif*: notarius tomonidan ham) amalga oshiriladigan taraflarning, uchinchi shaxslarning tushuntirishlarini eshitish, guvohlarni so'roq qilish, ekspertiza tayinlash, yozma va ashyoviy dalillarni talab qilib olish yoki ko'zdan kechirish, joyga borib ko'zdan kechirishga qaratilgan protsessual harakatlarga aytildi<sup>3</sup>.

Demak, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 61-moddasi ikkinchi qismiga asosan, xorijiy davlatlarning organlarida ish yuritish uchun zarur bo'lgan O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan dalillarni ta'minlaydilar. Ya'ni joyni borib ko'zdan kechirish, ashyoviy dalillarni olib qo'yish va boshqalar.

---

<sup>3</sup> M.Mamasiddiqov. Fuqarolik protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik.  
– Toshkent, TDYuU, 2010 yil. – B. 335.

## **IV BOB. NOTARIAL HARAKLARNI AMALGA OSHIRISHDA XALQARO HUQUQ VA CHET EL HUQUQI NORMALARINING QO'LLANISHI**

### **4.1 Notariuslar tomonidan chet el normalari va xalqaro huquqning qo'llanilishi**

Notarius O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalariga muvofiq *chet el huquqi<sup>1</sup> va xalqaro huquq<sup>2</sup>* normalarini qo'llaydi.

Notarius notarial harakatlarni amalga oshirishda, mazkur harakatga oid O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari va chet el huquq normalariga muvofiq tuzilgan hujjatlarni qabul qiladi. Agar, notariuslar notarial harakatlarni amalga oshirishda chet mamlakatlar davlat organi va mansabdar shaxsi tomonidan berilgan hujjatga asoslanadigan bo'lsa, unga apostil qo'yilganligini yoki uning legalizatsiya qilinganligini tekshirishi lozim<sup>3</sup>. Ayrim hollarda notarius chet el davlati organi va mansabdar shaxsi tomonidan berilgan hujjatlarni to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni hech qanday legalizatsiyasiz qabul qiladi.

**Notarius qaysi hollarda hujjatni to'g'ridan-to'g'ri, qaysi hollarda apostil qo'yilgan hujjatni, qaysi hollarda legalizatsiya qilingan hujjatni talab qiladi degan o'rinni savol paydo bo'ladi.**

---

<sup>1</sup> Chet el huquqi – chet davlatlarning qonunchiligi.

<sup>2</sup> Xalqaro huquq – xalqaro kelishuvlar bilan o'rnatilgan normalar.

<sup>3</sup> Jismoniy va yuridik shaxslarga Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatish va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Konvensiya (1993 yil 22 yanvar, Minsk shahri)ning 13-moddasiga asosan ahslashuvchi Tomonlardan birining hududida muassasa yoki bunga maxsus vakolati shaxs tomonidan o'z vakolati doirasida belgilangan shaklda tayyorlangan yoki tasdiqlangan va gerblı muhr bilan tasdiqlangan hujjalarni boshqa ahslashuvchi Tomon hududida biron-bir maxsus guvohnomasiz qabul qilinadi.

### To‘g‘ridan-to‘g‘ri:

- hujjatning ko‘rinishi turi xarakteri jihatidan uni legallashtirish mumkin bo‘lmasa (misol uchun fuqarolik pasporti va boshqalar);
- Jismoniy va yuridik shaxslarga Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam ko‘rsatish va huquqiy munosabatlар to‘g‘risidagi Konvensiya (1993 yil 22 yanvar, Minsk shahri)ga a‘zo mamlakatlarning davlat organlari va mansabdor shaxslari tomonidan berilgan bo‘lsa;

**Apostil:** notarius xorijiy rasmiy hujjatlarni legallashtirish talabini bekor qiluvchi konvensiya (Gaaga, 1961 yil 5 oktyabr)ga a‘zo mamlakatlarning rasmiy hujjatlarini apostil belgisi qo‘yilgan bo‘lsa qabul qiladi.



**Konsullik legalizatsiyasi:** notarius yuqoridagi guruhga kirmaydigan mamlakatlarning rasmiy hujjatlarini legalizatsiya qilinganidan so‘ng qabul qiladi.



*Quyidagi jadval qaysi mamlakatning rasmiy hujjati  
qanday shaklda O'zbekiston Respublikasi notariuslari  
tomonidan qabul qilinishini chegarasini belgilab beradi*

TO'G'RIDAN- TO'G'RI	APOSTIL	LEGALIZATSIYA
Armaniston Belarus Gruziya	Avstralija Avstriya Albaniya	Aljir Angola Afg'oniston

Moldova	AQSH	Bangladesh
Ozarboyjon	Andorra	Baxrayn
Rossiya	Antigua va	Benin
Federatsiyasi	Babrusa	Birlashgan
Tojikiston	Argentina	Arab Amirligi
Turkmaniston	Bagama	Boliviya
Ukraina	orollari	Boneyr
Qirg‘iziston	Barbados	Burunda
Qozog‘iston	Beliz	Butan
	Belgiya	Vatikan
	Bolgariya	Vietnam
	Bosniya va	Gabon
	Gersegovina	Gaiti
	Botsvana	Gayana
	Buyuk	Gambiya
	Britaniya	Gana
	Birlashgan	Gvatemala
	Qirolligi va	Gvineya
	Shimoliy Irlandiya	Gvineya-
	Braziliya	Bisau
	Bruney-	Djibuti
Darussalam	Vanuatu	Zambiya
	Vengriya	Zimbabwe
	Venesuela	Indoneziya
	Germaniya	Iordaniya
	Gonduras	Iraq
	Grenada	Kambodja
	Gretsiya	Kamerun
	Daniya	Kanada
	Dominika	Keniya
	Dominikan	Kiribati
	Respublikasi	Kakos orollari
	Janubiy	Kamor
Afrika	orollari	
Respublikasi		Kongo
Isroil		Koreya Xalq
Irlandiya		Demokratik
		Respublikasi

	Islandiya Ispaniya Italiya Kabo-Verde  Kipr Kolumbiya Janubiy  Koreya Kosta-Rika Latviya Lesoto Liberiya Litva Lixtenshteyn Lyuksemburg Mavrikiy Makedoniya Malavi Malta Marokko Marshal orollari  Meksika Monako Mongoliya Namibiya Niderlandiya Niue Norvegiya Kuka orollari Panama Paragvay Peru Polsha Portugaliya Ruminiya Salvador	Kot-dIvuar Kuba Kuka orollari Kyurasao Laos Livan Liviya Mavritaniya Madagaskar Malayziya Mali Maldiv Markaziy Afrika Respublikasi Mikroneziya Misr Mozambik Maldoviya Myanma Nauru Nigeriya Nikaragua Pokiston Palau Puerto-Riko Ruanda Saudiya Arabiston Sahroi kabir Arab Demokratik Respublikasi Singapur Suriya Salamon orollari Somali Sudan
--	---	---

	Samoa San-Marino San-Tome va Prinsipi Svazilend Seyshel Orollari Sent-Vinsent va Grenada Sent-Kits va Nevis Sent-Lyusiya Serbiya Slovakiya Sloveniya Surinam Tadzhikistan Tonga Trinidad va Tobago Turkiya Ukraina Urugvay Fidji Finlyandiya Fransiya Xitoy (faqat Gonkong va Makao) Xorvatiya Chernogoriya Chexiya Chili Shveysariya Shvetsiya Ekvador Estoniya Ummon	Sera-Leone Tojikiston Tailand Tanzaniya Togo Tuvali Tunis Uganda Falastin Filippin Xitoy (faqat Gonkong va Makaodan tashqari) Chad Shimoliy Temor Shri-Lanka Ekvator Gviniyasi Eritreya Eron Efiopiya Yamayka Yaman Yangi Gviniya Qatar Quvayt
--	---	--

	Yangi Zelandiya Yaponiya Hindiston	
--	---	--

Notarius O‘zbekiston Respublikasi davlat organlari va mansabdar shaxslari tomonidan berilgan hujjatlarni xorijda amal qilishi uchun legalizatsiya qilish jarayoni (konsullik legalizitsiya)da ishtirok etadi.

Konsullik legalizatsiyasi – bu chet elda amal qiladigan hujjatni hujjat berilgan mamlakat qonunlariga muvofiq qabul qilingan va tuzilganligini tasdiqlashdan iborat. Hujjatni legalizatsiyalash o‘z ichiga mazkur hujjatdagi imzo va muhrning haqiqiyligini, hujjatni bergen yoki tasdiqlagan davlat organi va mansabdar shaxsning unga vakolati borligini tekshirish bilan bog‘liq bir necha jarayondan iborat. O‘zbekiston Respublikasi davlat organlari va mansabdar shaxslari tomonidan berilgan hujjatlar legalizatsiya qilinishi uchun:

- 1) hujjat notarius tomonidan tasdiqlanishi (jumladan, hujjatning bir tildan boshqa tilga to‘g‘ri tarjima qilinganligi yoxud tarjima tarjimon tomonidan qilinganda uning imzosi haqiqiyligi shahodatlanishi);
- 2) notarius imzosining haqiqiyligi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanishi;
- 3) Adliya vazirligining pechatli vakolatli mansabdar shaxsning imzosi O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Konsullik boshqarmasi tomonidan tasdiqlanishi;
- 4) hujjatni qabul qiladigan mamlakat hududidagi O‘zbekiston Respublikasining konsullik muassasasi tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Республика Узбекистан. Город Ташкент  
Пятнадцатое августа. Две тысячи восемнадцатый год.



Я, Зуфарова Камила Рустамовна Нотариус Государственной нотариальной коллегии Узбекского государства Ташкента, свидетельствуя верность этой фотокопии подлиннику документа, в последнем присоек, подпись, зачеркнутых слов и инициалов, оговоренных исправлений или каких-либо особенностей не оказалось.

Оригинал документа легален и в настоящее время действителен. Документ удостоверен для последующей легализации

Зарегистрировано в реестре за № А-Р-2576  
Узбекской государственной почтой  
НОТАРИУС



КР. ЗУФАРОВА



## **Ayrim notarial harkatlarni amalga oshirishda xalqaro huquq normalari va (hamda) chet el normalarining qo'llanilishi**

**Merosga oid ishlar.** Vorislikka doir munosabatlar, meros qoldiruvchi vasiyatnomada o‘zi fuqarosi bo‘lgan mamlakatning huquqini tanlagan bo‘lmasa, meros qoldiruvchi oxirgi *doimiy turar joyga ega bo‘lgan mamlakatning huquqi* bo‘yicha belgilanadi.

Ko‘chmas mulkka vorislik mazkur mulk joylashgan mamlakat huquqi bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasining reestrida qayd etilgan mol-mulkka vorislik esa, O‘zbekiston Respublikasining huquqi bo‘yicha belgilanadi.

CHet el elementi bilan murakkablashgan merosga oid ishlarni ko‘rishda notarius notarial harkatni amalga oshirish to‘g‘risidagi qoidalar (notariat jarayoniga oid qonunchilik) bilan merosni egallahsha oid qoidalar (merosni egallah bo‘yicha moddiy huquq)ni farqlashi lozim.

**Misol:** aytaylik, chet el elementi bilan murakkablashgan meros ishida notarius chet el huquqini (misol uchun Angliya qonunini) qo‘llayotgan bo‘lsa ham, mazkur meros ishini notarial idorada yuritilishiga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini qo‘llaydi. Ya’ni notarial harakatning taalluqliligi, notarial harkat uchun xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo‘yicha belgilanadi<sup>1</sup>. Biroq meros guvohnomasi berilayotgan meros ishi bo‘yicha vorislik asoslari, merosxo‘rlar doirasasi, meros mol-mulkining tarkibi, merosxo‘rlarning ulushlari, merosdan majburiy ulush oluvchilar huquqlari to‘g‘risidagi qoidalar chet el (misol uchun Angliya) qonunchiligi asosida belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq chet el davlati qonunida ko‘zda tutilgan shakl bo‘yicha tuzilgan vasiyatnomma vasiyat qiluvchi vafot

<sup>1</sup> Bu haqda 3.2 da bat afsil to‘xtalib o‘tamiz.

etgandan keyin uni ochish va e'lon qilish uchun davlat notarial idorasiga taqdim etilgan taqdirda notarius vasiyatnomaning mazmunini e'lon qiladi, vasiyatnomaning holati va mazmuni to'g'risida bayonnomaga tuzadi. Bayonnomada vasiyatnomaga tuzilgan kun, taqdim etayotgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, uning muhrlangan yoki ochiq holda taqdim etilganligi, unda o'chirilgan joylar, tuzatishlar yoki boshqa kamchiliklar bo'lganligi yoki yo'qligi ko'rsatib o'tiladi. Bayonnomaga notarius va vasiyatnomani taqdim etgan shaxs tomonidan imzolanadi. Ana shu shaxslar tomonidan vasiyatnomaning har bir varag'iiga imzo qo'yiladi. Agar vasiyatnomaga notariusda muhrlangan holda saqlanib kelgan bo'lsa, yuqorida ko'rsatilgan barcha harakatlarni notariusning bir o'zi bajaradi.

**Bitimlarni tasdiqlash:** bitimning shakli u tuziladigan joy huquqiga bo'ysunadi. Biroq chet elda tuzilgan bitim, agar O'zbekiston Respublikasi huquqi talablariga rioga etilgan bo'lsa, shaklga rioga etilmaganligi tufayli haqiqiy emas deb topilishi mumkin emas.

Loaqlal ishtirokchilaridan bittasi O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi yoki O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lgan tashqi iqtisodiy bitim, quaerda tuzilayotganidan qat'i nazar, yozma shaklda tuziladi.

Ko'chmas mulk xususidagi bitimning shakli bu mulk joylashgan mamlakat huquqiga bo'ysunadi, O'zbekiston Respublikasida davlat reestrida qayd etilgan ko'chmas mulkka nisbatan esa O'zbekiston Respublikasi huquqiga bo'ysunadi.

Ishonchnomaning shakli va amal qilish muddati ishonchnoma berilgan mamlakatning huquqi bo'yicha belgilanadi. Agar O'zbekiston Respublikasi huquqi talablariga rioga etilgan bo'lsa, ishonchnoma shaklga rioga etilmaganligi tufayli haqiqiy emas deb topilishi mumkin emas.

Notariuslar tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida harakatlarni amalga oshirishga mo'ljallangan ishonchnomalarini tasdiqlashda ishonchnomaning amal qilish

muddatini ko'rsatmasa ham bo'ladi. Mazkur ishonchnomalarning amal qilish muddatiga nisbatan alohida qoida belgilangan. Ya'ni O'zbekiston Respublikasidan tashqarida harakatlarni amalga oshirishga mo'ljallangan amal qilish muddati ko'rsatilmagan ishonchnoma uni bergen shaxs tomonidan bekor qilingunicha o'z kuchini saqlaydi.

#### **4.2. Chet el elementi bilan murakkablashgan notarial harakatni amalga oshirish tartibi**

Notarius notarial harakatlarni amalga oshirishda ular bilan bog'liq *chet el huquqi<sup>1</sup> va xalqaro huquq<sup>2</sup>* normalarini qo'llagani bilan ham, lekin notarial harakatni amalga oshirish tartibiga (notariat jarayoniga) oid qoidalarga nisbatan O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarini qo'llaydi.

O'zbekiston Respublikasi Notariat to'g'risidagi qonunining 93-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida notarial harakatlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalari belgilangan bo'lsa, notarial harakatlarni amalga oshirish paytida xalqaro shartnomaning qoidalari qo'llaniladi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi notariusga *O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan notarial harakatni amalga oshirish vakolatini bersa*, notarius bu notarial harakatni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi belgilagan tartibda amalga oshiradi.

Ayrim hollarda agar notarial harakat ishtirokchilari talab qilsa, notarius O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga zid kelmasa, *ularga boshqa davlatlarning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan shaklda tasdiqlovchi ustxatlar yozadi*.

---

<sup>1</sup> Chet el huquqi – chet davlatlar qonunchiligi.

<sup>2</sup> Xalqaro huquq – xalqaro (dunyo miqyosida ko'plab mamlakatlar tomonidan) kelishilgan qoidalari.

**Merosga oid ishlarni yuritish qoidalari:** chet el fuqarosi vafotidan keyin uning O‘zbekiston Respublikasi hududida qolgan mol-mulkini qo‘riqlash yoki O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi vafot etganidan keyin chet el fuqarosiga tegishli bo‘lgan mol-mulkni qo‘riqlash, shuningdek bunday mol-mulk xususida merosga bo‘lgan huquq haqida guvohnomalar berish bilan bog‘liq harakatlar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariiga muvofiq amalga oshiriladi.

Notarius O‘zbekiston Respublikasi bilan xalqaro shartnomalar, shu jumladan meros mulkini qo‘riqlash to‘g‘risidagi qoidalarni o‘z ichiga olgan shartnoma tuzgan chet el davlatining fuqarosi vafot etganligi to‘g‘risida xabar olganidan keyin (vafot etgan shaxsning mol-mulki O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan taqdirda) O‘zbekiston Respublikasining tegishli xalqaro shartnomasiga amal qilgan holda ana shu meros mol-mulkni qo‘riqlash yuzasidan zarur choralarini ko‘radi. Notarius meros mol-mulkning miqdori va qiymatini belgilaydi, merosxo‘rlar doirasini aniqlaydi, vasiyatnomasi bor yoki yo‘qligini tekshiradi, vafot etgan fuqaro davlatining diplomatik yoki konsullik vakolatxonasiga bu haqida zudlik bilan xabar qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi notariuslari ayrim notarial harakatlarni amalga oshirish to‘g‘risida chet el adliya organlari tomonidan belgilangan tartibda berilgan topshiriqlarni bajaradilar.

Topshiriq quyidagi hollarda bajarilmaydi:

- ✓ topshiriqnini bajarish O‘zbekiston Respublikasi suverenitetiga zid bo‘lsa yoki davlat xavfsizligiga tahdid solsa;
- ✓ topshiriqnini bajarish O‘zbekiston Respublikasi notarial idoralarining vakolat doirasiga kirmasa.

Chet el adliya organlarining ayrim notarial harakatlarni bajarish to‘g‘risidagi topshiriqlarini bajarish O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalari

asosida amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi notariuslari ayrim notarial harakatlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi topshiriqlar bilan chet el adliya organlariga murojaat qilishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi notarial idoralarining chet el adliya organlari bilan o‘zaro aloqalari tartibi O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilanadi.

Notarial idoralarning chet el konsullik va diplomatik vakolatxonalari bilan o‘zaro munosabatlari O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali amalga oshiriladi.

**KAZUSLAR****1-kazus**

Nosirov A. o‘ziga tegishli bo‘lgan Toshkent shahri Sirg‘ali tumani Qanora ko‘chasidagi 23-uyni o‘g‘li Nosirov B.ga vasiyat qilib qoldirgan. Undan tashqari, Sirg‘ali tumani Bog‘iston ko‘chasi 47-uyning 21-xonadonni ham Nosirov A.ga tegishli. Nosirov A. va Nosirov B.lar vafot etgan. Hozirda Nosirov A.ning Nosirov S. ismli qizi hamda Nosirov B.ning Azamatov D. ismli o‘g‘li hamda xotini Nosirova L.lar hayot. Nosirov A. va Nosirov B.ning boshqa birinchi darajali qarindoshlari yo‘q. Nosirova L. notariusga murojaat qilib qaynotasi Nosirov A.ning merosiga nisbatan merosxo‘r hisoblanishi yoki hisoblanmasligi haqida ma‘lumot berishini so‘radi. Notarius shunda Nosirov A.ning hamda Nosirov B.ning vafot etgan sanasini aniqlashtirdi.

**Savol:**

1) yuqoridagi holatda Nosirov A. hamda Nosirov B. bir kalendar kun ichida vafot etgan bo‘lsa, Nosirov A.ning mulkiga nisbatan kimlar merosxo‘r hisoblanadi va ularning ulushi qay tarzda belgilanadi;

2) yuqoridagi holatda Nosirov A.dan keyin Nosirov B. vafot etgan bo‘lsa, Nosirov A.ning mulkiga nisbatan kimlar merosxo‘r hisoblanadi va ularning ulushi qay tarzda belgilanadi;

3) yuqoridagi holatda Nosirov B.dan keyin Nosirov A. vafot etgan bo‘lsa, Nosirov A.ning mulkiga nisbatan kimlar merosxo‘r hisoblanadi va ularning ulushi qay tarzda belgilanadi.

**Topshiriq quyidagi jadvalni merosxo‘rlarning  
ulushini ko‘rsatgan holda to‘ldiring.**

	1-vaziyat		2-vaziyat		3-vaziyat	
	23-uy	21-xonodon	23-uy	21-xonodon	23-uy	21-xonodon
Nosirova S.						
Azamatov D.						
Nosirova L.						

**2-kazus**

Toshkent shahar Chilanzor tumani Gulobod ko‘chasi 26-uy 45-xonadonda 3 yildan buyon vaqtincha isti’qomat qilib kelayotgan Sobirov Akmal Botirovich 2016 yil 16 may kuni mazkur xonadonda vafot etdi. Sobirov Akmal Botirovich 1952 yil Sirdaryo viloyati Xovos tumanida tug‘ilgan, doimiy yashash manzili Sirdaryo viloyati Xovos tumani A.Ikromov MFY hisoblanadi. Uning xotini Sobirova Muxayyo Axatovna, qizi Sobirova Surayyo Akmalovna, o‘g‘illari Sobirov Nodir Akmalovich hamda Sobirov Bahtiyor Akmalovich, shuningdek nabirasi – marhum o‘g‘li Sobirov Bahodir Akmalovich (2016 yil 9 yanvarda vafot etgan)ning o‘g‘li Akmalov Bobur Bahodirovich hamda marhumning kelini, marhum o‘g‘li Sobirov Bahodir Akmalovichning xotini Sobirova Nargiza Allanovalar merosga da’vo qilishmoqda.

Meros mulkini quyidagilar tashkil qiladi:

Toshkent shahar Chilanzor tumani Gulobod ko‘chasi 26-uyda joylashgan 45-xonodon, Sirdaryo viloyati Xovos tumani A.Ikromov MFYda joylagan, maydoni 0.06 ga bo‘lgan 125-uy, Toshkent shahar Abu Saxiy savdo majmuasida joylashgan maydoni 0.004 ga bo‘lgan 19-sonli do‘kon binosi hamda 2010 yilda ishlab chiqarilgan, davlat raqam belgisi 20 A 121 JJ bo‘lgan, LACETTI rusumli avtomashina.

Mazkur meros ishi bo‘yicha marhumning qizi Sobirova Muxayyo Axatovna merosdagi o‘z ulushidan onasi foydasiga voz kechgan.

Yuqoridagi mol-mulklardan Sirdaryo viloyati Xovos tumani A.Ikromov MFYda joylagan, maydoni 0.06 ga bo‘lgan 125-uydan tashqari qolgan mulklar marhum va uning xotini nikohi davrida orttirilgan mol-mulklar hisoblanadi.

Marhum hech qanday vasiyatnomasi yozib qoldirmagan.

*Mazkur aniq vaziyat bo‘yicha notarius sifatida  
merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnoma loyihasini  
tayyorlang (bunda ilovadan foydalaning).*



**QONUN BO‘YICHA MEROSGA BO‘LGAN  
HUQUQ TO‘G‘RISIDA  
GUVOHNOMA**

**Buxoro viloyati Qorako‘l tumani.  
Ikki ming o‘n ettinchi yil, iyun oyining to‘qqizinchı kuni.**

Ushbu guvohnoma Buxoro viloyati Qorako‘l tumani Ulug‘bek ko‘chasida joylashgan Qorako‘l tuman 1-sonli davlat notarial idorasini binosida rasmiylashtirildi. Notarius Baxromov Alisher YAXYO o‘g‘li.

Men, Buxoro viloyati Qorako‘l tuman 1-sonli davlat notarial idorasining notariusi Baxromov Alisher YAXYO o‘g‘li, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1135-moddasiga asosan, Qorako‘l tumanida yashab, Qorako‘l tumani Mirza qal‘a QFYda 01.11.2013 yilda vafot etgan marhum Hamroev Pirnazar YOdgarovichning vorislari: 22.11.1977 yilda tug‘ilgan Hamroyev O’ktam Pirnazarovich, 16.05.1979 yilda tug‘ilgan Hamroev Rustam Pirnazarovich, 11.05.1983 yilda tug‘ilgan Hamroeva Dilbar Pirnazarovna, 08.11.1984 yilda tug‘ilgan Hamroev Jasur Pirnazarovich, 06.09.1992 yilda tug‘ilgan Hamroev Mansur Pirnazar o‘g‘lilarning merosdagi ulushlaridan marhumning xotini foydasiga voz kechganligi sababli marhum Hamroev Pirnazar Yodgorovichning meros mulkiga uning Buxoro viloyati, Qorako‘l tumani Qoraun QFYga propiska qilingan 16.12.1955 yilda tug‘ilgan xotini Nematova Hafiza Asadovna (*STIR 579 946 579*) (pasport: *Buxoro viloyati Qorako‘l tumani IIB tomonidan 21.08.2001 yilda berilgan SR 0962994*)ni merosxo‘r ekanligini tasdiqlayman.

## **Ushbu guvohnoma berilayotgan meros mulki quyidagilardan iborat:**

1. Buxoro viloyati, Qorako'l tumani, Mirza qal'a MFY, Mirza qal'a qishlog'ida joylashgan uyning  $\frac{1}{2}$  (ikkidan bir) qismi. Mazkur uyning umumiy yer maydoni 0,15 (nol butun yuzdan o'n besh)ga, umumiy maydoni 361,1 (uch yuz oltmis bir butun o'ndan bir) kvadrat metr, turar-joy maydoni 139,4 (bir yuz o'ttiz to'qqiz butun o'ndan to'rt) kvadrat metr hamda 5 (besh) ta xonadan iborat.

Meros mulkining marhum Hamroev Pirnazar YO'dgorovichga tegishliligi Qorako'l tuman Yer tuzish va ko'chmas mulk kadastro davlat korxonasi tomonidan 2014 yil 1 avgust kuni 1-sonli reestr kitobida №257-raqam bilan ro'yxatga olingan Qorako'l tumani hokimi M.Mo "monov tomonidan 10.07.2014 yilda qabul qilingan 755-sonli qaroriga asosan aniqlandi.

Mazkur mulk "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali tekshirilganda va Qorako'l tuman Yer tuzish va ko'chmas mulk kadastro davlat korxonasi tomonidan 2017 yil 6 iyunda berilgan 427-sonli ma'lumotnomasiga asosan taqiqda turmaydi.

Qorako'l tuman Yer tuzish va ko'chmas mulk kadastro davlat korxonasi tomonidan 2017 yil 6 iyunda berilgan 427-sonli ma'lumotnomasiga asosan mulkning meros ochigan vaqtligi inventar qiymati 5 465 805 (*besh million to'rt yuz oltmis besh ming sakkiz yuz besh*) so'm bo'lib, mulkning meros sifatida o'tadigan  $\frac{1}{2}$  (ikkidan bir) qismining inventar qiymati 2 732 902 (*ikki million etti yuz o'ttiz ikki ming to'qqiz yuz ikki*) so'mni tashkil qiladi.

2. 2008 yilda ishlab chiqarilgan, t/v turi engil (sedan), dvigatel № 091399, kuzov № XWB3D31BD8A158923, shassi № raqamsiz, kulrang rangli, davlat raqam belgisi 80 M 442 AA bo'lgan GBA NEXIA DAEWOO SNG rusumli avtomototransport vositasining  $\frac{1}{2}$  (ikkidan bir) qismidan iborat. YUqoridagi GBA NEXIA DAEWOO SNG rusumli avtomototransport vositasi marxum Hamroev Pirnazar YO'dgorovichga tegishliligi Jondor TRIB tomonidan 2009

yil 19 iyunda berilgan AAS № 2022241 raqamli transport vositasini qayd etish guvohnomasiga asosan aniqlandi.

Ushbu avtomototransport vositasi “Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali tekshirilganda 09.06.2017 yil holatida taqiqda emasligi aniqlandi.

Yuqorida ko‘rsatilgan GBA NEXIA DAEWOO SNG rusumli avtomototransport vositasi Buxoro viloyati Shofirkon tumani “BIZNES TADQIQOT KONSALTING” baholash va konsalting tashkiloti MCHJ tomonidan 03.06.2017 yilda berilgan №08/06-17-sonli baxolash hisobotiga asosan meros ochilgan vaqtdagi qiymati 23 910 364 (*yigirma uch million to‘qqiz yuz o‘n ming uch yuz oltmishto‘rt*) so‘m bo‘lib, mulkning meros sifatida o‘tadigan  $\frac{1}{2}$  (ikkidan bir) qismining qiymati 11 955 182 (o‘n bir million to‘qqiz yuz ellik besh ming bir yuz sakson ikki) so‘mni tashkil qiladi.

Fuqaro Ne’matova Hafiza Asadovnadan 11 955 (*o‘n bir ming to‘qqiz yuz ellik besh*) so‘m miqdorida davlat boji undirildi.

Mazkur guvohnoma Qorako‘l tumani Yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonasida hamda tegishli DYHXX organlarida o‘n kun muddat ichida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim.

Mulkning  $\frac{1}{2}$  (ikkidan bir) qismiga marhumning xotini Ne’matova Hafiza Asadovnaga er-xotinning umumiy mulkidagi ulushga bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risida guvohnoma berilgan.

Reestrga \_\_\_\_\_ raqami bilan qayd etildi.

25-sonli meros ishi.

**Qorako‘l tuman 1-sonli davlat  
notarial idorasining notariusi  
A.Ya.Baxromov**

### **3-kazus**

Navoiy viloyati Karmana tumanida faoliyat yuritayotgan “Osiyo” xususiy korxonasi Samarqand viloyati Oqqo‘rg‘on tumani hududida joylashgan Oqqo‘rg‘on bozori (bozorning tashkiliy huquqiy shakli – ma’suliyati cheklangan jamiyat)da yangi qurib bitkazilgan do‘konlardan bir donasini, O‘zbekiston Respublikasi Davlat-tijorat Xalq bankining Karmana filialidan olayotgan 100.000.000 so‘mlik kredit mablag‘lari evaziga sotib olshni rejalashtirgan. Shuningdek, bank ham xususiy korxonaga do‘kon sotib olish uchun aniq maqsadli kredit ajratishga rozi ekanligini bildirdi. Kredit ajratilishi uchun bank xususiy korxonadan majburiyatning bajarilishini ta’minalash vositasini talab qildi. Osiyo xususiy korxonasi esa garov ta’minoti sifatida sotib olmoqchi bo‘lgan do‘konni garovga qo‘yish niyati borligini bildirdi. Bank kredit shartnomasini tuzish paytida majburiyatning bajarilishini ta’minalash vositasi bo‘lmasa shartnomani tuza olmasligini va kredit ajratmasligini bildirdi. Oqqo‘rg‘on MCHJ bo‘lsa pul hisobvarag‘iga o‘tkazilmasa, do‘konni oldi-sotdi qila olmasligini bildirdi. Shu payt taraflar o‘zaro maslahatlashib, barcha taraflarning manfaati aks ettirilgan shartnoma loyihasini tuzib berish va tasdiqlab berishni so‘rab, davlat notarial idorasiga murojaat qilishdi. **Vazifa: yuqoridagi holat bo‘yicha barcha tarafning manfaatiga mos shartnoma loyihasini tuzib bering.**

### **4-kazus**

Fuqaro Axrorov B. o‘ziga tegishli Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumani Bahor ko‘chasida joylashagan 3 xonali 45-uyni fuqaro Boliyev D.ga o‘g‘li muddatli harbiy xizmatni o‘tab kelgunicha ijara berdi. Ijaraga berilayotgan uy-joyning umumiy maydoni 400 kv metr, shundan 170 kv metr qurilish maydoni, 110 kv metr yashash maydoni hisoblanadi. Fuqarolar Axrorov B. va Boliyev D.lar tomonidan tuzilayotgan bitimni notarial tasdiqlash uchun ketadigan xarajatlarni hisoblab chiqing.

## **5-kazus**

Fuqaro Anvarov Bobur singlisi Anvarova Ra'noga tegishli avtomashinani fuqaro Davronov Shuxratga ijaraga berdi. Fuqaro Anvarov Bobur singlisi Anvarova Ra'no nomidan ish yuritishga 2017 yil 5 oktyabrda berilgan muddat ko'rsatilmagan ishonchnomaga asosan vakolatliz hisoblanadi. Shartnomani taraflar o'zaro kelishib nomuayyan muddatga tuzadigan bo'lishdi. Shartnoma predmeti 2012 yilda ishlab chiqarilgan LACETTI rusumli bo'lган avtomashina. Ushbu shartnomani notarial **tasdiqlash uchun undirilishi mumkin bo'lган eng minimal va eng maksimal notarial xarajatlarni hisoblab chiqing.**

## **6-kazus**

Meros qoldiruvchi Alimov Bahodirning Navoiy viloyati Karmana tumani Xo'jayli QFYda joylashgan uy-joyining 1/3 qismiga nisbatan marhumning xotini Alimova Barnoga, 1/3 qismiga nisbatan marhumning o'g'li Alimov Sunnatga, 1/6 qismiga nisbatan kelini Alimova Niginaga va 1/6 qismiga nisbatan esa voyaga etmagan nabirasi Alimov Dostonga merosga bo'lган huquq to'g'risida guvohnoma rasmiylashtirildi. Shuningdek, xuddi shu ulushlar ko'rinishida marhumga tegishli 2015 yilda ishlab chiqarilgan HOWO rusumli transport vositasiga nisbatan ham merosga bo'lган huquq to'g'risida guvohnoma rasmiylashtirilgan. Meros qoldiruvchi Alimov Bahodir vafotiga qadar yuqoridagi manzildigi xotini Alimova Baro va kelini Alimova Nigina hamda uning voyaga etmagan farzandlari bilan birga yashaganlar. Uy-joyni baholash dalolatnomasiga ko'ra, mazkur uy-joy meros ochilgan kuni 200 000 000 so'mga, meros guvohnomasi berilayotgan kuni 250 000 000 so'mga baholangan. Avtomototransport esa meros ochilgan kuni 150 000 000 so'mga, guvohnoma rasmiylashtirilgan kuni esa 80 000 000 so'mga baholangan.

Mazkur notarial harakat uchun to'lanadigan xarajat miqdorini hisoblang.

## **7-kazus**

Fuqaro Axmedov Odil o‘ziga tegishli LACETTI OPTRA rusumli, ishlab chiqarilgan yili noma’lum avtotransport vositasini fuqaro Bozorov Rashidga sotish maqsadida shartnomani rasmiylashtirish uchun notarial idoraga murojaat qildi. Ushbu avtotransport vositasining 2012 yilda Turkmaniston Respublikasiga kirib kelganligi hamda 2014 yilda O‘zbekiston Respublikasiga kirib kelganligi to‘g‘risida yuk xati mavjud.

Mazkur notarial harakat uchun to‘lanadigan xarajat miqdorini hisoblang.

## **8-kazus**

Yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkor A. o‘z faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish uchun Aksiyadorlik tijorat Hamkorbank Surxondaryo viloyati Sariosiyo filialidan 100 000 000 (yuz million) so‘m miqdorida kredit olish uchun hujjatlarni to‘playdi. Yakka tartibdagi tadbirkor A. Surxondaryo viloyati Sariosiyo tuman 2-sonli davlat notarial idorasiga garov shartnomasini rasmiylashtirmoqchi ekanligini ma’lum qiladi. O‘zi olishi kerak bo‘lgan kreditni ta’minalash uchun o‘ziga tegishli bo‘lgan SINOTRIK HOWO rusumli avtomashinani garovga qo‘ymoqchi bo‘ladi. Biroq, davlat notarial idorasida Aksiyadorlik tijorat Hamkorbank Surxondaryo viloyati Sariosiyo filiali huquqshunosi Anvarov Alijon Malikovich bu ishga endi kirishganligini, ungacha bu ish bilan bankning sobiq huquqshunosi Burxonov Sodiq shug‘ullanganligini ma’lum qilib, mazkur kelishuvga norozilik bildirdi. Bunga sabab qilib garov narsasi bo‘lmish avtomashinaning texnik holati eskirishi mumkinligini aytib, garov shartnomasi matniga “olinadigan kridik to‘liq so‘ndirilmagunga qadar garovga qo‘yuvchining avtomashinadan foydalanmasligi to‘g‘risida” band kiritilishini davlat notarial idorasi notariusidan talab qiladi.

O‘z navbatida, davlat notarial idorasi notariusi bank vakilining ushbu talabi garov shartnomasining predmeti avtomototransport vositalari bo‘lsa, avtomototransport

vositalarini xatlash, boshqa shaxsga berishni taqiqlash va taqiqni olib tashlash, shuningdek avtomototransport vositalarini xatlash va boshqa shaxsga berishni taqiqlash to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning hujjatlashtirilgan bankini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga zid ekanligini ma‘lum qilib harakatni amalga oshirishni rad etadi.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

### **9-kazus**

Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani 3-sonli davlat notarial idorasiga 1950 yilda tavallud topgan fuqaro Akbarov Alijon Valijonovich 2016 yil dekabr oyining 2 kunida murojaat qilib, to‘rt nafar farzandi borligini, ota-onasi bundan 3 yil muqaddam vafot etganligini va turmush o‘rtog‘i bilan 2000 yilda rasman ajrashganligini ma‘lum qilib, o‘zidan keyin bolalariga barcha merosni qoldirish maqsadida vasiyatnomaga tuzmoqchiligidini aytadi.

Vasiyat qilib qoldirilayotgan mol-mulk sifatida o‘z doimiy yashab turgan (propiska qilingan) Toshkent shahar YAshnobod tumani, Charog‘bon ko‘chasi, Abdulla Avloniy ko‘chasi 132-uy joyni, 2015 yilda ishlab chiqarilgan, 01 A 250 EN davlat raqam belgili, 78 ot kuchiga ega Neksiya rusumli avtotransport vositasini, Toshkent viloyati Chirchiq tumani YAngi hayot mahallasidagi dala hovlini farzandlaridan biriga qoldirish maqsadida vasiyatnomasi rasmiylashtirmoqchiligidini bildiradi. Vasiyatnomani mazmunini esa o‘zidan boshqa xech kim bilmasligini xohlaydi va maxfiy vasiyatnomasi tuzib kelganligini aytadi.

Mirzo Ulug‘bek tumani 3-sonli davlat notarial idorasi notariusi Saidova Gulinora YAkubdjanovna fuqaronining maxfiy vasiyatnomasi tuzishiga qarshiligi yo‘qligini, ammo vasiyatnomada keltirilayotgan mol-mulk larga uning egalik huquqini tekshirib ko‘rish uchun hujjatlarini oladi. Hujjatlarni ko‘zdan kechirganidan so‘ng notarius fuqarolining NEXIA rusumli avtomashinasi hamda Toshkent viloyati Chirchiq tumani joylashgan uy joyi 2014 yilda garovga qo‘yliganligini aniqladi va bu holat fuqaro

tomonidan vasiyatnomani rasmiylashtirishiga to'sqinlik qilishi, bunining uchun ushbu mol-mulkka nisbatan qo'yilgan ta'qiq olnishi zarurligini bildiradi.

Ushbu vaziyatlardan kelib chiqib, notarius bunday harakatni amalga oshirishni rad qiladi.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

## **10-kazus**

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lган Barnoev Istam Voxidovich ismli shaxs Germaniya Federatsiyasida ishlab chiqarilgan Mersedes benz AMG-221 rusumli, 2015 yilda ishlab chiqarilgan, qora rangli, 212 ot kuchiga ega, davlat raqam belgisi 30 A 123 FA bo'lган avtomashinani garovga qo'yish sharti bilan o'z jiyani, 1999 yilda tug'ilgan Yuldashev Mavlonxo'ja Sunnatovichga nisbatan ishonchnoma rasmiylashtirib bermoqchi bo'lib Samarqand viloyati Samarqand tumani 2-son davlat notarial idorasiga murojaat qiladi.

Davlat notarial idorasi notariusi fuqaro Barnoev Istamga tegishli huquqiy maslahatlarni bergenidan so'ng, mazkur notarial harakatlarga kerakli bo'lган hujjatlarni taqdim etishini so'raydi. Fuqaro Barnoev o'ziga tegishli hujjatlarning asl nushasini taqdim etganidan so'ng, o'z jiyaning pasporti nushasini berib, uning asl nushasini taqdim eta olmasligini, sababi jiyani Yuldashev Mavlonxo'ja yangi biometrik pasport olish uchun o'z pasportini tegishli idoralarga taqdim etganligini ma'lum qiladi.

Notarius notarial harakatni amalga oshirishdan oldin garovga oluvchi garovga qo'yilgan mol-mulkni yo'qtoganlik yoki unga ziyon etkazganlik uchun sug'urta haqidan, bu mol-mulk kimning foydasiga sug'urta qilingan bo'lishidan qat'i nazar, o'z talabi yuqoridaq asoslarda qanoatlan-tirilishiga haqli ekanligini tushuntirib o'tadi hamda fuqaro M. Yuldashevga nisbatan ishonchnoma rasmiylashtirib beradi va fuqaro M. Yuldashev yangi bio-metrik pasport olganidan so'ng davlat notarial idorasiga yangi pasportidan nusha berib ketishi lozimlini so'raydi.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

## **11-kazus**

Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani Jalolobod ko‘chasi 25-uy-joyda yashovchi, 1991 yilda tug‘ilgan fuqaro B.Toshmatov marhum otasi A.Toshmatovdan qolgan mol-mulkka, ya’ni 1987 yilda ishlab chiqarilgan oq rangli, VAZ 2107 rusumli avtotrasport vositasiga nisbatan merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnoma berishini so‘rab, Mirishkor tumani 1-son davlat notarial idorasi notariusi Dadaboev Farmonbek Choriyevichga murojaat qiladi. Davlat notarial idorasi notariusi fuqaro B.Toshmatovga marhum otasidan qolgan mol-mulkarga nisbatan meros ishi marhumning vafotidan keyin olti oy o‘tib ochilishi mumkinligini ma’lum qilib, ushbu muddat o‘tganidan so‘ng merosdan ulush olishga huquqi bo‘lgan barcha oila a’zolari bilan birga notarial idorada hozir bo‘lishi lozimligini bildiradi va berilgan huquqiy maslahat uchun eng kam oylik ish haqining 10 foizi miqdorida to‘lov undirdi va kvitansiyani reestr kitobiga kiritib qo‘ydi.

Zaruriy muddat o‘tganidan so‘ng fuqaro B.Toshmatov o‘z oila a’zolari bilan Mirishkor tumani 1-son davlat notarial idorasiga murojaat qilginida notarius vaqtincha mehnatga layoqatsizligi sababli ta‘tilda ekanligi ma’lum bo‘lib, uning vazifalarini vaqtincha Mirishkor tumani 2-son davlat notarial idorasi notariusi Maxmudova L.K. bajarayotganligi sababli ushbu notariusga murojaat qiladi. Notarius Maxmudova L.K. hujjatlarni ko‘zdan kechirib chiqqanida marhumning ikkinchi farzandi M.Toshmatov notarial idorada hozir bo‘limganligini, sababi u Rossiya Federatsiyasida ekanligini, ushbu notarial harakatni amalga oshirish uchun o‘zining merosga bo‘lgan huquqidan akasi B. Toshmatov foydasiga voz kechganligi haqidagi rozilik xatini Rossiya Federatsiyasi Vologda ob‘lasti 9-son notarial idorasidan notarial tasdiqlatib yuborganligi ma’lum bo‘ladi.

Notarius ushbu hujjatga asosan merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnomani rasmiylashtirib beradi.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

## **12-kazus**

1948 yilda tug'ilgan fuqaro Karimova Bibiradjab Xolovna A'lo MCHJ rahbari Mavlonov Eshmat Aktamovich bilan Toshkent shahri Yakkasaroy tumani Rakat mahallasi Shoshiy ko'chasida joylashgan 123-uyga nisbatan uy- joyni hadya qilish shartnomasini rasmiylashtirish uchun 2017 yil 9 sentyabr kunida Yakkasaroy tumani 5-son davlat notarial idorasini notariusi Jamalova Dilbar Nurmuxammadovnaga murojaat qildi. Davlat notarial idorasini notariusi Jamalova D.N. hujjatlarni ko'zdan kechirib chiqarkan, uy-joyning kommunal to'lovlardan qarzdorligini mavjud emasligi to'g'risidagi hujjatlarning ushbu uydagi uy telefonining qarzdorligi mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumot-nomaning muddati o'tib ketganiligini ma'lum qilib taraflardan ushbu holatni bartaraf etish yoxud bu haqida yangidan ma'lumotnomani kerakli idoralardan olishni so'raydi va bunga qadar notarial harakatni amalga oshirish imkon yo'qligini bildiradi.

Fuqaro B. Karimova mazkur holatni bartaraf etganidan so'ng taraflar 2017 yil 20 sentyabr kuni davlat notarial idorasiga qayta murojaat qiladilar. Notarius uning barcha hujjatlari to'liq bo'lganligini teshirib endilikda uy-joyga nisbatan oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirish mumkinligini ma'lum qiladi va taraflarga mazkur notarial harakat uchun to'lanishi lozim bo'lgan harajatlarni hisoblab chiqib ularni ushbu to'lovlarni amalga oshirib kelishi lozimligini bildirganida fuqaro B. Karimova notarial harakatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish qobiliyati mavjud emasligini ma'lum qiladi. A'lo MCHJ rahbari E. Mavlonov esa ushbu notarial harakatda u hadya oluvchi ekanligini, shu sababli o'zi bu kabi to'lovlarni to'lashi MCHJ Ustaviga, qolaversa boshqa qonun hujjatlariga to'g'ri emasligini bildirib to'lovlardan ozod qilishni so'raydi.

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

**Notarial harakatlardan namunalar:**

**Uy-joy oldi-sotdi shartnomasi**

(ishonchli vakil orqali)

---

(notarial okrug nomi)

---

(shartnomas tasdiqlangan sana, so'z bilan)

---

(shartnomas rasmiylashtirilgan DNI to'liq nomi va manzili, notariusning F.I.O.)

Biz – Farg‘ona viloyati, Toshloq tumani, Majnuntol QFY, Yangiobod ko‘chasi, 7-uyda propiskada turuvchi – Rossiya Federatsiyasi, Novosibirsk shahri notarial okrugi notariusi Otdelnykh Marina Georgievna tomonidan 2014 yil 24 iyunda 242 reestr raqami bilan qayd qilingan ishonchnomaga asosan, Rossiya Federatsiyasi, Novosibirsk shahar, Tyumenskaya ko‘chasi, 38-uyda propiskada turuvchi To‘raev Fozil Hakimovich (STIR 489837538) nomidan harakat qiluvchi To‘raeva Iroda Mirahmedovna (pasport AA 1675242 Toshloq tuman IIB tomonidan 01.06.2013 yilda berilgan), bundan buyon matnda sotuvchining ishonchli vakili deb yuritiluvchi, bir tarafdan va Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, B. Boboev ko‘chasi, 79-uyda propiskada turuvchi – 1965 yilda tug‘ilgan Mahmudova Dilobar O‘tkirovna (STIR 449243926, pasport AA 2128791, Yakkasaroy tuman IIB tomonidan 08.07.2013 yilda berilgan), bundan buyon matnda sotib oluvchi deb yuritiluvchi, ikkinchi tarafdan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdik:

1. Men To‘raeva Iroda Mirahmedovna – sotuvchining ishonchli vakili, menga ishonch bildiruvchi To‘raev Fozil Xakimovich nomidan harakat qilib, unga tegishli bo‘lgan Farg‘ona viloyati, Toshloq tumani, Istiqlol ko‘chasida

joylashgan 21-sonli uy-joyni hovlidagi barcha qurilmalari bilan sotdim, men sotib oluvchi ushbu uy-joyni hovlidagi barcha qurilmalari bilan sotib oldim.

2. Sotilayotgan uy-joy quyidagilardan iborat:

umumiy foydalanish maydoni 421,71 (to‘rt yuz yigirma bir butun yuzdan etmish bir) kv.m.ni tashkil etib – turar-joy maydoni 283,95 (ikki yuz sakson uch butun yuzdan to‘qson besh) kv.m. bo‘lgan o‘nta yashash xonasi, to‘rtta dahliz, oshxona, qozonxona, vannaxona va hojatxona;

inventar bahosi 31.195.837 (o‘ttiz bir million bir yuz to‘qson besh ming sakkiz yuz o‘ttiz etti) so‘m bo‘lib, ushbu holatlar Toshloq tuman Yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastro davlat korxonasi tomonidan 2014 yil 24 iyulda berilgan 3389-sonli ma’lumotnomaga bilan tasdiqlanadi.

3. Sotilayotgan uy-joy sotuvchiga Toshloq tuman davlat notarial idorasida 2011 yil 22 sentyabrda 1-2831 reestr raqami bilan qayd qilingan oldi-sotdi shartnomasiga asosan tegishli bo‘lib, shartnoma Toshloq tuman Yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastro davlat korxonasida 2011 yil 28 sentyabr kuni 9A-sonli kadastr kitobiga 371-tartib raqami bilan 371-varag‘iga yozilib, 11-04-07-01-01-0058-0001 kadastr raqami bilan ro‘yxatga olingan.

4. Yuqorida ko‘rsatilgan uy-joy taraflar tomonidan 33.000.000 (o‘ttiz uch million) so‘mga baholanib, shu summaga sotildi va ushbu pulni men sotuvchining ishonchli vakili mazkur shartnoma imzolangunga qadar sotib oluvchidan to‘liq oldim.

5. Mazkur shartnoma imzolangunga qadar tasarruf etilayotgan uy-joy boshqa shaxsga o‘tkazilmagan, garovga qo‘yilmagan, ijaraga berilmagan, nizoda yo‘q va sotilishi taqiqlanmagan.

6. Mazkur shartnomani rasmiylashtirish uchun sarflanadigan xarajatlarni sotuvchining ishonchli vakili to‘ladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 113–128, 185, 479–482, 485,488-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 9, 11, 52-moddalari

mazmuni biz taraflarga notarius tomonidan tushuntirildi va tushunarli.

8. Farg'ona viloyati, Toshloq tumani, Navro'z MFY tomonidan 2014 yil 1 iyulda berilgan 690-sonli ma'lumotnomaga asosan, sotilayotgan uy-joyda propiskada turuvchi shaxslar yo'q.

9. Men sotuvchining ishonchli vakili ushbu shartnomada ko'rsatilgan uy-joyning qarzlari yuzasidan da'vo qiluvchilar yo'qligini hamda telefon aloqasi xizmati uchun, kommunal xizmatlar uchun to'lanadigan majburiy to'lovlar (issiq va sovuq suv, tabiiy gaz, elektr energiyasi), soliq hamda boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzimiz yo'qligini tasdiqlayman.

10.O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 185-moddasiga asosan, ushbu shartnoma belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab sotib oluvchida mulk huquqi vujudga keladi.

11.Biz – taraflar shartnoma matnini to'liq o'qib chiqdik, uning mazmuni va mohiyati, huquqiy oqibatlari hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 113–128-moddalari mazmuni notarius tomonidan tushuntirildi va bizga tushunarli, shartnomaning mazmuni bizning asl xohish-istiklarimizga mos keladi. Mazkur shartnomani tuzib, imzolaganimizda muomala layoqatiga ega bo'lganimizni, o'z xatti-harakatlarimiz ahamiyatini to'liq tushunganligimizni, hech kim bizni aldamaganligini, shartnomani tuzib, imzolash haqida zo'r lamaganligini, tazyiq o'tkazmaganligini, ushbu bitimni tuzishga majbur qilishga olib kelgan og'ir holatlar yo'qligini bildiramiz.

12.Mazkur shartnoma taraflar tomonidan uch nusxada tuzilib imzolandи, ulardan bir nusxasi Toshloq tuman davlat notarial idorasida saqlanadi, qolgan nusxalari taraflarga davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun berildi.

**IMZOLAR:**

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

**Umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joyni  
boshqa shaxsga berish shartnomasi**

\_\_\_\_\_  
*(notarial okrug nomi)*

\_\_\_\_\_  
*(shartnomma tasdiqlangan sana, so'z bilan)*

\_\_\_\_\_  
*(shartnomma rasmiylashtirilgan DNI to'liq nomi va manzili, notariusning F.I.O.)*

Biz – Namangan viloyati, Uychi tumani, Samarqand ko‘chasi, 101-uyda propiskada turuvchi – 1926 yilda tug‘ilgan Alimov Olim Alievich (STIR 256845122, passport AA 1589654, Uychi tuman IIB tomonidan 13.02.2012 yilda berilgan) bir tarafdan va Namangan viloyati, Uychi tumani, Mustaqillik ko‘chasi, 1-uyda propiskada turuvchi – 1980 yilda tug‘ilgan Rashidov Rayim Saidovich (STIR 00254785, pasport AA 2548525, Uychi tuman IIB tomonidan 03.09.2010 yilda berilgan) ikkinchi tarafdan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdik:

1. Men – Alimov Olim Alievich sog‘lig‘im tufayli mehnatga layoqatsiz bo‘lganligim sababli, o‘zimga tegishli bo‘lgan Namangan viloyati, Uychi tumani, Samarqand ko‘chasidagi 600 (olti yuz) kv.m. Yer maydonida joylashgan 101-sonli uy-joyimni natura holda umrbod moddiy ta’minlash majburiyatini olgan Rashidov Rayim Saidovichning egaligiga topshirdim, men – Rashidov Rayim

Saidovich ushbu uy-joyni mulkka egalik qilish huquqi bilan qabul qildim.

2. Yuqorida ko'rsatilgan butun uy-joy quyidagidan iborat:

umumiyl foydalanish maydoni 90 (to'qson) kv.m.ni tashkil etib – turar-joy maydoni 72 (etmish ikki) kv.m. bo'lgan uchta yashash xonasi, ikkita dahliz, oshxona, hojatxona, omborxona;

inventar narxi 4.000.000 (to'rt million) so'm bo'lib, ushbu holatlari Uychi tuman Yer tuzish va ko'chmas mulk kadastrini davlat korxonasi tomonidan 2014 yil 20 may kuni berilgan 345-sonli ma'lumotnoma bilan tasdiqlanadi.

3. Yuqorida ko'rsatilgan butun uy-joy Alimov Olim Alievichga Uychi tuman davlat notarial idorasi tomonidan 1992 yil 15 martda 1221-reestr raqami bilan qayd qilingan oldi-sotdi shartnomasiga asosan tegishli bo'lib, shartnomasi Uychi tuman Yer tuzish va ko'chmas mulk kadastrini davlat korxonasi 1993 yil 25 noyabr kuni 27-sonli kadastr kitobiga 213-tartib raqami bilan 213-varag'iga yozilib, 11-04-02-01-0140-0009-001 kadastr raqami bilan ro'yxatga olingan.

4. Yuqorida ko'rsatilgan butun uy-joy taraflarning o'zaro kelishuviga ko'ra 18.000.000 (o'n sakkiz million) so'mga baholandi.

5. Men – Rashidov Rayim Saidovich Aliev Olim Alievichni umrbod: oziq-ovqat bilan ta'minlash, ovqatlanirish, kiyim-kechak bilan ta'minlash, parvarishlash va zarur tibbiy xizmat ko'rsatish, kerakli bo'lgan barcha dori-darmonlar bilan ta'minlash, uy-joyni doimiy ravishda ta'mirlash va kapital ta'mirlash ishlarini olib borish, barcha soliqlar va kommunal to'lovlarni to'lash majburiyatini o'z zimmamga olaman.

6. Aliev Olim Alievich hayotini oxiriga qadar shu uy-joyda propiskada turish va shu uy-joydan to'liq foydalanish huquqini saqlab qoladi.

7. Moddiy yordamning barcha turini biz – taraflar har oyda 80.000 (sakson ming) so'm miqdorida belgiladik.

8. Uy-joyni oluvchi, shartnama ikki tomonlama amal qilib turgan davrda, bu uyni sotishga, hadya qilishga, garovga qo'yishga va Aliev Olim Alievichning hayoti va huquqlarini og'irlashtiradigan boshqa harakatlarni amalga oshirishga haqli emas. Bu uy-joy oluvchining qarzlar bo'yicha undirishga qaratilmaydi.

9. Yuqorida ko'rsatilgan uy-joyning tasodifan nobud bo'lishi Rashidov Rayim Saidovichni shartnama bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlaridan ozod qilmaydi.

10.Ushbu shartnama taraflarning kelishuviga binoan notarial idorada, tomonlardan biri shartnama shartlarini bajarmagan taqdirda va bu borada o'zaro kelishuvga erishilmagan taqdirda sud tartibida bekor qilinadi.

11.Ushbu shartnama imzolangunga qadar umrbod ta'minlash sharti bilan topshirilayotgan mazkur uy-joy boshqa shaxsga o'tkazilmagan, garovga qo'yilmagan, ijaraga berilmagan, nizoda yo'q va tasarruf etilishi taqiqlanmagan.

12.Namangan viloyati, Uychi tumani, Samarqand MFY tomonidan 2014 yil 20 mayda berilgan 1111-soni ma'lumotnomaga asosan umrbod ta'minlash sharti bilan topshirilayotgan ushbu uy-joyda Aliev Olim Alievichdan boshqa propiskada turuvchi shaxslar yo'q.

13.Biz – taraflar shartnama matnini to'liq o'qib chiqdik, uning mazmuni, mohiyati, huquqiy oqibatlari va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 530–534-moddalari mazmuni bizga notarius tomonidan tushuntirildi va tushunarli.

14.Ushbu shartnomani rasmiylashtirish uchun sarflangan xarajatlarni Rashidov Rayim Saidovich to'ladi.

15.Ushbu shartnama taraflar tomonidan uch nusxada tuzilib, imzolandi, bir nusxasi Namangan viloyat Uychi tuman davlat notarial idorasida saqlanadi, qolgan nusxalar taraflarga davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun berildi.

**IMZOLAR:**

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

## **Doimiy renta shartnomasi**

---

*(notarial okrug nomi)*

---

*(shartnomasi tasdiqlangan sana, so'z bilan)*

---

*(shartnomasi rasmiylashtirilgan DNI to'liq nomi va manzili, notariusning F.I.O.)*

Biz – Xorazm viloyati, Xazorasp tumani, Navro‘z dahasi, 16-uy, 17-xonadonda propiskada turuvchi – 1985 yilda tug‘ilgan Nurmatova Gulsum Tursunovna (STIR 557715152, pasport SV 4781420, Xazorasp tuman IIB tomonidan 05.11.2013 yilda berilgan) bundan buyon matnda renta oluvchi deb yuritiluvchi bir tarafdan va Xorazm viloyati, Xazorasp tumani, Navro‘z dahasi, 2-uy, 31-xonadonda propiskada turuvchi – 1965 yilda tug‘ilgan Satimova Hamida Jo‘raevna (STIR 002145321, pasport SV 1254896, Xazorasp tuman IIB tomonidan 23.01.2012 yilda berilgan) bundan buyon matnda renta TO‘lovchi deb yuritiluvchi ikkinchi tarafdan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdik:

1. Men – renta oluvchi o‘zimga tegishli bo‘lgan Xorazm viloyati, Xazorasp tumani, A. Isajanova ko‘chasida 664 (olti yuz oltmishto‘rt) kv.m. yer maydonida joylashgan 35-sonli uy-joyimni renta TO‘lovchiga doimiy renta to‘lash sharti bilan mulk qilib berdim, men – renta to‘lovchi yuqorida ko‘rsatilgan uy-joyni qabul qilib oldim.

2. Doimiy rentaga berilgan uy-joy quyidagilardan iborat:

umumiyl foydalanish maydoni 79,9 (etmish to‘qqiz butun o‘ndan to‘qqiz) kv.m.ni tashkil etib – turar-joy

maydoni 46,7 (qirq olti butun o‘ndan etti) kv.m. bo‘lgan uchta yashash xonasini, dahliz, oshxonani, ravon va yerto‘la, omborxona, hammom;

inventar bahosi 4.018.622 (to‘rt million o‘n sakkiz ming olti yuz yigirma ikki) so‘m bo‘lib, ushbu holatlar Xazorasp tuman Yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastro davlat korxonasi tomonidan 2009 yil 4 aprelda berilgan 237-raqamli ma’lumotnomaga bilan tasdiqlanadi.

3. Rentaga berilgan uy-joy renta oluvchiga Xazorasp tuman davlat notarial idorasida 2001 yil 11 yanvarda 176-reestr raqami bilan qayd qilingan oldi-sotdi shartnomasiga asosan tegishli bo‘lib, shartnomaga Xazorasp tuman Yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastro davlat korxonasi 2007 yil 2 aprelda 8-sonli kadastr kitobiga 129-tartib raqami bilan 129-varag‘iga yozilib, 11-04-02-01-0140-0009-001 kadastr raqami bilan ro‘yxatga olingan.

4. Yuqorida ko‘rsatilgan uy-joy taraflarning o‘zaro kelishuviga ko‘ra 7.000.000 (etti million) so‘mga baholandi.

5. Renta to‘lovchi doimiy va muddatsiz ravishda renta oluvchiga yilning har bir choragining oxirgi kunida 180.000 (bir yuz sakson ming) so‘mdan to‘lashga majbur. Agar renta TO‘lovchi to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘lay olmasa, to‘lanmagan summadan 2% (foiz) renta Oluvchiga to‘laydi.

Ushbu renta to‘loving miqdori eng kam ish haqining miqdori oshirilishiga mutanosib ravishda ko‘paytirib boriladi.

Renta to‘lash sharti bilan berilgan uy-joyga renta oluvchi va renta to‘lovchi o‘z majburiyatlarining bajarilishini ta’minalash maqsadida bu mulkka nisbatan garov huquqini oladi.

renta to‘lovchi o‘z majburiyatlarini bajarishining garovini taqdim etishga yoki ushbu majburiyatlarini bajarmaslik yoxud lozim darajada bajarmaslik xavfini renta oluvchi foydasiga sug‘urtalashga majbur.

6. Renta oluvchining roziligi bilan renta to‘lovchi rentaga berilgan uy-joyni tasarruf etishga haqli.

7. Doimiy renta shartnomasi bo‘yicha renta oluvchining huquqlari boshqa jismoniy yoki notijorat

tashkilotlarga talabdan voz kechish yo‘li bilan topshirilishi mumkin. Agar renta oluvchi vafot etsa, uning shartnomada ko‘rsatilgan huquqlari merosxo‘rlariga o‘tadi.

8. Renta to‘lovchi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 521-moddasida ko‘rsatilgan talablarga asosan sotib olishga haqli.

9. Renta oluvchi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 522-moddasida ko‘rsatilgan talablarga asosan sotib olishga haqli.

10. Doimiy renta to‘lash sharti bilan xaq evaziga topshirilgan mol-mulkning tasodifan nobud bo‘lishi yoki tasodifan buzilishi xavfi paydo bo‘lganda renta to‘lovchi renta to‘lash majburiyatlarini tegishli ravishda to‘xtatishi yoki uni to‘lash shartlarini o‘zgartirishni talab qilishga haqli.

11. Mazkur shartnomaga imzolangunga qadar rentaga berilayotgan uy-joy boshqa shaxsga o‘tkazilmagan, garovga qo‘yilmagan, ijara berilmagan, nizoda yo‘q va tasarruf etilishi taqiqlanmagan.

12. Mazkur shartnomani rasmiylashtirish uchun sarflanadigan xarajatlarni renta to‘lovchi to‘ladi.

13. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 185, 512–524-moddalari mazmuni biz – taraflarga notarius tomonidan tushuntirildi va tushunarli.

14. Xorazm viloyati, Xazorasp tumani, Navro‘z MFY tomonidan 2009 yil 17 aprel kuni berilgan 25-sonli ma‘lumotnomaga asosan rentaga berilayotgan uy-joyda propiskada turuvchi shaxslar yo‘q.

15. Ushbu shartnomaga belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganidan so‘ng renta to‘lovchining yuqorida ko‘rsatilgan uy-joyga egalik qilish huquqi vujudga keladi.

16. Men – renta oluvchi rentaga berilayotgan uy-joyning qarzlarini yuzasidan da’vo qiluvchilar yo‘qligini hamda telefon aloqasi xizmati uchun, kommunal xizmatlar uchun to‘lanadigan majburiy to‘lovlar (issiq va sovuq suv, tabiiy gaz, elektr energiyasi), soliq hamda boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzimiz yo‘qligini tasdiqlayman.

17.Mazkur shartnoma taraflarning o‘zaro kelishuvi bilan o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Shartnoma qanday shaklda tuzilgan bo‘lsa, uning o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi ham shunday shaklda amalga oshiriladi.

18.Taraflar o‘rtasida nizo kelib chiqqanda, u sud tartibida hal qilinadi.

19.Biz – taraflar shartnoma matnini to‘liq o‘qib chiqdik, uning mazmuni va mohiyati, huquqiy oqibatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 113–128-moddalari mazmuni notarius tomonidan tushuntirildi va bizga tushunarli, shartnomaning mazmuni bizning asl xohish-istiklarimizga mos keladi. Mazkur shartnomani tuzib imzolaganimizda muomala layoqatiga ega bo‘lganimizni, o‘z xatti-harakatlarimiz ahamiyatini to‘liq tushunganligimizni, hech kim bizni aldamaganligini, shartnomani tuzib imzolash haqida zo‘rlamaganligini, tazyiq o‘tkazmaganligini, ushbu bitimni tuzishga majbur qilishga olib kelgan og‘ir holatlar yo‘qligini bildiramiz.

20.Mazkur shartnoma taraflar tomonidan uch nusxada tuzilib imzolandi, ulardan biri Xazorasp tuman davlat notarial idorasida saqlanadi, qolgan nusxalari taraflarga berildi.

#### IMZOLAR:

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

## **Umrabod renta shartnomasi**

---

*(notarial okrug nomi)*

---

*(shartmoma tasdiqlangan sana, so'z bilan)*

---

*(shartnoma rasmiylashtirilgan DNI to'liq nomi va manzili, notariusning F.I.O.)*

Biz – Jizzax viloyati, G‘allaorol tumani, Beklar dahasi, 16-uy, 17-xonadonda propiskada turuvchi – 1974 yilda tug‘ilgan Nurmatova Gulnor Tursunovna (STIR 002120258, pasport SV 1463250, G‘allaorol tuman IIB tomonidan 19.04.2010 yilda berilgan) bundan buyon matnda renta oluvchi deb yuritiluvchi bir tarafdan va Jizzax viloyati, G‘allaorol tumani, Beklar dahasi, 2-uy, 31-xonadonda propiskada turuvchi – 1988 yilda tug‘ilgan Sotvoldieva Hamida Jo‘raevna (STIR 001478410, pasport SV 2548112, G‘allaorol tuman IIB tomonidan 07.11.2013 yilda berilgan) bundan buyon matnda renta to‘lovchi deb yuritiluvchi ikkinchi tarafdan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdik:

1. Men – renta oluvchi o‘zimga tegishli bo‘lgan Jizzax viloyati, G‘allaorol tumani, A. Isajanova ko‘chasida 664 (olti yuz oltmishto‘rt) kv.m. yer maydonida joylashgan 35-sonli uy-joyimni renta to‘lovchiga umrbod renta to‘lash sharti bilan mulk qilib berdim, men – renta to‘lovchi yuqorida ko‘rsatilgan uy-joyni qabul qilib oldim.

2. Rentaga berilayotgan uy-joy quyidagilardan iborat:  
umumiyl foydalanish maydoni 79,9 (etmish to‘qqiz butun o‘ndan to‘qqiz) kv.m. ni tashkil etib – turar-joy maydoni 46,7 (qirq olti butun o‘ndan etti) kv.m. bo‘lgan uchta yashash xonasi, dahliz, oshxona, ravon, yerto‘la, omborxona, hammom;

inventar bahosi 4.018.622 (to‘rt million o‘n sakkiz ming olti yuz yigirma ikki) so‘m bo‘lib, ushbu holatlar G‘allaorol tuman Yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastro davlat korxonasi tomonidan 2014 yil 4 aprelda berilgan 237-sonli ma‘lumotnomasi bilan tasdiqlanadi.

3. Rentaga berilayotgan uy-joy renta oluvchiga G‘allaorol tuman davlat notarial idorasida 2007 yil 11 yanvarda 176-reestr raqam bilan qayd qilingan oldishartnomasiga asosan tegishli bo‘lib, shartnoma G‘allaorol tuman Yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastro davlat korxonasida 2007 yil 2 apreldagi 8-sonli kadastr kitobiga 534-tartib raqami bilan 534-varag‘iga yozilib, 11-04-02-01-01-0140-0009-001 kadastr raqami bilan ro‘yxatga olingan.

4. Yuqorida ko‘rsatilgan uy-joy tarafalarning o‘zaro kelishuviga ko‘ra 7.000.000 (etti million) so‘mga baholandi.

5. Renta to‘lovchi renta oluvchiga uni hayot bo‘lgan davrda kelayotgan har oyning oxirgi kunida 80.000 (sakson ming) so‘mdan to‘lashga majbur. Agar renta to‘lovchi to‘lovlanri o‘z vaqtida to‘lay olmasa, to‘lanmagan summadan 2 % (foizini) renta oluvchiga to‘laydi.

Ushbu renta to‘lovining miqdori eng kam oylik ish haqining oshirilishiga mutanosib ravishda ko‘payib boradi.

6. Renta to‘lash sharti bilan berilgan uy-joyga renta to‘lovchi o‘z majburiyatlarining bajarishini ta‘minlash maqsadida RENTA OLUVCHI bu mulkka garov huquqini oladi.

7. Renta to‘lovchi o‘z majburiyatlari bajarilishining garovini taqdim etishga yoki ushbu majburiyatlarni bajarmaslik yoxud lozim darajada bajarmaslik xavfini renta oluvchi foydasiga sug‘urtalashga majbur.

8. Renta oluvchining roziligi bilan renta to‘lovchi rentaga berilgan uy-joyni tasarruf etishga haqli.

9. Renta oluvchi vafot etgan taqdirda renta to‘lash majburiyati bekor qilinadi.

10.Umrabd renta to‘lash sharti bilan topshirilgan mol-mulkning tasodifan nobud bo‘lishi yoki tasodifan buzilishi renta to‘lovchini shartnomada nazarda tutilgan shartlarda to‘lash majburiyatidan ozod qilmaydi.

11.Mazkur shartnomaga qadar rentaga berilayotgan butun uy-joy boshqa shaxsga o'tkazilmagan, garovga qo'yilmagan, ijaraga berilmagan, nizoda yo'q va tasarruf etilishi taqiqlanmagangan.

12.Mazkur shartnomani rasmiylashtirish uchun sarflanadigan xarajatlarni renta to'lovchi to'ladi.

13.O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 185, 524–529-moddalari mazmuni biz – taraflarga notarius tomonidan tushuntirildi va tushunarli.

14.Jizzax viloyati, G'allaorol tumani, Navro'z MFY tomonidan 2014 yil 17 aprel kuni berilgan 25-sonli ma'lumotnomaga asosan rentaga berilgan uy-joyda propiskada turuvchi shaxslar yo'q.

15.Ushbu shartnoma belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab renta to'lovchida rentaga berilgan uy-joyga nisbatan egalik huquqi vujudga keladi.

16.Men – renta oluvchi rentaga berilayotgan uy-joyning qarzlar yuzasidan da'vo qiluvchilar yo'qligini hamda telefon aloqasi xizmati uchun, kommunal xizmatlar uchun to'lanadigan majburiy to'lovlar (issiq va sovuq suv, tabiiy gaz, elektr energiyasi), soliq hamda boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzimiz yo'qligini tasdiqlayman.

17.Mazkur shartnoma taraflarning o'zaro kelishuvi bilan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Renta shartnomasi qanday shaklda tuzilgan bo'lsa, shunday tartibda o'zgartiriladi yoki bekor qilinadi.

18.Renta to'lovchi umrbod renta shartnomasini jiddiy buzgan hollarda renta oluvchi shartnomani bekor qilish va zararni qoplashni renta to'lovchidan talab qilishga haqli.

19.Taraflar o'rtasida nizo kelib chiqsa, u sud tartibida hal qilinadi.

20.Biz – taraflar shartnoma matnini to'liq o'qib chiqdik, uning mazmuni va mohiyati, huquqiy oqibatlari hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 113–128-moddalari mazmuni notarius tomonidan tushuntirildi va bizga tushunarli, shartnomaning mazmuni bizning asl xohish-istiklarimizga mos keladi. Mazkur

shartnomani tuzib imzolaganimizda muomala layoqatiga ega bo‘lganimizni, o‘z xatti-harakatlarimiz ahamiyatini to‘liq tushunganligimizni, hech kim bizni aldamaganligini, shartnomani tuzib imzolash haqida zo‘rlamaganligini, tazyiq o‘tkazmaganligini, ushbu bitimni tuzishga majbur qilishga olib kelgan og‘ir holatlar yo‘qligini bildiramiz.

21. Mazkur shartnoma taraflar tomonidan uch nusxada tuzilib imzolandi, ulardan biri Fallaorol tuman davlat notarial idorasida saqlanadi, qolgan nusxalari taraflarga berildi.

**IMZOLAR:**

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

## **Uy-joylarni ayirboshlash shartnomasi**

---

*(notarial okrug nomi)*

---

*(shartnomma tasdiqlangan sana, so'z bilan)*

---

*(shartnomma rasmiylashtirilgan DNI to'liq nomi va manzili, notariusning F.I.O.)*

Biz – Navoiy viloyati, Zarafshon shahar, Izzat ko‘chasi, 20-uyda propiskada turuvchi – 1989 yilda tug‘ilgan Ivanov Aleksey Ivanovich (STIR 002415449, pasport AA 1366954, Zarafshon shahar IIB tomonidan 09.07.2013 yilda berilgan) bir tarafdan va Navoiy viloyati, Zarafshon shahar, Beruniy ko‘chasi, 25-uyda propiskada turuvchi – 1984 yilda tug‘ilgan Olimov Olim Akramovich (STIR 045215968, pasport AA 1457485, Zarafshon shahar IIB tomonidan 12.02.2010 yilda berilgan) ikkinchi tarafdan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdik:

1. Men – Ivanov Aleksey Ivanovich o‘zimga tegishli tegishli bo‘lgan Navoiy viloyati, Zarafshon shahar, Izzat ko‘chasi, 20-uyda joylashgan uy-joyimni va men – Olimov Olim Akramovich o‘zimga tegishli bo‘lgan Navoiy viloyati, Zarafshon shahar, Beruniy ko‘chasi, 25-uyda joylashgan uy-joyimni o‘zaro ayirboshladik.

2. Ivanov Aleksey Ivanovichga tegishli ayirboshlanayotgan uy-joy 600 (olti yuz) kv.m. yer maydonida joylashgan bo‘lib, quyidagilardan iborat:

umumiyl foydalanish maydoni 53,81 (ellik uch butun yuzdan sakson bir) kv.m. ni tashkil etib – turar-joy maydoni 30,28 (o‘ttiz butun yuzdan yigirma sakkiz) kv.m. bo‘lgan ikkita yashash xonasi, ayvon, oshxona;

inventar bahosi 4.000.000 (to‘rt million) so‘m bo‘lib, ushbu holatlар Zarafshon shahar yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonasi tomonidan 2014 yil 15

oktyabr kuni berilgan 302-sonli ma'lumotnoma bilan tasdiqlanadi.

Olimov Olim Akramovichga tegishli bo'lgan ayirboshlanayotgan uy-joy 500 (besh yuz) kv.m. yer maydonida joylashgan bo'lib, quyidagilardan iborat:

umumiyl foydalanish maydoni 55,81 (ellik besh butun yuzdan sakson bir) kv.m.ni tashkil etib – turar-joy maydoni 35,28 (o'ttiz besh butun yuzdan yigirma sakkiz) kv.m. bo'lgan ikkita yashash xonasi, dahliz, hammom, oshxona, soyabon, garaj, hojatxona;

inventar bahosi 4.500.000 (to'rt million besh yuz) so'm bo'lib, ushbu holatlar Zarafshon shahar yer tuzish va ko'chmas mulk kadastr davlat korxonasi tomonidan 2014 yil 20 mart kuni berilgan 303-sonli ma'lumotnoma bilan tasdiqlanadi.

### 3. Ayirboshlanayotgan uy-joylar:

4. Ivanov Aleksey Ivanovichga – Zarafshon shahar davlat notarial idorasida 1999 yil 27 may kuni 4034 reestr raqami bilan qayd qilingan Qonun bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnomasiga asosan tegishli bo'lib, guvohnoma Zarafshon shahar yer tuzish va ko'chmas mulk kadastr davlat korxonasida 2000 yil 30 mart kuni 5-sonli kadastr kitobiga 112-tartib raqami bilan 112-varag'iga yozilib, 11-04-02-01-0140-0009 kadastr raqami bilan ro'yxatga olingan;

Olimov Olim Akramovichga – Zarafshon shahar davlat notarial idorasida 1987 yil 27 may kuni 1034 reestr raqami bilan qayd qilingan oldi-sotdi shartnomasiga asosan tegishli bo'lib, shartnomaga Zarafshon shahar yer tuzish va ko'chmas mulk kadastr davlat korxonasida 2002 yil 4 sentyabr kuni 25-sonli kadastr kitobiga 23-tartib raqami bilan 24-varag'iga yozilib, 11-04-02-01-0140-0009-001 kadastr raqami bilan ro'yxatga olingan.

5. Ayirboshlanayotgan har bir uy-joy taraflarning o'zaro kelishuviga ko'ra 6.000.000 (olti million) so'mdan baholandi.

### 6. Ushbu ayirboshlash shartnomasiga asosan:

Ivanov Aleksey Ivanovichning egaligiga Navoiy viloyati, Zarafshon shahar, Beruniy ko‘chasi, 25-sonli uy-joy;

Olimov Olim Akramovichning egaligiga Navoiy viloyati, Zarafshon shahar, Izzat ko‘chasi, 20-sonli uy-joy o‘tadi.

7. Ayirboshlash taraflar tomonidan qo‘srimcha to‘lovatarsiz amalga oshirildi.

8. Ushbu shartnomma imzolangunga qadar yuqorida ko‘rsatilgan uy-joylar boshqa shaxsga o‘tkazilmagan, garovga qo‘yilmagan, ijaraga berilmagan, nizoda yo‘q va tasarruf qilinishi taqiqlanmagan.

9. Mazkur shartnomani rasmiylashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni taraflar teng hissada to‘ladi.

10. Biz – taraflarga O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 185, 497–501-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 35, 52-moddalari mazmuni notarius tomonidan tushuntirildi va tushunarli.

11. Ayirboshlangan uy-joylarga taraflarning mulk huquqi ushbu shartnomma belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan keyin vujudga keladi.

12. Navoiy viloyati, Zarafshon shahar, Izzat MFY tomonidan 2014 yil 19 oktyabr kuni berilgan 200-sonli ma’lumotnomada va Zarafshon shahar, Beruniy MFY tomonidan 2014 yil 18 oktyabr kuni berilgan 234-sonli ma’lumotnomaga asosan ayriboshshanayotgan uy-joylarda ushbu uy-joy mulkdorlaridan boshqa shaxslar propiskada turmaydi.

13. Biz – taraflar ushbu shartnomada ko‘rsatilgan uy-joylarning qarzları yuzasidan da‘vo qiluvchilar yo‘qligini hamda telefon aloqasi xizmati uchun, kommunal xizmatlar uchun to‘lanadigan majburiy to‘lovlar (issiq va sovuq suv, tabiiy gaz, elektr energiyasi), soliq hamda boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzimiz yo‘qligini tasdiqlaymiz.

14. Men – Ivanov Aleksey Ivanovich shuni tasdiqlaymanki, o‘zbek tilini to‘liq tushunaman va bilaman. Menga shartnomaning matnini rus tiliga tarjima qilib berish shart emas.

15.Biz – taraflar shartnoma matnini o‘qib chiqdik, uning mazmun-mohiyati, huquqiy oqibatlari bizga notarius tomonidan tushuntirildi va tushunarli, uning mazmuni bizning asl xohish-istiklarimizga mos keladi.

16.Mazkur shartnoma taraflar tomonidan uch nusxada tuzilib, imzolandi, ulardan bir nusxasi Zarafshon shahar davlat notarial idorasida saqlanadi, qolgan nusxalari taraflarga davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun berildi.

**IMZOLAR:**

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

**Avtotransport vositasining hadya shartnomasi**

\_\_\_\_\_  
*(notarial okrug nomi)*

\_\_\_\_\_  
*(shartnoma tasdiqlangan sana, so‘z bilan)*

\_\_\_\_\_  
*(shartnoma rasmiylashtirilgan DNI to‘liq nomi va manzili, notariusning F.I.O.)*

Biz – Toshkent shahar, Uchtepa tumani, H. Olimjon ko‘chasi, 33-uyda propiskada turuvchi – 1969 yilda tug‘ilgan Yoqubov o‘ani Abdughalilovich (STIR 025804604, pasport SV 2746719, Uchtepa tuman IIB tomonidan 05.06.2013 yilda berilgan) bundan buyon matnda hadya qiluvchi deb yuritiluvchi bir tarafdan va Toshkent shahar, Uchtepa tumani, H.Olimjon ko‘chasi, 33-uyda propiskada turuvchi – 1975 yilda tug‘ilgan Yoqubov Vaxob Abdughalilovich (STIR 327504895, pasport AA 6803739, Uchtepa tuman IIB tomonidan 04.10.2014 yilda berilgan)

bundan buyon matnda hadya oluvchi deb yuritiluvchi ikkinchi tarafdan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdik:

1. Men – hadya qiluvchi o‘zimga tegishli bo‘lgan – GBASPGGA Z53 rusumli, 1996 yilda ishlab chiqarilgan, turi – yuk, dvigatel – raqamsiz, kuzov – raqamsiz, shassi – raqamsiz, rangi – sariq (jeltyy), davlat raqami belgisi – 01U527DA bo‘lgan, dvigatel quvvati 115 ot kuchiga ega bo‘lgan avtotransport vositamni ukam o‘aniev Vaxob Abduxalilovichga hadya qildim, men – hadya oluvchi ushbu avtotransport vositasini minnatdorchilik bilan qabul qilib oldim.

2. Hadya qilinayotgan yuk avtotransport vositasi hadya qiluvchiga Uchtepa tuman IIB YHXB 3-TRIB tomonidan 2010 yil 30 dekabrda berilgan seriya AAC № 2749473 raqamli transport vositasini qayd etish guvohnomasiga asosan tegishli.

3. Yuqorida ko‘rsatilgan yuk avtotransport vositasi taraflar tomonidan 6 000 000 (olti million) so‘mga baholandi.

4. Mazkur shartnomaga imzolangunga qadar hadya qilinayotgan avtotransport vositasi boshqa shaxsga o‘tkazilmagan, garovga qo‘yilmagan, nizoda yo‘q va hadya qilinishi taqiqlanmagan.

5. Mazkur shartnomani rasmiylashtirish uchun sarflanadigan xarajatlarni hadya qiluvchi to‘ladi.

6. Ushbu shartnomaga IIVning tegishli DYHXX organlarida 10 kun ichida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilishi shart. Mazkur talabni bajarmaslik qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortishga olib keladi.

7. Biz – taraflar shartnomaga matnini to‘liq o‘qib chiqdik, uning mazmuni va mohiyati, huquqiy oqibatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 113–128-moddalari mazmuni notarius tomonidan tushuntirildi va bizga tushunarli, shartnomaning mazmuni bizning asl xohish-istiklarimizga mos keladi. Mazkur shartnomani tuzib, imzolaganimizda muomala layoqatiga ega bo‘lganimizni, o‘z xatti-harakatlarimiz ahamiyatini

to‘liq tushunganligimizni, hech kim bizni aldamaganligini, shartnomani tuzib, imzolash haqida zo‘rlamaganligini, tazyiq o‘tkazmaganligini, ushbu bitimni tuzishga majbur qilishga olib kelgan og‘ir holatlar yo‘qligini bildiramiz.

8. Ushbu shartnama taraflar tomonidan uch nusxada tuzilib, imzolandi, ulardan gerbli (maxsus) blankada tuzilgan nusxasi hadya oluvchiga DYHXX organlarida 10 kun muddat ichida ro‘yxatdan o‘tkazish uchun, ikkinchi nusxasi hadya qiluvchiga berildi, uchinchi nusxasi Uchtepa tuman 1-son davlat notarial idorasida saqlanadi.

**IMZOLAR:**

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

ASh № 303172 TN

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

## **Yuridik va jismoniy shaxs o‘rtasida tuzilgan avtotransport vositasining oldi-sotdi shartnomasi**

---

*(notarial okrug nomi)*

---

*(shartnomma tasdiqlangan sana, so‘z bilan)*

---

*(shartnomma rasmiylashtirilgan DNI to‘liq nomi va manzili, notariusning F.I.O.)*

Biz – Sirdaryo viloyati, Guliston shahar, R. Nazirova ko‘chasi, 101-uyda joylashgan, Guliston shahar hokimligi huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish inspeksiyasida 2010 yil 9 yanvar kuni 17-son bilan ro‘yxatga olingan ABBOS-INVEST mas’uliyati cheklangan jamiyatni (STIR 301434424) bundan buyon matnda sotuvchi deb yuritiluvchi, jamiyat nomidan 013 yil 30 dekabr kuni berilgan 56-sonli ishonchnomaga asosan harakat qiluvchi, Sirdaryo viloyati, Guliston shahar, Eski Qovunchi QFY, Bahor ko‘chasi, 14-uyda propiskada turuvchi – Abbos-invest MCHJ direktori o‘rinbosari Yormatov Sherzod Abdulxaitovich (pasport AA 1326721, Guliston shahar IIB tomonidan 10.05.2013 yilda berilgan) bir tarafdan va Sirdaryo viloyati, Xovos tumani, Navro‘z ko‘chasi, 15-uyda propiskada turuvchi – 1978 yilda tug‘ilgan Shermuhamedov Ne’matjon Xusainjonovich (pasport SV 1766944, Xovos tumani IIB tomonidan 10.11.2003 yilda berilgan) bundan buyon matnda sotib oluvchi deb yuritiluvchi ikkinchi tarafdan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdik:

1. Men – Yormatov Sherzod Abdulxaitovich ABBOS-INVEST mas’uliyati cheklangan jamiyatiga tegishli bo‘lgan, jamiyat balansida turgan – NEKSIYA rusumli, 2012 yilda ishlab chiqarilgan, turi – engil (sedan), dvigatel raqami 6326621, kuzov raqami XWB3L32EDCA202146, shassi – raqamsiz, rangi – kulrang (serebristiy), davlat raqami

belgisi – 20 011 KAA bo‘lgan, dvigatel quvvati 75 ot kuchiga ega bo‘lgan avtotransport vositasini sotuvchi nomidan sotdim, men – sotib oluvchi ushbu avtotransport vositasini sotib oldim.

2. Sotilayotgan avtotransport vositasi sotuvchiga Sirdaryo viloyati IIB YXXB 3-TRIB tomonidan 2012 yil 21 iyul kuni berilgan seriya AAS № 3508150 raqamli transport vositasini qayd etish guvohnomasiga asosan tegishli.

3. Yuqorida ko‘rsatilgan avtotransport vositasi taraflar tomonidan 2014 yil 26 iyuldaggi o‘zaro baholash dalolatnomasiga asosan 9.000.000 (to‘qqiz million) so‘mga baholanib, shu summaga sotildi va sotib oluvchi ushbu pulni Sotuvchining hisob raqamiga ATB Hamkorbank Guliston filiali tomonidan 2014 yil 26 iyulda berilgan 9-sonli kvitansiyaga asosan to‘liq to‘ladi.

4. Mazkur shartnoma imzolangunga qadar sotilayotgan avtotransport vositasi boshqa shaxsga o‘tkazilmagan, garovga qo‘yilmagan, nizoda yo‘q va sotilishi taqiqlanmagan.

5. Mazkur shartnomani rasmiylashtirish uchun sarflanadigan xarajatlarni sotuvchi to‘ladi.

6. Ushbu shartnoma IIVning tegishli DYHXX organlarida 10 kun ichida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilishi shart. Mazkur talabni bajarmaslik qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortishga olib keladi.

7. Biz – taraflar shartnoma matnini to‘liq o‘qib chiqdiq, uning mazmuni va mohiyati, huquqiy oqibatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 113–128-moddalari mazmuni notarius tomonidan tushuntirildi va bizga tushunarli, shartnomaning mazmuni bizning asl xohish-istiklalimizga mos keladi. Mazkur shartnomani tuzib, imzolaganimizda muomala layoqatiga ega bo‘lganimizni, o‘z xatti-harakatlarimiz ahamiyatini to‘liq tushunganligimizni, hech kim bizni aldamaganligini, shartnomani tuzib, imzolash haqida zo‘rlamaganligini, tazyiq o‘tkazmaganligini, ushbu bitimni tuzishga majbur qilishga olib kelgan og‘ir holatlar yo‘qligini bildiramiz.

8. Ushbu shartnoma taraflar tomonidan uch nusxada tuzilib, imzolandi, ulardan gerbli (maxsus) blankada tuzilgan nusxasi sotib oluvchiga DYHXX organlarida 10 kun muddat ichida ro‘yxatdan o‘tkazish uchun, ikkinchi nusxasi sotuvchiga berildi, uchinchi nusxasi Guliston shahar 1-son davlat notarial idorasida saqlanadi.

**IMZOLAR:**

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

ASh № 303172 SR

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

**Avtotransport vositasini ekipaji bilan ijara berish  
shartnomasi**

\_\_\_\_\_  
*(notarial okrug nomi)*

\_\_\_\_\_  
*(shartnoma tasdiqlangan sana, so‘z bilan)*

\_\_\_\_\_  
*(shartnoma rasmiylashtirilgan DNI to‘liq nomi va manzili, notariusning F.I.O.)*

Biz – Toshkent viloyati, Bekobod tumani, Chaqichmon ko‘chasi, 7-uyda propiskada turuvchi – 1986 yilda tug‘ilgan Olimov Olim Akramovich (STIR 0034224899, pasport AA 1245869, Bekobod tuman IIB tomonidan 12.05.2013 yilda berilgan) bundan buyon matnda ijara beruvchi deb yuritiluvchi bir tarafdan va Angren shahar, Nurota ko‘chasi, 93-uyda joylashgan, Angren shahar hokimligi huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish

inspeksiyasida 2006 yil 25 sentyabrda 723-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan AZIYA xususiy korxonasi, bundan buyon matnda ijaraga oluvchi deb yuritiluvchi, korxona nomidan Nizom asosida harakat qiluvchi Angren shahar, Navoiy ko‘chasi, 20-uyda propiskada turuvchi korxona rahbari – 1977 yilda tug‘ilgan Hamidov Sherzodbek Xalikovich (pasport AA 6325441, Angren shahar IIB tomonidan 09.11.2014 yilda berilgan) ikkinchi tarafdan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdik:

1. Ijaraga beruvchi o‘ziga tegishli bo‘lgan Mersedes-Bens rusumli, 1992 yilda ishlab chiqarilgan, turi – mikroavtobus, dvigatel raqami 1236598, kuzov raqami 568942369, shassi – raqamsiz, rangi – oq, davlat raqami belgisi – 10 N 569 AA bo‘lgan avtotransprot vositasini vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun haq evaziga ijaraga Oluvchiga beradi hamda yo‘lovchilarni (yukni) tashishda o‘z kuchi bilan uni boshqarish va texnik foydalanish bo‘yicha xizmat ko‘rsatadi.

2. Ijaraga berilayotgan avtotransport vositasi ijara beruvchiga Toshkent viloyati IIB YXHB RIB tomonidan 2006 yil 6 may kuni berilgan seriya AAS № 178433 raqamli transport vositasini qayd etish guvohnomasiga asosan tegishli.

3. Mazkur shartnomaga bir yil muddatga, ya’ni 20\_\_\_\_ yil \_\_\_\_\_ dan boshlab 20\_\_\_\_ yil \_\_\_\_\_ gacha tuzildi.

Ijaraga berilayotgan avtotransport vositasini topshirish va qabul qilish dalolatnomasi taraflarning kelishuviga ko‘ra, ushbu shartnomaga imzolangandan so‘ng 5 (besh) kun ichida tuziladi va avtotransport vositasi ijaraga oluvchiga topshiriladi.

4. Ijaraga berilgan avtotransport vositasi uchun ijara haqi taraflar kelishuviga asosan har oyda 450.000 (to‘rt yuz ellik ming) so‘m, umumiyligi haqi 5.400.000 (besh million to‘rt yuz ming) so‘mni tashkil qiladi va ushbu pulni ijaraga oluvchi har oyning 5 sanasigacha ijaraga Beruvchining hisob raqamiga o‘tkazib berishi shart.

5. Ijaraga beruvchi:

avtotransport vositasini tegishli holatda saqlashga, shu jumladan joriy va kapital ta'mirlashga hamda zarur asbob- uskunalarni berishga;

avtotransport vositasini boshqarish va texnik foydalanish bo'yicha ijaraga oluvchiga ko'rsatadigan xizmatlari hajmi avtotransport vositasining shartnomada ko'rsatilgan ijara maqsadlariga mos ravishda normal va xavfsiz ishlatilishini ta'minlashga;

avtotransport vositasini sug'urta qilish va (yoki) uning tomonidan yoki uni ishlatish munosabati bilan etkazilishi mumkin bo'lgan zarar uchun javobgarlikni sug'urtalashga;

avtotransport vositasidan foydalanganlik munosabati bilan etkazilishi mumkin bo'lgan zarar uchun javobgarlikni sug'urtalashni ta'minlashga majbur.

#### 6. Ijaraga oluvchi:

ushbu shartnoma amal qilib turgan butun muddat davomida ijaraga olingan avtotransport vositasini tegishli holatda saqlab turishi;

avtotransport vositasini tijorat maqsadida ishlatish munosabati bilan yonilg'i va ishlatish jarayonida sarflanadigan boshqa materiallar haqini to'lashi, yig'imlar va boshqa chiqimlarni to'lashi;

ekipaj a'zolari ijaraga beruvchining avtotransport vositasini boshqarish va texnik foydalanishga doir ko'rsatmalariga doir ko'rsatmalariga bo'ysunishini ta'minlashi;

shartnoma muddati tugashi bilan avtotransport vositasini ijara beruvchiga normal holda qaytarib berishi shart.

7. Ekipaj bilan ijaraga berilgan avtotransport vositasi, uning mexanizmlari, qurilmalari, jihozlari va shu kabilar bilan uchinchi shaxslarga etkazilgan zarar uchun javobgarlik O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga muvofiq ijaraga beruvchi zimmasida bo'ladi. ijaraga beruvchi zarar ijaraga oluvchining aybi bilan etkazilganligini isbotlasa, uchinchi shaxslarga to'langan pul summasini qoplashni ijaraga oluvchidan regress tartibda talab qilishga haqli.

8. Ijaraga oluvchi ijaraga olingen avtotransport vositasini ijaraga beruvchining roziligi bilan qo'shimcha ijaraga berishga haqli.

9. Shartnomani bekor qilish yoki unga o'zgartirishlar kiritish taraflarning kelishuviga asosan notarial tartibda amalga oshiriladi, nizo kelib chiqqan taqdirda sud tartibida hal qilinadi.

Shartnomani bekor qilish haqida taraflardan har biri boshqa tarafni bir oy oldin yozma ravishda ogohlantiradi.

10. Mazkur shartnomasi imzolangunga qadar ijaraga berilayotgan avtotransport vositasi boshqa shaxsga o'tkazilmagan, garovga qo'yilmagan, nizoda yo'q va ijaraga berilishi taqiqlanmagan.

11. Mazkur shartnomani rasmiylashtirish uchun sarflanadigan xarajatlarni ijaraga oluvchi to'ladi.

12. Biz – taraflarga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 113–128, 564–572, 985–1004-moddalari va Soliq kodeksining 80, 176, 191, 192-moddalari mazmuni notarius tomonidan tushuntirildi va tushunarli.

13. Ushbu shartnomasi IIVning tegishli DYHXX organlarida 10 kun ichida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi shart. Mazkur talabni bajarmaslik qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortishga olib keladi.

14. Biz – taraflar shartnomaning matnnini to'liq o'qib chiqdik, uning mazmuni, mohiyati, huquqiy oqibatlari bizga notarius tomonidan tushuntirildi va tushunarli, uning mazmuni bizning asl xohish-istiklarimizga mos keladi.

15. Ushbu shartnomasi taraflar tomonidan uch nusxada tuzilib, imzolandi, ulardan gerbli (maxsus) blankada tuzilgan nusxasi ijaraga oluvchiga DYHXX organlarida 10 kun muddat ichida ro'yxatdan o'tkazish uchun, ikkinchi nusxasi ijaraga beruvchiga berildi, uchinchi nusxasi Zangiota tuman 1-sod davlat notarial idorasida saqlanadi.

**IMZOLAR:**

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

ASH № 134409 TS

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

**Meros mol-mulkni taqsimlash shartnomasi**

\_\_\_\_\_  
*(notarial okrug nomi)*

\_\_\_\_\_  
*(shartnomalar tasdiqlangan sana, so'z bilan)*

\_\_\_\_\_  
*(shartnomalar rasmiylashtirilgan DNI to'liq nomi va manzili, notariusning F.I.O.)*

Biz – Toshkent viloyati Zangiota tumani, Qizg‘aldoq QFY, Navro‘z ko‘chasi, 18-uyda propiskada turuvchilar – 1945 yilda tug‘ilgan Rasulov Sanjar Murodovich (pasport AA 14578520, Zangiota tuman IIB tomonidan 24.09.2009 yilda berilgan), 1946 yilda tug‘ilgan Rasulova Dilyara Hakimovna (pasport AA 1467924, Zangiota tuman IIB tomonidan 13.05.2010 yilda berilgan) va Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Qizg‘aldoq QFY, Farz ko‘chasi, 28-uyda propiskada turuvchilar – 1977 yilda tug‘ilgan Murodova Gavharxon Azizjanovna (pasport AA 15654421, Zangiota tuman IIB tomonidan 12.02.2013 yilda berilgan), voyaga etmagan bolalari – 01.06.2002 yilda tug‘ilgan Murodova Feruzaxon Mahmud qizi, 02.10.2011 yilda tug‘ilgan Murodova Fazilatxon Mahmud qizi nomlaridan harakat qiluvchi Murodova Gavharxon Azizjanovna va Zangiota tumani Xalq ta’limi muassasalari faoliyatini metodik ta’minlash va tashkil etish bo‘limi tomonidan 16.10.2013

yilda berilgan 70-sonli ishonchnomaga asosan Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Qizg‘aldoq QFY, SHalola ko‘chasi 15-uyda propiskada turuvchi vakil – 1981 yilda tug‘ilgan Otabekova Lola Irgashovna (pasport AA 14519542, Zangiota tuman IIB tomonidan berilgan) hamda Murodova Gavharxon Azizjanovna va vakil Otabekova Lola Irgashovnaning roziliklari bilan harakat qiluvchi – 1999 yilda tug‘ilgan Murodov Bahodir Mahmud o‘g‘li ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdik:

1. Bizlar – Rasulov Sanjar Murodovich, Rasulova Dilyara Hakimovna, Murodova Gavharxon Azizjanovna, Murodov Bahodir Mahmud o‘g‘li, Murodova Feruzaxon Mahmud qizi, Murodova Fazilatxon Mahmud qizi Zangiota tuman 1-son davlat notarial idorasi tomonidan 01.10.2013 yilda R-1-209 reestr raqami bilan rasmiylashtirilgan Mulkka egalik huquqi haqida guvohnoma va R-1-210 reestr raqami bilan rasmiylashtirilgan Qonun bo‘yicha merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnomaga asosan, 10.05.2011 yilda vafot etgan marhum Rasulov Mahmud Sanjarovichning meros mulklari:

– UAZ 452 D rusumli, 1983 yilda ishlab chiqarilgan, dvigatel – raqamsiz, kuzov raqami – bortovoy, shassi – raqamsiz, rangi – ko‘k, davlat raqami belgisi 10 W 104 VA bo‘lgan avtovtransport vositasi;

– GBA SNG GAZ 2410 rusumli, 1987 yilda ishlab chiqarilgan, dvigatel raqami – 147824, kuzov raqami – 1169495, shassi raqami – XTH2410116034, rangi – kulrang, davlat raqami belgisi 10F082SA bo‘lgan avtovtransport vositasi;

– Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Qahramon ko‘chasi, 2-uyda joylashgan, Zangiota tuman hokimligi huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish inspeksiyasida 28.10.2009 yilda 2014-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan Yangi chuvalachi mas’uliyati cheklangan jamiyatni ustav fondidagi Rasulov Mahmud Sanjarovichga tegishli bo‘lgan – 16,6 foizli, qiymati 15.620.000 (o‘n besh million olti yuz yigirma ming) so‘mni tashkil qiluvchi ulush;

– Toshkent shahar, Yunusobod tumani, K. Maxsumova ko‘chasi, 41-uy, 5-xonadonda joylashgan, Toshkent shahar YUNUSOBOD tumani hokimligi huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish inspeksiyasida 14.01.2010 yilda 106255-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan, marhum Rasulov Mahmud Sanjarovichga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan OOO BUSINESS AUDIT TODAY auditorlik firmasi tomonidan 23.09.2013 yilda berilgan auditorlik xulosasiga hamda 01.09.2013 yildagi buxgalterlik balansiga asosan – umumiy balans qiymati 22.228.623 so‘m 2 tiyin (yigirma ikki million ikki yuz yigirma sakkiz ming olti yuz yigirma uch so‘m ikki tiyin)ni tashkil qilgan Siymo loyiha mas‘uliyati cheklangan jamiyatining hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat Tijorat Xalq banki Toshkent shahar filialida 31605700100010-sonli hisob raqamida saqlanuvchi jamg‘arib boriladigan pensiya pullarining merosxo‘rlari hisoblanamiz.

2. Biz – merosxo‘rlar o‘zaro kelishuvimizga, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1150-moddasiga va Zangiota tuman Xalq ta’limi muassasalari faoliyatini metodik ta’minalash va tashkil etish bo‘limi tomonidan 16.10.2013 yilda berilgan 69-sonli rozilik xatiga asosan meros mol-mulklarni quyidagicha taqsimlaymiz:

men – Rasulov Sanjar Murodovichga – doimiy egalik qilish uchun UAZ 452 D rusumli, 1983 yilda ishlab chiqarilgan, dvigatel – raqamsiz, kuzov raqami – bortovoy, shassi – raqamsiz, rangi – ko‘k, davlat raqami belgisi 10 W 104 VA bo‘lgan avtotransport vositasi;

men – Rasulova Dilyara Hakimovnaga – doimiy egalik qilish uchun GBA SNG GAZ2410 rusumli, 1987 yilda ishlab chiqarilgan, dvigatel raqami – 147824, kuzov raqami – 1169495, shassi raqami – XTH2410116034, rangi – kulrang (serobelisy), davlat raqami belgisi 10F082SA bo‘lgan avtotransport vositasi;

biz – Murodova Gavharxon Azizjanovna, Murodov Bahodir Mahmud o‘g‘li, Murodova Feruzaxon Mahmud qizi, Murodova Fazilatxon Mahmud qizi – teng ulushlarda doimiy egalik qilish uchun Toshkent viloyati, Zangiota

tumani, Qahramon ko‘chasi, 2-uyda joylashgan, Zangiota tuman hokimligi huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish inspeksiyasida 28.10.2009 yilda 2014-son bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan Yangi chuvalachi mas’uliyati cheklangan jamiyatni ustav fondidagi Rasulov Mahmud Sanjarovichga tegishli bo‘lgan – 16,6 foizli, qiymati 15.620.000 (o‘n besh million olti yuz yigirma ming) so‘mni tashkil qiluvchi ulush hamda Toshkent shahar, YUnusobod tumani, K. Maxsumova ko‘chasi, 41-uy, 5-xonadonda joylashgan, Toshkent shahar YUnusobod tumani hokimligi huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish inspeksiyasida 14.01.2010 yilda 106255-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan, marhum Rasulov Mahmud Sanjarovichga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan Business audit today auditorlik firmasi tomonidan 23.09.2013 yilda berilgan auditorlik xulosasiga hamda 01.09.2013 yildagi buxgalterlik balansiga asosan – umumiy balans qiymati 22.228.623 so‘m 2 tiyin (yigirma ikki million ikki yuz yigirma sakkiz ming olti yuz yigirma uch so‘m ikki tiyin)ni tashkil qilgan siymo loyiha mas’uliyati cheklangan jamiyatning hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat Tijorat Xalq banki Toshkent shahar filialida 31605700100010-sonli hisob raqamida saqlanuvchi jamg‘arib boriladigan pensiya pullari o‘tadi.

3. Mazkur shartnomani rasmiylashtirish uchun sarflanadigan xarajatlarni Murodova Gavharxon Azizjanovna to‘ladi.

4. Ushbu shartnomma imzolangunga qadar yuqorida ko‘rsatilgan mulklar boshqa shaxsga o‘tkazilmagan, garovga qo‘yilmagan, nizoda yo‘q va merosxo‘rlar o‘rtasida taqsimlanishi taqiqilanmagan.

5. Biz – merosxo‘rlar taqsimlangan mol-mulklar o‘rtasidagi tafovutlar yuzasidan bir-birimizga hech qanday moddiy va mulkiy e’tiroz bildirmaymiz.

6. Har bir merosxo‘r o‘zining mulki uchun qonun hujjatlarida belgilangan soliq va boshqa to‘lovlarni to‘lashni o‘z zimmasiga oladi.

7. Biz – taraflar shartnomaning matnini to‘liq o‘qib chiqdik, uning mazmuni, mohiyati, huquqiy oqibatlari bizga notarius tomonidan tushuntirildi va tushunarli, uning mazmuni bizning asl xohish-istiklarimizga mos keladi.

8. Ushbu shartnoma taraflar tomonidan olti nusxada tuzilib, imzolandi, ulardan bir nusxasi Zangiota tuman 1-son davlat notarial idorasida saqlanadi, bir nusxasi Xalq ta’limi muassasalari faoliyatini metodik ta’milash va tashkil etish bo‘limiga ma’lumot uchun yuborildi va qolgan nusxalari taraflarga belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o’tkazish uchun berildi.

**IMZOLAR:**

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

3. \_\_\_\_\_

4. Voyaga etmagan bolalarim F.M.Murodova va F.M.Murodovalar o‘rniga imzo qo‘ydim:

5. Onam G.A.Murodova ishtirokida va uning roziligi bilan imzo qo‘ydim:

---

**ROZIMAN:**

1. ONA

---

2. VAKIL

---

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

## **Alimentni pul mablag'lar shaklida to'lash to'g'risidagi kelishuv**

---

*(notarial okrug nomi)*

---

*(kelishuv tasdiqlangan sana, so'z bilan)*

---

*(shartnoma rasmiylashtirilgan DNI to'liq nomi va manzili, notariusning F.I.O.)*

Biz – Toshkent viloyati, O'rtachirchiq tumani, Ulug'bek ko'chasi, 15-uyda propiskada turuvchi – 1972 yilda tug'ilgan Olimov Sattor Olimovich (pasport AA 15478459, O'rtachirchiq tuman IIB tomonidan 02.04.2013 yilda berilgan), bundan buyon matnda aliment to'lovchi deb yuritiluvchi bir tomondan va Toshkent shahar, Bektemir tumani, Orol ko'chasi, 9-uyda propiskada turuvchi – 1976 yilda tug'ilgan Olimova Mavlyuda Nazarovna bundan buyon matnda aliment oluvchi deb yuritiluvchi ikkinchi tomondan voyaga etmagan bolalarimiz – 1999 yil 18 martda tug'ilgan Olimov Olim Sattorovich hamda 2000 yil 2 yanvarda tug'ilgan Olimova Sevara Sattorovnaning ta'minoti uchun aliment to'lash usullari va tartibini o'zaro kelishgan holda ushbu kelishuvni quyidagilar haqida tuzdik:

1. Biz – aliment to'lovchi va aliment oluvchi voyaga etmagan bolalarimizga mazkur kelishuvga binoan to'lanadigan aliment miqdori aliment sud tartibida undirilganda bolalar olishi mumkin bo'lgan miqdordan kam bo'lmasligini e'tiborga olib, bolalarimiz ta'minoti ular voyaga etgan kunigacha aliment to'lovchi tomonidan to'lanadigan aliment miqdorini bir yo'la pul mablag'i shaklida to'lanadigan qat'iy summada, ya'ni 20.000.000 (yigirma million) so'm qilib belgiladik.

2. Ushbu pulni men – aliment to'lovchi mazkur kelishuvni imzolash paytida aliment oluvchiga topshirdim,

men – aliment oluvchi shu pul mablag‘ini to‘liq miqdorda qabul qilib oldim.

3. Mazkur kelishuv taraflarning o‘zaro roziligi bilan istalgan vaqtida o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv qanday shaklda tuzilgan bo‘lsa uni o‘zgartirish yoki bekor qilish shunday shaklda amalga oshiriladi.

4. Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuvning bajarilishini bir taraflama rad qilishga yoki uning shartlarini bir taraflama o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

5. Taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvolida jiddiy o‘zgarishlar yuz berganda hamda aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuvni o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risida ular o‘zaro kelisha olmaganda, manfaatdor taraf kelishuvni o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risida da‘vo bilan sudga murojaat qilishga haqlidi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 99, 130-134, 143, 144 va 147-moddalarining mazmuni biz – taraflarga notarius tomonidan tushuntirildi va tushunarli.

7. Mazkur kelishuvni rasmiylashtirish uchun sarflanadigan xarajatlarni aliment to‘lovchi to‘ladi.

8. Biz – taraflar kelishuv matnini to‘liq o‘qib chiqdik, uning mazmuni, mohiyati, huquqiy oqibatlari bizga notarius tomonidan tushuntirildi va tushunarli, uning mazmuni bizning asl xohish-istiklarimizga mos keladi.

9. Ushbu kelishuv taraflar tomonidan uch nusxada tuzilib, imzolandi, ulardan bir nusxasi O‘rtachirchiq tuman 1-son davlat notarial idorasida saqlanadi, qolgan nusxalari taraflarga berildi.

**IMZOLAR:**

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

**Nikoh shartnomasi**

*(notarial okrug nomi)*

*(shartnomasi tasdiqlangan sana, so'z bilan)*

*(shartnomasi rasmiylashtirilgan DNI to'liq nomi va manzili, notariusning F.I.O.)*

Biz – Toshkent shahar, Yashnobod tumani, M. Uyg'ur ko'chasi, 5-uyda propiskada turuvchi – 1985 yilda tug'ilgan Isroilov Hamid Galimovich (pasport AA 3465847, Yashnobod tuman IIB tomonidan 11.11.2014 yilda berilgan) bir tarafdan va Toshkent shahar, Yashnobod tumani, M. Uyg'ur ko'chasi, 5-uyda propiskada turuvchi – 1990 yilda tug'ilgan Isroilova Alfiya Talgatovna (pasport AA 3465847, Yashnobod tuman IIB tomonidan 11.11.2014 yilda berilgan) er-xotinning nikohda bo'lgan davrida va nikohdan ajratilgan taqdirda mulkiy huquq hamda majburiyatlarimizni belgilash maqsadida mazkur nikoh shartnomasini quyidagilar haqida tuzdik:

1. Biz – nikohimiz qayd qilingandan so'ng birligida yashash davrimizda oilada teng huquqlardan foydalanib, teng majburiyatlarga ega bo'lamiz.

2. Er va xotinning nikohga qadar o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulki, shuningdek ulardan har birining nikoh davomida hadya va meros tariqasida yoki boshqa bepul bitimlar asosida olgan mol-mulki ulardan har birining

shaxsiy mulki hisoblanadi va ularning bo‘linishiga yo‘l qo‘ymaydi.

3. Qimmatbaho buyumlar, zebu ziynatlar va boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari (kiyim-bosh, poyabzal va boshqa shu kabilar nikoh davomida er va xotinning umumiyligi hisobiga olingan bo‘lsa ham) ulardan foydalanib kelgan er va xotinning xususiy mulki hisoblanadi va nikohdan ajralganda bo‘linmaydi.

4. Nikoh davomida biz har birimizning mehnat faoliyatimizdan, tadbirdorlik faoliyatimizdan va intellektual faoliyat natijalarimizdan orttirgan daromadlarimiz, pensiya, nafaqa, shuningdek maxsus maqsadlarga mo‘ljallangan boshqa to‘lovlari, umumiyligi daromadlarimiz hisobiga olingan barcha ko‘char va ko‘chmas mol-mulklar, pul mablag‘lari kimning nomidan yoki er va xotinning qaysi biri tomonidan kiritilgan bo‘lishidan qat‘i nazar, bunday ko‘char va ko‘chmas mol-mulklar qaysi birimizning nomimizga rasmiylashtirilgan bo‘lsa, shu er yoki xotinning shaxsiy mol-mulk deb hisoblanadi va uni tasarruf etish bilan bog‘liq bitim tuzilganda, bu harakat boshqasining roziliginisiz amalga oshiriladi va nikohdan ajralish paytida bo‘linmaydi.

5. Er yoki xotindan biri uy-ro‘zg‘or ishlarini yuritish, bolalarni parvarish qilish bilan band bo‘lgan yoki boshqa uzrli sabablarga ko‘ra mustaqil ish haqi va boshqa daromadga ega bo‘lmagan taqdirda ish haqi va boshqa daromadga ega bo‘lgan taraf nikohdan ajralish vaqtida uni turar joy va moddiy ta’minot bilan ta’minlaydi.

6. Shaxsiy mulkka ega bo‘lgan bir taraf ikkinchi tarafning roziliginisiz o‘ziga tegishli mol-mulkka egalikni o‘z ixtiyoriga binoan amalga oshiradi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Bunda, shaxsiy mulkka ega bo‘lgan er yoki xotin ularning biriga mazkur mol-mulkdan foydalanish huquqini beradi, agar bu mol-mulk turar-joy bo‘lsa, unda yashash va propiskadan o‘tish huquqini beradi.

7. Nikohdan ajralish hollarida mulk egasi bo‘lmagan er yoki xotinning uy-joydan foydalanish huquqi tugatilib, ushbu taraf nikohdan ajralgan kundan boshlab uy-joydan va turar-joy propiskasidan chiqib ketishga majbur.

8. Bolalarimiz ehtiyojini qondirish uchun olingan buyumlar (kiyim-bosh, poyabzal, mактаб va sport jihozlari, musiqa asboblari, bolalar kutubxonasi va boshqalar), ularning nomiga qo‘yilgan pul jamg‘armalari, nomiga sotib olingan ko‘char va ko‘chmas mol-mulklar ularning shaxsiy mulki deb hisoblanadi hamda nikohdan ajralish va umumiyl mol-mulkni bo‘lish paytida bolalarning mol-mulkni hisobga olinmaydi.

9. Nikoh shartnomasi er-xotinning kelishuvi bilan istalgan vaqtda o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Nikoh shartnomasi qanday shaklda tuzilgan bo‘lsa uning o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi ham shunday shaklda amalga oshiriladi.

10. Nikoh shartnomasini bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yo‘l qo‘yilmaydi. Nikoh shartnomasi er-xotindan birining talabi bilan O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik hamda Oila kodekslarida belgilangan asoslar va tartibda sud tomonidan o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

11. Mazkur shartnoma nikoh qonuniy qayd etilgan kundan boshlab kuchga kiradi.

12. Nikoh tugatilgan paytdan boshlab nikoh shartnomasining amal qilishi ham tugaydi.

13. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 29–36 moddalari mazmuni notarius tomonidan biz – taraflarga tushuntirildi va tushunarli.

14. Mazkur shartnomani rasmiylashtirish uchun sarflanadigan xarajatlarni Isroilov Hamid Galimovich to‘ladi.

15. Biz – taraflar shartnomaning matnini to‘liq o‘qib chiqdik, uning mazmuni, mohiyati, huquqiy oqibatlari bizga notarius tomonidan tushuntirildi va tushunarli, uning mazmuni bizning asl xohish-istiklarimizga mos keladi.

16. Shartnoma taraflar tomonidan uch nusxada tuzilib, imzolandi, bir nusxasi Yashnobod tuman 1-son davlat notarial idorasida saqlanadi, qolgan nusxalari taraflarga berildi.

**IMZOLAR:**

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

**Kafillik shartnomasi**

\_\_\_\_\_

*(notarial okrug nomi)*

\_\_\_\_\_

*(shartnoma tasdiqlangan sana, so'z bilan)*

\_\_\_\_\_

*(shartnoma rasmiylashtirilgan DNI to'liq nomi va manzili, notariusning F.I.O.)*

Biz – Toshkent shahar, A. Temur ko‘chasi, 5-uyda joylashgan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida 1999 yil 25 mart kuni ro‘yxatdan o‘tgan Aksiyadorlik tijorat banki O‘zsanoatqurilishbank nomidan Respublika boshqaruvining 2014 yil 4 fevraldaggi 25/4-son ishonchnomasiga asosan harakat qiluvchi ATB O‘zsanoatqurilishbankning ATB Yangiyo‘l filiali bundan buyon matnda kredit beruvchi deb yuritiluvchi nomidan uning boshqaruvchisi – Toshkent viloyati, Yangiyo‘l tumani, O‘qituvchilar ko‘chasi, 68-uyda propiskada turuvchi Qahhorov Dilshod Olimjonovich (pasport AA 2456698, Yangiyo‘l tumani IIB tomonidan 01.12.2014 yilda berilgan) bir tarafdan va Toshkent viloyati, Yangiyo‘l tumani, Sohil ko‘chasi, 1-uyda propiskada turuvchi Rahimbaeva Xilola Yuldashevna (pasport AA 1447563, Yangiyo‘l tumani IIB tomonidan 04.08.2010 yilda berilgan) bundan buyon matnda kafil deb yuritiluvchi ikkinchi tarafdan hamda Toshkent viloyati, Yangiyo‘l tumani, Bobur ko‘chasi, 35-uyda propiskada turuvchi Mahmudova Zuhra Umaralievna

(pasport AA 2356614, Yangiyo'l tuman IIB tomonidan 14.07.2009 yilda berilgan) bundan buyon matnda qarzdor deb yuritiluvchi uchinchi tarafdan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdik:

### **1. Shartnoma predmeti**

1.1. Kafil ushbu shartnomaga muvofiq kredit beruvchi va qarzdor o'rtasida 2014 yil 28 sentyabrda tuzilgan 361-sonli kredit shartnomasi bo'yicha qarzdorning barcha majburiyatlari, ya'ni hozirda mayjud bo'lgan va keyinchalik kelajakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan majburiyatlarining bajarilishi yuzasidan kredit beruvchi oldida chaqirib olinmaydigan tarzda va so'zsiz javob berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

### **2. Kafillik bilan ta'minlangan majburiyatlar**

2.1. Ushbu shartnoma bo'yicha kafillik bilan ta'minlangan majburiyatlar asosi shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan kredit shartnomasi hisoblanadi, bunda:

kreditning umumiy miqdori – 5.100.000 (besh million bir yuz ming) so'm;

kreditning qaytarilish muddati – \_\_\_\_ 20 \_\_\_\_ yil;

kreditdan foydalanganlik uchun – 16% (foiz).

2.2. kafil ushbu shartnomaga asosan kredit beruvchi oldida foizlar to'lash, qarzni undirib olish bo'yicha sud xaratjatlarini va qarzdor Tomonidan majburiyatlar bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi tufayli neustoyka va kreditor ko'rgan boshqa zararlarni to'lash yuzasidan qarzdor bilan teng javob beradi. kafil va qarzdorning javobgarligi solidar hisoblanadi.

### **3. Kafilning majburiyatları**

3.1. Kafillik bilan ta'minlangan majburiyatlar qarzdor tomonidan bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda va kredit beruvchining birinchi talabiga asosan, kafil kredit to'lovlарini, kredit bo'yicha hisoblangan foizlarni va boshqa to'lovlarni kredit shartnomasidagi

qarzdorning majburiyatlari bilan belgilangan muddat va miqdorda to‘lash majburiyatini oladi.

3.2. kredit beruvchining talabiga ko‘ra kafil yilning har choragining birinchi oyida ish joyidan daromadi to‘g‘risidagi ma‘lumotnomani taqdim etish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

3.3. Agar qarzdor majburiyatlarini bajarish to‘g‘risida talab qo‘yilgandan boshlab, 3 (uch) bank ish kunida kredit beruvchining bu talabini bajarmasa, kafil:

a) kredit shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarni bajarish haqidagi talab qarzdor tomonidan bajarilmagan taqdirda KAFIL kredit shartnomasi bo‘yicha talablarni qondirish uchun etarli bo‘ladigan summani keyinchalik kredit beruvchi ko‘rsatgan hisob raqamiga o‘tkazish majburiyatini oladi;

b) kafil o‘zining hisob raqami bo‘lgan bankka kredit beruvchining talabiga binoan hisob raqamidagi pul mablag‘lari harakati haqida ma‘lumot berish huquqini beradi;

v) kafil hisob raqami mavjud bo‘lgan bankka kredit beruvchining birinchi talabiga asosan o‘zining roziligesiz kredit beruvchi talab qilgan valyutada o‘zining hisob raqamlarida mavjud bo‘lgan mablag‘larni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘chirish to‘g‘risida farmoyish beradi.

3.4. Kafil mazkur shartnoma amalda bo‘lgan davrda kredit beruvchining yozma roziligesiz boshqa banklarda hisob raqam ochmaslik majburiyatini oladi.

#### **4. Kreditorning majburiyatları**

4.1. Qarzdorning kredit beruvchi oldidagi majburiyatlarini kafil bajarganda, kredit beruvchi qarzdorga bo‘lgan talablarni tasdiqlovchi hamma hujjatlarni hamda ushbu talablarni ta’minlaydigan huquqni topshirish majburiyatini oladi.

#### **5. Shartnomani bajarish tartibi**

5.1. Kredit shartnomasi bo‘yicha majburiyatlar qarz dor tomonidan bajarilmagan taqdirda kredit beruvchi kredit shartnomasi bo‘yicha o‘zining talablarini qanoatlantirish uchun zarur bo‘lgan tegishli pul mablag‘larini kafilning hisob raqamidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda undirib oladi.

5.2. Kredit shartnomasi bo‘yicha qarzdorning majburiyatlarini bajargan kafilga kredit beruvchining ushbu majburiyat bo‘yicha huquqlar hamda garovga oluvchi sifatida kredit beruvchiga tegishli bo‘lgan huquqlar kafil tomonidan kredit beruvchining talabini qancha hajmda qanoatlantirilgan bo‘lsa, shuncha hajmda o‘tadi.

5.3. Mazkur shartnomada belgilangan majburiyatlarni bajarmaganligi uchun kafil tomonidan kredit beruvchiga kechiktirilgan to‘loving har bir kuni uchun kechiktirilgan to‘loving 0,1 foizi miqdorida penya to‘laydi.

Penya to‘lanishi Kafilning mazkur shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishidan ozod etmaydi.

#### **6. Qo‘srimcha shartlar**

6.1. Mazkur shartnomaga qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritish taraflarning roziligi bilan qo‘srimcha bitim tuzish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Taraflarning kelishuvini bilan hal etilmagan barcha nizolar sud orqali hal qilinadi.

6.2. Mazkur shartnoma taraflar imzolaganidan so‘ng kuchga kiradi va taraflar majburiyatlarini bajargunga qadar amal qiladi.

6.3. Shartnomani rasmiylashtirish uchun sarflanadigan xarajatlarni qarzdor to‘ladi.

6.4 Biz – taraflar shartnomaning matnini to‘liq o‘qib chiqdik, uning mazmuni, mohiyati, huquqiy oqibatlari bizga notarius tomonidan tushuntirildi va tushunarli, uning mazmuni bizning asl xohish-istiklarimizga mos keladi.

6.5. Ushbu shartnoma taraflar tomonidan to‘rt nusxada tuzilib, imzolandi, ulardan bir nusxasi Yangiyo‘l tuman 2-son davlat notarial idorasida saqlanadi, qolgan nusxalari taraflarga berildi.

**IMZOLAR:**

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

3. \_\_\_\_\_

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

**Ipoteka shartnomasi**

\_\_\_\_\_  
*(notarial okrug nomi)*

\_\_\_\_\_  
*(shartnoma tasdiqlangan sana, so‘z bilan)*

\_\_\_\_\_  
*(shartnoma rasmiylashtirilgan DNI to‘liq nomi va manzili, notariusning F.I.O.)*

Biz – Toshkent shahar, Yunusobod tumani, A.Qodiriy ko‘chasi, 2-uyda joylashgan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida 2013 yil 8 iyul kuni 23-son bilan ro‘yxatga olingan Buyuk ipak yo‘li Aksiyadorlik investitsiya tijorat banki nomidan Buyuk ipak yo‘li AITB tomonidan 2014 yil 2 yanvar kuni berilgan 16/2-sonli ishonchnomaga asosan harakat qiluvchi Buyuk ipak yo‘li AITB Samarqand tuman filialining korporativ kreditlash bo‘limi bosh

mutaxassis – Samarqand viloyati, Samarqand shahar, M.Riyoziy ko‘chasi, 18-uy, 39-xonadonda yashovchi Salieva Gulbadan Mirxaevna (pasport AA 2058659, 04.10.2013 yilda Samarqand shahar IIB tomonidan berilgan) bundan buyon matnda ipotekaga oluvchi deb yuritiluvchi bir tarafdan, Samarqand viloyati, Samarqand tumani, Iskandar qishlog‘ida joylashgan mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi OSBORN TEXTILE xorijiy korxonasi (STIR 206939506) nomidan Samarqand viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 13.10.2011 yilda 129-son bilan ro‘yxatga olingan ustav va xorijiy korxona tomonidan 24.01.2014 yilda berilgan 74сонли ishonchnomaga asosan harakat qiluvchi – Samarqand viloyati, Samarqand shahar, N.Norimonov ko‘chasi, 15-uy, 29-xonadonda yashovchi, xorijiy korxona direktor o‘rinnbosari – Tolipov Bahrom Samadovich (pasport AA 0621355, Samarqand shahar IIB tomonidan 04.07.2012 yilda berilgan) bundan buyon matnda ipotekaga qo‘yuvchi deb yuritiluvchi ikkinchi tarafdan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdik:

1. Ipotekaga oluvchi 2013 yil 27 dekabrda tuzilgan bank krediti va bank kafolatlari taqdim etish to‘g‘risidagi bosh kelishuvga asosan ipotekaga qo‘yuvchiga aylanma mablag‘larni to‘ldirish, xom ashyo va qurilmalar sotib olish, bojxona, soliq va boshqa to‘lovlarni to‘lash, oylik maoshlarni to‘lab berish va boshqa xarajatlar uchun 36 (o‘ttiz olti) oy muddatga, ya’ni \_\_\_\_\_ 20 \_\_\_\_\_ yilgacha 6.000.000 (olti million) AQSH dollarigacha bo‘lgan miqdorda kredit va bank kafolatlari taqdim etadi.

2. Ipotekaga oluvchiga kredit ta’minoti sifatida ipotekaga qo‘yuvchi o‘ziga tegishli bo‘lgan Samarqand viloyati, Samarqand tumani, Iskandar qishloq fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan er maydoni 11,0197 gettardan iborat korxona bino va inshootlarini garovga taqdim qiladi.

3. Garovga qo‘yilgan korxona bino va inshootlari quyidagilardan iborat:

umumiyl maydoni 22159,3 (yigirma ikki ming bir yuz ellik to‘qqiz butun o‘ndan uch) kv.m.ni tashkil etib – 0001-literdag 3 qavatli ma’muriy bino (etmish bir xonali) –

1286,49 kv.m., 0003-literdagি 3 qavatli maishiy bino (oltmish besh xonali) – 2 123,42 kv.m., 0005-literdagи 2 qavatlı sex binosi (o‘ttiz xonali) – 6948,83 kv.m., 0006-literdagи TP (besh xonali) – 160,24 kv.m., 0007-literdagи sex binosi (bir xonali) – 371,64 kv.m., 0008-literdagи 2-sonli sovutgich binosi (o‘n etti xonali) – 249,56 kv.m., 0009-literdagи sex binosi (ikki xonali) – 1408,42 kv.m., 0011-literdagи TP (uch xonali) – 113,63 kv.m., 0013-literdagи 4-sonli sovutgich binosi (sakkiz xonali) – 182,21 kv.m., 0015-literdagи 1-sonli sovutgich binosi (besh xonali) – 161,02 kv.m., 0016-literdagи generator binosi (ikki xonali) – 200,1 kv.m., 0017-literdagи qozonxona binosi (uch xonali) – 302,59 kv.m., 0018-literdagи suv tortgich binosi, 0023-literdagи omborxona, 0024-literdagи yong‘inga qarshi binosi (etti xonali) – 103,22 kv.m., 0026-literdagи suv tortgich binosi (bir xonali) – 21,15 kv.m., 0030-literdagи gaz taqsimlash binosi (bir xonali) – 3,8 kv.m., 0031-literdagи sarmoya omborxonasi (o‘n to‘rt xonali) – 1087,69 kv.m., 0041-literdagи tozalash binosi, 0042-literdagи 3-sonli sovutgich binosi (o‘n olti xonali) – 202,75 kv.m.;

korxona bino va inshootlarining inventar bahosi 7.646.152.079 (etti milliard olti yuz qirq olti million bir yuz ellik ikki ming etmish to‘qqiz) so‘mni tashkil etib, ushbu holatlар Samarqand tuman Yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastr davlat korxonasi tomonidan 2014 yil 17 yanvar kuni berilgan 73-sonli ma’lumotnomaga bilan tasdiqlanadi.

4. Garovga qo‘yilayotgan fabrika bino va inshootlari ipotekaga qo‘yuvchiga Samarqand tuman hokimining 23.09.2010 yildagi 1170-sonli qaroriga asosan tegishli bo‘lib, qaror Samarqand tuman Yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonasida 21.12.2010 yilda 4-son kadastr kitobiga 265-raqam bilan 265-varag‘iga yozilib, 11-03-01-01-02-0131 kadastr raqami bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

5. Garovga qo‘yilgan mulk taraflar tomonidan 2013 yil 27 dekabr kuni tuzilgan baholash dalolatnomasiga asosan 7.345.669.500 (etti milliard uch yuz qirq besh million olti yuz oltmishto‘qqiz ming besh yuz) so‘mga baholandи,

bunda mazkur mablag‘ shartnomaga rasmiylashtirilayotgan kundagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha 3.343.089 (uch million uch yuz qirq uch ming sakson to‘qqiz) AQSH dollari ekvivalentini tashkil etadi. Mazkur pul mablag‘i kreditga qo‘yilgan mulk kredit ta‘minotini qisman qoplaydi, qolgan qismi tomonlar o‘rtasida o‘zaro tasdiqlangan asosiy vositalar garov shartnomasi bilan ta‘minlanadi.

6. 2013 yil 27 dekabr kuni tuzilgan bosh kelishuvga asosan ipotekaga qo‘yuvchi o‘z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda garov mol-mulk hisobidan ipotekaga Oluvchining talablarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri va so‘zsiz bajarish majburiyatini to‘liq tan oladi va qabul qiladi.

7. Garov narsasi ipotekaga qo‘yuvchining ixtiyorida foydalanish huquqi bilan, ammo tasarruf etish huquqisiz qoladi.

Ipotekaga qo‘yuvchi garov narsasini ipotekaga oluvchining ruxsati bilan tasarruf etishi mumkin.

8. Ipotekaga oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

garov narsasining hujjatlar bo‘yicha amalda mavjudligini, miqdori, holati va saqlanish sharoitini tekshirish;

garovga qo‘yilgan mol-mulk yo‘qolishi yoki shikastlanishi xavfidan uning to‘la qiymati bo‘yicha ipotekaga qo‘yuvchi hisobidan sug‘urtalanishini talab qilish;

garovga qo‘yilgan mol-mulkning saqlanishini ta‘minlash uchun, shu jumladan uchinchi shaxslarning tajovuzlari va talablaridan himoya qilish uchun zarur choralarни ko‘rishni talab qilish;

garovga qo‘yilgan mol-mulk yo‘qolishi yoki uning shikastlanishi xavfi paydo bo‘lganligi to‘g‘risida ikkinchi tomonni darhol ogohlantirishni talab qilish;

garov bilan ta‘minlangan, majburiyat bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda majburiyatning oldindan bajarilishini talab qilish va undiruvni garov narsasiga qaratish;

garovga qo‘yilgan mol-mulk shikastlangan yoki yo‘qolgan taqdirda u kimning foydasiga sug‘urta

qilinganligidan qat'i nazar, sug'urta tovoni hisobidan undirib olish;

kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan taqdirda ipotekaga oluvchi qonun hujjatlariga muvofiq, majburiyatning ijrosini garov mulkiga qaratish.

9. Ipotekaga oluvchi quyidagi majburiatlarga ega:

ipotekaga qo'yuvchi garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajargan taqdirda ipotekaga oluvchi garov to'g'risidagi shartnomani ro'yxatdan o'tkazishini amalga oshiruvchi organga kredit ta'minotining to'liq qoplanganligi haqida ma'lumotnoma berish.

10. Ipotekaga qo'yuvchi quyidagi huquqlarga ega:

garov bilan ta'minlangan majburiyatni muddatidan oldin bajarish;

ipotekaga oluvchining roziligi bilan garov narsasini almashtirish (uni boshqa teng qiymatli mol-mulkka yoki ipotekaga oluvchining talablarini tez qanoatlantirish xususiyatlariga ega ta'minot turlariga va boshqa shu kabilarga);

bank kafolati, sug'urta shartnomasi yoki boshqa likvid mulkning garoviga almashtirish;

garov mulkidan maqsadga muvofiq foydalanish, shu jumladan undan samara va daromadlar chiqarib olish.

11. Ipotekaga qo'yuvchining majburiyatlari:

undiruvni garovdagagi mol-mulkka qaratish uchun asoslar vujudga kelganda, ipotekaga oluvchining talablarini qanoatlantirish;

garov mulkining yo'qolishi yoki shikastlanishi xavfidan asosiy majburiyatlarni iじro qilish muddati davrida ipotekaga oluvchi foydasiga sug'urta qildirish va sug'urta polisini unga taqdim qilish;

Garovga qo'yilgan mol-mulkning bekor bo'lishi yoki uning qiymati kamayishiga sabab bo'luvchi xatti-harakatlar qilmaslik;

ipotekaga oluvchiga garovga qo'yilgan mol-mulk bilan sodir bo'lgan o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlarni xabar berish;

ipotekaga oluvchining ruxsatisiz ipotekaga qo'yuvchi kredit shartnomasida belgilangan majburiyatlarni to'liq bajarmagunga qadar garov mulkini tasarruf qilmaslik;

12. Garov mol-mulki ipotekaga oluvchining roziligesiz tasarruf etilishi (qayta garovga qo'yish va ijaraga berish) man etiladi. Uning roziligesiz garov mulki tasarruf etilgan taqdirda ipotekaga qo'yuvchi ipotekaga oluvchiga garov mulki qiymatining foizi miqdorida jarima to'laydi va garov mulkining o'rnni bosuvchi xaridorgir ashyo yoki boshqa garov mulkini taqdim etadi va uni ipotekaga oluvchi foydasiga o'z hisobidan qonuniy rasmiylashtirib beradi.

13. Ipotekaga oluvchiga ipotekaga qo'yuvchi undiruvni garov mulkiga qaratishga to'sqinlik qilsa yoki undiruvni garov mulkiga qaratish to'g'risida o'z hisobidan notarial tasdiqlangan kelishuvni tuzishni kechiktirsa, ipotekaga qo'yuvchi ipotekaga oluvchiga har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan majburiyat summasining 0,5% foizi miqdorida, lekin majburiyat summasining 1% foizidan ortiq bo'lмаган miqdorda jarima to'laydi.

14. Taraflarning shartnomada belgilanmagan javobgarligi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

15. O'zbekiston Respublikasining Ipoteka to'g'risidagi Qonuning 9-moddasiga asosan garovga qo'yilgan mulkning mulkdorlaridan belgilangan tartibda yozma ravishda rozilik olindi (mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi OSBORN TEXTILE xorijiy korxonaning 03.12.2013 yildagi 16-sonli navbatdan tashqari ta'sischilar umumiy yig'ilishi bayonomasi).

16. Garov mol-mulki kafolat Aksiyadorlik jamiyati sug'urta kompaniyasi tomonidan 2014 yil 10 yanvar kuni tuzilgan 02-2014-sonli sug'urta shartnomasi va 13.01.2014 yilda berilgan 0186757-sonli sug'urta polisi asosida

\_\_\_\_\_ 20 yildan \_\_\_\_\_ 20 yilgacha  
sug'urtalangan va bu haqida ipotekaga oluvchi tanishtirildi.

17. Taraflar ushbu shartnoma majburiyatlarini bajarishdan faqat fors-major holatlarda, ya'ni tabiiy ofatlar, zilzila, sel, yong'in holatlari yuz berganda ozod qilinadilar. Taraflarning majburiyatini bajarishdan ozod qilinishi uchun

bu fors-major holatlar majburiyatning bajarilmasligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘sinqinlik qilgan bo‘lishi lozim.

18.Ushbu shartnomaga o‘zgartirish, qo‘srimcha kiritish yoki bekor qilish yozma tartibda taraflarning kelishuviga asosan amalga oshiriladi. Nizo kelib chiqqan taqdirda qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

19.O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 270, 271, 272, 274, 277, 279, 280, 283, 285, 286-moddalari, Garov to‘g‘risidagi Qonunning 26–28-moddalari va Ipoteka to‘g‘risidagi Qonunning 7 va 8-boblari mazmuni biz – taraflarga notarius tomonidan tushuntirildi va tushunarli.

20.Mazkur shartnomada imzolangunga qadar garov mulki – korxona bino va inshootlari boshqa shaxsga o‘tkazilmagan, nizoda yo‘q va ipotekaga olinishi taqiqlanmagan.

O‘zbekiston Respublikasining Notariat to‘g‘risidagi Qonuni 64-moddasiga asosan korxona bino va inshoatlariga nisbatan taqiq qo‘yildi.

21.Ushbu shartnomada qonun hujjatlarda belgilangan tartibda Samarcand tuman Yer tuzish va ko‘chmasa mulk kadastro davlat korxonasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi shart.

22.Ushbu shartnomani rasmiylashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni ipotekaga qo‘yuvchi to‘ladi.

23.Ushbu shartnomani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlarni ipotekaga qo‘yuvchi o‘z zimmasiga oladi.

24.Biz – taraflar shartnomada matnini o‘qib chiqdik, uning mazmun-mohiyati, xuquqiy oqibatlari bizga notarius tomonidan tushuntirildi va tushunarli, uning mazmuni bizning asl xohish-istiklarimizga mos keladi.

25.Ushbu shartnomada taraflar tomonidan uch nusxada tuzilib, imzolandi, ulardan bir nusxasi Samarcand tuman 1-son davlat notarial idorasida saqlanadi, qolgan nusxalari taraflarga berildi.

#### IMZOLAR:

1. Ipotekaga oluvchi \_\_\_\_\_

2. Ipotekaga qo‘yuvchi \_\_\_\_\_

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

## **Garov shartnomasi**

---

*(notarial okrug nomi)*

---

*(shartnomasi tasdiqlangan sana, so'z bilan)*

---

*(shartnomasi rasmiylashtirilgan DNI to'liq nomi va manzili, notariusning F.I.O.)*

Biz – Toshkent shahar, Shahrisabz ko‘chasi, 36-uyda joylashgan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida 1991 yil 29 iyul kuni 1580/17-32-son bilan ro‘yxatga olingan Aksiyadorlik tijorat banki Qishloq qurilish bank nomidan 2012 yil 3 yanvar kuni berilgan 19-26/20-sonli ishonchnoma bo‘yicha harakat qiluvchi ATB Qishloq qurilish BANKning o‘azalkent filiali boshqaruvchisi – Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumani, Ozodbosh qo‘rg‘oni, Furqat ko‘chasi, 39-uyda yashovchi Ishankulov Farhod Aytbaevich (pasport AA 0370988, Guliston tuman IIB tomonidan 08.09.2013 yilda berilgan), bundan buyon matnda garovga oluvchi deb yuritiluvchi bir tarafdan va Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumani, o‘azalkent shahar, A. Temur ko‘chasida joylashgan G‘azalkent maxsus savdo mas’uliyati cheklangan jamiyatni, jamiyat nomidan (STIR 300600320) Bo‘stonliq tumani hokimligi huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish inspeksiysi tomonidan 14.04.2008 yilda 58-son bilan ro‘yxatga olingan ustav va jamiyatning 04.04.2008 yildagi 1-sonli bayonnomasi hamda 04.04.2008 yildagi 1-sonli buyrug‘iga asosan harakat qiluvchi – jamiyat rahbari, Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumani, o‘azalkent shahar, Ibn Sino ko‘chasi, 34-uyda propiskada turuvchi Fattaxov

Yusupjan Nusratullaevich (pasport SV 1709013, Bo'stonliq tuman IIB tomonidan 13.08.2002 yilda berilgan) bundan buyon matnda qarz oluvchi deb yuritiluvchi ikkinchi tarafdan, Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumani, o'azalkent shahar, Ibn Sino ko'chasi, 34-uyda propiskada turuvchi Fattaxov Yusupjan Nusratullaevich (pasport SV 1709013, Bo'stonliq tuman IIB tomonidan 13.08.2002 yilda berilgan) bundan buyon matnda garovga qo'yuvchi-1 deb yuritiluvchi uchinchi tarafdan, Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumani, Xondoyliq qishlog'i, 7-uyda propiskada turuvchi Shosultanov Shamil Maratovich (pasport AA 0793077, Bo'stonliq tuman IIB tomonidan 05.02.2013 yilda berilgan) bundan buyon matnda garovga qo'yuvchi-2 deb yuritiluvchi to'rtinchi tarafdan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdik:

1. Garovga oluvchi 2013 yil 6 martda tuzilgan 10/13-sonli kredit shartnomasiga asosan qarz oluvchiga aylanma mablag'larni to'ldirish, oziq-ovqat mahsulotlari sotib olish uchun 12 (o'n ikki) oy muddatga, ya'ni \_\_\_\_\_ 20 yilgacha, yillik 18 % (o'n sakkiz) foiz miqdorida ustama bilan 37.000.000 (o'ttiz etti million) so'm kredit beradi.

2. Kredit shartnomasi talablarini o'z vaqtida ta'minlash maqsadida garovga qo'yuvchi-1ga Toshkent viloyati IIB YXXB 2-son TRIB tomonidan 11.02.2009 yilda berilgan seriya AAS № 1663414 raqamli transport vositasini qayd etish guvohnomasiga asosan tegishli bo'lgan MATIZ rusumli, 2009 yilda ishlab chiqarilgan, dvigatel raqami 051560, kuzov raqami XWB4A11AD9A214349, shassi – raqamsiz, rangi – kulrang (serebristiy metallik), davlat raqami belgisi 10N898AA bo'lgan va garovga qo'yuvchi-2ga Toshkent viloyati IIB YXXB 2-son TRIB tomonidan 21.11.2012 yilda berilgan seriya AAS № 3995154 raqamli transport vositasini qayd etish guvohnomasiga asosan tegishli bo'lgan DAMAS rusumli, 2012 yilda ishlab chiqarilgan, dvigatel raqami 968075, kuzov raqami XWB7T12YDDA000014, shassi – raqamsiz, rangi – oq

(beliy), davlat raqami belgisi 10V227GA bo‘lgan avtomashinalarni garovga oluvchiga garovga qo‘yadi.

3. Garovga qo‘yilgan mulklarning boshqaruvi garovga qo‘yuvchilarda qoladi va taraflar garovga qo‘yilgan mulkni 06.03.2013 yilda tuzilgan baholash dalolatnomasiga asosan Matiz rusumli avtotransport vositasi 20.500.000 (yigirma million besh yuz ming) so‘m va Damas rusumli avtotransport vositasi 26.000.000 (yigirma olti million) so‘mga baholadilar.

4. O‘zbekiston Respublikasining Garov to‘g‘risidagi Qonuni 7-moddasiga asosan avtotransport vositasini garovga qo‘yishga garovga qo‘yuvchi-1 va garovga qo‘yuvchi-2larning xotin (er)larining rozilik arizasi olindi.

5. Garovga oluvchi asosiy majburiyat bo‘yicha talab muddati boshlangan paytdan boshlab undiruvni garovga qo‘yilgan mulkka qaratish huquqiga ega bo‘ladi, agarda shartnomada yoki qonunlarda imtiyozli muddat belgilanmagan bo‘lsa.

6. Qarz oluvchi garov bilan ta’minlangan majburiyatning bir qismini bajargan taqdirda garovga qo‘yuvchilar garovga qo‘yilgan barcha mol-mulkka bo‘lgan huquqni saqlab qoladi.

7. Qarz oluvchi garov bilan ta’minlangan majburiyatni bajarmagan taqdirda garovga oluvchining talabi garovga qo‘yilgan mol-mulk qiymatidan qondiriladi. qonunda ko‘rsatilgan hollarda garovga qo‘yilgan mulkni undirib olish bo‘yicha murojaat qilish nizosiz tartibda hal qilinadi.

8. Garov mulkini undirish bo‘yicha murojaat qilinganda garovga oluvchining talabi boshqa kreditorlarga nisbatan imtiyozli tarzda qondiriladi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

9. Agar garov narsasini sotishdan tushgan summa garov majburiyatini ta’minalash bo‘yicha garovga oluvchi talab qilgan miqdordan ko‘p bo‘lsa, garovga oluvchi bir oy muddat ichida garovga qo‘yuvchilarga o‘rtadagi farqini to‘lashi shart.

10. Garovga qo‘yuvchilar garov mulkini saqlash uchun javobgardir.

11.Garovga qo'yuvchilar garovga qo'yilgan mulkni garovga oluvchining yozma ravishdagi ruxsatnomasi bo'lgan taqdirdagina qayta garovga qo'yishga yoki tasarruf etishga haqli bo'ladi.

12.Garovga qo'yuvchilar maqsadga muvofiq ravishda talab qilinadigan ahvolda mulkni saqlash va jiddiy zarar etkazilishining oldini olish va uning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslikka majburdirlar.

13.Garov mulklari UZAGROSUG'URTA Davlat sug'urta kompaniyasi tomonidan 06.03.2013 yilda tuzilgan 14-sonli garovga qo'yilayotgan transport vositalarini sug'urta qilish shartnomasi va 07.03.2013 yildagi 0110460 va 0110461-sonli sug'urta polislari asosida \_\_\_\_\_ 20 yildan \_\_\_\_\_ 20 yilgacha sug'urtalangan va bu haqida garovga oluvchi tanishtirildi.

14.Garovga oluvchining qarz oluvchi va garovga qo'yuvchilar bilan ushbu shartnomada ko'rsatilmagan munosabatlari qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

15.Garovga qo'yilayotgan mulklar boshqa shaxsga o'tkazilmagan, nizoda yo'q va garovga qo'yish taqilanganmagan.

O'zbekiston Respublikasining Notariat to'g'risidagi Qonuni 64-moddasiga asosan garovga qo'yilgan avtotransport vositalariga nisbatan taqiq qo'yildi.

16.Ushbu shartnomaga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish taraflar o'rtasida qo'shimcha shartnoma tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi, nizolar kelib chiqqan taqdirda sud tomonidan hal qilinadi.

17.O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 268, 274, 279, 280, 281-moddalari biz – taraflarga notarius tomonidan tushuntirildi va tushunarli.

18.Ushbu shartnoma IIVning tegishli DYHXX organlarida 10 kun ichida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi shart. Mazkur talabni bajarmaslik qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortishga olib keladi.

19.Ushbu shartnomani rasmiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni garovga qo'yuvchi to'ladi.

20.Biz – taraflar shatnoma matnnini o‘qib chiqdik, uning mazmun-mohiyati, huquqiy oqibatlari bizga notarius tomonidan tushuntirildi va tushunarli, uning mazmuni bizning asl xohish-istiklarimizga mos keladi.

21.Ushbu shartnoma taraflar tomonidan ASh № \_\_\_\_\_ TS seriyali gerbli (maxsus) blankada besh nusxada tuzilib imzolandi, ulardan bir nusxasi Bo‘stonliq tuman 1-son davlat notarial idorasida saqlanadi, qolgan nusxalari taraflarga davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun berildi.

Imzolar:

Garovga oluvchi \_\_\_\_\_

Qarz oluvchi \_\_\_\_\_

Garovga qo‘yuvchi-1 \_\_\_\_\_

Garovga qo‘yuvchi-2 \_\_\_\_\_

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

## Moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi

---

(notarial okrug nomi)

---

(shartnoma tasdiqlangan sana, so'z bilan)

---

(shartnoma rasmiylashtirilgan DNI to 'liq nomi va manzili, notariusning F.I.O.)

Biz – Toshkent shahar, Farg‘ona yo‘li ko‘chasi, 1-uyda joylashgan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida 2000 yil 25 yanvar kuni 3-son bilan ro‘yxatga olingen Buyuk ipak yo‘li Aksiyadorlik investitsiya tijorat banki nomidan, Ustav asosida harakat qiluvchi bank rahbari – Toshkent shahar, Navoiy ko‘chasi, 12-uyda propiskada turuvchi Rahimov Anvar Rahimovich (pasport SA 5665989, Chilonzor tuman IIB tomonidan 23.10.2013 yilda berilgan) bundan buyon matnda lizing beruvchi deb yuritiluvchi bir tarafdan va Toshkent viloyati, Yangiyo‘l tumani, Navoiy ko‘chasi, 1-uyda joylashgan, Yangiyo‘l tuman hokimligi huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish inspeksiyasida 2000 yil 15 mart kuni 34-son bilan ro‘yxatga olingen nilufar xususiy korxonasi nomidan, Ustav asosida harakat qiluvchi korxona rahbari – Toshkent viloyati, Yangiyo‘l tumani, Beruniy ko‘chasi, 20-uyda propiskada turuvchi Olimov Anorbek Ikramovich (pasport SV 12345615, Yangiyo‘l tuman IIB tomonidan 11.03.2013 yilda berilgan) bundan buyon matnda lizing oluvchi deb yuritiluvchi ikkinchi tarafdan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdik:

### 1. Shartnomaning predmeti

1.1. Lizing oluvchining arizasiga (1-son ilova) muvofiq lizing beruvchi lizing oluvchi tanlagan quyidagi mol-

mulklarni unga keyinchalik lizingga topshirish uchun to‘lash majburiyatini oladi:

/r	Mol-mulkning nomi	Tipi, modeli, markasi	Xizmat ko‘rsatish muddati	Miq-doriy birligi	Mahsulot etkazuvchining nomi va mahsulot etkazib berish shartnomasining soni, raqami va sanasi	Mahsulot etkazib berish muddati	Mol-mulkning qiyomi (mln. so‘m)
2	3	4	5	6	7	8	

Jami mol-mulk  
mln. so‘mni  
tashkil etadi.

1.2. \_\_\_\_\_ manzilida joylashgan mol-mulkning turish joyini lizing oluvchi tomonidan almashtirilishi lizing Beruvchining yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.

1.3. Lizing beruvchi ushbu shartnomaga muvofiq mol-mulkni lizing oluvchiga keyinchalik uni lizingga berish uchun sotib olganligi to‘g‘risida sotuvchini xabardor qilishi shart.

1.4. Lizing oluvchi mahsulot etkazib beruvchi bilan 1.1-bandida ko‘rsatilgan mol-mulkarning barcha texnik iqtisodiy tavsiflari, bunga qo‘shib spetsifikatsiya, mol-mulklarining sifati bo‘yicha sotuvchining kafolatlari, muddatlari va mahsulottlarni etkazib berish joyini kelishib oladi va u bilan ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblanuvchi spetsifikatsiya bilan birga tijorat kontrakti tuzadi.

## 2. Lizing muddati

2.1. 1.1-bandda ko‘rsatilgan mol-mulklar lizing oluvchiga uni qabul qilib olgan sanadan boshlab \_\_\_\_\_ oy muddatga, ya’ni \_\_\_\_\_ 20\_\_\_\_ gacha moliyaviy lizingga topshiriladi.

### **3. Mol-mulkarni qabul qilib olish**

3.1. Ushbu shartnomaga bo'yicha etkazib beriladigan mol-mulkarni qabul qilib olish – etkazib berilgan joyda lizing beruvchining vakili ishtirokida lizing oluvchi tomonidan amalga oshiriladi.

3.2. Mol-mulkarni qabul qilib olish – tijorat kontraktida nazarda tutilgan mol-mulkarni etkazib berishning butligi va uning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlariga muvofiqligini tasdiqlovchi Qabul qilish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Qabul qilish dalolatnomasi lizing oluvchi, lizing beruvchi va mahsulot etkazib beruvchilarining vakillari tomonidan imzolanadi.

3.3. Qabul qilish tadbirlariga bog'liq xarajatlarni lizing oluvchi to'laydi.

3.4. Qabul qilib olingan mol-mulkning aniqlangan kamchiliklari Qabul qilish dalolatnomasida aks ettiriladi. Bunda lizing beruvchi kamchiliklarning tuzatish muddatini ko'rsatish bilan birgalikda bartaraf etishga ham topshiriq beradi.

Kamchilikni bartaraf etish mumkin bo'lmasa, mahsulot etkazib beruvchi kamchiligi bor mol-mulkni o'z hisobidan almashtirishga majbur.

3.5. Lizing oluvchi kamchiliklari bo'lgan mol-mulkdan me'yorida foydalanish mumkin bo'lмаган holda uni qabul qilishni rad etsa, u lizing beruvchini (albatta, aniqlagan kamchiliklari, defektini ko'rsatgan holda va dalillari bilan) yozma ravishda xabardor qilib qo'yishi lozim. Ko'rsatilgan dalillar lizing beruvchiga mol-mulkning oldi-sotdi shartnomasini bekor qilish huquqini beradi.

3.6. Mol-mulkarni qabul qilish mahsulot etkazib berilgan sanadan boshlab o'ttiz kun ichida Qabul qilish dalolatnomasi bilan rasmiylashtirilishi lozim. Agar ko'rsatilgan muddatda lizing oluvchi Qabul qilish dalolatnomasini imzolamasa va bu vaqtning ichida ushbu shartnomaning 3.5-bandiga muvofiq qabul qilishni rad etish to'g'risida arz qilmasa, qabul qilingan deb hisoblanadi.

3.7. Lizing oluvchi mol-mulkarni qabul qilib olingandan keyin mahsulot etkazib beruvchiga nisbatan lizing beruvchining barcha huquqlarini o‘z zimmasiga oladi va lizing beruvchining barcha zararlar hamda sudga da‘vo arizasi bilan murojaat qilish bilan bog‘liq hollardan ozod qiladi. lizing oluvchining mol-mulkarni qabul qilib olish sanasidan boshlab mol-mulkarning sifati borasidagi lizing beruvchiga nisbatan har qanday bevosita yoki bilvosita talablari rad qilinadi.

3.8. Taraflar mol-mulkning Qabul qilish dalolatnomasini imzolash vaqtida u qanday bo‘lsa, shu holda lizing oluvchiga topshirilgan deb hisoblaydilar.

#### **4. Mol-mulkka mulk huquqi va foydalanish huquqi**

4.1 Ushbu shartnomaga bo‘yicha mol-mulkka nisbatan mulk huquqi lizing beruvchiga o‘tadi. Bu huquq mahsulot etkazib beruvchining lizing oluvchi bilan tijorat kontraktining barcha shartlariga rioya etilganligi to‘g‘risida guvohlik beruvchi Qabul qilish dalolatnomasini lizing beruvchi olgandan keyin mahsulot etkazib beruvchiga mol-mulkning qiymati to‘langan vaqtdan boshlab lizing oluvchiga o‘tadi.

4.2. Lizing oluvchi Qabul qilish dalolatnomasi imzolangan sanadan boshlab mol-mulkning saqlanishiga javobgarlikni va mol-mulkning o‘g‘irlanishi, buzilishi va boshqalar natijasida nobud bo‘lishini bartaraf qilish bo‘yicha zarur choralarни qo‘llash, lizing beruvchining mulk huquqini o‘z hisobidan himoya qilish majburiyatini oladi.

4.3. Ushbu shartnomaga ko‘ra moliyaviy lizingga berilgan mol-mulkdan foydalanishning mutlaq huquqi, shu jumladan ko‘rsatilgan mol-mulkdan foydalanish natijasida olingan mahsulot va daromadlar lizing oluvchining mutlaq mulk huquqiga tegishli bo‘ladi.

#### **5. Mol-mulkni sug‘urta qilish**

5.1. Mol-mulkni etkazib berish joyiga transportda tashib kelishda uning nobud bo‘lishi, yo‘qolishi, buzilishi,

o‘g‘irlanishi bilan bog‘liq barcha xavflardan sug‘urta qilishni taraflar kelishuviga asosan hal qilinadi.

5.2. Mol-mulkning etkazib berilgan vaqtidan boshlab nobud bo‘lishi, yo‘qolishi, buzilishi, o‘g‘irlanishi, vaqtidan oldin emirilishi bilan bog‘liq barcha xavflarni lizing oluvchi o‘z zimmasiga oladi. u mol-mulkni etkazib berilgan sanasidan boshlab o‘n besh kun ichida lizing beruvchining foydasiga o‘z hisobidan barcha xavflardan mol-mulkni sug‘urta qilish majburiyatini oladi va o‘ttiz kun ichida lizing beruvchiga sug‘urta polisini taqdim qiladi.

5.3. Sug‘urta hodisasi ro‘y berganda lizing oluvchi quyidagi tadbirlarni qabul qilish majburiyatini oladi:

a) o‘z hisobidan va o‘z ixtiyori bo‘yicha zararlangan mol-mulkni ta’mirlash;

b) agar mol-mulkni ta’mirlash mumkin bo‘lmasa, uni lizing beruvchiga ma’qul bo‘lgan boshqasiga almashtirish;

v) lizing beruvchiga lizing to‘lovlarini to‘lash bo‘yicha barcha qarzlarni uzish, mol-mulkarning lizing ob’ektining qoldiq qiymatini va neustoykani to‘lash.

## **6. Mol-mulkdan foydalanish**

6.1. Lizing oluvchi mol-mulkka bevosita belgilangan maqsadi bo‘yicha foydalanish, uni yaroqli holda saqlash, tegishli andozalarga (standartlarga), texnik shartlarga va tayyorlovchi korxona yo‘riqnomasiga rioya qilish majburiyatini oladi.

6.2. Lizing oluvchi o‘z hisobidan mol-mulkni texnik ta’mirlash xizmatlarini amalga oshiradi.

6.3. Lizing oluvchi mol-mulkni uning sifati va foydalanish tavsisini o‘zgartirishlar (modifikatsiya)ni amalgalashmaslik majburiyatini oladi. Mol-mulkni konstruktiv o‘zgartirish (modifikatsiyalash) faqat lizing beruvchining yozma roziligi bilan lizing oluvchi tomonidan uning hisobidan amalgalash oshirishi mumkin.

6.4. Lizing beruvchining yozma rozilgisiz lizing oluvchi mol-mulkni u turgan va foydalanayotgan joydagisi xona konstruksiyasiga yoki boshqa har qanday ko‘chmas mulk, mol-mulkni foydalanish qoidalari va texnika

xavfsizligida nazarda tutilgan, texnologik zaruriy mustah-kamplashdan tashqari har qanday usulda yaxshi holatda saqlash va foydalanishga majbur.

6.5. Lizing beruvchining yozma roziligi bilan lizing oluvchi mol-mulkni sublizingga berish huquqiga ega. mol-mulkning saqlanishi, shuningdek, lizing to‘lovlarining o‘z vaqtida to‘lanishi uchun javobgarlik lizing oluvchining o‘zida saqlanib qoladi.

6.6. Lizing beruvchining talabiga ko‘ra lizing oluvchi mol-mulkning ahvoli to‘g‘risida unga o‘z vaqtida axborot berish majburiyatini olishi mumkin.

6.7. Lizing beruvchi mol-mulkdan foydalanishning ahvoli va shartlarini har qanday vaqtida tekshirish huquqiga ega.

## 7. Lizing to‘lovlar

7.1. Lizing oluvchining ushbu shartnomaga bo‘yicha unga lizingga berilgan mol-mulkning foydalanish huquqini taqdim qilganligi uchun lizing beruvchiga \_\_\_\_\_ so‘m miqdoridagi lizing to‘lovlarini davrlarga bo‘lib to‘lash majburiyatini oladi, jumladan quyidagi yillar bo‘yicha:

20_____	yil
_____	so‘m;
20_____	yil
_____	so‘m;
20_____	yil
_____	so‘m;
20_____	yil
_____	so‘m.

7.2. Lizing to‘lovlarini to‘lashni har oyda ushbu shartnomaning 7.1-bandiga muvofiq lizing to‘lovlarining yillik summasidan teng ulushlarda, mol-mulkdan amaliy foydalanishdan qat‘i nazar, ilova qilingan jadvalga binoan, lizing oluvchining hisob raqamidan to‘lov talabnomasining topshirig‘iga ko‘ra amalga oshiriladi.

*Izoh: taraflar to‘lovlarini amalga oshirishning ular uchun qulay bo‘lgan har qanday usuli va muddatlarini kelishishlari va belgilashlari mumkin.*

7.3. Keyingi oy (chorak)ning \_\_\_\_\_ sanasigacha lizing oluvchidan undiriladigan to‘lovlarni uzish uchun mablag‘lar lizing beruvchining hisob raqamiga kelib tushgan holda, lizing oluvchidan undiriladigan to‘lovlar o‘z vaqtida to‘lanmagan deb hisoblanadi.

Lizing beruvchi bunday holda lizing oluvchidan to‘lovlar bo‘yicha uzilmagan qarzlarning kechiktirilgan har bir kuni uchun kechiktirilgan mablag‘ning \_\_\_\_\_ % foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega bo‘ladi.

7.4. Lizing oluvchi birinchi to‘lovni ushbu shartnomaning 7.1-bandidagi to‘lovlarning umumiy summasi hisobidan \_\_\_\_\_ mln. so‘m to‘ladi.

## **8. Fors-major holatlar**

8.1. Taraflar ushbu shartnomaga ko‘ra majburiyatlarni bajarmaganligi uchun, agar bunday bajarmaslik amaldagi qonun hujjatlariga ko‘ra fors-major holatlari bilan bog‘liq deb tan olinsa, javobgarlikdan ozod bo‘ladilar. Bunday hollarda shartnomada ko‘rsatilgan majburiyatlarni bajarish bo‘yicha belgilangan muddatlar fors-major holatlari davom etgan muddatdan keyingi davrga o‘tkaziladi.

8.2. Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish uchun to‘siq paydo bo‘lgan taraf yuqorida ko‘rsatilgan holatlarning boshlanishi hamda tamom bo‘lishi to‘g‘risida, ular boshlangan va tamom bo‘lgan vaqtdan boshlab o‘n kundan kechiktirmay boshqa tarafga yozma shaklda xabar berishga majbur.

## **9. Nizolarни hal etish**

9.1. Agar taraflar ushbu shartnomani bajarmasligi natijasida yoki u bilan bog‘liq yuzaga keladigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar bo‘yicha o‘zaro kelishuv yo‘li bilan kelishuvga erishilmasa, mazkur nizo va kelishmovchiliklar qonun hujjatlariga muvofiq xo‘jalik sudi tomonidan hal qilinadi.

## **10. Boshqa shartlar**

10.1. Shartnomaga kiritiladigan barcha qo'shimcha va o'zgartishlar yozma ravishda rasmiylashtirilib, taraflar tomonidan imzolanadi.

10.2. Shartnomadan kelib chiqmaydigan taraflar o'rtasida yangi majburiyatlar keltirib chiqaruvchi har qanday kelishuvlar shartnomaga qo'shimcha shaklda taraflar tomonidan yozma ravishda tasdiqlangan bo'lishi lozim.

10.3. Shartnoma imzolangandan keyin taraflar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki kelishuvlar, muzokara hamda yozishmalar, agar shartnomada ularga havola qilinmasa, o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi.

10.4. Ushbu shartnoma to'rt nusxada tuzilib, imzolandi.

10.5. Ushbu shartnomaga barcha ilovalar uning ajralmas qismi hisoblanadi va ularsiz shartnoma yuridik kuchga ega emas.

10.6. Taraflarning birortasi ham ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa tarafning yozma roziligidan uchinchi shaxslarga berishga haqli emas.

## **11. Shartnomaning bekor qilinishi**

11.1. Shartnoma uning amalda bo'lish muddatining o'tishi bo'yicha yoki shartnomani bekor qilish hollarida tugaydi.

11.2. Shartnoma taraflarning kelishuvi bo'yicha yoki agar taraflardan biri uni bekor qilish to'g'risida sudga ariza berganda, sudning qarori bo'yicha bekor qilinishi mumkin.

11.3. Lizing beruvchi quyidagi hollarda shartnomani bekor qilishga haqli:

a) mol-mulkning oldi-sotdi shartnomasi kuchga kirmasa yoki lizing oluvchiga mol-mulkni etkazib bergunga qadar har qanday sabab bo'yicha bekor qilingan bo'lsa;

b) mahsulot etkazib beruvchi lizing oluvchiga mol-mulkni etkazish imkoniyati bo'limganda yoki etkazib berishni har qanday sababga ko'ra rad qilganda.

Agar mazkur bandning a va b-bandlarida nazarda utilgan hollarda shartnoma bekor qilinganda, lizing

beruvchi va lizing oluvchi ushbu shartnoma bo'yicha o'zaro majburiyatlardan ozod bo'ladi.

v) lizing oluvchi o'ttiz kundan oshmagan muddatning ichida ushbu shartnomada nazarda tutilgan har qanday to'lovlarining turi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmasa;

g) lizing oluvchi qarzlarini to'lash (bunga kechiktirganlik uchun undiriladigan penyani qo'shib) haqida talabnoma olganidan boshlab 3 (uch) hafta ichida qarzini uzmasa;

d) ushbu shartnomaning amalda bo'lish davrida lizing oluvchining faoliyati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tugatilgan bo'lsa, mazkur bandning v va d bandlarida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra shartnoma bekor qilinganda, lizing oluvchi bitimni yopish summasini lizing beruvchiga quyidagilarni qo'shgan holda to'lashga majbur:

a) shartnoma muddatining tamom bo'lish vaqtida, agar unda mol-mulkning qoldiq qiymati bo'yicha qayta sotib olish nazarda tutilgan bo'lsa, mol-mulkning qoldiq qiymatini;

b) lizing Oluvchining barcha qarzlari, shuningdek, lizing oluvchiga shartnoma bo'yicha barcha to'langan lizing to'lovlarining summalarini;

v) neustoykalarni.

11.4. Lizing shartnomasining predmeti bo'lgan mol-mulkning oldi-sotdi shartnomasi mol-mulkni etkazib berish uchun javobgarlik lizing oluvchiga o'tishi bilan bekor qilinadi.

11.5. Lizing oluvchi mol-mulklarni qabul qilib olishda uni me'yorida foydalanishni istisno qiluvchi kamchiliklarni aniqlab bo'lмаган hollarda, ushbu shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqli.

Lizing oluvchi ushbu shartnomani bekor qilish talabi to'g'risida mol-mulkni etkazib berish tamom bo'lgan vaqtdan boshlab, 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay lizing Beruvchini yozma shaklda xabardor qilishga majbur.

## **12. Shartnoma amal qilish muddatining tamom bo‘lishi**

12.1. Shartnoma muddatining o‘tishi bo‘yicha lizing oluvchi tomonidan lizing beruvchiga shartnomada nazarda tutilgan barcha to‘lovlarni to‘laganda shartnoma tamomlangan hisoblanadi.

12.2. Lizing beruvchi va lizing oluvchi bitimning tamomlanishi bo‘yicha quyidagilarga kelishdilar:

mol-mulk lizing oluvchiga haq to‘lanmasdan beriladi;

mol-mulk lizing beruvchiga qaytariladi va bu bilan bog‘liq xarajatlar (lizing oluvchi) yoki (lizing beruvchi) tomonidan amalga oshiriladi;

13. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 313 va 321-moddalari mazmuni notarius tomonidan taraflarga tushuntirildi.

14. Ushbu shartnomani imzolash bilan bog‘liq xarajatlarni lizing oluvchi to‘ladi.

15. Biz – taraflar shartnoma matnini o‘qib chiqdik, uning mazmun-mohiyati, huquqiy oqibatlari bizga notarius tomonidan tushuntirildi va tushunarli, uning mazmuni bizning asl xohish-istiklarimizga mos keladi.

16. Ushbu shartnoma taraflar tomonidan uch nusxada tuzilib, imzolandи, ulardan bir nusxasi Chirchiq shahar 1-son davlat notarial idorasida saqlanadi, qolgan nusxalari taraflarga berildi.

### **IMZOLAR:**

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

**Izoh:** agar lizing shartnomasi predmeti avtomototransport vositasi bo‘lsa, shartnoma gerbli (maxsus) blankada rasmiylashtirilishi va shartnoma belgilangan tartibda tegishli DYHXX organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim va bu haqida shartnoma

*matnida ko‘rsatiladi. Agar lizing shartnomasi predmeti ko‘chmas mulk bo‘lsa, shartnomalar belgilangan tartibda hisobga qo‘yilishi lozimligi haqida shartnomalar matnida ko‘rsatiladi.*

## **Uy-joydan foydalanish tartibini belgilash shartnomasi**

---

*(notarial okrug nomi)*

---

*(shartnomalar tasdiqlangan sana, so‘z bilan)*

---

*(shartnomalar rasmiylashtirilgan DNI to‘liq nomi va manzili, notariusning F.I.O.)*

Biz – Jizzax viloyati, Zarbdor tumani, Bobur ko‘chasi, 9-uyda propiskada turuvchilar – 1961 yilda tug‘ilgan Buvamatov Ravshan Rixsiboevich (STIR 425630244, pasportSV 2216305, Zarbdor tuman IIB tomonidan 13.04.2013 yilda berilgan) va 1970 yilda tug‘ilgan Buvamatov O‘tkir Rixsibaevich (STIR 523265657, pasport SV 1338017, Zarbdor tuman IIB tomonidan 08.05.2011 yilda berilgan) Zarbdor tuman davlat notarial idorasida 2014 yil 12 aprel kuni 4300 reestr raqami bilan qayd qilingan Qonun bo‘yicha merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnomaga asosan vafot etgan otamiz Buvamatov Rixsivoyning Jizzax viloyati, Zarbdor tumani, Bobur ko‘chasi, 1.300 (bir ming uch yuz) kv.m. umumiyligi yer maydonida joylashgan 9-sonli uy-joydan iborat bo‘lgan meros mol-mulkiga har birimiz teng ulushda merosxo‘r bo‘lib, o‘zaro kelishuvimizga ko‘ra uy-joydan foydalanish bo‘yicha ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdik:

1. Buvamatov Ravshan Rixsiboevichning doimiy foydalanish va egaligiga – Jizzax viloyati, Zarbdor tumani, Bobur ko‘chasi, 9-uy-joyning 0004, 0006, 0007, 0008, 0009,

0015-literlar bilan belgilangan umumiy foydalanish maydoni 78,87 (etmish sakkiz butun yuzdan sakson etti) kv.m.dan iborat bo‘lgan – turar joy maydoni 48,11 (qirq sakkiz butun yuzdan o‘n bir) kv.m. bo‘lgan to‘rtta yashash xonasi, dahliz, soyabon, ayvon, hammom va omborxona, bostirma yo‘lak, hojatxonadan iborat bo‘lgan alohida qurilgan imorat;

Buvamatov O‘tkir Rixsibaevichning doimiy foydalanish va egaligiga – Jizzax viloyati, Zarbdor tumani, Bobur ko‘chasi, 9-uy-joyning 0001, 0002, 0003, 0012, 0013, 0014, 0016-literlar bilan belgilangan umumiy foydalanish maydoni 88,92 (sakson sakkiz butun yuzdan to‘qson ikki) kv.m.dan iborat bo‘lgan – turar joy maydoni 63,00 (oltmish uch butun) kv.m. bo‘lgan to‘rtta yashash xonasi, ikkita ravon, yerto‘la, soyabon, oshxona, hammom, soyabon, hojatxonadan iborat bo‘lgan alohida qurilgan imorat o‘tadi.

2. Foydalanish tartibi belgilanayotgan butun uy-joy quyidagilardan iborat:

umumiy foydalanish maydoni 167,79 (bir yuz oltmisht etti butun yuzdan etmish to‘qqiz) kv.m.ni tashkil etib – turar joy maydoni 111,10 (bir yuz o‘n bir butun yuzdan o‘n) kv.m. bo‘lgan sakkizta yashash xonasi, 2 ta ravon, dahliz, omborxona, yerto‘la, oshxona, uchta soyabon, ayvon, ikkita hammom, bostirma yo‘lak, ikkita hojatxona;

inventar bahosi 14.891.913 (o‘n to‘rt million sakkiz yuz to‘qson bir ming to‘qqiz yuz o‘n uch) so‘m bo‘lib, ushbu holatlar Zarbdor tuman Yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastro davlat korxonasi tomonidan 2014 yilda 13 mart kuni berilgan 988-sonli ma’lumotnoma bilan tasdiqlanadi.

3. Butun uy-joy joylashgan 1.300 (bir ming uch yuz) kv.m. umumiy yer maydoni taraflarning umumiy foydalanishida qoladi.

4. Mazkur shartnomani rasmiylashtirish uchun sarflanadigan xarajatlarni Buvamatov Ravshan Rixsiboevich to‘ladi.

5. Ushbu shartnomasi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 185-moddasiga asosan belgilangan

tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab taraflarda egalik qilish huquqi vujudga keladi.

6. Biz – taraflar shartnoma matnini o'qib chiqdik, uning mazmun-mohiyati, huquqiy oqibatlari bizga notarius tomonidan tushuntirildi va tushunarli, uning mazmuni bizning asl xohish-istiklarimizga mos keladi.

7. Mazkur shartnoma taraflar tomonidan uch nusxada tuzilib, imzolandi, ulardan bir nusxasi Zarbdor tuman davlat notarial idorasida saqlanadi, qolgan nusxalari taraflarga berildi.

**IMZOLAR:**

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

**Izoh:** ma'lumot uchun butun uy-joyning tarkibi taraflarga o'tayotgan tarkib qo'shilganda bir xil bo'lishi kerak. Agar tafovut bo'lsa, ikkalasiga o'tmayotgan qismi umumiyl foydalanishda qolishini alohida band sifatida kiritish kerak.

## **Qarz shartnomasi**

---

*(notarial okrug nomi)*

---

*(shartnomma tasdiqlangan sana, so'z bilan)*

---

*(shartnomma rasmiylashtirilgan DNI to'liq nomi va manzili, notariusning F.I.O.)*

Biz – Farg‘ona viloyati, Qo‘shtepa tumani, A. Ortiqov QFY, Yangi Hayot ko‘chasi, 16-uyda propiskada turuvchi – 1971 yilda tug‘ilgan Rasulov Qudrat Sadirboevich (pasport SV 2117288, Qo‘shtepa tuman IIB tomonidan 27.06.2011 yilda berilgan) bundan buyon matnda qarz beruvchi deb yuritiluvchi bir tarafdan va Farg‘ona viloyati, Marg‘ilon shahar, A. Sodiqov ko‘chasi, 44-uyda propiskada turuvchi – 1968 yilda tug‘ilgan Malikov Qurbon Vahobovich (pasport AA 1257071, Marg‘ilon shahar IIB tomonidan 16.12.2010 yilda berilgan) bundan buyon matnda qarz oluvchi deb yuritiluvchi ikkinchi tarafdan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdik:

1. Men – qarz beruvchi 10.000.000 (o‘n million) so‘m pul mablag‘ini qarz oluvchiga qarz sifatida – bir yil muddatga, ya’ni \_\_\_\_\_ 20\_\_\_\_ yilgacha berdim, men – qarz oluvchi ushbu summani qarz beruvchidan avtotransport vositasini sotib olish maqsadida mazkur shartnomma imzolangunga qadar to‘liq oldim.

2. Qarz summasini berish va olish Qo‘shtepa tumani hududida amalga oshirildi.

3. Men – qarz oluvchi qarzga olgan summani \_\_\_\_\_ 20\_\_\_\_ yildan kechiktirmsandan qarz beruvchiga qaytarib berish majburiyatini olaman.

4. Qarz oluvchi yuqorida ko‘rsatilgan pulni qarz beruvchiga shartnomada ko‘rsatilgan muddatdan oldin ham qaytarishi mumkin.

5. Agar qarz summasi shartnomada ko‘rsatilgan muddatda qarz oluvchi tomonidan qaytarilib berilmasa, qarz beruvchi tomon qarz summasini qarz oluvchidan qonun hujjatlariga muvofiq undirib olishi mumkin.

6. Mazkur shartnomani rasmiylashtirish uchun sarflanadigan xarajatlarni qarz oluvchi to‘laydi.

7. Biz – taraflar shartnoma matnini to‘liq o‘qib chiqdik, uning mazmuni va mohiyati, huquqiy oqibatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 732–738-moddalari mazmuni notarius tomonidan tushuntirildi va bizga tushunarli, shartnomaning mazmuni bizning asl xohish-istiklarimizga mos keladi. Mazkur shartnomani tuzib, imzolaganimizda muomala layoqatiga ega bo‘lganimizni, o‘z xatti-harakatlarimiz ahamiyatini to‘liq tushunganligimizni, hech kim bizni aldamaganligini, shartnomani tuzib, imzolash haqida zo‘rlamaganligini, tazyiq o‘tkazmaganligini, ushbu bitimni tuzishga majbur qilishga olib kelgan og‘ir holatlar yo‘qligini bildiramiz.

8. Mazkur shartnoma taraflar tomonidan uch nusxada tuzilib, imzolandi, ulardan bir nusxasi Qo‘shtepa tuman davlat notarial idorasida saqlanadi, qolgan nusxalari taraflarga berildi.

**IMZOLAR:**

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

***ISHONCHNOMA***  
***(jismoniy kamchiligi sababli o‘zi imzo qo‘ya  
olmaydigan fuqaro nomidan rasmiylashtiriladigan  
ishonchnoma)***

---

*(notarial okrug nomi)*

---

*(ishonchnoma tasdiqlangan sana, so‘z bilan)*

---

*(ishonchnoma rasmiylashtirilgan DNI to‘liq nomi va manzili, notariusning F.I.O.)*

Men – Jizzax viloyati, Jizzax shahar, M. Ulug‘bek ko‘chasi, 7-uy, 19-xonadonda propiskada turuvchi – 1965 yilda tug‘ilgan Sobirova Muborak Erkinovna (pasport AA 5642032, Jizzax shahar IIB tomonidan 22.04.2014 yilda berilgan) ushbu ishonchnoma bilan Jizzax viloyati, Jizzax shahar, Zargarlik mahallasi, 21-uy, 4-xonadonda propiskada turuvchi – 1967 yilda tug‘ilgan Imomaliev Hakimga (pasport AA 2354477, Jizzax shahar IIB tomonidan 10.06.2014 yilda berilgan) o‘zimga tegishli bo‘lgan 2014 yil sentyabr, oktyabr va noyabr oylari uchun oladigan pensiya pulimni Jizzax shahar 12-sonli aloqa bo‘limidan olishga vakolat beraman.

Ushbu vakolatni bajarish uchun mening nomimdan korxonalarda, bankda vakil bo‘lishga, ariza yozishga, imzo qo‘yishga va ushbu ishonchnoma bilan bog‘liq bo‘lgan barcha harakatlarni bajarishga huquq beraman.

Ishonchnoma uch oy muddatga, ya’ni \_\_\_\_ 20\_\_\_\_ gacha berildi.

Ishonchnomaning matnini to‘liq o‘qib chiqdim, uning mazmuni va mohiyati, huquqiy oqibatlari, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 141–142-moddalari mazmuni menga notarius tomonidan tushuntirildi va tushunarli, ishonchnomaning mazmuni mening asl xohish-istiklarimga mos keladi.

Sobirova Muborak Erkinovnaning ko‘zi ojizligi tufayli uning shaxsiy iltimosiga ko‘ra ishonchnomaga Jizzax viloyati, Jizzax shahar, M. Ulug‘bek ko‘chasi, 8-uy, 55-xonadonda propiskada turuvchi – 1975 yilda tug‘ilgan Botirov Akmal Sobirovich (pasport SV 5892536, Jizzax shahar IIB tomonidan 06.08.2011 yilda berilgan) notarius huzurida imzo qo‘ydi.

Imzo

---

Men – Botirov Akmal Sobirovich O‘zbekiston Respublikasining Notariat to‘g‘risidagi Qonuni 6-moddasiga asosan, notarial harakatlarning maxfiylici to‘g‘risida va amalga oshirilgan notarial harakatning maxfiyligini buzsam, qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishim mumkinligi to‘g‘risida notarius tomonidan ogohlantirildim.

IMZO

---

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

## **14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan merosxo‘rning meros mol-mulkni qabul qilish to‘g‘risidagi arizasi**

Ariza kelib tushdi:

— 20 yil

Meros ishi №

O‘zbekiston Respublikasi,  
Andijon viloyati, Oltinko‘l  
tuman davlat notarial idorasiga  
Andijon viloyati, Oltinko‘l  
tuman Samarqand ko‘chasi, 34-  
uya propiskada turuvchilar –  
Isaeva Donoxon  
Bekmurodovnadan (*pasport AA  
2781615, Marhamat tuman IIB  
tomonidan 3.07.2013 yilda  
berilgan*), onam Isaeva  
Donoxon Bekmurodovna  
roziligi bilan va uning  
ishtirokida harakat qiluvchi  
13.08.1998 yilda tug‘ilgan  
Isaeva Sadoqat o‘afurjon  
qizidan (*pasport AA 2839683,  
Marhamat tuman IIB  
tomonidan 24.08.2014 yilda  
berilgan*)

### **A R I Z A**

O‘zbekiston Respublikasi, Andijon viloyati, Marhamat tumani ikki ming o‘n beshinchi yil, sentyabr oyining yigirmanchi kuni:

1. Erim Isaev G‘afurjon Mahmudovich Andijon viloyati, Marhamat tumani, Samarqand ko‘chasi, 34-uya doimiy ravishda yashab kelib, 2009 yil 9 fevral kuni vafot etdi.

Uning o‘limidan so‘ng meros mol-mulk sifatida Andijon viloyati IIB YXXB 3-TRIB tomonidan 2000 yil 17 mayda berilgan seriya AAS № 2557870 raqamli transport vositasini qayd etish guvohnomasiga ega bo‘lgan mos 412IE rusumli, 1989 yilda ishlab chiqarilgan, dvigatel raqami

E2596916, kuzov raqami 982074, shassi raqami 982074, rangi – qizil, davlat raqami belgisi 60I534AA bo‘lgan avtotransport vositasi qoldi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1135-moddasiga asosan yuqorida ko‘rsatilgan meros mol-mulkka bizdan boshqa qonun bo‘yicha birinchi navbatdagi merosxo‘rlar, ya’ni marhumning bolalari – o‘g‘li Isaev Sardor o‘afurjon o‘g‘li va qizi Isaeva Shahlo o‘afurjonovna bor.

Yuqorida ko‘rsatilgan meros mol-mulkka nisbatan bizlarga qonun bo‘yicha merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnoma berishingizni so‘raymiz.

Biz merosxo‘rlarni yashirganlik oqibatlari va javobgarlik haqida ogohlantirildik.

2. Men – Isaeva Donoxon Bekmurodovna marhum erim Isaev o‘afurjon Mahmudovich bilan bирgalikda nikohimiz davomida orttirilgan va uning nomiga rasmiylashtirilgan umumiy mol-mulkka, ya’ni 1/2 ulushiga nisbatan mulk huquqi to‘g‘risida guvohnoma olishni xohlamayman.

Arizaga quyidagi hujjatlarni ilova qilamiz:

1. Marhumning o‘lim haqidagi guvohnoma nusxasi.
2. Nikoh tuzilganligi haqidagi guvohnoma nusxasi.
3. Tug‘ilganlik haqidagi guvohnomalar nusxalari (4 ta).
4. Marhumning turar joyidan ma’lumotnoma.
5. Avtotransport vositasini qayd etish guvohnomasi nusxasi.
6. ATV baholash to‘g‘risida ekspertiza xulosasi.

**IMZOLAR:**

1.

---

2. Onam ishtirokida va roziligi bilan imzo qo‘ydim:

---

**ROZIMAN:**

---

Fuqaro Isaeva Donoxon Bekmurodovnaning shaxsi Marhamat tuman IIB tomonidan 03.07.2013 yilda berilgan AA 2781615 pasport bo'yicha aniqlandi.

Isaeva Sadoqat o'afurjon qizining shaxsi Marhamat tuman IIB tomonidan 24.08.2014 yilda berilgan AA 2839683 pasport bo'yicha aniqlandi.

Notarius  
F.I.O.

imzo

M.O'.

## Vasiyatnama bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma olish haqida ariza

Ariza kelib O'zbekiston Respublikasi,  
tushdi: Jizzax viloyati, Do'stlik tuman  
\_\_\_\_\_ 2-son davlat notarial idorasiga  
20\_\_\_\_ yil Jizzax viloyati, Do'stlik tumani,  
\_\_\_\_\_ A.Ortiqov ko'chasi, 17-uyda  
Meros ishi № propiskada turuvchi Umarov  
\_\_\_\_\_ Fayzulla Hikmatovichdan  
(*pasport AA 6352201, Do'stlik tuman IIB tomonidan  
03.06.2013 yilda berilgan*)

### A R I Z A

O'zbekiston Respublikasi, Jizzax viloyati, Do'stlik tumani ikki ming o'n to'rtinchi yil, noyabr oyining yigirma beshinchini kuni

Mening otam Umarov Hikmat Jizzax viloyati, Do'stlik tumani, A. Ortiqov ko'chasi, 21-uyda doimiy ravishda yashab kelib, 2011 yil 4 aprel kuni vafot etdi.

Uning o'limidan so'ng meros mol-mulk sifatida Jizzax viloyati, Do'stlik tumani, A.Ortiqov ko'chasida joylashgan 21-uy-joy qoldi.

Do'stlik tuman 2-son davlat notarial idorasining notariusi F.I.O. tomonidan \_\_\_\_\_ 20\_\_\_\_ yilda 380 reestr raqami bilan qayd qilingan vasiyatnomaga asosan marhumning merosxo'ri men – Umarov Fayzulla Hikmatovich bo'laman.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1142-moddasiga asosan yuqorida ko'rsatilgan meros mol-mulkka nisbatan majburiy ulush huquqiga ega bo'lgan merosxo'rlar yo'q.

Menga yuqorida ko'rsatilgan meros mol-mulkka nisbatan vasiyatnama bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berishingizni so'rayman.

Men majburiy ulush huquqiga ega bo‘lgan merosxo‘rlarni yashirganlik oqibatlari va javobgarlik haqida ogohlantirildim.

Arizamga quyidagi hujjatlarni ilova qilaman:

1. Marhumning o‘limi haqidagi guvohnoma nusxasi.
2. Vasiyatnoma.
3. Tug‘ilganlik haqida guvohnoma nusxasi.
4. Kadastr xizmati organidan ma’lumotnoma.
5. Meros qoldiruvchining uy-joyga egalik huquqini tasdiqlovchi hujjat.

IMZO

---

Umarov Fayzulla Hikmatovichning shaxsi Do‘stlik tuman IIB tomonidan 07.08.2013 yilda berilgan AA 0192357 pasport bo‘yicha aniqlandi.

Notarius  
F.I.O.

imzo

M.O‘.

**Meros mol-mulkidan majburiy ulush olish huquqiga  
ega shaxsning merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi  
guvohnoma berish haqida arizasi**

Ariza kelib tushdi:  
20 \_\_\_\_\_ yil \_\_\_\_\_  
Meros ishi № \_\_\_\_\_

O‘zbekiston Respublikasi,  
Qashqadaryo viloyati,  
Dehqonobod tuman 1-son  
davlat notarial idorasiga  
Qashqadaryo viloyati,  
Dehqonobod tumani,  
Niyozboshi QFY, Beshpanja  
ko‘chasi, 11-uyda propiskada  
turuvchi Akramova Almira  
Ibraevnadan (*pasport SV  
2488961, Dehqonobod tuman  
IIB tomonidan 22.03.2011 yilda  
berilgan*)

**A R I Z A**

*O‘zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati,  
Dehqonobod tumani ikki ming o‘n to‘rtinchi yil, oktyabr  
oyining ikkinchi kuni*

Mening erim Akramov Muxtar Alimovich Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumani, Niyozboshi QFY, Beshpanja ko‘chasi, 11-uyda doimiy ravishda yashab kelib, 2008 yilning 3 mart kuni vafot etdi.

Uning o‘limidan so‘ng meros mol-mulk sifatida Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumani, Niyozboshi QFY, Beshpanja ko‘chasida joylashgan 11-uy qoldi.

Dehqonobod tuman 2-son davlat notarial idorasiga notariusi F.I.O. tomonidan 234 reestr raqami bilan qayd qilingan vasiyatnomada marhumning merosxo‘ri deb uning qizi Akramova Zarina Ibraevna ko‘rsatilgan.

Men mehnatga qobiliyatsizligim tufayli O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1142-moddasiga asosan yuqorida ko‘rsatilgan meros mol-mulkdan majburiy ulush

olvchi sifatida menga merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnoma berishingizni so‘rayman.

Arizamga quyidagi hujjatlarni ilova qilaman:

1. Marhumning o‘limi haqidagi guvohnomasi nusxasi.
2. Nikoh tuzilganligi guvohnomasi nusxasi.
3. Marhumming turar joyidan ma’lumotnoma.
4. Mehnatga qobiliyatim yo‘qligi to‘g‘risida hujjat.

IMZO

---

Fuqaro Akramova Almira Ibraevnaning shaxsi  
Dehqonobod tuman IIB tomonidan 05.12.2013 yilda  
berilgan SA 2460557 pasport bo‘yicha aniqlandi.

Notarius  
F.I.O.

imzo

M.O‘.

**Er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga  
bo‘lgan multk huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma berish  
haqidagi ariza**

Ariza kelib tushdi:  
20 \_\_\_\_\_ yil \_\_\_\_\_  
Meros ishi № \_\_\_\_\_

O‘zbekiston Respublikasi,  
Samarqand viloyati, Nurobod  
tuman 1-son davlat notarial  
idorasiga Samarqand viloyati,  
Nurobod tumani, A.Navoiy  
ko‘chasi,  
97-uyda propiskada turuvchi  
Oripov Alisher Umarovich va  
Oripova Mashhura  
Tolipovnadan

**A R I Z A**

*O‘zbekiston Respublikasi, Samarqand viloyati,  
Nurobod tumani ikki ming o‘n to‘rtinchchi yil, mart oyining  
uchinchchi kuni*

Biz – Oripov Alisher Umarovich va Oripova Mashhura  
Tolipovnalar 1999-yil 20-may kunidan boshlab qonuniy  
nikohda yashab kelamiz.

Birgalikdagi nikohimiz davrida orttirilgan mablag‘larga  
Samarqand viloyati, Nurobod tumani, A. Navoiy ko‘chasi,  
97-uy-joyni sotib olib, uni Nurobod tuman davlat notarial  
idorasida 2002-yil 15-mart kuni 65 reestr raqam bilan qayd  
qilingan oldi-sotdi shartnomasiga asosan Oripova Mashhura  
Tolipovnaning nomiga rasmiylashtirdik.

Notariat to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi  
Qonunining 62-moddasiga asosan, nikohimiz davomida  
orttirilgan umumiy mol-mulkka, ya’ni Samarqand viloyati,  
Nurobod tumani, A.Navoiy ko‘chasi, 97-uy-joyga nisbatan  
har birimizga 1/2 ulushga multk huquqi to‘g‘risida  
guvohnoma berishingizni so‘raymiz.

IMZOLAR:

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

*Izoh: ushbu ariza er yoki xotinning biri tomonidan ham yozilishi mumkin.*

**Umumiy mol-mulkdagi ulushga bo‘lgan mulk  
huquqi to‘g‘risida guvohnoma berish haqida marhum  
erdan (xotindan) keyin xotinning (erning) arizasi**

Ariza              kelib              O‘zbekiston Respublikasi,  
tushdi:                                      Namangan viloyati, Chortoq  
20 \_\_\_\_ yil        \_\_\_\_              tuman 2-son davlat notarial  
                    Meros    ishi    №              idorasiga Namangan viloyati,  
    Chortoq tumani, Irvodon QFY,  
    Olmos qishlog‘i 21-uyda  
    propiskada turuvchi Ulug‘bekov  
    Temur Umidovichdan (*pas-*  
    *port SV 2563298, Chortoq*  
    *tuman IIB tomonidan*  
    *25.10.2013 yilda berilgan*)

**A R I Z A**

O‘zbekiston Respublikasi, Namangan viloyati, Chortoq tumani ikki ming o‘n to‘rtinchi yil, iyun oyining uchinchi kuni

Men – Ulug‘bekov Temur Umidovich Notariat to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 63-moddasiga asosan, 2013-yil 22-sentyabrda vafot etgan xotinim Ulug‘bekova Farog‘at Umarovna bilan birqalikda yashab, nikohimiz davomida orttirilgan va xotinim nomiga rasmiylashtirilgan umumiy mol-mulkka, ya’ni Namangan

viloyati, Chortoq tumani, Irvodon QFY, Olmos qishlog‘i, 21-uy-joyning 1/2 qismiga nisbatan mulk huquqi to‘g‘risida guvohnoma berishingizni so‘rayman.

IMZO

---

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

*Eslatma: ariza bilan hamma merosni qabul qilgan merosxo‘rlar tanishib chiqishlari shart. Agar merosxo‘rlardan birortasi mulkka egalik huquqi haqida guvohnoma berilishiga norozi bo‘lsa, bu masalani sudda hal etish huquqi tirik qolgan er yoki xotingga tushuntiriladi. Merosdan voz kechgan merosxo‘r bu ariza bilan tanishтирilmaydi va ularning roziligi talab etilmaydi.*

## **Meros mol-mulkning qo‘riqlanishiga oid chora-tadbirlar ko‘rish to‘g‘risidagi ariza**

Ariza kelib tushdi:

20        yil      \_\_\_\_\_  
Meros ishi №                 

O‘zbekiston Respublikasi,  
Samarqand viloyati, Ishtixon  
tuman 1-son davlat notarial  
idorasiga Samarqand viloyati,  
Ishtixon tumani, N.Kubro  
ko‘chasi, 5-uyda propiskada  
turuvchi Samatov Xolmirza  
Norovichdan (*pasport AA  
2014045, Ishtixon tuman IIB  
tomonidan 31.01.2014 yilda  
berilgan*)

### **A R I Z A**

*O‘zbekiston Respublikasi, Samarqand viloyati,  
Ishtixon tumani ikki ming o‘n to‘rtinchchi yil, dekabr  
oyining birinchi kuni*

Mening xotnim Samatova Muxtabar Ibraevna Samarqand viloyati, Ishtixon tumani, N. Kubro ko‘chasi, 5-uyda doimiy ravishda yashab kelib, 2012-yil 15-yanvarda vafot etdi.

Uning o‘limidan so‘ng meros mol-mulk sifatida Samarqand viloyati, Ishtixon tumani, N. Kubro ko‘chasida joylashgan 1-uy qoldi.

Ishtixon tuman 1-son davlat notarial idorasiga notariusi F.I.O. tomonidan 2005-yil 25-mart kuni 234 reestr raqami bilan qayd qilingan vasiyatnomaga ko‘ra marhumning merosxo‘ri deb uning qizi Samatova Zarina Xolmirzaevna tayinlangan.

YUqorida ko‘rsatilgan meros mol-mulkning qo‘riqlanishiga oid chora-tadbirlar ko‘rishingizni so‘rayman.

Notariusning tasdiqlov yozuvi.

**Izoh:** *otasi qizining nomidan bu haqidagi arizani yozadi, qachonki, qizi Samatova Zarina Xolmirzaevna 14 yoshga to 'lmanan voyaga etmagan merosxo 'r bo 'lsa.*

**Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent, O‘zbekiston, 2018. – 76 b;
2. Xorijiy rasmiy hujjatlarni legallashtirish talabini bekor qiluvchi Konvensiya (Gaaga, 1961 yil 5 oktyabr);
3. Jismoniy va yuridik shaxslarga Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam ko‘rsatish va huquqiy munosabatlar to‘g‘risidagi Konvensiya (1993 yil 22 yanvar, Minsk shahri);
4. O‘zbekiston Respublikasi Kodekslar to‘plami. Rasmiy nashr. – Toshkent, Adolat, 2017. – 960 b;
5. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – Toshkent, Adolat, 2018. – 560 b;
6. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent, Adolat, 2018. – 200 b;
7. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. – Toshkent, Adolat, 2018. – 384 b;
8. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks. – Toshkent, Adolat, 2018;
9. O‘zbekiston Respublikasi notariatga oid normativ huquqiy hujjatlar to‘plami va boshqa hujjatlar to‘plami. – Toshkent, Adolat, 2012. – 608 b;
10. O‘zbekiston Respublikasi Notariat to‘g‘risidagi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, 2-son, 42-modda;
11. Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 3 noyabrdagi 533-qarori bilan tasdiqlangan Davlat boji stavkalari // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2017 y., 09/17/810/0095-son;
12. Notariuslar tomonidan notarial harakalarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida Yo‘riqnoma // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2019 yil, 2422-son.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sudhuquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini

kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2016-yil, 43-son, 497-modda;

**14.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda;

**15.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 28-dekabrdagi 318-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Notariuslar tomonidan o‘z kasb majburiyatlari buzilishi oqibatida etkazilgan zararni qoplash tartibi to‘g‘risidagi nizom // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010-y., 52-son, 520-modda;

**16.** O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2010-yil 20-oktyabrdagi 233-mh-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Notarius stajyorining faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010-y., 42-43-son, 369-moddasi;

**17.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 18-yanvardagi 26-son Qarori bilan tasdiqlangan Notariuslarning ijro xatlariga asosan qarzni undirish so‘zsiz amalga oshiriladigan hujjatlar ro‘yxati // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2002 y., 2-son, 19-modda;

**18.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 5-mayda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida notariat institutini yanada takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi PF-4216-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010-y., 18-19-son, 137-modda;

**19.** O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2009-yil 13-oktyabrdagi 10-son buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi SVOJDDLQK Departamenti boshlig‘ining 2009-yil 13-oktyabrdagi 39-son qarori bilan tasdiqlangan Notarial idoralar va advokatlik tuzilmalarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi

kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 22-son, 262-modda;

**20.** O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2010-yil 22-dekabrdagi 19-son, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2010-yil 22-dekabrdagi 201-son, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010-yil 22 dekabrdagi 106-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat notarial idoralari va notaial arxivlar faoliyatini moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizom // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-y., 51-son, 501-modda;

**21.** O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziraning Davlat notarial idoralari tomonidan beriladigan gerbli blankalarni hisobga olish, saqlash, sarflash va ular bo'yicha hisobot berish qoidalari // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006-y., 25-26-son, 239-modda;

**22.** O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2019-yil 4-yanvardagi 3-mh-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Notariuslar lavozimiga tayinlash bo'yicha tanlov o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010 y., 51-son, 498-modda;

**23.** O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri tomonidan 2010-yil 22-dekabrdagi tasdiqlangan Davlat notarial idoralarida notarial ish yuritish qoidalari // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010 y., 51-son, 503-modda;

**24.** O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2010 yil 22 dekabrdagi 98-um-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Davlat notarial idoralari notariuslari tomonidan huquqiy va texnik tusdagi qo'shimcha harakatlar amalga oshirilganligi uchun haq miqdori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-y., 13-son, 99-modda;

**25.** O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2010-yil 21-dekabrdagi 304-mh-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Oliy malaka kamissiyasi to'g'risidagi nizom // O'zbekiston

Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010 y., 51-son, 499-modda;

**26.** O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2010-yil 29-oktyabrdagi 232-mh-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi malaka kamassiyalari to‘g‘risidagi nizom // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011 y., 14-son, 134-modda;

**27.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 28-fevraldagi 106-son qarori bilan tasdiqlangan Ko‘chmas mulkning oldi-sotdi, ayrboshlash va hadya qilish bitimlarini idoralalararo elektron hamkorlikni qo‘llagan holda notarial tasdiqlash tartibi to‘g‘risidagi nizom // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 9-son, 131-modda, 33-son, 863-modda;

**28.** Turar joy oldi-sotdi shartnomasini notarial tasdiqlashda turar joyda doimiy propiskada bo‘lgan shaxslar haqidagi ma’lumotlarni olishning ma’muriy reglamenti // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2018-yil, 1882-son;

**29.** Notarial harakatlarni amalga oshirishda biometrik va pasportga oid ma’lumotlarni tekshirishning ma’muriy reglamenti // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2018-yil, 1882-son;

**30.** Ko‘chmas mulkni boshqa shaxsga o‘tkazish shartnomasini notarial tasdiqlashda bino va inshootlar haqida ma’lumotlar olishning ma’muriy reglamenti // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2018-yil, 1882-son;

**31.** Xususiylashtirilgan turar joyni boshqa shaxsga o‘tkazish shartnomasini notarial tasdiqlashda xususiylashtirishga rozilik bergen shaxslar haqida ma’lumotlar olishning ma’muriy reglamenti// O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2018-yil, 1882-son;

**32.** Yuridik shaxslar ishtirokidagi notarial harakatlarni amalga oshirishda yuridik shaxslar haqida ma’lumotlar

olishning ma'muriy reglamenti// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2018-yil, 1882-sон;

**33.** Ko'chmas mulkni boshqa shaxsga o'tkazish shartnomasini tasdiqlashda kommunal xizmatlardan qarzdorlik mavjud yoki mavjud emasligi haqida ma'lumotlar olishning ma'muriy reglamenti// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2018-yil, 1882-sон.

	Davlat	Imzolangan sana va joy	Shartnoma nomi
1	Qozog'iston	02.06.1997 y. Almata sh.	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Qozog'iston Respublikasi Adliya vazirligi o'rtasida hamkorlik qilish to'g'risida Bitim.
2	Qirg'iziston	03.10.1997 y. Bishkek sh.	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Qirg'iziston Respublikasi Adliya vazirligi o'rtasida hamkorlik qilish to'g'risida Bitim.
3	Ozarbayjon	18.06.1997 y. Toshkent sh.	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ozarbayjon Respublikasi Adliya vazirligi o'rtasida hamkorlik qilish to'g'risida Bitim.
4	Ozarbayjon	18.06.1997 y. Toshkent sh.	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ozarbayjon Respublikasi Adliya vazirligi o'rtasida sud

			ekspertizasi sohasida hamkorlik qilish to‘g‘risida Bitim.
5	Moldova	17.12.1998 y. Toshkent sh.	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Moldova Respublikasi Adliya vazirligi o‘rtasida hamkorlik qilish to‘g‘risida Bitim.
6	Koreya	05.10.1999 y. Seul sh.	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Koreya Respublikasi Adliya vazirligi o‘rtasida hamkorlik qilish to‘g‘risida Bitim.
7	Tojikiston	15.06.2000 y Dushanbe sh.	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Tojikiston Respublikasi Adliya vazirligi o‘rtasida sud ekspertizasi sohasida hamkorlik qilish to‘g‘risida Bitim.
8	Gruziya	03.02.2000 y. Toshkent sh	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Gruziya Adliya vazirligi o‘rtasida hamkorlik qilish to‘g‘risida Bitim.
9	Qirg‘iziston	27.09.2000 y.	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Qirg‘iziston Respublikasi Adliya vazirligi o‘rtasida sud ekspertizasi sohasida hamkorlik qilish

			to‘g‘risida Bitim.
<b>10</b>	Belorusiya	13.08.2001 y. Minsk sh.	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Belorusiya Respublikasi Adliya vazirligi o‘rtasida hamkorlik qilish to‘g‘risida Bitim.
<b>11</b>	Rossiya	22.07.2004 y. Moskva sh.	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Rossiya Federatsiyasi Adliya vazirligi o‘rtasida hamkorlik qilish to‘g‘risida Bitim.
<b>12</b>	Xitoy	15.06.2004 y. Toshkent sh.	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va XXR Adliya vazirligi o‘rtasida hamkorlik qilish to‘g‘risida Bitim.
<b>13</b>	Tojikiston	18.08.2015 y. Dushanbe sh.	Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a’zo davlatlar Adliya vazirliklari o‘rtasida hamkorlik qilish to‘g‘risida Bitim.

**MAMARAIMOVA GULRUX MAXMUDOVNA**  
**NOTARIAL HARAKATLAR**

*darslik*

*Muharrir:*

*Musahih:*

*Texnik muharrir:*

*Kompyuterda sahifalovchi:*

Bosishga ruxsat etildi: .....2019.  
Hajmi: ..... b.t. Adadi: ..... Buyurtma: № ....

Toshkent davlat yuridik universiteti.

“Tipografiya” bo‘limida chop etildi.

Toshkent shahri Sayilgoh ko‘chasi 35-uy.